YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YETTI USTUVOR YO'NALISHIDA IJTIMOY-FALSAFIY MASALALAR TAHLILI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko'zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobi hamda Taraqqiyotning yetti ustuvor yo'nalishining mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Jamiyat taraqqiyotining istiqboli, insonlarning baxt-saodati farovon hayot kechirishi millatlar, elatlar, barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjixatlik munosabatlarning takomillashuvi bilan belgilanadi. Shunga bog'liq holda, mamlakatimizda millatlararo bog'rikenglik muhitini shakllantirish borasida ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirilishi maqolada qayd etilgan.*

***Kalit so'zlar:** taraqqiyot, Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston strategiyasi, demokratik islohotlar, Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat, inson – jamiyat – davlat, yoshlar daftari.*

Нишонов Сарвар Жасур угли (Ташкентский международный химический институт, и.о., доцента кафедры "Общественно-гуманитарных наук", доктор философии по философским наукам (PhD); sarvar0202pm@gmail.com.)

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВОПРОСОВ В СЕМИ ПРИОРИТЕТНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация.** В данной статье проанализирована книга "Новая стратегия Узбекистана", в которой изложены цели и принципы реализации намеченных задач Стратегии развития Узбекистана на ближайшие пять лет, а также содержание семи приоритетных направлений развития. Перспективы развития общества, счастье и благополучие людей определяются совершенствованием отношений сотрудничества и единства между нациями, народностями и всеми социальными группами. В связи с этим в статье отмечается, что в нашей стране осуществляются многочисленные усилия по формированию атмосферы межнациональной толерантности.*

***Ключевые слова:** развитие, стратегия действий, стратегия нового Узбекистана, демократические реформы, новый Узбекистан – просвещенное общество, человек – общество – государство, тетрадь молодежи.*

Nishonov Sarvar Jasur ugli (Docent of Kimyo International University in Tashkent, Department of Social and Humanities Sciences (PhD); sarvar0202pm@gmail.com)

ANALYSIS OF SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUES IN SEVEN PRIORITY DIRECTIONS OF NEW UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

***Annotation.** The article comprehensively analyzes the objectives of Uzbekistan's development strategy for the next five years, the book "New Uzbekistan strategy", which summarizes the principles of implementation of the specified tasks, as well as the essence of the seven priority directions of development. The prospects for societal development, human happiness, and prosperous living are determined by the improvement of cooperation and solidarity among nations, ethnic groups, and all social strata. In this regard, the article notes that numerous efforts are being undertaken in our country to foster an environment of interethnic tolerance.*

***Keywords:** development, strategy of Action, Strategy of New Uzbekistan, democratic reforms, new Uzbekistan – enlightened society, human – society – state", Book of Youth.*

Kirish. Zamonaviy davlatlarda barcha sohalarning o'z milliy strategiyasi mavjud bo'lib, shuningdek, har bir sohaning milliy taraqqiyot dasturi – siyosiy, ilmiy, falsafiy, texnikaviy, tibbiy va hokazo ta'limotlarida alohidalik kasb etadi.

Yangi O'zbekiston tamoyillari va dasturi strategik jihatdan o'z oldiga ta'lim va tarbiya orqali axloqiy merosni ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishning, milliy g'oya mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, ularni xudbinlik, shaxsiyatparastlik, loqaydlik kabi illatlardan xalos etish borasida olib boriladigan ma'naviy va ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalq orzusi Aziziddin Nasafiy, Abu Mu'in Nasafiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi aziz avliyo bobolarimizni tarbiyaladi, ularning kamoloti va ezgu faoliyatida o'ziga xos ma'naviy tayanch bo'ldi" [1;15-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq talablarini inobatga olgan holda, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi mamlakatimizda tub demokratik islohotlar, transformatsion o‘zgarishlar davrini boshlab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar barcha sohalarni qamrab oldi. Eng asosiysi, mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini, sha‘nini, qadr-qimmatini, manfaatlarini, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta‘minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Ayniqsa, xalq bilan muloqot qilish, majburiy mehnat va bolalar mehnatini bartaraf etish borasida qilingan ishlar, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan Davlat xizmatlari agentligi faoliyati, valuta bozorining liberallashtirilishi, propiska tizimining bekor qilinishi va tashqi siyosatda salmoqli yutuqlarga erishilgani e‘tiborga loyiq.

Tahlil va natijalar. 2021-yilning sentabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko‘zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobi chop etildi.

Unda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Ushbu asar “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir” [2;13-b.] so‘zlari bilan boshlanadi. “Harakatlar strategiyasi”ning mantiqiy davomi sifatida nashr etilgan ushbu kitob konseptual ahamiyatga ega bo‘lib, unda mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar aniq bayon etilgan. Mazkur kitob yoshlarda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belgilab olingan strategik yo‘l to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. 2021-yil 24-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvlarida bildirilgan fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tashabbuslar Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz” mavzusida so‘zlangan nutqida kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar haqida so‘z yuritildi. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi” [3], deydi Prezident. Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat. Birinchi yo‘nalish erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi. Har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Tuman budjeti qo‘shimcha manbalar bilan ta‘minlanib, mahallaning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi, bir xil yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi. Ikkinchi yo‘nalish adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta‘minlash vazifalarini qamrab olgan. Shu maqsadda sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtiriladi. Tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytiriladi.

Korrupsiyaga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalari safarbar etiladi. Bunda aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, korrupsiyaning sabablarini oldindan bartaraf etish choralari ko‘riladi. Uchinchi yo‘nalishda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi rejalar bayon etildi. 2030-yilga borib, jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingani aytiladi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishiladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab, inflatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralari ko‘riladi. Aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, zamonaviy yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo‘yicha ham yirik loyihalar amalga oshiriladi. To‘rtinchidan, sifatli ta‘lim-tarbiya masalasi doimiy e‘tibor markazida bo‘lishi ta‘kidlandi. Shu maqsadda o‘qituvchilarning oylik maoshini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko‘zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-

texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Aholi salomatligini saqlash uchun barcha sharoit yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentiga yetkazish mo'ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lami kengaytiriladi. Davlat tibbiy sug'urta tizimi ishga tushirilib, mablag' aniq bemorga bog'langan holda ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Beshinchi yo'nalishga, asosan, ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantiriladi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Oltinchidan, global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlandi. Xususan, ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri ortib borayotgani qayd etildi. Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish, Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish masalalariga to'xtalib o'tildi. Yettinchi yo'nalishda mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar o'z ifodasini topgan. Qurolli Kuchlarimizning qudrati yanada oshirilishi, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi kuchaytirilishi aytiladi. Mazkur nutqda mamlakat rahbari kelgusi besh yil uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilab berar ekan, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. Ma'ruzaning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o'ringa shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmatini bosh maqsadga aylangan. Tan olib aytish joizki, o'tgan 5 yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq, shu bilan birga, mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Kelgusi 5 yilda bu borada ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega, albatta. O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

Mazkur nutqda muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilarga alohida e'tibor qaratilib, 2025-yilga borib, oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazilishi, o'ylaymizki, barchaga birdek ma'qul bo'ldi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi 2017-yilda 27,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda 62 foizni tashkil qilmoqda, 2030-yilga borib esa mazkur ko'rsatkichni 80 foizga yetkazish maqsad qilinganligi ushbu sohada ham ulkan maralarni qo'yayotganligimizdan dalolat beradi. Xalqimiz salomatligini ta'minlash doimo ustuvor vazifa bo'lgan. 2017-yilda sog'liqni saqlash tizimiga budjetdan ajratilgan jami mablag'lar 7,1 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, bu ko'rsatkich 14,8 trillion so'mga yetdi.

Prezident o'z nutqida ushbu sohaga yo'naltiriladigan mablag'larni 2 barobar oshirish, jumladan, kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish mo'ljallanayotganini e'lon qilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan zahmatkash shifokorlarning mehnatlariga davlat tarafidan bo'layotgan yuksak e'tibor namunasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch 84 va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [4;146-b.], degan fikrlari g'ayrat bag'ishlamoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, keng ko'lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ham kamarbasta bo'lishiga umid qilamiz. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 15-bet.
- (2). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 11-bet.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida so‘zlagan nutqi. 2021-yil 6-noyabr.

(4). Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016, 146-bet.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi)
GLOBAL AXBOROT MAKONIDA MEM VA SIMVOLIKA: MA’NAVIY-SIYOSIY KONTEKST

Annotatsiya. Maqolada memlar va ramzlar hodisasi global axborot makonida jamoatchilik fikrini ma’naviy-siyosiy jihatdan boshqarish uchun qo‘llanilishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Raqamli artefaktlar sifatida memlar tezda tarqalish va ommaviy auditoriya tasavvurini shakllantirish bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ramziylik esa jamiyatni hissiy va g‘oyaviy safarbar etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy qadriyatlar, siyosiy qarashlar va madaniy o‘ziga xoslikka memlar va ramzlarning ta’sir etish mexanizmlari tahlilga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: memlar, ramziy belgilar, global axborot maydoni, ongni boshqarish, jamoatchilik fikri, ma’naviy qadriyatlar, siyosiy aloqa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, raqamli targ‘ibot.

Куйлиев Ббур Тулкинович (старший преподаватель кафедры “Социальные науки, педагогика и психология” Ташкентского Педиатрического медицинского института)

MEM И СИМВОЛИКА В ГЛОБАЛЬНОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ: ДУХОВНО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ КОНТЕКСТ

Аннотация. В статье анализируется феномен мемов и символов с точки зрения их применения для духовно-политического управления общественным мнением в глобальном информационном пространстве. В качестве цифровых артефактов мемы обладают свойством быстро распространяться и формировать представления массовой аудитории, а символика играет важную роль в эмоциональной и идейной мобилизации общества. Особое внимание уделяется анализу механизмов влияния мемов и символов на духовные ценности, политические взгляды и культурную самобытность.

Ключевые слова: мемы, символические знаки, глобальное информационное пространство, управление сознанием, общественное мнение, духовные ценности, политическая коммуникация, социальные сети, массовая культура, цифровая пропаганда.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Senior Lecturer of the Department of Social Sciences, Pedagogy and Psychology at Tashkent Pediatric Medical Institute)

MEMES AND SYMBOLISM IN THE GLOBAL INFORMATION SPIRITUAL AND POLITICAL CONTEXT

Annotation. The article analyzes the phenomenon of memes and symbols in terms of their application for spiritual and political management of public opinion in the global information space. Memes, as digital artifacts, possess the ability to spread rapidly and shape the perceptions of mass audiences, while symbolism plays an important role in the emotional and ideological mobilization of society. Special attention is given to analyzing the mechanisms by which memes and symbols influence spiritual values, political views, and cultural identity.

Key words: memes, symbolic signs, global information space, mind control, public opinion, spiritual values, political communication, social networks, mass culture, digital propaganda.

Kirish (Introduction). Zamonaviy global axborot makonida memlar va ramzlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ular raqamlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar hukmronligi davrida kuchli ta’sir o‘tkazish salohiyatiga ega bo‘lib, tez tarqalishi, odamlarda hissiy munosabat uyg‘otishi va murakkab ma’naviy-siyosiy masalalar bo‘yicha jamoaviy tushunchani shakllantirishga qodir ekanligi bilan bog‘liq. Memlar va ramzlar axborot ta’sirining samarali vositalariga aylanib, jamoatchilik ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Memlar ommaviy madaniyat mahsuli sifatida, ko‘pincha, yengil, hazil va zararsiz vizual-matnli unsurlar tarzida taqdim etilsa-da, ularning asl ma’nosi oddiy ko‘ngilochar vositadan ancha chuqurroqdir. Memlarning yashirin kuchi murakkab g‘oyalarni keng ommaga tushunarli bo‘lgan sodda tasvirlarga aylantira olishda namoyon bo‘ladi. Ular osonlik bilan qabul qilinib, ishonchni uyg‘otishi va ma’naviy hamda siyosiy qadriyatlarni mustahkamlash yoki yo‘q qilishda vosita bo‘lishi mumkin.

Memlar, ko'pincha, hajviy obrazlar yaratish, voqelikni noto'g'ri aks ettirish, shuningdek, voqealar, shaxslar va hodisalarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Memlar, ko'pincha, hajviy obrazlar yaratish, voqelikni buzib ko'rsatish, shuningdek, voqealar, shaxslar va hodisalarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Ramziylik, o'z navbatida, an'anaviyroq, ammo ta'sir ko'rsatishning kuchli vositasi hisoblanadi. Ramzlar yetarlicha chuqur ma'no kasb etib, tinglovchilarni madaniy, diniy va siyosiy qadriyatlar bilan bog'laydi. Global axborot makonida ramziylik, ko'pincha, jamoatchilik fikrini safarbar qilish, g'oyaviy harakatlarni qo'llab-quvvatlash va o'zlikni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. "Ramzlardan manipulyatsiya maqsadida foydalanish tarixiy xotirani buzilishiga, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga va voqelik haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin [1;82-b.].

Memlar va ramzlarning global makonda tarqalishi ko'p jihatdan ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning algoritmlariga bog'liq. Foydalanuvchilarning faolligini oshirishga moslashtirilgan ushbu algoritmlar kuchli hissiyotlar – g'azab, quvonch, hayrat yoki qo'rquv uyg'otadigan kontentni faol ravishda ilgari suradi. Memlar va ramzlar o'zlarining yorqin hamda soddaligi sababli tez (virusli) tarqalishga moil bo'lib, bu modelga juda mos keladi.

Masalan, siyosiy memlar raqiblarni obro'sizlantirish, targ'ibotni kuchaytirish yoki murakkab masalalarni bir tomonlama tushuntirishni shakllantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mem va ramzlardan foydalanishning ma'naviy-siyosiy konteksti, ko'pincha, ommaviy auditoriyadan yashirin qoladi. "Ko'pgina memlar ong ostiga ta'sir o'tkazish, qadriyat tizimini o'zgartirish yoki muayyan g'oyalarni qo'llab-quvvatlashni safarbar etish uchun ataylab yaratiladi" [2;114-b.].

Misol uchun, memlarga singdirilgan diniy ramzlar e'tiqod masalalari niqobi ostida siyosiy maqsadlarni ilgari surish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy jamiyat memlar va ramzlar ortidagi manipulyatsion maqsadlarni aniqlash va ularning salbiy ta'siriga qarshi turish muammasiga duch kelmoqda. Mavjud yechimlardan biri keng auditoriyada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Axborot manbalarini tahlil qilish, kontekstni anglash va yashirin ma'nolarni aniqlash qobiliyati manipulyatsiya ta'sirini kamaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, mem va simbolika global axborot makonida ikkiyoqlama rol o'ynaydi. Bir tomondan, ular odamlarni umumiy g'oyalar va qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi samarali muloqot vositasi hisoblanadi, boshqa tomondan, manipulyatsion maqsadlarda qo'llanilishi jamiyatning ma'naviy va siyosiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Axborotni idrok etishga ongli yondashuvga o'z-o'zini ifodalash erkinligi va uning oqibatlari uchun javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Memlar va ramzlar global axborot makonining muhim elementlari sifatida tobora murakkab va ko'p qatlamli vositalarga aylanmoqda. "Ularning manipulyatsion salohiyati esa raqamlashtirishning tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning ochiqligi va auditoriyaning axborotni tanqidiy idrok etish darajasi pasayishi kabi omillar tufayli ortib bormoqda" [3;58-b.].

Memlar orqali manipulyatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida auditoriyaning madaniy va milliy xususiyatlariga moslashish qobiliyatini ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, aholining turli guruhlari uchun yaratilgan memlar faqat mahalliy foydalanuvchilarga tushunarli bo'lgan o'ziga xos ramzlardan foydalanishi mumkin. Bu esa shaxsiy qiziqish va jalb etish taassurotini uyg'otadi. Bu memlarni mahalliy kampaniyalar uchun ham, global qamrov uchun ham mos keladigan manipulyatsion texnologiyalar arsenalida universal vositaga aylantiradi.

Bundan tashqari, memlar, ko'pincha, milliy g'urur, madaniy an'analar yoki siyosiy ideallarning elementlaridan foydalangan holda jamoaviy o'ziga xoslikka murojaat qiladi. "Ushbu yondashuv nafaqat fikr va qarashlarga ta'sir qilish, balki jamiyatda qutblashuvni kuchaytirish imkonini beradi" [4;110-b.]. Siyosiy kontekstda memlar turli ijtimoiy yoki etnik guruhlar o'rtasida sun'iy ziddiyatlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin.

Mem va ramzlarni o'rganishning muhim jihati ularning dezinformatsiya bilan bog'liqligidir. Memlar hazil yoki satira bilan niqoblangan yolg'on faktlarni tarqatish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Natijada, auditoriya har doim ham taqdim etilgan ma'lumotlarning jiddiyligini anglab yetmaydi va uni ishonchli deb qabul qilmaydi. "Bu esa jamiyat uchun axborot tahdidlariga qarshi kurashda qo'shimcha chiqiriqni yuzaga keltiradi" [5;186-b.].

Global axborot makonida manipulyatsion texnologiyalarga qarshi kurash mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Auditoriyani vizual va matnli kontentni tahlil qilish, kontekstni tushunish va yashirin manipulyatsion niyatlarni aniqlash ko'nikmalariga o'rgatish muhimdir. Shuningdek,

foydalanuvchilarni targ'ibot kampanialariga avtomatik ravishda jalb qilish xavfini kamaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining shaffofligini kuchaytirish zarur.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, memlar va ramzlar zamonaviy dunyoda kuchli ta'sir quroli bo'lib qolmoqda. Ularning turli madaniy va siyosiy kontekstlarga moslashib, jamoatchilik fikrini o'zgartirish qobiliyati ularni o'rganishga e'tiborli va ongli yondashuvni talab qiladi. Bu nafaqat manipulatsiya xavfini minimallashtirishga, balki globallashuv sharoitida madaniy va ma'naviy xilma-xillikni saqlashga yordam beradi.

Memlar va ramzlar global axborot ekotizimining eng muhim elementlariga aylanib borar ekan, ularning roli faqat ko'ngilochar kontekst bilan cheklanmay, balki chuqur ma'naviy-siyosiy jarayonlarga ham ta'sir qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu madaniy fenomenlar har doim ham neytral emasligini tushunish muhim bo'lib, ular, ko'pincha, jamoatchilik fikriga ta'sir qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan yashirin mafkuraviy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Global axborot makoni va ijtimoiy media mem va ramzlarning tez tarqalishi uchun ideal sharoit yaratib, ularning virusli tarqalish qobiliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumotni tarqatish uchun katta resurslar va vaqt talab qiladigan an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli ravishda, memlar qisqa fursatda dunyo bo'ylab millionlab odamlarga yetib borishi mumkin. Ijtimoiy platformalarning algoritmlari bu jarayonni kuchaytirib, yorqin his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan kontentni namoyish etadi. Bu nafaqat tarqalish jarayonini tezlashtiradi, balki foydalanuvchilarni yanada ko'proq jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). "Influence: The Psychology of Persuasion" by Robert B. Cialdini. Dec. 2006.
- (2). "Trust Me, I'm Lying: Confessions of a Media Manipulator" by Ryan Holiday. July, 2013.
- (3). Куйлиев Б.Т. Скрытые методы манипуляции в обществе: анализ применения в политике, рекламе и других сферах общественной жизни. Educational Research in Universal Sciences. 2023, т. 2, №.12, с. 57–62.
- (4). Куйлиев Б. Сравнительный анализ технологий политико-психологического манипулирования. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 2023, т. 1, №.1, с. 107–115.
- (5). Куйлиев Б.Т. Политическое манипулирование в системе понятий политической науки: анализ и вызовы //scholar. 2024, т. 2, №. 2, с. 183–189.

Axmedov Sherzodjon Zokirovich (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; UDK: 373.316.7)

MILLIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY QARASHLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy qadriyatlarining ma'naviy-axloqiy qarashlar bilan uyg'unligi masalasi yoritilgan. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an'analarni mustahkam shakllantirishdir. Pirovard maqsadimiz esa ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalashdir.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, komil inson, globallashuv, taraqqiyot, milliy qadriyat.

Ахмедов Шерзод Зокирович (соискатель института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается совместимость национальных ценностей с духовно-этическими воззрениями. В современную эпоху социально-экономического развития одним из важных способов обеспечения активности молодежи является прочное формирование в ее сознании национальных обычаев и традиций. Наша основная цель – воспитать духовно зрелого и совершенного человека.

Ключевые слова: духовность, просвещение, совершенный человек, глобализация, развитие, национальная ценность.

Akhmedov Sherzodjon Zokirovich (Researcher of the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)

HARMONY OF NATIONAL VALUES AND MORAL APPROACHES

Annotation. This article discusses the compatibility of national values with spiritual and ethical views. In today's era of socio-economic development, one of the important ways of ensuring the youth's activity is the solid formation of national customs and traditions in their minds. Our primary goal is to educate a spiritually mature and perfect person.

Key words: *spirituality, enlightenment, perfect person, globalization, development, national value.*

Kirish. Bugungi globalshgan jamiyatda axborot xuruji taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yoshlarni destruktiv ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladigan bug'unchi g'oyalar keng targ'ib qilinmoqda. Ma'naviyatning o'zagi bo'lgan milliy an'analar oila bag'rida va mahalla ostonasida shakllanib ko'p asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan urf-odat va qadriyatlar sifatida ularning ahamiyati bugungi kunda beqiyosdir. Shu bilan birga, bugungi bunday tahdidlardan o'z vaqtida himoyalaniish, unga qarshi javob bera olish uchun yuksak ma'naviyatli va ma'naviy barkamol yoshlar jamoasini shakllantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Aynan shunday ma'naviy va mafkuraviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir.

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori, oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarining, an'analarning ustuvorligiga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g'ayrat bag'ishlamogda [1].

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Bugungi yosh avlodni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar zanjiri bo'lgan xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, bosliqlik, ulug'vorlik va sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar mezonlari asosida tarbiyalash ularda mehmondostlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik va halol mehnat qilish kabi tuyg'ularning shakllanishiga olib keladi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlari ta'siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi. Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o'z oilasi, millati va Vataniga bulgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega [1].

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an'analarni mustahkam shakllantirishdir. Zero, milliy urf-odatlar har bir xalq hayotining barcha sohalariga singib ketgan bo'lib, xalqlarning milliy o'zligini tarannum etuvchi dalildir.

Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroq farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta'sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.

Ertangi oldimzdagi turgan eng ezgu maqsadlarimiz biri mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz uchun yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o'rni bilan bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasiga bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, imonlilik, halollik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish ularni vatan taqdiriga nisbatan mas'uliyatni his qiluvchi muayyan jamiyat vakili sifatida jamiyat vakili sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning jahondagi nufuzini oshirishda mas'ullik tuyg'ularini shakllantiradi.

O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasidan singdiriladi. Shuning uchun til millatning ruhi sifatida e'tirof etiladi. Zero, buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", deb tilga ta'rif bergan [3].

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini yoshlarda, shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlari jo'sh urmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg'urish;
- xalqi, yurti qadr-qimmatini, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;
- butun mehnati, iste'dodi, imkoniyatini, zarur bo'sa, jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalardir [4].

Muhokama (discussion). Milliy qadriyatlarning asosi bo'lgan ma'naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go'zalligi, saxovatligi, oliyanoblighi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag'rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi.

Ma'naviy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir. O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday kishilarni ma'naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo'lmasin, uni amalga oshirganimizdagina pirovard maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma'no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko'zga tashlanadi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o'zaro ko'maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg'usiga sherik bo'lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko'rinadi.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilish, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslilik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr va andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi [5].

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish, albatta, o'rindir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakkam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning holidan xabar olish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatldarni kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos.

Xulosa (conclusion). Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma'noda insonning barcha harakatlari, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lsa, tor ma'noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo'ladi. Bugungi barqaror taraqqiyotga erishish zamonida chinakkam ma'naviyatli va ma'rifatli insonni tarbiyalash, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglaydigan yurt manfaati uchun fidoyilik bilan kurasha oladigan shaxslarning etishib chiqishiga xizmat qiladi. Shundagina jamiyatimizda komil insonlarni shakllantirish borasida qo'ygan maqsadimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016, 146-бет.
- (2). С.Отамуратов, Ж.Раматов, С.Хусанов. Маънавият асослари. Маърузалар матни, Тошкент, 2000, 31-бет.
- (3). Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., “Ўқитувчи”, 1992.
- (4). Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Т., 2001, 97-бет.
- (5). М.Фармонова. Қадриятлар—маънавий камолот асоси. Илмий-услубий қўлланма, Тошкент, “Tasvir” nashriyot uyi, 2019.

Sultonov Og'abek Sultan o'g'li (Ma'mun universiteti "Falsafa" kafedrası o'qituvchisi;
e-mail: Sultan.aga3721@bk.ru)

SHARQ FALSAFASIDA RAHBAR MAS'ULIYATINING IJTIMOY-MA'NAVY JIHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning shakllanishida mas'uliyat hissini tarbiyalash muhim o'rin tutishi, mas'uliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini qay darajada chuqur anglay olishi haqida ilmiy mulohazalar keltirilgan. Erkin shaxs jamiyat manfaatlarini anglashi, jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur his eta oladishi to'g'risida Sharq mutafakkirlarining fikrlari izohlangan.

Kalit so'zlar: qadriyat, mas'uliyat, jamiyat, erkinlik, rahbar, «Qobusnoma», adolat, psixologiya.

Султанов Огабек Султанович (преподаватель кафедры философии университета Мамуна)

СОЦИАЛЬНЫЕ И ДУХОВНЫЕ АСПЕКТЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИДЕРА В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. В данной статье представлены научные соображения о важности воспитания чувства ответственности в формировании личности, а также о том, насколько ответственный человек может глубоко понимать интересы общества. Объясняются мнения восточных мыслителей о том, что свободный человек может понимать интересы общества и глубоко чувствовать свою ответственность перед обществом.

Ключевые слова: ценность, ответственность, общество, свобода, лидер, «Кобуснама», справедливость, психология.

Sultonov Ogabek Sultanovich (Teacher of the Philosophy Department of Mamun University)

SOCIAL AND SPIRITUAL ASPECTS OF THE LEADER'S RESPONSIBILITY IN EASTERN PHILOSOPHY

Annotation. This article presents scientific considerations about the importance of cultivating a sense of responsibility in the formation of a person, and the extent to which a responsible person can deeply understand the interests of society. The opinions of eastern thinkers are explained on the fact that a free person can understand the interests of society and deeply feel his responsibility before society.

Key words: value, responsibility, society, freedom, leader, "Kobisnoma", justice, psychology.

Kirish. O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Shaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Erkinlik – insonning intellektual-ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir. Erkinlik tufayligina inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchini to'la his etadi. Shaxs erkinligi, avvalo, axloqiy, so'z, vijdon, matbuot erkinligida ro'yobga chiqadi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Rahbar odamlarni, jamoani boshqarishi, ya'ni yetakchilik qila olishi xususiyati bilan o'zgalardan ajralib turadi. U mehnat jamoasida va jamiyatda barchaning ko'z o'ngida bo'ladi, qo'li ostidagilarning ish va turmushi bilan bog'liq muammolarni, kerak bo'lsa, taqdirini ham hal qiladi. Uning zimmasida o'zgalarga nisbatan ko'proq mas'uliyat bor shu ma'noda mas'uliyat zamonaviy rahbar xodimlarni tayyorlashdagi asosiy mezon bo'lib, bu burchni bajarishda qat'i bo'lish kerak. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirishda "Ijtimoiy psixologiya", "Rahbar psixologiyasi", "Boshqaruv psixologiyasi" kabi fanlarni yaxshi o'zlashtirishi uchun bor imkoniyatini ishga solishi kerak. Avvallari ham ko'p bor aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman: xalq ochlikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Odil hukmdor, adolatli rahbar g'oyasi Forobiydan Alisher Navoiygacha, yana boshqa ko'p-ko'p mutafakkirlarimizning ulug' ma'naviy ideali bo'lib kelgan. Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoni bilib, mas'uliyatli ish va mansabni egallab bo'lmaydi.

Muhokama. «Qobusnoma»da aytilishicha, insonning insoniy xususiyatlaridan biri hamma ishda adolatli bo'lishdir. «Hamma ishda adolatli bo'l. Har kishi adolatli bo'lsa, unga qozining keragi yo'q». Ado-

latdan yiroq insonda na himmat va na saxovat belgilari bo'lmaydi. Adolatni o'zining insoniy burchiga aylantirgan kishi bag'rikeng, nazar-u himmati baland, jamiyatda o'rnatilgan tartib-intizomga rioya qiladi. Kaykovusning ta'kidlashicha, inson mas'uliyatining yo'qolishiga muhim alomatlaridan biri qing'irlik, yolg'onchilikdir. Xuddi shuning uchun ham, qing'irlik, yolg'onchilikni o'ziga odat qilib olgan kishining oldiga bormaslik, uning suhbatida bo'lmaslikni maslahat beradi. Chunki qing'ir, yolg'onchi odam hech qachon rost so'zlamaydi. Bunday odamni faqat zo'rlik bilan yo'qotmoq zarur; «Nedinkim bir daraxt egri bo'lsa, to uni chopib yo'nmaguncha, u to'g'ri bo'lmas», deb yozadi [3].

Burhoniddin Marg'inoniy inson har qadamda ro'baro' keladigan dolzarb hayotiy muammolar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, burch va mas'uliyatga ta'alluqli muammolarni islom axloqi va huquqi mezonlari nuqtayi nazaridan hal etib berdi. O'zining «Nikoh kitobi»da yoshlar tarbiyasida milliy urf-odatlarining ahamiyati haqida to'xtalib, qadimgi milliy an'analarimizdan biri bo'lgan nikoh bo'lg'usi kelining moddiy manfaatlarining kafolatlanishiga e'tiborni qaratish zarur, degan g'oyani ilgari surdi. Burhoniddin Marg'inoniyning fikriga ko'ra, jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma'naviy olamining beshigi ham oiladir. Shuning uchun ham o'rta asrning mashhur fiqhshunos olimi oilani har tomonlama mustahkamlashga zamonasining hukmdorlarini, butun ilm ahlining e'tiborini qaratadi.

Oilani mustahkamlashga qaratilgan bir qator qoidalar ishlab chiqadi va uni shariat qonunlari orqali rasmiylashtiradi. Burhoniddin Marg'inoniyning e'tirofi etishicha, oila qurayotgan kuyov va uning ota-onalari ham bir talay majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari zarur. Burhoniddin Marg'inoniy inson ma'naviyatiga doimiy ozuqa berib turadigan qudrat – ilm va ma'rifatdir deb tushuntirdi. Shuning uchun ham jamiyat ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni ilm ahliga yukladi. O'zining ilmiy-intellektual salohiyatini xayrli, xususan, odamlar orasida do'st-u birodarlikni targ'ibot qilish, ma'rifat tarqatish ishlariga baxshida etgan olimu fozillarni ulug'ladi. Kishilarga ma'rifat tarqatish ishlariga sarflanmagan bilim yoki ilm ahlining ishini buzg'unchilik deb baholadi. Shuning uchun ham marg'ilonlik fiqhshunos alloma nafaqat olim-u fuqarolar, balki oddiy fuqarolar orasida ham cheksiz hurmat-izzatga sazovor bo'ldi. Odamlar Marg'inoniyning «Hidoya yo'lining sarboni» deb atay boshladilar. Musulmon olamida esa u «Burhoniddin val milla», ya'ni «din va millatning hujjati» degan yuksak e'tirofqa sazovor bo'ldi [2].

Natijalar. Abdurahmon Jomiy ham Sharqning boshqa mutafakkirlaridek, o'zi yashayotgan jamiyatda adolat o'rnatishni orzu qiladi. Buning uchun adolatning dushmani bo'lgan jaholatning vujudga kelish sabablari, uni bartaraf etish yo'llarini qidiradi. U jaholat va adolatni inson qismatining biri-biriga zid ikki tomonidir, deb tushunadi, o'zining «Bahoriston» asarida qayta-qayta ta'kidlaganidek, hamma zamonlarda ham o'sha ikki tomon orasida kurash davom etib kelgan. Barcha zamonlarda ham, hatto Xudoni ham aldamoqchi bo'lgan rahbarlar «yolg'onchi farishtalar» bo'lganligi sir emas. Podshohlar o'z mamlakatlarida adolatni o'rnatmoqlari uchun, eng avvalo, fuqarolarni o'sha «yolg'onchi farishta»lar zugi'umidan, ularning noinsofliklaridan himoya qilishlari zarur. Buning uchun davlatpanoh o'ta sinchkov, o'ta odil bo'lmog'i dardkor. Lekin mamlakatda adolat o'rnatishda, bitta podshohning sa'y-harakati kamlik qiladi. Adolatni o'rnatish, nafaqat podshohdan, balki uning mulozimlaridan (vazir-u vuzarolar), yaqin kishilaridan alohida mas'uliyat talab etadi. Agar podshoh atrofidagi mulozimlar dono kishilar bo'lsa, mamlakatda ma'rifat, ilm quloch yozadi. Bundan fuqarolar manfaat ko'radi, xazina javohirotda to'ladi, deydi Jomiy. Mirza Bedil inson Olloh tomonidan yaratilgan o'ziga xos, tengi yo'q mo'jiza ekanligini ta'kidlab, uni o'zligini bilishga davat etadi. Inson bisotida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar–yaxshilik, ezgulikka xizmat qilmog'i dardkor. Insonning o'zligini anglashi jamiyat, xalq oldidagi mas'uliyatini tushunib yetishga olib kelmog'i zarur, deb hisoblaydi.

Xulosa. Vatan tuyg'usida kishilarning o'zi mansub bo'lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hududga nisbatan ma'naviy qarzdorligi, burch va mas'uliyati bilan bog'liq ijtimoiy tuyg'ulari namoyon bo'ladi.

Vatan ana shunday tuyg'uni uyg'ota olgani uchun ham qadriyatdir. Chunki «Vatan deb ustida o'tirganimiz oddiy bir tuproq emasdir, ... ustida o'tirganimiz tuproq uning yopinchi'idir va u yoping'ich bo'lganligidan ham muqaddasdir». Uning ahamiyati va qadri muayyan xalq, millat uchun beqiyos. Bu tuyg'uni sotsiologik tekshirish natijalari bilan o'lchash qiyin, biror kishiga esa «Vataningizni sevasizmi, uni qay darajada sevasiz?» kabi savol bilan murojaat qilish nojoiz. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati va go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar dialektik uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ular umuminsoniylikning shaxs qiyofasi bilan bog'liq namoyon bo'lish darajasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Каримов И.А. Ўзбекистонинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т., “Ўзбекистон”, 1992, 21-бет.
- (2). Зиё Кўкалп. Туркчилик асослари, Ўзбегим. Т., “Ватан”, 1992, 30-бет.
- (3). Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, 1994, 27-bet.
- (4). Бедил. Куллиёт. Бомбей, 1299 хиж. й. (1882).
- (5). https://ru.wikipedia.org/wiki/Политический_процесс.

Sharifxodjayeva Nargiza Abdumannonovna (Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi; Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: nargizashariff@gmail.com)

IJTIMOIY-AXLOQIY JIHATLAR KONTEKSTIDA POKISTON FALSAFASI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif Pokiston falsafasini uning ijtimoiy-axloqiy jihatlari kontekstida ko'rib chiqadi. Muallif Pokiston falsafasidagi turli g'oyalar, uning o'ziga xos an'analari va qadriyat yo'nalishlariga e'tibor qaratadi. Qo'yilgan muammoning asosiy holatlari hamda uning sharqshunoslik va tarixiy-falsafiy tadqiqotlardagi zamonaviy ahamiyati ajratib ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** falsafa, axloq, jamiyat, Pokiston, Sharq, islom, madaniyat, ta'lim, qadriyat.*

Avtobiografiya va tavba-tazarru qadimdan bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib kelgan, chunki diniy tavba-tazarruda, ko'pincha, avtobiografik unsurlar uchraydi (masalan, Mark Avreliyning "Mulohazalar"i va Avliyo Avgustinning "E'tiroflar"i). Uyg'onish va keyingi ma'rifatparvarlik davrining rivojlanishi bilan avtobiografiya dunyoviy hayotning tashqi sharoitlari o'zgarishini va shaxsning ichki rivojlanishini aks ettiruvchi keng o'z-o'zini anglash va tahlil qilish maydoniga aylandi. Hozirgi kunda ma'lum darajada faqat muqaddas xususiyatidan uzoqlashib borayotgan tavba-tazarruga kelsak, u, baribir, o'ziga xos samimiylik chuqurligini saqlab qolmoqda. Biroq amalda avtobiografiya va tavba-tazarru, ko'pincha, shunchalik birlashib ketadiki, ularni ajratib olish nihoyatda qiyin bo'ladi.

Memuar-avtobiografik nasrning tur va janr tizimidagi o'rnini aniqlab olish anchagina murakkab vazifa. Memuar adabiyoti o'zining o'ziga xos xususiyatlarini aniq belgilashga qarshilik ko'rsatadi. U ko'proq turli xil tarkibiy qismlarni, jumladan avtobiografik, memuar, falsafiy, tarixiy va publitsistik unsurlarni o'z ichiga olgan janrlararo tizim sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, L.A.Levitskiy memuarlarda hikoyachilikning sintetik xususiyatini ta'kidlaydi, bu bir asar ichida ko'plab janrlar – tarixiy nasr, kundalik, biografi-

¹Зарецкий Ю.П. История субъективности и история автобиографии: важные обновления. Неприкосновенный запас. 2012, № 3 (83), с. 218–232; 228 с.

ya, adabiy portret xususiyatlarini birlashtirish imkonini beradi.¹ Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda shuni aytmoqchimizki, mazkur janrlarda namoyon bo‘layotgan hikoyachilik, o‘z navbatida, xalq og‘zaki ijodidan namuna olgan.

Soha tadqiqotchilari turli terminlarni afzal ko‘rsalar-da, ular memuarlar adabiyotiga mansub asarlarining asosiy xususiyatlarini aniqlashda, umuman olganda, yakdil fikrga keladilar. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: matnning aqliy-ruhiy va hissiy markazini tashkil etuvchi yagona egotsentrik ongning mavjudligi; muallif, hikoyachi va bosh qahramonning bir shaxsda mujassamlashganligi; vaqt bo‘yicha hikoya qilishning boshidan oxirigacha harakatlanish tamoyili sifatida retrospektiva, bunda nutq egasining xotira faoliyati asos bo‘lib xizmat qiladi.² Ushbu xususiyatlar memuarlar adabiyotining barcha janrlari tegishli, xususan, avtobiografiya, biografiya, memuar, tarixiy xotira va boshqalar.

G.G.Yelizavetina memuar matnini tahlil qilish uchun quyidagi mezonlarni taklif etadi: 1) janr belgilari nuqtayi nazaridan; 2) voqelikka munosabati va faktografik aniqlik darajasini aniqlash nuqtayi nazaridan; 3) asarning badiiy va hujjatli jihatlari nuqtayi nazaridan; 4) muallif shaxsiyatini aks ettiruvchi material nuqtayi nazaridan. Shuningdek, u memuar matnlarning eng batafsil tasnifini ham taqdim etadi: avtobiografiya (faqat o‘zi haqidagi hikoya); e’tirof, tavba (xuddi shunday hikoya, lekin yanada ochiqroq bayon etilgan); memuarlar (ko‘proq siyosat va tarixga oid); xotiralar (xronologik aniqlik va izchillikka qat’iy rioya qilmasdan, turli xil materiallarni o‘z ichiga oladi).³

G.G.Yelizavetina nazariyasiga ko‘ra, avtobiografik nasr muallifning ichki dunyosini, uning kechinmalari va o‘zgarishlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, memuarlar esa tashqi voqealar va taassurotlarni qayd etib, dunyo va odamlarni tasvirlashga urg‘u beradi.⁴ Mazkur fikrni to‘laqonli qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuning uchun ijodkorning ruhiy-psixologik evolutsiyasini avtobiografik asarlar misolida tadqiq etmoqdamiz.

Tahlil va natijalar. Avtobiografiyada o‘z “men”ining tarixi sifatida muallifning ilk xotiralari, xarakterning shakllanishi haqidagi fikrlari, shaxsning yaxlitligi yoki ziddiyatliligi haqidagi mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi:⁵ “Bizning o‘z-o‘zimizni anglashimiz nimadan boshlanishini hech kim eslamaydi, men ham eslolmayman. Faqat shuni taxmin qilamanki, bu barcha uchun ranglar va shakllarda adashishni to‘xtatib, ba’zi narsalarni kuzatish va eslab qolishni boshlagan paytdan boshlanadi. Boshqacha aytganda, bizning “men”imiz va “men emas”imiz ikkita alohida dunyoga: ichki va tashqi, ruhiy va moddiy dunyoga asos solgan paytdan boshlanadi”.⁶ XIX asr avtobiografik nasrida hikoyachining o‘tmishdagi “men”i izchil ravishda muallif ichki nigohining obyekt sifatida talqin etila boshlaydi, bu esa izchil o‘z-o‘zini obyektivlashtirish jarayonidan dalolat beradi.⁷ Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qildikki, avtobiografiya turli adabiy an’analarining tutashgan nuqtasida vujudga kelganligi sababi u madaniy va falsafiy dunyoni yagicha ifoda etmoqda. Xususan, mazkur janr orqali kitobxon ijodkor “men”ining ruhiy kechinmalarini his etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, kitobxonga ijodkor bilan birgalikda ijtimoiy-madaniy, ma’naviy, ruhiy-psixologik ulg‘ayish imkoniyatini berdi. Bu esa avtobiografiya orqali ijodkorning ruhiy-psixologik rivojlanish jarayonini o‘rganishga yo‘l ochib beradi.

Avtobiografik matnning poetikasi badiiy tuzilmaning asosiy elementlari bilan belgilanadi, ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

1. Makon-zamon munosabatlari – voqealar dinamikasini aks ettiruvchi va ularning hikoya qilish vaqt qatlamlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi xronotopni tashkil etish usullari.

2. Subyekt tashkiloti – matndagi turli nuqtai nazar va rollarning o‘zaro ta’siri.

3. Muallif-hikoyachi obrazi – muallif shaxsiyatini uning narrativi orqali ifodalash, bu uning o‘zini anglashi va hayotiy tajribasini talqin qilish xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi.

¹Левицкий Л.А. Мемуары. Литературный энциклопедический словарь. Под общ. ред. В.М.Кожевникова, П.А. Николаева, М., “Сов. энциклопедия”, 1987, с. 216.

²Нюбина Л.М. Воспоминание и текст. Смоленск, СГПУ, 2000, с. 13.

³Елизаветина Г.Г. Последняя грань в области романа. Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. “Вопросы литературы”, 1982, № 10, с. 148, 154–159.

⁴Елизаветина Г.Г. «Последняя грань в области романа». Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. “Вопросы литературы”, 1982, № 10, с. 148, 154–159.

⁵Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. ... канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

⁶Полонский Я.П. Старина и моё детство. Проза. М., 1988, с. 272.

⁷Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. ... канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

Shunday qilib, qo'llanilayotgan yondashuv avtobiografik bayonning badiiy tuzilmasini har tomonlama tahlil qilishni ta'minlaydi, uning mazmuni va estetik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jahon adabiyotshunoslarining turli xil yondashuvlari va tadqiqatlari avtobiografik asarlarning xilma-xil ranglarini ochib berdi. Zamonaviy adabiyotshunoslik zargarlari ham hanuz yuqoridagi ilmiy tushunchalarning ilmiy asoslarini tadqiq etish bilan band. Keyingi avlod adabiyotshunoslik vakillarining vazifalari ham avtobiografik asarlarning mazmun xususiyatlarini kengroq ochib berish bo'lib qolaveradi. Chunki har bir ilmiy mavzu ulkan ummondirki, uning kashf etilmagan qo'riqlari bisyor. Avtobiografik asarlarning gnoseologik tadqiqi ham har doim o'zining bir muncha uzoq va tahlilga molik tomonlari bilan bizni o'ziga tortaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Зарецкий Ю.П. История субъективности и история автобиографии, важные обновления. Неприкосновенный запас. 2012, № 3 (83), с. 218–232; 228 с.
- (2). Левицкий Л.А. Мемуары. Литературный энциклопедический словарь. Под общ. ред. В.М.Кожевникова, П.А.Николаева. М., "Сов. энциклопедия", 1987, с. 216.
- (3). Ньюбина Л.М. Воспоминание и текст. Смоленск, СГПУ, 2000, с. 13.
- (4). Елизаветина Г.Г. «Последняя грань в области романа»: Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. "Вопросы литературы", 1982, № 10, с. 148, 154–159.
- (5). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. ... канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.
- (6). Полонский Я.П. Старина и моё детство. Проза. М., 1988, с. 272.
- (7). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. ...канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

Ho'janova Uringul Smayilovna (O'zbekiston, Toshkent, UzDJTU; hojanovauringul01@gmail.com)

MAJOZIY O'XSHATISHNING FUNKSIYALARI

***Annotatsiya.** Tavsiya qilinayotgan maqolaning maqsadi – majoziy o'xshatish lingvistik hodisa sifatida o'rganishda kognitiv yondashuvdan foydalanish tajribasi va uning funksiyalari hamda ularning kognitiv jarayonlar (kontseptsiyalash va tasniflash). Asosiy e'tibor turli fanlarni birlashtirgan muhim muam-molarga hamda turli sohalarda kognitiv yondashuvni rivojlantirishning*

***Kalit so'zlar:** mantiqiy o'xshatish, o'xshatish agenti, o'xshatish referenti, ritorik figura, tasviriy va baholash funksiyalar, satirik funksiya, aforistik funksiya.*

Ходжанова Урингуль Смайиловна (Узбекистан, Ташкент, УзГУМЯ; hojanovauringul01@gmail.com)

ФУНКЦИИ ОБРАЗНОГО СРАВНЕНИЯ

***Аннотация.** Цель предлагаемой статьи – обобщить на основе краткого обзора опыт использования когнитивного подхода к изучению языковых явлений в качестве образного сравнения и его функции и их взаимосвязи с когнитивными процессами (прежде всего, концептуализацией и категоризацией) в отечественной и мировой науке, дать общее представление о современном состоянии. В центре внимания находятся ключевые проблемы, решение которых объединяет разные дисциплины, а также современные тенденции развития когнитивного подхода в разных научных областях, фундаментальных и прикладных исследованиях.*

***Ключевые слова:** логическая аналогия, имитационный агент, референт аналогии, риторическая фигура, образная и оценочная функции, сатирическая функция, афористическая функция.*

Khojanova Uringul Smayilovna (Uzbekistan, Tashkent, UzSWLU; hojanovauringul01@gmail.com)

FUNCTIONS OF IMAGINATIVE COMPARISON

***Annotation.** The target of the proposed article – to summarize on the basis of a brief review of the experience of using the cognitive approach to the study of linguistic phenomena as simile and its functions and their relationships with cognitive processes (first of all, conceptualization and categorization) in domestic and world science. The focus is on key problems, the solution of which unites different disciplines, as well as current trends in the development of cognitive approach in different scientific fields, fundamental and applied research.*

***Key words:** logical analogy, imitation agent, analogy referent, rhetorical figure, figurative and evaluative functions, satirical function, aphoristic function.*

Kirish. Gumanitar fanlar taraqqiyotidagi hozirgi bosqichni xarakterlash uchun, eng avvalo, tadqiqot-chilarning insonning kognitiv faoliyatiga va uning natijalariga e'tibor qaratish lozim. Tilshunoslikda o'x-

shatish mantiqiy kategoriya va tasviriy vosita sifatida ajralib turadi. O'xshatish tushunchasi tabiatan juda ko'p qirralidir, u ham mantiqiy jihatdan va tarkibiy jihatdan (qiyosiy semantikada), ham ifoda jihatdan (semantik tuzilishi) jihatidan o'rganiladi. Tuzilishi nuqtayi nazaridan o'xshatish lingvistik birlik sifatida boshqa til hodisalaridan o'ziga xos konstruktiv xususiyatlari bilan farq qiladi. Turli tadqiqotchilar o'z ishlarida qiyosiy konstitutsiyalarining nomlarini turlicha nomlaydilar, masalan "prototip, tasvir, modul", "referent, agent, asos-manba", "obyekt, subyekt, xususiyat", "obyekt, tasvir, bog'lovchi xususiyat" va boshqa. Ushbu ishda quyidagi nomlardan foydalaniladi qiyosiy konstruksiyaning tarkibiy elementlari: o'xshatish obyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish uchun asos. Ushbu atamalarni lug'at talqinidan olingan. Shunday qilib, "obyekt" tushunchasi lug'atda S.I.Ojegov lug'atida "obyekt – bizdan tashqarida va mustaqil ravishda mavjud bo'lgan bizning ongimizdagi narsa, biron bir faoliyatga yo'naltirilgan hodisa, obyektidir" [123;354-b.]. "Etalon" deganda "biror narsaning o'lchov namunasi" [744-b.], "asos–bu hodisalar, tushunchalar taqsimlanadigan muhim belgi" deb tasvirlanadi [372-b.]. Taqqoslash obyekti uchun sinonim nom sifatida, shuningdek, "birinchi taqqoslash" atamasi, etalon uchun esa "ikkinchi taqqoslash" atamasi ham qo'llaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Majoziy o'xshatish har bir san'at asarining rassom tomonidan voqelikni obrazli bilish va aks ettirish natijasida dunyoga kelgan ijod mahsulidir. Badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jahon tilshunosligida V.F.Gumboldt, F.de Sos-syur, A.A.Potebnya, E.B.Benevist, I.B.Sapir, B.L.Uorf, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, G.O.Vinokur, K.R.Yakobson, V.V.Vinogradova, I.R.Galperin, N.M.Shanskiy, O.I.Moskalskaya, A.N.Vasilyeva, A.A.Potebnya, L.Y.Maksimov, A.I.Efimov, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Lotman, Lukin, Shanskiy. L.A. Novikov kabi olimlar tomonidan olib borilgan badiiy matn borasidagi tadqiqotlarga asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz obyekti majoziy o'xshatish bo'lib, kognitiv modellashtirish metodidan foydalangan holda badiiy matnning "chuqur mazmuni"ni yoritish uchun qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. O'xshatishning yangilik omiliga ko'ra, an'anaviy va individual o'xshatishlarga ajraladi. Mantiqda o'xshatish teng tushunchalar o'rtasida bolib, hissiy idrokdan ko'ra ko'proq mantiqiy aqlga tayanadi, shuning uchun ma'noning ravshanligi bilan ajralib turadi. Mantiqiy o'xshatishni tasvirlash uchun ingliz yozuvchisi Jeffrey Ashfordning "The anger of Fear" asariga murojaat qilaylik:

They had planned for everything but rain and its consequences and now the water, like liquid ice, rolled down their hunched and shivering backs (Jeffrey Ashford. The anger of Fear (101-b.).

Berilgan misolda suv-suyuqlik suyuq muz bilan o'xshatilgan bo'lib, teng tushunchalar, ya'ni shakl-shamoili bir-biriga yaqin tushuncha bilan tasvirlangan. Ushbu misol mantiqiy o'xshatishni o'z ichiga oladi, chunki bu erda bir hil obyektlar ularning muhim xususiyatlariga ko'ra taqqoslanadi, o'xshatish faqat o'xshashlikni o'rnatish bilan cheklanadi va qo'shimcha assotsiatsiyalarni keltirib chiqarmaydi. Majoziy o'xshatish, ma'lum qoidaga binoan, turli xil tabiat obyektlari va hodisalarini taqqoslash orqali yaratiladi. Bunday holatlarda o'xshatish bo'rttiriladi va hissiy baholash ko'pincha ratsional bahodan ustun turadi. Majoziy o'xshatish ehtimollik, imkoniyat, taxminiylik semantikasini yaratadi. Bunda faktlarni yetkazishga emas, balki ularga bo'lgan munosabatni ifodalashga qaratilgan va uning qiymati g'oyani eng ifodali va tajamkor tarzda yetkazishdir.

Wheat profits soared, but growing wheat took time. And the miners were 'holdin' up their milk like some stubborn cow", as the old-timers put it (J.Masters Bacher. When morning comes again. 67-bet).

Yuqoridagi misolda o'xshatish agenti jonli predmet (*stubborn cow*), aktiv fe'l holdin' up– to cause to be late or to cause to happen at a later time (Longman Dictionary of English Language) ma'nosi asar qahramoni – Efreym fermerlarni bug'doyning yuqori narxda ushlab turilishlarini 'buzog'iga sut saqlab turuvchi qaysar sigir'ga o'xshatadi.

Majoziy o'xshatish voqelikning bir sinfiga tegishli, aksincha, har xil sinfga tegishli obyektlarni taqqoslashga ham asoslanishi mumkin. N.D.Arutyunova obrazini yaratishda turli sinflarga mansub obyektlarni o'xshatish obraz hosil qilishda keng imkoniyat yaratadi yordam beradi, agar obyektning ixtisoslashuvi uning tashqi ko'rinishini o'zgartirish bilan birga bo'lsa, turli funksional subklasslar vakillarini o'zaro taqqoslash majoziy o'xshatish bo'ladi deb hisoblaydi [Arutyunova. 1999:281]. Ushbu fikrning isboti sifatida biz J.Masters Bacherning "When morning comes again" romandan parcha keltiramiz:

Efrain and Roberta were talking nonstop about handpresses, newsprint, printer's ink, and the temporary building for the weekly publication which would become a daily in no time, they predicted, spouting their lines like well trained actors on stage (J.Masters Bacher. "When morning comes again". 209-b.).

O'xshatish referenti va inson: A – Efrain and Roberta, B – well trained actors, aktiv fe'l spouting – to speak a lot, in a way that is boring or annoying for other people (Longman Dictionary of English Lan-

guage) ma'nosi qahramonlarning qo'l mehnati bilan yaratilgan gazeta, bosma gazeta, tipografiya siyohi va kunlik gazeta bosmaxonasi haqida to'xtamay bashorat qilayotgan va gaplashayotgan lahzalarni yaqqol ochib berishda muallif o'xshatish uslubidan foydalangan va o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'ota olgan.

O'xshatish elementlarining bog'lanishiga ko'ra doimiy-turg'un (ana'naviy) va muallif o'xshatishlarga bo'linadi. Turg'un o'xshatish frazeologik kombinatsiyalar tarkibida bo'ladi.

"Turg'un o'xshatishlar ma'lum bir til jamoasining har bir a'zosiga ma'lum va tanish bo'lgan va an'naga ko'ra, avloddan avlodga o'tadigan" tasviriy vositalarga aytiladi (Chernyshova. 1970;50-b.). Tasvirlari ushbu tilda so'zlashuvchilar tomonidan tan olinadi va referent va agent o'rtasidagi aloqa avtomatik ravishda o'rnatiladi. Bunday taqqoslashlar faqat genetik jihatdan ritorik figuradir, ammo uning barqaror lug'at ma'nosida frazeologik birlik vazifasini bajaradi (Lotman. 1999;55-b.). Ular kundalik nutqda ham, badiiy nasrda ham intensivlashtiruvchi sifatida keng qo'llaniladi. Turg'un o'xshatishga misol keltiramiz:

You can't feed me that one. She and me are like Romeo and Juliet and there isn't a balcony can hold me back (J.Ashford. "The anger of Fear". 10-b.).

Muallif asar qahramonining kuchli muhabbati va ularning sevgisiga hech narsa to'siq bo'lolmasligini ifodalashda turg'un o'xshatishdan foydalanadi: *like Romeo and Juliet – constantly falling in love and professing his feelings in a poetic manner, much like the character from Shakespeare's Romeo and Juliet* (Oxford Dictionary of English Idioms).

Turg'un o'xshatishlar individual – muallif o'xshatishlar bilan taqqoslanadi. Muallif dunyo haqida subyektiv mualliflik qarashlarini aks ettiradi, "umumiy qabul qilingan va individual tasvirlarni farqlash qiyinchiliklar,, avvalambor, o'tish davri hodisalarining mavjudligi bilan bog'liq" (Kovtun. 1978–57-b.). Muallif o'z asarida nutqning erkin elementlardan foydalanadi va ba'zan turg'un o'xshatishlardan ham foydalanadi: *Quilp, who was as strong as a lion, easily kept his until the boy was tugging at it with his utmost power, when he suddenly let it go and sent him reeling backward, so that he fell violently upon his head.* (Ch.Dickens. The old curiosity shop. 59-b.).

She produced confidences and estrangements, **like a ghost** rumoured, perhaps seen (Elizabeth Bowen. Friends and relations. 70-b.).

Ushbu misollarda muallif turg'un o'xshatishni qahramonlarning ko'rinishi, holatini tasvirlashda foydalangan.

Just tell me what's the trouble, then. I'm always out to help the coppers. Ever Ready, like the batteries (J.Ashford. The anger of Fear. 114-b.).

Asar qahramonining fuqarolik pozitsiyasini tasvirlashda avtor xotirasidagi kutilmagan o'xshatishdan foydalanadi. Obrazga yorqin effect–jilo beradi. Referentning ruhiy holatini batareyalarga o'xshatadi.

O'xshatishning stilistik ta'rifini I.R.Galperin quyidagicha ta'riflaydi: "Stilistikada o'xshatilayotgan narsa va hodisalar turli xususiyati jihatidan turli sinflarga tegishli bo'ladi, ammo ba'zi bir xususiyatlari o'xshatishga ma'naba bo'ladi" [I.Galperin. 1958;167-b.].

Quyidagi "A - f – B - C"- o'xshatishning tuzilishi mazmuni turli yo'llar bilan uzatish formulasidir. "f" komponentining mavjudligi yoki yo'qligiga qarab, to'liq yoki qisqartirilgan bo'lishi mumkin. Qisqartirilgan taqqoslashlar murakkab tuzilma bo'lib, o'quvchi yetishmayotgan komponentni kontekstdan o'zi mustaqil ravishda aniqlashga to'g'ri keladi. O'xshatishning qisqartirilgan usuliga misol keltiramiz:

A f B

Fell, standing in as night duty officer, was for once looking flustered (J.Ashford. The anger of Fear 112-b.).

Asar qahramoni o'zining qo'rquvdagi holatini sergak yoki qo'rqsada ko'rsatmaslikka harakat qilgan kechki navbatchi ofitserning holati bilan o'xshatgan. Natijada turli xil assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin: qo'rquv yoki hadik. *"looking flustered* –qattiq hayajonlangan ma'nosi o'xshatishni yakunlaydi.

Quyida o'xshatishning barcha stilistik elementlari mavjud misolni ko'rib o'tamiz. O'xshatish referenti ot so'z turkumi bilan ifodalangan – *booking and general area*, o'xshatish agenti atributiv ot bilan ifodalangan – *car park*, o'xshatish asosi – *litter-strewn, as.....as* bog'lovchisi bilan bog'langan:

A as C as B

The booking and general area was large and almost as litter-strewn as the car-park; there were newsagent and florist stalls, shut and sguttered, a bar and a snack-bar, shut and in darkness, and a row of vending machines, several of which had 'Out of order' signs.

O'xshatish tarkibiy qismlarining tartibini o'zgartirish muayyan o'zgarishlarga olib keladi: ushbu odatiy munosabatlarning o'zgarishi dekodlashda keskinlikni kuchayishiga olib keladi va shunga mos ra-

vishda yanada kuchli ekspressiv effektlarni yaratadi” [V.L.Naer. 2000;5-b.]. O‘xshatishning stilistik modifikatsiyalarini batafsil ko‘rib chiqamiz:

A like B as C

Her thoughts fled by like water, as elusive, spinning their own shadow (Elizabeth Bowen. Friends and relations.115-b.).

Asar qahramonining anglab bo‘lmas tarqoq fikrlar oqimini suv – ot so‘z turkumi bilan, suvning xususiyatlarini spinning, elusive – sifat bilan ifodalaydi.

C, as if A, like B

Wordlessly, she resisted, even when he whispered “darling” over and over as if the words were torn like ragged little scraps from a bolt of cloth (J.Masters. Bacher. When morning comes again. 220-b.).

Wordlessly – words were torn like ragged little scraps o‘xshatish asosining prepozitiv joylashuviga misol bo‘ladi va so‘zlarning hayajonli – titroqqa soluvchi ta‘sirini ta‘kidlash uchun ishlatilgan.

E.Bovenning “Mrs. Dalloway”, o‘xshatishning boshqa tarkibiy imkoniyatlarini namoyish etadi:

A, C³ like B³

She was hidden like a corncrake, distant like a cuckoo, close like a nesting swallow under the roof. (E.Bowen. Friends and relations.110-b.).

Berilgan misolda muallif birvarakayiga 3 ta asos va 3 ta agentdan atipik (noodatiy) tarzda foydalanган. Ushbu belgi tinish belgilarini qo‘yish orqali parchaga ma‘lum bir ritm beradi. O‘xshatishning stilistik usuli badiiy matnda turli funksiyalarni bajaradi. Ular orasida tasviriy va baholash funksiyalari, satirik funksiyasi, aforistik funksiyasi. O‘xshatishni qabul qilishning ko‘rsatilgan funksiyalarini misollar bilan ko‘rib o‘tamiz:

Tasvirlovchi funksiyasi. *Mansion-in-the-Wild must be preserved with its rich, mellow wood, colored rugs glowing against polished floors, and its multipaned windows – like compound eyes – keeping watch day and night* (J.M.Bacher. When morning comes again. 33-b.).

Muallif saroyni havfsiz murakkab tuzilmaga egaligini tasvirlash niyatida *multipaned windows* ko‘p oynali derazalarni *compound eyes* murakkab tuzilgan ko‘zlarga o‘xshatadi.

Baholash funksiyasi. *You look like a million pounds’, he said* (J.Ashford. The anger of Fear. 16-b.). O‘xshatishning stilistik usuli muallifning tasvirlangan belgiga asar personajiga ijobiy munosabatini ko‘rsatadi.

Satirik effekt yaratish funksiyasi. *A turf of black hair stood on top the perfect head like an exclamation mark as if the wide-open dark eyes were dismayed at the world around her* (J.Bacher. When morning comes again. 114-b.).

J.Batcher romanidagi asar qahramonining satirik tasviri o‘xshatish elementlarida aksini topadi. Vaqt va makonda o‘z o‘rnini aniqlay olmagan nima bo‘layotganini tushunmay karaxt bo‘lib qolgan holatini undov belgisi-*exclamation mark* bilan izohlaydi.

Aforistik funksiyasi. *I expect it will be difficult for you – perhaps even as difficult as our life together in the empty quarter’* (J.Ashford. The anger of Fear. 20-b.).

Ushbu misolda J.Ashford asar qahramonlarining tushkun holatini jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Ularning turg‘un turmush tarzining o‘zgarishiga olib keladigan vaziyatni qisqa va aforistik shaklda ifodalaydi. Ko‘rib turganingizdek, o‘xshatish, bir qarashda, oddiy bo‘lib ko‘ringani bilan murakkab va keng qamrovli stilistik usuldir.

Xulosa va takliflar. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, mantiqiy va majoziy o‘xshatishni farqlash ba‘zan qiyin vazifadir. O‘xshatilayotgan obyektlar va hodisalarning heterojenlik (turli xil toifaga mansub) mezoni o‘xshatish tasvirini aniqlashda har doim ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Shu munosabat bilan, shuni esda tutish kerakki, “o‘xshashlik to‘g‘risidagi hukm taassurotlar asosida chaqiriladi, shuning uchun o‘xshashlik aldamchi bo‘lishi mumkin”. O‘xshashlik vaqtinchalik hamda konstant-doimiy bo‘lishi mumkin” [Arutyunova. 1999;275-b.]. Maqolada o‘xshatishning semantik maydoni tahlil qilinib, lingvistik xususiyatlari yoritib berildi. O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligidagi semantik maydon nazariyasi borasidagi izlanishlar va ularning ilmiy natijalari haqida izlanishlar va nazariy fikrlar ko‘paysa, kelajakda kognitiv tilshunoslik rivojiga katta hissa qo‘shgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Исабеков С.Я. Картина мира во фразеологических единицах неродственных языков. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации и перевода. Алматы, 2001.

(2). Spears R.A. Phrases and Idioms. A practical Guide to American English Expressions. NTC Publishing Group, 1998, p. 305.

(3). <https://slovarozhegova.ru/ozhegov.php>

Abdullayeva Guliston Sultanovna (tadqiqotchi)
MUTRIB XONAXARABIY SHE'RIYATI VA JADIDCHILIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan Mutrib Xonaxarobiyning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik ruhida yozilgan she'rlari tahlilga tortiladi. Shoirning yangicha o'qitish tizimi, hurriyat, ozodlik masalalari, yoshlar ma'rifati mavzusidagi she'rlarining g'oyaviy yo'nalishi, tasvir ko'lami, badiiyati qisqacha tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Mutrib Xonaxarobiy, Xorazm, adabiy muhit, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, maktab, ta'lim, maorif, yoshlar, hurriyat, mavzu, g'oya, badiiyat, mahorat.

ПОЭЗИЯ МУТРИБА ХОНАХАРОБИ И ДЖАДИЗМ

Аннотация. В данной статье анализируется поэзия Мутриба Хонахароби, жившего в Хорезме в конце XIX – начале XX века, в частности его стихи, проникнутые идеями просвещения и прогресса. Исследуется художественность, идейная направленность стихотворений о новой системе обучения, независимости, вопросах свободолюбия и просвещении молодежи.

Ключевые слова: Мутриб Хонахаробий, Хорезм, литературная среда, просветительство, прогрессивность, школа, обучение, просвещение, молодежь, свобода, тема, идея, художественность, мастерство.

MUTRIB KHANAKHARABI'S POETRY AND JADIDISM

Annotation. This article analyzes the poems written in the spirit of enlightenment and progressivism by Mutrib Khanakharabi, who lived in Khorezm in the late 19th – early 20th centuries. The poet's ideological direction, scope of images, and artistry of his poems on the topics of new education system, issues of freedom, freedom, and youth enlightenment are briefly explored.

Key words: Mutrib Khanakharabi, the literary environment of Khorezm, enlightenment, progress, school, education, youth, freedom, theme, idea, artistry, skill.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. Bu adabiy muhitda bir qancha iste'dod egalari kamolga yetdiki, ularning iqtidor ko'lami turlicha edi. Ular nafaqat mumtoz adabiy an'analar ta'sirida ijod qildilar, balki yangi zamon voqeligidan kelib chiqib ham yetuk asarlar yaratdilar. Ana shunday ijodkorlardan biri Mutrib Xonaxarobiy edi. U XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy sharoitdan kelib chiqib ijod qilar ekan, bir qancha ijtimoiy, ma'rifiy muammolarni qalamga oldi. Ta'lim tizimidagi muammolar xususida, yangicha taraqqiyotga intilmayotgan xalq ahvoli haqida qayg'urdi. Erk, ozodlik, hurriyat, yoshlar masalalari xususida she'rlar yozdi. Bu asarda davr muammolari hozirjavoblik bilan yoritilgani bilan ham dolzarblik kasb etadi. Mazkur she'rlarni yangicha mezonlar, istiqloq mafkurasi asosida o'rganishning ilmiy ahamiyati benihoya kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mutrib Xonaxarobiy ijodi borasida, uning shoirlik iqtidori xususida Ahmad Tabibiy, Hasanmurod Laffasiy, Po'latjon Qayyumiy, Bobojon Tarroh Xodim tazkiralari ma'lumot beriladi [1;136–140-b.]. Adabiyotshunos M.Pirnazarov Mutrib Xonaxarobiy hayot yo'lini [2], matnshunos S.Madrimova shoir adabiy merosiga doir qo'lyozma va toshbosma manbalarni tadqiq etgan [3]. Tilshunos A.Allaberganova shoir asarlarining lingvopoetikasini o'rgangan [4]. Shuningdek, O.Sharofiddinov, N.Mallayev, M.Pirnazarov maqolalarida ham Mutrib hayoti, ijodi xususida muxtasar ma'lumotlar keltiriladi [5;28-b.]. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarda shoirning ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik mavzusidagi she'rlari tahliliga keng o'rin berilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu kichik tadqiqot ishi davomida qiyosiy-tarixiy, struktural, germe-nevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mutrib Xonaxarobiy (1860–1923) ijodida yangicha ma'rifatparvarlik targ'ibiga keng o'rin ajratilgan. Uning bu mavzudagi she'rlarida yangi davr nafasi sezilib turadi. G'oya ifodasida da'vat ruhi yetakchi, fikrni aniq-lo'nda bayon qilish ustuvor. Ilmning nihoyasi farovonlik, xorlik ko'rmaslik ekanligi o'quvchiga oson tushunilsin uchun, shuningdek, XX asr boshlaridagi umumiy da'vatkorlikka mos ravishda qalamga olingan. Bu shoirning, yetishib kelayotgan ma'rifatparvarning, jadidning yangiliklardan boxabarligidan darak beradi:

...Ey xaloyiq, bo'lsa farzanding agar,
Ber muallimg'a oni qilmay hazar.

*Chunki, umri necha chandon o'lg'usi,
Muruvvat, hurmat farovon o'lg'usi –*

*Kim, oni ilm-u hunar xor etmagay,
Hech birovga dunyoda zor etmagay.*

*Mutribo, bo'lsang suxandin lojaram,
O'qumoqni odat etgil dam-badam [6].*

Mutrib Xonaxarobiyning shunday she'rlari borki, ular to'lig'icha ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibiga bag'ishlangan. Shuningdek, davr yangiliklari, hurriyat ulug'langan she'rlarida ham maktab ochish, yoshlarga ilm berish masalalari qalamga olinadi:

*Muallimlar ochib maktab, berib yoshlarga ogohlik,
Olarga bildirurg'a ilmini jonlar nisor o'ldi [6].*

To'lig'icha yangicha ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan ilm egallashga da'vat ruhi yetakchilik qilgan she'ri "Ko'ngluma bir turfa so'z keldi ravon..." deb boshlanadi. Shoir hunarsiz, ilmsiz odamdan foyda yo'qligini, u odob-ikrom nima ekanligini bilmasligini, bunday kishi xor-zor bo'lishi, xalq orasida e'tibori bo'lmasligini qalamga oladi:

*Behunar, beilm odamdin ne sud,
Bilmas ul odobi, ikromi, surud.*

*Dahr aro bo'lg'usi doim xor-zor,
Bo'lmag'ay xalq ichra onda e'tibor...*

*Ey xaloyiq, sol quloq oqil bo'lib,
Qolmangiz bebahra chun g'ofil bo'lib.*

*Bersa maktabga kishilar yoshlarin,
Ko'rgay ul sog'-u sarafroz boshlarin [6].*

Mutrib o'z davrida yangi ochilgan maktablarga tajribali, "ilmda yakto" muallimlar kelganini olqishlaydi. Yangi ochilgan maktablarni esa jannatga qiyoslaydi. Muallimlar yoshlarni tarbiya qilib, oliy maqomga olib chiqqanidan shodlanadi shoir. Mutrib muallimda yuqoridagi kabi sifatlar borligini olqishlaydi va ular ikki olamda ham manfaat topishini ko'tarinki ruhda bayon etadi:

*Ilm aro yakto muallimlar kelib,
Jannatoso necha maktablar ochib.*

*Yoshlarni tarbiyat birla mudom,
Ayladi har birisin oliy maqom.*

*Bo'lsa har kimsa muallim bu sifat,
Topgay ikki olam ichra manfaat [6].*

Ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibida Mutribning "Ey xaloyiqlar" radifli she'ri o'ziga xosdir. Shoir odatdagiday farzandlarni muallimlarga berishga da'vat qiladi. Ilm-u hunar o'rgansa yaxshi ekanligini tasvirlaydi.

Biroq shoir ifodalaydigan fikrning o'ziga xosligi shundaki, u bilim oluvchi farzandning olim bo'lib, xalq orasida shuhrat topishini istaydi. Bunday kishiga mag'rib-u mashriq qadrdon bo'lishini sharaflaydi:

*Agar farzanding olim bo'lsa, xalq ichra topib shuhrat,
Onga mag'rib bila mashriq qadrdon, ey xaloyiqlar.*

*Alardin ham bori insonga yetgay manfaatlarkim,
Biling ul daryoyi ummon ilmdan, ey xaloyiqlar [6].*

Mutrib Xonaxarobiy ijodining boshlarida mumtoz adabiy an'analar asosida she'rlar yozdi. 1915-yildan boshlab uning she'riyatida yangiliklar kuzatildi. Ayniqsa, 1920-yillardagi she'riyatida ilm-ma'rifat, maktab-maorif targ'ibi asosiy o'rinni egalladi. She'rlarida yangicha ma'rifatparvarlik g'oyalari birinchi o'ringa chiqdi.

Mutrib Xonaxarobiy davr o'zgarishlarini olqishlaydi. Yaxshi davrlar kelganini, yurtning barcha joylarida noz-ne'matlar ko'pligini, farovonlik yuz berganini yozadi. Qari-yu yosh osoyish topgani, ko'ngli shodlangani, aksincha, qalbi ozorlanmaganidan, ba'zi g'am chekkan ellar shod-xandon bo'lganidan quvonadi:

*Bilinglar, ey xaloyiq, sizga bu yaxshi davrondur,
Tamomi yurtimizda noz-u ne'matlar farovondur.*

*Topib osoyishi pir-u juvon, ozurdadil bo'lmay,
Bari mahzun o'lan ellar damodam shod-u xandondur [7].*

Mazkur she'r 1921-yilda yozilgan. 1920-yilda Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan ag'darilgan. Bu to'ntarish natijasida xalqning turmush tarzida nisbatan osoyishtalik, iqtisodiy hayotida sal bo'lsa-da, oldga siljish ro'y bera boshlagani shoirni quvontirgan bo'lishi, tabiiy. Boshqaruvida yangiliklar yuzaga kelgan. Bu masalaga bag'ishlangan qurultoy bo'lib o'tgan. Shahar Ijroiya qo'mitasi tuzilgan. Mazkur tuzilmalar Mutrib nazdida xalq mushkulini oson etuvchi idoralar sifatida tasvirlanadi. Xonlik boshqaruvidan aziyat chekkan kishilar uchun ushbu yangi tuzilmalar, albatta, mushkulkushod bo'lib tuyulishi tabiiy edi:

*Xudoyim rahm etib bizga, birodarlar bo'lib yor-u,
Ko'ring emdi sitamgarlarni, sargardon-u hayrondur.*

*Bo'lub qurultoy-u Ijroiya qo'mita shahar aro barpo,
Bu davlat fayzidin bizlarg'a har mushkullar osondur...*

Mutrib bu shodliklar ortidagi aziyatlarni ham mushohada qilgan, albatta. Xalqning, xon-u amaldorlarning g'aflatga cho'mganidan ta'sirlangan. Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" asarida shunday yozadi: "Hayotning (yakkama-yakka) kurash maydonida va jahon xalqlari orasida islom olamining farsax-farsax orqada qolganligini bayon qilishga ehtiyoj yo'qdur. Biz, turkistonliklar esa boshqa islom jamiyatlariga nisbatan dunyoyi jahon parishonlikka tushib yo'limizdan adashganimiz. Ajabo, bu parishonlikning sababi nedur?... Millat va vatanlari uchun qayg'urgan bir toifa bu parishonlikni ilmsizlik va tanballik oqibati deb biladi. Haqiqatan ham, tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizliqdir" [11;27-b.]. Mutrib Xonaxarobiy bu holatni yaxshi anglagan. Ijtimoiy hayotda bo'lgan she'rda tasvirlangan kabi o'zgarishlarni Fitrat ta'kidlagan illatlarning yechimi deb o'ylagan va yangi davrni shu bois ham zo'r ilhom bilan madh etgan.

Mutrib Xonaxarobiy davr yangilanishlari xususidagi fikrlarni davom ettirar ekan, yurtdoshlarini g'aflat uyqusidan uyg'onib, bedorlikni, izlab topib bo'lsa-da, hamisha hushyorlikni odat qilishga undaydi. Shuningdek, o'zni boshqalarga kerakligini his etishga chorlaydi. Yurt xizmatga chorlasa, hatto joning bila tayyorligingni ko'rsat, deya nasihat qiladi. Har band yakunida esa bu kun – Xorazm mamlakatining obodlik ayyomi, yurtimizda yaxshilik, bunyodkorlik ayyomi, deya shodligini izhor qiladi:

*Xobi g'aflatni qo'yub, bedorlig'ni pasha et,
Just-u jo' aylab yana hushyorlig'ni pasha et.
O'zni toki barchag'a darkorlig'ni pasha et,
Bo'lsa xizmat, jon bila tayyorlig'ni pasha et.
Yurtimizg'a yaxshiliq bunyodliq ayyomidir,
Kishvari Xorazmning obodliq ayyomidir.*

Shoir farovon kunlar kelganiga shukrona etishni so'rar ekan, xalqlarni bir balodan qolganligini, hatto o'limdan qolganligini, bunda yuz ming oh-u fig'ondan, sog'lik-salomatlikda yomon fikrlardan qolganligini e'tirof etadi. Bu band nihoyasida ham bu ayyom Xorazmning obodlik kuni deya quvonchini she'rga solidi:

*Shukr eting, ey xalqlarkim, bir balodin qoldingiz,
Qo'llarida necha tiyg'i jonsitondin qoldingiz,
Kunda yuz ming martaba oy-u fig'ondin qoldingiz,
Xo'b salomatlik aro fikri yomondin qoldingiz.
Yurtimizg'a yaxshiliq bunyodliq ayyomidir,
Kishvari Xorazmning obodliq ayyomidir.*

Xulosa. Mutrib Xonaxarobiy ijodining dastlabki davrida mumtoz adabiy an'analar asosida ijod qildi. Uning 1915-yillardan keyingi ijodida ilm-ma'rifat, yangicha o'qitish tizimi, yoshlar kamoloti masalalari keng targ'ib qilindi. Uning hurriyat haqidagi masnaviysida yangi davr g'oyalari targ'ib qilingan "O'ldi", "Ey xaloyiqlar", "O'lmanglar", "Sevining" radifli g'azal, musaddas, qasidalar shoirning hozirjavob va is-

te'dodli ijodkorligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, u Xorazm jadidchilik maktabining faol a'zolaridan biri hamdir. Shoir jadidchilik g'oyalarining yoyilishida, yangi maktablar ochilishida jonbozlik ko'rsatgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Tabibiy. Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma, O'zRFA SHI, №1134; Laffasiy Hasanmurod. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari. Tazkira. O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondi №12561. Qayyumiy P. Tazkirayi Qayyumiy. III jildlik. III jild, Toshkent, O'zRFA Qo'lyozmalar instituti, 1998, 599–600-betlar; Bobojon Farroh Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 136–140-betlar.
- (2). Pirnazarov M. Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo'li. Filol. fan...nomz...diss., Samarqand, 1973.
- (3). Madrimova S. Mutrib Xonaxarobiy va uning adabiy merosi. Filol. fan... falsafa d-ri (PhD) diss., Toshkent, 2021.
- (4). Allaberganova A. Mutrib Xonaxarobiy she'riyati lingvopoetikasi. Filol. fan... falsafa d-ri (PhD) diss., Urganch, 2024.
- (5). Sharafiddinov O. Yillar va yo'llar. Adabiyotimizning yarim asri. Toshkent, Badiiy adabiyot, 1967, 172-bet; Mallayev N. Klassik adabiyot boyliklarini chuqur o'rganaylik va keng ommalashtiraylik. "O'qituvchi", 1957, 12-mart soni; Pirnazarov M. Obodlig' ayyomlar. "Guliston", 1957, 7-son, 28-bet.
- (6). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlar" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.
- (7). "Xorazm xabarlar" gazetasi, 1921-yil 23-sentabrdagi soni
- (8). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlar" gazetasi, 1921-yil 10-sentabr, 19-son.
- (9). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlar" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.
- (10). Yuqoridagi manba.
- (11). Odob-axloq kitobi. Abdurauf Fitrat. Najon yo'li. Toshkent, "Yoshlar" nashriyoti, 2023, 27-bet.
- (12). "Xorazm xabarlar" gazetasi, 1921-yil 4-noyabr soni.

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi erkin tadqiqotchisi; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)
XX ASR BIRINCHI YARMI KOREYS ROMAN JANRI BADIYYATI

***Annotatsiya.** Ma'lumki, roman adabiyotda katta hajmli asardir. Janr ko'lami va miqyosi jihatidan o'z ichiga ko'plab masalalar, turfa taqdirlar, davrdagi ko'plab muammolarni qamrab olish xususiyatiga ega. Mazkur maqolada koreys adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi hamda taraqqiyot jarayoni ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** pxesol, sosol, tush, motiv, realizm, trilogiya, urush, front, ziddiyat, fojia.*

Абдуллаева Феруза Баходировна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

ПОЭТИКА ЖАНРА РОМАНА ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

***Аннотация.** Роман считается большим по объему повествовательным произведением. Благодаря своему жанру и масштабу, он затрагивает множество сюжетных линий, разнообразных персонажей с их сложными судьбами и актуальными для своего времени проблемами. В данной статье на примере корейских романов рассматривается возникновение и эволюция жанра романа в корейской литературе.*

***Ключевые слова:** пхэсол, сосоль, сон, мотив, реализм, трилогия, война, фронт, конфликт, трагедия.*

Abdullayeva Feruza (Freelance researcher at the Higher School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

FIRST HALF OF XX CENTURY KOREAN NOVEL GENRE LITERATURE

***Annotation.** It is well known that the novel is a literary work of significant length. Due to its broad scope and scale, it has the capacity to encompass numerous issues, diverse destinies, and various challenges of its time. This article examines and analyzes the emergence and development of the novel genre in Korean literature, based on novels written in the Korean language.*

***Keywords:** pxaesol, sosol, dream, motive, realism, trilogy, war, front, conflict, tragedy.*

Kirish (Introduction). Adabiyotshunoslik fanida roman janrining paydo bo'lishi haqida turli qarashlar mavjud. Jumladan, arab adabiyotshunos olimasi M. Akbarova: "Roman yangi davr adabiyotida epik janrning katta ko'rinishi hisoblanadi" [1;40-b.], deb fikr bildirgan bo'lsa, jadid harakatining faol targ'ibotchisi Abdurauf Fitrat: "Hayotning belgisi bir davrini keng suratda tasvir etib yozilg'on asarga "ro'mon" deyiladi...Ro'monlarda asarning qahramoni, yo qahramonlari qaysi zamonda, qaysi muhitda, qaysi jamiyatda

yashag'an bo'lsalar, shularning urf-odat, qonun, tilak, havas, orzu, kamchilik, axloq, e'tiqodlari ingichka, ham keng suratda tasvir etiladi.

Tomosha asarlarda ko'rganimiz "to'lalik, birlik, to'g'rilik" kabi shartlarning ro'mon bilan hikoyada ham bo'lishlari lozimdir. Rivoya asarlari orasida eng muhim o'run ro'monlarga berilgandir, biroq adabiyotning eng og'ir, eng qiyin sho'basini ham ro'mon yozmoqdir" [7,8;20–21-b; 11–88.], deb ta'rif beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Roman janri har bir millat adabiyotining takomil darajasini ko'rsatadi. Bugungi kunda yetakchi janrga aylangan, millat adabiyotining qiyofasini o'zida aks ettirgan roman koreys nasrida XVII–XVIII asrda vujudga keldi. Mif-asotirlardan boshlangan, pxeol adabiyotida taraqqiyot yo'liga kirgan, o'rta asr qissalarida takomillashgan nasriy janrlar ichida roman zamonlar osha barcha adabiy oqimlarda namoyon bo'ldi.

Koreys adabiyotshunosligida sotsol turkumiga kiruvchi epik asarlar kichik, o'rta va katta kabi tur-larga ajratiladi. Insonni turli rakurslarda aks ettirishda katta hajmli asarlar – romanlarning ahamiyatini ta'kidlash lozim. Koreys romanlarida ko'tarilgan muammolar bugungi kunda ham zamon bilan hamnafas, o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, "...bu janrning imkoniyatlari cheksiz, shunga yarasha romannavis bo'lish mas'uliyati ham benihoya katta. Romanning ana shunday beqiyos imkoniyatlaridan foydalana olish layo-qatiga ega bo'lgan, uning zahmatlariga dosh bera oladigan, roman yukini yelkasida ko'tarishga qodir shi-joatli, chin iste'dod sohibigina bu janrda muvaffaqiyat qozona oladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, mana, ikki asrdan oshdiki, hech kim, hatto, manamen degan nazariyachi olimlar ham bu janrning hamma birdek tan oladigan ta'rifini bera olgani yo'q, berolmaydi ham. Qarangki, keyingi ikki yuz yil davomida jahon adabiyoti, adabiy tanqidchiligidagi eng qizg'in bahs-munozaralar ham ayni shu janr, uning namunalari, ijodkorlari tevaragida kechgan" [4;32-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mumtoz davr koreys nasrida pxeol adabiyoti hamda Kim Si Sipning yangi tasvir vositalari bilan boyitilgan hikoyalari insonni badiiy aks ettirish jihatidan davr talabi ehtiyojini qondirmadi. Shu sababli ijtimoiy masalalarni yoritish, davr va zamon munosabatlarini aks ettirish uchun katta hajmli asarlar – romanlarga ehtiyoj tug'ildi. Dastlab, yoritilgan romanlar qo'lyozma tarzida yoki bibliografik ishlarda uchraydi. Shuningdek, ayrim manbalarda qayd etilishicha, qo'lyozma tarzidagi romanlarni xonadon ichkarisida yashaydigan ayollar qayta ko'chirishgan. Bunga ayol dastxati bilan yozilgan "Ikki bilakuzukning g'aroyib uchrashuvi" romani misol bo'la oladi [5;127-b.].

Koreys tiliga moslashtirilgan Xitoy adabiy tili venyanda yaratilgan ilk koreys romanlarining muallif-lari hamda yaratilish sanasi noma'lum. Shu sababli ularning aynan qachon yozilganini aniqlash mushkul. Ammo, saroy amaldori, siyosiy arbob, Koreya xaritasini tuzishda faol ishtirok etgan adib Kim Manjun qala-miga mansub romanlarning yaratilish sanasi XVII asrning oxiri–XVIII asrning birinchi o'nyilligiga to'g'ri keladi. Shu sababli yozuvchi qalamiga mansub romanlar koreys nasrida yaratilgan ilk romanlar tarzida e'ti-rof etiladi.

Kim Manjuning ilk romanlari koreys xalqi ruhiyatini o'zida ifoda etgan, mazkur davr xalq hayotini keng ko'lamda qamrab olgan asar kabi talqin qilindi: "XVII–XVIII asr koreys adabiyotining eng muhim badiiy yutuqlaridan biri yangi nasriy janrning, aniqrog'i, nafaqat insonni badiiy aks ettirishga yangicha yon-dashuv bilan farq qiluvchi, balki ijtimoiy fosh qiluvchi tendensiyalari bilan alohida ajralib turuvchi roman janrining yuzaga kelishi hisoblanadi" [6; 152-b.].

Muallif tomonidan uch roman yozilgan bo'lib, bu romanlarni shartli ravishda quyidagi tarzda guruh-lashtirish mumkin: 1. "Sa xonimning janub bo'ylab sargardonliklari" – tarixiy roman. 2. "To'qqiz kishining bulutli tushi" – ma'rifiy roman. 3. "Yun xonim haqida" – avtobiografik roman.

O'zbek adabiyotshunos olimi M.Qo'shjonovning "Tarixiylik, davr ruhi hamma realistik asarlarda ham bo'lishi kerak. Ammo, shunday asarlar borki, ularda realizmning bu xususiyati davr uchun tipik bo'l-gan tarixiy shaxslar xarakterini yaratish orqali ifodalanadi. Bunday asarlarda davr ruhi, eng avvalo, tarixiy shaxslar xarakteriga bog'liq bo'lib qoladi" [9; 39-b.], degan fikrlari Kim Manjuning "Sa xonimning janub bo'ylab sargardonliklar" romani mazmun-mohiyatiga to'la mos keladi. Muallif o'zi yashagan davr saroy hayoti hamda qirol faoliyatini yoritish orqali oila va jamiyat o'rtasida parallel o'tkazadi: "...asar podshoh-ning oila boshlig'i sifatidagi roli haqidagi konfutsiychilik tasavvuri nuqtayi nazaridan yozilgan. Bunda pod-shohga mavjud konfutsiychilik me'yorlari va qoidalariga rioya etish, shu tariqa, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash vazifasi yuklanadi. Asarda oila va davlat ishlari bir-biri bilan bog'langan, chunki davlat – katta oila, agar oilada tartib bo'lmasa, bu o'z-o'zidan davlatda ham tartibsizliklarga olib keladi, degan g'oya yetakchilik qiladi" [6;155-b.]. Bu yerda podshoh obrazi Li sulolasi davrida davlatni boshqar-gan qirol Sukjonning prototipidir.

Bugungi kunda Seul universiteti kutubxonasida asl nusxasi saqlanib qolgan “To‘qqiz kishining bulutli tushi” romani adib amal qilgan hayotiy qoidalarga tamoman zid keladi. Aniq – matematika, astronomiya, geografiya kabi fanlar bilan shug‘ullangan, iqtisod, ta’lim, maorif masalalari tashvishi bilan yashagan, Xitoy madaniyati va tiliga qarshi kurashgan, ona tilining otashin yalovbardori, harbiy ishlar qo‘mondoni lavozimida ishlagan yozuvchi o‘zi a‘zo bo‘lgan firqa hokimiyatdan chetlashtirilgandan so‘ng surgunga jo‘natildi. Surgundan qaytib kelmagan adibning avvalgi qarashlariga zid mazmunda yozilgan roman barchani hayratda qoldirdi. Zero, “Kim Manjun insonning vazifasi va uning ijtimoiy faolligi mazmuni haqidagi savolga javobni buddizmda topdi” [6;75-b.].

Romanda tasvirlayotgan voqea-hodisalar tushda kechadi, asar kompozitsiyasidagi tush motivi esa yozuvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatini, falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Insonning cheksiz istak mayllarini tush motivi orqali badiiylashtirgan adib, saroydagi fitnalar, surgun, atrofidagi odamlarning o‘limga mahkum etilishi, nafsni qondirish yo‘llarini boshqa bir olamda ko‘rsatadi.

“Yun xonim haqida” roman yozuvchida adabiyotga mehr uyg‘otgan onasiga bag‘ishlangan. Adibning otasi vatanini manjur bosqinidan ozod qilish uchun kurashda halok bo‘lgan. Onasi Yun xonim to‘ng‘ich va kichik o‘g‘liga o‘zi tarbiya bergan. Romanda adib onasining ota o‘limidan so‘ng qimmatbaho kiyimlar va sovg‘alardan voz kechib, farzandlariga ilm berish uchun bor-budini sarflaganini alohida e‘tirof etadi. Shu bilan birga, adib farzandlarining ilm yo‘lida erishgan har bir muvaffaqiyati uchun ziyofatlar uyushtirgan onaning matonati oldida o‘zining chuqur minnatdorchiligini bildiradi. Farzandining siyosiy jarayonlardan voz kechib, ilm yo‘liga kirishini istagan ona o‘giti – “To‘qqiz kishining bulutli tushi” romanda ro‘yobga chiqadi.

Kim Manjundan so‘ng mumtoz davr koreys adabiyotshunosligida roman janrida yaratilgan asarlar kuzatilmaydi. Deyarli uch asrlik tanaffusdan so‘ng kitobxonlar ommasiga XX asrga kelib g‘arb, yapon va rus adabiyoti ta’sirida yozilgan yangi tipdagi romanlar taqdim etildi. Bu davrga kelib mamlakatda yapon mustamlakachilariga qarshi partizanlar harakati ketayotgan edi. Partizanlar orasida inqilobiy qo‘shiqlar, kichik komediyalar, satirik pesalar mashhur bo‘ldi. Kuchli ta’qiqlarga qaramay, chuqurlashib borayotgan kurashlarga homahang tarzda adabiyotda inqilobiy mavzulardagi hikoya va qissalar salmog‘i oshdi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ijod ahli oldiga yangi mavzular bilan birga faol kurashchilarning umumlashma obrazini yaratish vazifasini qo‘ydi. Zero, kichik hikoya shakli bularning barchasini o‘ziga sig‘dira olmasdi [10; 91-b.].

XX asr boshida mamlakatda sodir bo‘lgan qator ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar koreys adabiyotida adabiy janrlarning shakl va mazmun jihatdan o‘zgarishiga turtki berdi. Koreys nasriy janrida, avval, hikoya va qissa, so‘ng, romanlar mavzui, unda ko‘tarilgan masalalar birmuncha erkinlashdi, ona tiliga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi. Mamlakatning tarixiy taqdiri va ma’naviy-ma’rifiy sohalarida yuzaga kelgan qator muammolar yangi tipdagi nasriy asarlar uchun manba vazifasini o‘tadi.

Bu davrga kelib o‘z haq-huquqi uchun kurashayotgan xalq, ishchi va dehqonlarning mazlum hayotini o‘zida aks ettirgan Li Gianning “Vatan” (1934), “Bahor” (1940), Kan Kyon Ening “Bashariyat muammosi” (1934), Xon Myon Xining “Im Kok Chon afsonasi” (1939) kabi tarixiy romanlari chop etildi.

Li Gianning “Vatan” romani 1933–1934-yillar davomida “Koreys qaydlari” gazetasida bobma-bob chop ettirildi. Romanda qishloqning qashshoq ijarachi dehqoni hamda olis shahar zavodida ishlaydigan ishchilarning hayoti parallel tarzda chiziladi. Muallif qashshoqlik, yo‘qsillik hamda boylik o‘rtasidagi kurash oqibatida oddiy insonlar ongining o‘rishini tasvirlash asnosida qulchilikka qarshi kurashning vujudga kelganini ko‘rsatadi. Roman janubiy koreyalik tanqidchilar tomonidan realizm yo‘nalishida yozilgan yapon istilosi davrining eng sara asarlari qatoriga kiritildi [11;412-b.]. Yozuvchi ijodini ilmiy tahlilga tortgan rus olimasi V.V.Ivanova ham mazkur romanni adib ijodida “ahamiyatga molik roman” [2;94-b.], deb e‘tirof etadi.

Kan Kyon E “Bashariyat muammosi” romanida mustamlaka davrida ishchi va dehqonlarning umumlashma obrazini chizadi. Mustamlaka sharoitida mazlum, itoatli xalqning rohat ko‘rmasa-da, vaziyatga moslashib tinimsiz mehnat qilishida – koreys xalqi ruhiyatini o‘zida aks ettirgan azaliy xan kategoriyasi ko‘zga tashlanadi. Yozuvchining bu asarini o‘qigan adiba Pak Vanso o‘zining “Shuncha shinganing gulini kim yegan?” romanida o‘z mulohazalarini shunday ifodalaydi: “Kan Kyon Ening romani ruhiy jihatdan chuqur ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ishtaham qochib, bir necha kun hech narsa yeya olmadim. Romanda bolaning boshiga yiringli yara toshgan sabab dori vositasi sifatida sichqon terisini shilib, xuddi telpakdek kiydirib qo‘yishadi. Oxir-oqibat bolaning boshida butunlay lichinkalar g‘ujg‘on o‘ynaydigan bo‘lib qoladi. Garchi men ham et kuysa darrov tvenjang (soyadan tayyorlangan pasta) surkaydigan muhitda o‘sgan bo‘lsam-da, bu yoqimsiz va qo‘rqinchli hikoyadan ko‘nglim ozidi” [14;201-b.].

Mashhur yozuvchi Yom Sansop murakkab va ziddiyatlarga to'la zamon – yapon anneksiyasi davrida yashab ijod qildi. Avval hikoya janrida ijod qilgan adibning “Uch avlod” romani uning eng salmoqli adabiy yutuqlaridan biri sifatida tan olindi. Roman trilogiyadan iborat bo'lib, uning har bir qismi o'z nomiga ega: “Faqat senga og'ir deb o'ylaysanmi?” “Birinchi mojar”, “Ovoza”.

Romanning har uch qismi yagona syujet chizig'iga bo'ysundirilgan, ammo, asar kompozitsiyasida bayon etiluvchi voqealar o'rtasida vaqt jihatidan izchillik mavjud emas. Yom Sansopning aksariyat asarlari kabi, bu roman voqealari ham poytaxt shahar – Seulda kechadi. Janubiy koreyalik adabiyotshunos Kim Chong Yun shu nuqtayi nazardan Yom Sansopni rus adibi Dostoyevskiy bilan qiyoslaydi: “Dostoyevskiy o'zi tug'ilib o'sgan shahar – Peterburgni o'z asarlarining manzarasiga aylantirganidek, Sansop ham o'zi tug'ilgan va yashagan Seulni o'zining deyarli barcha asarlarining manzarasiga aylantirdi” [15;24-b.].

Poytaxtning o'rta sinfiga mansub muallif mamlakat tarixini, azaliy qadriyatlarini yaxshi bilgan, seulliklarga xos shevaning o'ziga xos jihatlaridan xabardor bo'lgan, o'z navbatida, bundan o'z asarlarida unumli foydalangan. Yozuvchi oilaning uch avlod vakili misolida 20-yillar koreys jamiyati tasvirini mohirona chizadi. Davr nafasi, unga xos xususiyatlar roman qahramonlari xatti-harakatlari va voqealar ortidagi tarixiy manzara tasvirida, shuningdek, romanning bosh mojarosida bo'rtib namoyon bo'ladi.

Zamonaviy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi I Te Junning “Dehqon yerlari” romani dehqonlar hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda Shimoliy Choson davlatida amalga oshirilgan yer islohoti masalasiga muallifning munosabati aks ettirilgan. Roman syujetini harakatga keltiruvchi, dehqon obrazini turli rakurslarda ochib beruvchi, davr haqida fikr uyg'otuvchi ramz bu – yer.

Roman 17 bobdan iborat bo'lib, 1–12-boblar yapon mustamlakasi davridagi yer, ijarachi dehqon, yer egalarning dehqonlarga o'tkazgan tazyiqi, dehqon zahmatlari masalasiga qaratilgan. Romanning qolgan 13–17-boblarida mamlakatning ozodlikka erishgan yillari, ijtimoiy maqomi o'zgargan dehqon, yer islohoti muammolari yoritilgan. Yozuvchi bir umr yollanma ishchi bo'lgan dehqonning haqiqiy yer egasi sifatida o'z maqomini anglab yetmagani, yer islohoti mazmun-mohiyatini tushunmaganini feodal qoloqlik hamda yapon istibdodi davri bilan uzviy bog'laydi. Romanning tuguni ham haqiqiy yer egasiga aylangan dehqonning endi faqat qorin to'ydirish g'amidan uzoqlashib, yerdan foydalanish muammosiga duch kelishi bilan boshlanadi. Roman tashqaridan boshqarilayotgan ochiq siyosat haqidagi asar sifatida ham yuqori baholandi [16;373-b.].

Muallif romanda sotsialistik mafkura ta'sirida tortib olingan yerlar, mulk, yakka tartibdan umumga o'tish jarayonida oddiy dehqon duch kelgan muammolar zamiriga yangi tuzumning salbiy jihatlarini berkitadi. Bu yozuvchining jamoaviy tartibda ishlashga o'tish davriga bergan bahosidir.

1945-yil mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng turmushning an'anaviy shakllarini tubdan o'zgartirish, jamiyatni ijtimoiy qayta qurish muammolari butun keskinligi bilan yuzaga chiqdi. Tabiiyki, yozuvchilar oldida bu murakkab jarayonni badiiy aks ettirish muammosi turardi. 1945–1950-yillar oralig'ida hikoya va qissa janri keng taraqqiy etgan holda, roman janri taraqqiyoti biroz sustlashdi. Bu qisqa davr ichida ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bilan sug'orilgan qator asarlar paydo bo'ldi. 1950-yillarga kelib mamlakatda mafkuraviy kurash keskinlashdi, bu koreys adabiyotiga ham ta'sir o'tkazdi.

Murakkab tarixiy vaziyat va mafkuraviy bo'shliq sabab ijodkorning estetik tamoyili, g'oyaviy qarashlari ham o'zgardi. 1950–1953-yillarda bo'lib o'tgan qondoshlar urushi koreys xalqiga qaqshatqich zarba berdi. Ikki xil mafkura ostida bo'lingan mamlakat hududida qolib ketgan aka-ukalar, opa-singillar, ot-onalar boshidan og'ir, judoli kunlar o'tdi. Tabiiyki, ijod ahli o'z e'tiborini fuqarolar urushi, uning salbiy oqibatlari masalasiga qaratdi. Xvan Sunvon jang maydonida ijod qilgan sanoqli yozuvchilar qatorida turadi. Adib qalamiga mansub qator asarlar, jumladan, “Qamoqdagi daraxtlar”da inson ruhiy iztirobi, “Tog'lar”, “Hayot”da esa tirik qolish uchun harakat, “Yomg'ir”da urush maydonida vahshiylashgan inson qiyofasi aks ettiriladi [12].

Davrning mashhur yozuvchilaridan bo'lgan Cho Chonne 6 yil uzluksiz va samarali izlanishlar natijasi o'laroq “bo'lingan millat” muammosiga bag'ishlangan “Txebek cho'qqisi” romanini taqdim qildi. To'rt qismdan iborat roman o'zida 1948–1953-yillar mamlakatda sodir bo'lgan voqealarni mujassam etadi. Romanda bosh va ikkinchi darajali ko'plab qahramonlar ishtirok etadi, ammo yozuvchi e'tiborini azaliy aka-uka obrazlari o'ziga tortadi. Romanda tasvirlangan voqea-hodisalar Cho Chonne hayotiga yaqin, ya'ni urush ishtirokchisi sifatida yozuvchi urush voqealarini yorqin bo'yoqlarda, hayotiy obrazlarda ko'rsata oldi. Urush maydonida, aniqrog'i, janub va shimol askarlari hayotini yoshlar, aka Yom Sanchin, uka Yom Sangu dunyoqarashlari orqali tasvirlashda adib mahorati ko'zga tashlanadi. Aka chap qanot, uka o'ng qanot vakili sifatida kurashadilar. Aniq qiyofaga ega aka-uka obrazlari o'z yoshi va saviyasi darajasida harakat qiladilar.

Muallif aka-uka munosabatlarida davr ziddiyati va inson qiyofasini haqqoniy ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). Fuqarolar urushining keng ko'lamdagi tasviri Chxve Inxunning "Maydon" romanida bo'rtib ko'zga tashlanadi. Roman koreys badiiy olamida yangi sahifa ochilishiga sabab bo'ldi. Mamlakat hayotidagi to's-to'polonlar fonida inson ruhiyati mahorat bilan ochib berilgan. Xalq turmush tarziga ham jismonan, ham ruhiy zarba bergan urush ishtirokchi ko'zi orqali tasvirlanadi. Frontda tarjimon sifatida faoliyat yuritgan muallif romanda shimol va janub mafkurasiga tanqidiy yondashadi. "Maydon" romani chop etilgandan so'ng adib adabiyot olamida mashhurlikka erishdi hamda qator adabiy mukofotlar sovrindori bo'ldi. Romanda aks ettirilgan "mafkuraviy jang" o'quvchini chuqur tafakkur olamiga g'arq etadi. Frontda – mamlakatning janub va shimol hududida urush jarayonlarida ishtirok etgan yozuvchi o'zi guvoh bo'lgan voqealarni ro'yi-rost qog'ozga tushirdi. Bu haqida yozuvchining o'zi shunday yozadi: "...“Maydon” romaniga keladigan bo'lsak, men mazkur asarni yaratishda badiiy mahoratimdan ko'ra ko'proq hayotiy tajribamga tayandim" [13].

Yozuvchining mazkur romani mamlakat tarixining eng fojiali yillariga bag'ishlangan. Roman bosh qahramonining 38-parallel chizig'ining har ikki tarafida izlagan, afsuski, topilmagan erkinlik, ozodlik va tenglik *maydon* so'zida o'z ifodasini topadi. Asarda muallif tomonidan qo'llanilgan "*maxfiy xona*" ("밀실"), "*maydon*" ("광장"), "*moviy maydon*" ("푸른 광장"), "*betaraf mamlakat*" ("중립국") kabi ramziy ma'no tashuvchi iboralar romanning badiiy-g'oyaviy mazmunini anglatadi. "Maydon" romani dunyoning qator tillari, ingliz, fransuz, ispan, nemis tillariga tarjima qilindi.

Harbiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchi Pak Un Ger qalamiga mansub "Vatan" romanida shimoliy Koreya hududiga ko'chib o'tgan ijodkorning qarashlari, nafasi sezilib turadi. Shimoliy Koreya mafkurasi asosida yoritilgan asarda qo'shni davlatlar, ya'ni, Shimoliy va Janubiy Koreyaning o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyat obyektiv tasvirlanadi. Sobiq Ittifoq koreysshunos olimlari o'rinli e'tirof etganlaridek: "Yozuvchining diqqat markazida xalq ozodligi uchun har qanday qahramonlikka tayyor turgan inson turadi" [3;111-b.]. Yozuvchi roman sarlavhasiga olib chiqqan *vatan* so'zi zamirida bir haqiqat yotadi, ya'ni, Koreyaning barcha hududi har bir fuqaro uchun tug'ilib o'sgan zamin, bu zaminni tark etish, tashlab ketish mumkin emas. Bu yerga kindik qon to'kilgan. Mafkuraviy bo'linish davri fojialarini ko'rsatish orqali, inson tafakkuridagi nosog'lom qarashlar tanqid qilinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, koreys adabiyotida roman janriga asos solinganiga salkam uch asr vaqt o'tdi. Ilk romanlarda oila va jamiyat masalalari parallel chizildi, o'zlikni anglash muammosi yuzaga chiqdi. Ikki asrlik tanaffusdan so'ng yaratilgan romanlarda turli sujet chizig'iga asolanib, vaziyatni real tasvirlash xos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Акбарова М.Х. Эволюция жанров. Т., 2009.
- (2). Иванова В.И. Новая проза Кореи. М., 1987.
- (3). История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-томах, М., 1974.
- (4). Норматов У. Роман кўзгусида миллат тақдири. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Ўзбекистон Республикаси давлат мукофоти соҳиби, Ўзбекистон Республикаси Фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами, Тошкент, "Фан", 2012.
- (5). Петрова О.П. Описание письменных памятников корейской культуры. М., "Наука", 1963.
- (6). Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. Филол. фанл. д-ри дисс., Тошкент, 2018.
- (7). Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт ҳавасмандлари ҳам муаллимлари учун қўлланма, Тошкент –Самарқанд, 1926, нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев Т., "Ўқитувчи", 1995.
- (8). Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд, Т., "Маънавият", 2006.
- (9). Қўшжонов М. Танланган асарлар. Т., "Шарк", 2018.
- (10). Chung Chong-wha. Modern Korean Literature. Ananthology 1908–1965, London, 1995.
- (11). Small dictionary of Korean literature. Seoul, 2000.
- (12). Im Hon-yong, Hwang Sun-won. Who's who in Korean literature – Seoul, Hollym, 1996.
- (13). Choi In-hoon. The flame in my mind has never died down for the past 48 years. Jeong Yang-hwan Staff Reporter The Dong-a Ilbo. November 20, 2008.
- (14). 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012.
- (15). 한국문학에서 뽑은 작품. – 서울, 2000.
- (16). 김재영. 농토연구. 상허학회, 상허학보. – 제1집. 1993.

JURNALISTIKA

Atajanov Xurmet Abdimuratovich (Qoraqalpoq davlat universiteti “Jurnalistika” kafedrasini dotsenti;
hurmet_05@mail.ru)

MINTAQAVIY MEDIAMAKON MASALALARI

Annotatsiya. Muallif mediamakon tushunchasini mintaqaviy jihatdan o‘rganishga harakat qilgan. Mintaqa nima va mintaqaviy jurnalistikaning asosiy mavzu yo‘nalishlari, mintaqada mediamakonning shakllanishiga ta‘sir qiladigan omillar har tamonlama tahlilga olingan.

Kalt so‘zlar: mediamakon, mintaqaviy jurnalistika, jurnalistika janrlari, hudud, mintaqaviy matbuot, ekologik muammolar.

Атажанов Хурмет Абдимуратович (доцент кафедры Журналистика Каракалпакского государственного университета; hurmet_05@mail.ru)

ВОПРОСЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ МЕДИА СРЕДЫ

Аннотация. Автор попытался изучить понятие медиа среды в региональном аспекте. В статье проанализированы вопросы, что такое регион, основные тематические направления региональной журналистики, факторы влияющие на развитие медиа среды в регионе.

Ключевые слова: медиа среда, региональная журналистика, регион, жанры журналистики, региональная печать, экологические проблемы.

Atajanov Khurmet Abdimuratovich (Associate Professor, Department of Journalism, Karakalpak State University; hurmet_05@mail.ru)

ISSUES IN THE REGIONAL MEDIA ENVIRONMENT

Annotation. The author tried to study the concept of the media environment from a regional perspective. The article analyzes what a region is, the main thematic areas of regional journalism, factors influencing the development of the media environment in the region.

Key words: Media environment, regional journalism, region, genres of journalism, regional press, environmental problems.

Kirish (Introduction). Bugungi kunga kelib jurnalistika nazariyasi har xil aspektlarda o‘rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilib kelmoqda. Jurnalistika janrlari, media sohalari va boshqa mavzuli yo‘nalishlar har tomonlama o‘rganilgan. Ammo media va jurnalistikaning mintaqaviy rivojlanishi, xususiyatlari, O‘zbekistonda ma‘lum hudud misolida kam o‘rganilgan. Shu qarashdan olib qaraydigan bo‘lsak, jurnalistikaning ma‘lum bir mintaqaga xususiyatni ko‘lamida o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mintaqaviy (region) jurnalistika deganimiz nima va u qanday maqsatlarni qo‘yadi, asosiy xususiyatlariga e‘tibor qaratmasdan oldin mintaqaga so‘zining ma‘nosiga e‘tibor qaratishimiz to‘g‘ri bo‘lsa kerak.

Mintaqa (region – davlat, viloyat) katta hududiy birlik (masalan, tabiiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqalar). Mintaqaviy – ma‘lum bir mintaqaga tegishli bo‘lganligi (tuman, viloyat, davlat, bir qator davlatlar guruhi) [1].

Siyosiy adabiyotlarda mintaqaga – bu o‘ziga xos siyosiy ko‘rinish, har xil siyosiy shaklga ega bo‘lishi mumkin [2]. Mintaqaning falsafiy ma‘nosi – bu faqatgina shu hududga xos bo‘lgan mentalitet, fikr yuritish obrazi, dasturlar, dunyoqarash xos bo‘lgan o‘zgacha dunyo hisoblanadi [3].

Agar mintaqaga atamasiga teranroq tushuntirish beradigan bo‘lsak, ko‘pgina tahlillarni keltirib o‘tishimiz kerak. Ammo maqsadimiz mintaqaviy jurnalistikaning xususiyatlariga to‘xtab o‘tishdan iborat. Ya‘ni, mintaqaviy jurnalistika – bu o‘ziga xos hududga ega bo‘lgan mintaqada bo‘lib o‘tayotgan o‘zgarishlar bilan yangiliklarni yoritib boradigan jurnalistika sifatida ta‘kidlab o‘tishimiz mumkin. Qator olimlar atamaga nazariy asos yaratishga harakat qilishgan. Masalan, olim Y.A.Kornilovning fikricha, «mintaqaviy jurnalistika bu hududiy yoki milliy etnik xususiyatga ega ko‘rsatuvlar bilan nashrlarda ko‘zga tashlanadi, ya‘ni, ular mintaqaga ko‘lamidagi axborot bilan auditoriyaning talablarini qondiradi» [4].

Rossiyalik olim, Ural mintaqaviy matbuoti bo‘yicha tadqiqot olib borgan B.N.Kirshin mintaqaviy matbuot bo‘yicha quyidagi fikrni bildiradi: «Bu umumiy milliy axborot vositalari tizimi asosini tashkil qiladi. Eng yaxshi mintaqaviy nashrlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu gazetalarning o‘quvchilar auditoriyasi doimiy ravishda o‘z hududiga bog‘liq materiallarga bo‘lgan qiziqishi bilan o‘z xususiyatiga ega bo‘ladi» [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada, asosan, tipologik analiz, kontent, tarixiy analiz metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, mintaqaviy jurnalistika ma'lum bir hududta shakllangan va shu mintaqaga uchun ahamiyat kasb etadigan, ya'ni, ushbu mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va odamlarning yashash tarzini bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni auditoriyaga yetkazib beradigan obyekt hisoblanadi. Ammo bizning tahlillarimiz keng bo'lishi uchun global atamasi bilan solishtirib tahlil qilingan ishlarga e'tibor qaratdik. Nimaga deganda hozirgi paytda global jarayonlar lokal, ya'ni, mintaqaviy jarayonlarga ta'sir qiladi va bir-birini qo'llab-qo'vvatlab turadi.

R. Roberson mahalliy va mintaqaviy matbuotning global axboriy makondagi roli bilan joyiga e'tibor berib, global jarayonlarning ortishi bilan lokal jarayonlarning roli oshganligini ta'kidlab o'tadi [7]. Y.O. Arbatskiy esa lokal ommaviy axborot vositalari ko'pchilik holatda umumiy qiziqishga qaraganda shaxsiy qiziqishga e'tibor qaratish kerakligini aytadi [8].

Xohlagan jurnalistik tizim jamiyatda bo'layotgan jarayonlarni tahlili qilib boradigan va ma'lum darajada ta'sir qiladigan kuch hisoblanadi. Shunday ekan, mintaqaviy jurnalistikaning asosiy maqsadi sifatida ushbu hududning axboriy makonini shakllantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yangiliklarni umumiy davlat ko'lamiga olib chiqish kanali ham. Axboriy makoni bu umumiy jarayonlar bilan axboriy tizimlar hisoblanadi.

Axboriy makoni davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va jamiyatning boshqa sohalari bilan ommaviy kommunikatsiyaning texnologik imkoniyatlarining oshishi bilan o'zgarib boradi. Ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, eski sovet davrida chekka hududlarda axboriy makoni kommunistik g'oyaga bog'liq bo'lgan tushunchalar atrofidagi axborotlar soni ko'p bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillari esa milliy qahramonlar bilan milliy g'urur, milliy qadriyatlar bilan bog'liq axborotlar soni ortib bordi.

T.V. Zakupen axboriy makonni axborot, axborot manbalari infoduziomasi bilan qamrab olingan hudud ekanligiga urg'u beradi va undagi barcha subyektlar ushbu axborotni olish va uni yetkazib berishda birday imkoniyatlarga ega [9]. Y.P. Proxorov esa axborot makonni ommaviy axborot vositalari ish olib boradigan makon deb tushunadi va ular axborot manbalarini boshqaradi va egalik qiladi [10].

Ma'lum bir hudud o'z xususiyatlari, milliy, madaniy normalari orqali ijtimoiy va siyosiy muammolarga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Hudud kommunikatsion makoni sifatida ushbu xususiyatlarni shakllantiradi va ularni o'z lokal medialari orqali ko'pchilikka yetkazib beradi.

Shunday tendensiyani Qoraqalpog'iston mediasida bozoridagi mustaqillikning dastlabki yillarida ko'rish mumkin bo'ldi. Qoraqalpoq xalqining milliy mentaliteti, milliy dasturlari bilan milliy adabiyoti, milliy o'zligi tushunchalari mintaqaviy mediada o'z aksini topa boshladi. Milliy qahramonlar bilan milliy tarix, qoraqalpoq xalqining bir nechta asrlar davomida shakllangan tarixiy identivligi masalalari mahalliy medialarning asosiy mavzuli yo'nalishiga aylandi. Masalan, taniqli qoraqalpoq faylasufi J. Bozorboyev «Bizning bobolarimiz eng boshida o'z farzandlariga ota-bobolarining kim bo'lganligini bilishni o'rgatishgan. Ularda ota-bobolarimiz ishlari bilan maqtanish sezgilarini shakllantirishgan» [11]. Bu faqat bitta misol, bundan boshqa Alloyor Do'snazarov kim bo'lgan? Salmen eshon qanday inson bo'lgan edi, uning karomati haqiqatmi? degan savollar qoraqalpoq auditoriyasini qattiq qiziqitirgan.

Qoraqalpog'iston axborot makonida bunday masalalarning joy olishiga nima sabab bo'lgan ekan? Bunga bir nechta faktorlar sabab bo'lganligi aniq:

– birinchidan, ittifoq parchalanmasdan oldin bir nechta respublikada milliy nizolar kelib chiqdi. Millatlarni bog'lab turgan yelim ketdi. Har bir millat o'z kelib chiqishi bilan tarixini teran tadqiq qila boshladi;

– ikkinchidan, auditoriya umumittifoq axborotlaridan bezib boshlagandi. Auditoriyani ko'proq lokal masalalar qiziqitira boshladi;

– uchinchidan, xalqda uyg'ona boshlagan milliy ong, o'z tarixi bilan o'tmishini yoritib boradigan kontentlarga talab ortib bordi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Qoraqalpog'iston auditoriyasi uchun ekologiya masalasi eng dolzarblardan hisoblanadi. Nimaga deganda, hudud xalqining hayoti Orol dengizi bilan va uni suv bilan ta'minlab turgan Amudaryoning holati bilan chambarchas bog'liq.

Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holat iqtisodiy mavzuga, muammoga bo'lgan talab oshirib yuboradi. Bunga bir nechta sabab bor:

– birinchidan, ekologik muammo xalqning hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Masalan, «Erkin Qoraqalpoqstan» gazetasida chop etilgan «Aral hám qurilis. Yamasa Qoraqalpoqstanda turaq joylar nege tez tozadi?» mavzusidagi maqolada ekologik muammo sababli yerlarning sho'rlanishi xalq tomonidan qurilayotgan uylarning yemirilishiga olib kelayotganligi ta'kidlanadi. Demak, ekologik muammo fuqarolarning hayot tarzida ta'sir qila boshlagan;

– ikkinchidan, ekologik muammo xalqning ko‘chib ketishiga, Orol dengizi atrofidagi yashab kelayotgan xalq dengizning chekina boshlashi bilan ichki hududlar va boshqa respublikalarga ko‘chishga majbur. Bu ham mahalliy medialarning asosiy mavzuli yo‘nalishiga aylandi;

–uchinchidan, ekologik, ya’ni, Orol dengizi bilan bog‘liq xo‘jalik yuritish korxonalarining yopilishi ushbu hududda yashayotgan fuqarolarning yashash tarziga, oila kelayotgan daromad manbasiga ta’sir qildi.

Demak, hududning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarida bo‘layotgan muammolar va o‘zgarishlar ushbu mintaqaning axborot makoni shakllanishiga ta’sir qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Большая советская энциклопедия (1970–1977 гг.). Электрон нусхада, М., 2003, с. 234.
- (2). Декларация о регионализме в Европе. Цит. по: Коваленко Е.Г. Региональная экономика и управление, учеб. пособие, СПб., “Питер”, 2005, с. 21–22.
- (3). Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм: XV – XVIII вв. [http://www. Auditorium.ru/books/2021/goto.cgi-13+283+ brod.htm](http://www.Auditorium.ru/books/2021/goto.cgi-13+283+ brod.htm).
- (4). Корнилов Е.А. Классификация социокультурных моделей журналистики. Вестн. Моск. ун-та, сер. 10. “Журналистика”, 1999, № 1.
- (5). Киршин, Б.Н. Концепция региональной российской газеты (на примере «Челябинского рабочего»). Б.Н.Киршин. Автореф.дис. ... канд. филол. наук, 10.01.10. Екатеринбург, 2006, с. 3.
- (6). Киршин, Б.Н. Концепция региональной российской газеты (на примере «Челябинского рабочего»). Б.Н.Киршин. Автореф.дис. ... канд. филол. наук, 10.01.10. Екатеринбург, 2006, с. 3.
- (7). Арбатская, Е.О. Имеет ли значение глобализация? Е.О.Арбатская. “Журналистика” в 2004 г., СМИ в многополярном мире. Сб. материалов науч.-практ. конференции, ч. 1, М., 2005, с. 340; с. 50–52.
- (8). Арбатская, Е.О. Имеет ли значение глобализация? Е.О.Арбатская. “Журналистика” в 2004 г., СМИ в многополярном мире. Сб. материалов науч.-практ. конференции, ч. 1, М., 2005, с. 340; с. 55.
- (9). Закупень Т.В. Правовые и организационные аспекты формирования информационного пространства государств – участников СНГ. М., 1998, с. 2.
- (10). Прохоров Е.П. Журналистика и демократия. М., 2001, с. 20.

Abdusattorov Shahboz Shavkat o‘g‘li (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi)

AGRAR JURNALISTIKA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Аннотация. Ushbu maqolada agrar jurnalistikaning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, qishloq xo‘jaligi mavzularining ommaviy axborot vositalarida yoritilish tendensiyalari hamda innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari, ekologik xavfsizlik va multimediali materiallardan foydalanish orqali agrar mavzularni yanada samarali yoritish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston televideniyasidagi tajribalar va xorijiy OAV amaliyoti solishtirilib, sohani rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Калит so‘zlar: agrar jurnalistika, qishloq xo‘jaligi, ommaviy axborot vositalari, innovatsion yondashuvlar, multimediali materiallar, ekologik xavfsizlik, axborot texnologiyalari.

АГРАРНАЯ ЖУРНАЛИСТИКА: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования и развития аграрной журналистики, тенденции освещения сельскохозяйственных тем в средствах массовой информации, а также инновационные подходы. Особое внимание уделено использованию информационных технологий, экологической безопасности и мультимедийных материалов для более эффективного освещения аграрных вопросов. Рассматривается опыт телевидения Узбекистана и зарубежных СМИ, а также даются рекомендации по развитию данной сферы.

Ключевые слова: аграрная журналистика, сельское хозяйство, средства массовой информации, инновационные подходы, мультимедийные материалы, экологическая безопасность, информационные технологии.

AGRICULTURAL JOURNALISM: MODERN APPROACHES AND SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE

Annotation. This article analyzes the formation and development of agricultural journalism, the trends in covering agricultural topics in mass media, and innovative approaches. Special attention is given to the use of information technologies, environmental safety, and multimedia materials to improve the

effectiveness of agricultural coverage. The practices of Uzbekistan's television and international media are compared, and recommendations for the further development of the field are provided.

Keywords: *Agricultural journalism, agriculture, mass media, innovative approaches, multimedia materials, environmental safety, information technologies.*

Kirish (Introduction). Agrar jurnalistika – qishloq xo‘jaligini yoritishga ixtisoslashgan soha bo‘lib, uning shakllanishi XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Yo‘nalishning tarixiy ildizlari qishloq xo‘jaligi siyosati, fermerlar ehtiyojlari va ilmiy tadqiqot ishlanmalar haqidagi axborotni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan [1]. XX asrda jadal sanoatlashtirish va global oziq-ovqat ta‘minotidagi muammolar agrar jurnalistikani alohida sohaga aylantirdi. Ayniqsa, ilmiy va murakkab yondashuvni talab qiluvchi muammolar bu yo‘nalishda maxsus bilimga ega jurnalistlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Dastlabki bosqichda agrar jurnalistika davlat tomonidan boshqariladigan nashrlar va radioeshittirishlar orqali shakllangan. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqida agrar siyosatni targ‘ib qilish uchun maxsus gazeta va jurnallar nashr etilgan bo‘lsa, AQSH va Yevropa davlatlarida agrar masalalarni yoritishda tijorat telekanallari va gazetalarning roli katta edi. Ushbu medialar qishloq xo‘jaligi yangiliklarini yetkazish, fermerlar tajribasini targ‘ib qilish va ilmiy ishlanmalarni ommalashtirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Mavzu bo‘yicha deyarli tadqiqot olib borilmagan. O‘zbekistonlik olimlardan M.Xudoyqulov, N. Abduazizova, F.Nesterenko, Q.Ernazarov, Y.Mamatova tomonidan yozilgan asarlarda mavzuning ayrim xususiyatlari o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi vaqtda agrar jurnalistika Yevropa mamlakatlari, AQSH, jumladan, O‘zbekistonda ham professional yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Mamlakatimizda agrar mavzuni yorituvchi nashrlar kengayib, alohida telekanal ham ish boshladi. AQSH va Yevropada axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan agrar jurnalistika yangi bosqichga ko‘tarildi, onlayn platforma va blokklar orqali agrar soha yangiliklarini tezkor tarzda keng jamoatchilikka yetkazish imkoni kengaydi. Shu tariqa, agrar jurnalistika nafaqat an‘anaviy axborot vositalari, balki raqamli platformalarda ham muhim o‘rin egalladi.

O‘zbekiston televideniya sinigining “Qishloq hayoti” ko‘rsatuvi qishloq xo‘jaligi masalalarini keng yorituvchi asosiy platformalardan biri hisoblanadi. Ko‘rsatuvda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti, fermerlik muammolari, zamonaviy texnologiyalar va ekologik yondashuvlar kabi dolzarb mavzular yoritiladi. Biroq ko‘rsatuvda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- **Auditoriyani jalb qilishdagi qiyinchiliklar.** Ayrim holatlarda mavzularning yetarlicha qiziqarli tarzda yoritilmasligi bois tomoshabinlar diqqatini tortmaydi.

- **Innovatsion yondashuv yetishmasligi.** Smart texnologiyalar va sun‘iy intellekt mavzulariga yetarlicha e‘tibor qaratilmasligi kuzatiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun:

1. Ko‘rsatuvda interaktiv segmentlarni joriy qilish.
2. Innovatsion texnologiyalarni amalda ko‘rsatish uchun ekspertlar ishtirokidagi maxsus chiqishlar tashkil etish.

3. Yosh auditoriyani jalb qilish uchun raqamli platformalarda qisqa videolavhalar tayyorlash kabi choralar ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi mavzularini yanada dolzarb va qiziqarli yoritish orqali tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish va sohani ommalashtirishga erishish mumkin. Televideniya qishloq xo‘jaligi mavzularini yoritishda dolzarb muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llaridan biri xalqaro tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanishdir. Masalan, AQSH va Yevropada agrar masalalarga ixtisoslashgan teleko‘rsatuvlar texnologik innovatsiyalarni ommaviylashtirishda katta rol o‘ynaydi. Bunday tajriba O‘zbekistonda “Qishloq hayoti” kabi ko‘rsatuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kelgusida agrar mavzularni yoritish samaradorligini oshirish uchun:

- **Auditoriya tahlili.** Tomoshabinlarning talab va qiziqishlarini o‘rganish orqali kontentni yanada dolzarbroq qilish.

- **Multimediali yondashuv.** Televideniya, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kontentni sinxron yoritish orqali ko‘proq auditoriyaga yetib borish.

- **Ixtisoslashgan jurnalistlarni tayyorlash.** Agrar mavzularni chuqur tushunadigan va zamonaviy jurnalistik ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga e‘tibor qaratish.

• **Innovatsion ko‘rsatuv formatlari.** Masalan, qishloq xo‘jaligi mavzulariga bag‘ishlangan hujjatli filmlar, tok-shoular va interaktiv dasturlarni ishlab chiqish.

Shunday qilib, televideniya qishloq xo‘jaligi masalalarini keng va sifatli yoritish orqali nafaqat tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish, balki agrar sohaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish mumkin. Bu yondashuv mamlakatning agrar siyosatini ommaviylashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy agrar jurnalistika internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qishloq xo‘jaligi masalalarini tezkor, interaktiv va keng auditoriyaga yetkazishda muhim vosita sifatida foydalanmoqda [1]. O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligi mavzularini yorituvchi maxsus veb-sayt va ijtimoiy media kanallari rivojlanib bormoqda. Masalan, fermerlar va tadbirkorlar uchun maxsus mobil ilovalar orqali bozordagi narxlar, agrotexnik tavsiyalar va ekologik xavf-xatarlar haqida ma’lumot yetkazilmoqda.

Innovatsion taklif sifatida:

• **Platformalararo integratsiyani kuchaytirish.** Teleko‘rsatuvlarni ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘lash orqali auditoriyani kengaytirish.

• **Interaktiv efirlar.** Jonli muloqotlar va onlayn savol-javob formatidagi dasturlarni ko‘paytirish.

• Agrar bloglar va ekspertlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali mavzuni kengroq yoritish.

Multimediali materiallar – agrar jurnalistika samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri. Ovozli va videokontentlar yordamida qishloq xo‘jaligiga oid mavzularni jozibali va tushunarli shaklda tomoshabinlarga yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklarida qo‘llanilayotgan texnologiyalarni amalda ko‘rsatish orqali auditoriyani jalb qilish o‘z samarasini bermoqda [2].

• **Interaktiv videolar.** Smart texnologiyalarni qo‘llash usullari yoki ekologik innovatsiyalarni tushuntiruvchi qisqa va ko‘rgazmali videolar tayyorlash.

• **Podkast formatidagi ko‘rsatuvlar.** Fermerlar va ekspertlar bilan suhbatlarni audioformatda tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish.

• **Virtual turlar.** Fermer xo‘jaliklari, ekologik loyihalar yoki zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilayotgan dalalarga virtual ekskursiyalarni tashkil qilish agrar jurnalistika rivojida muhim rol o‘ynaydi.

Qishloq xo‘jaligi barqarorligi va ekologik xavfsizlik mavzulari bugungi kunda global jurnalistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekistonda suv resurslarini tejash, tuproq unumdorligini saqlash va ekologik mahsulotlar yetishtirish masalalari dolzarbligini saqlab qolmoqda [3]. Ushbu mavzularni yoritish orqali jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga e’tiborni oshirish mumkin:

• Barqaror rivojlanishga oid maxsus dasturlarni tashkil qilish.

• Hujjatli filmlar orqali ekologik xavf-xatarlar va ularning yechimlari haqida ma’lumot berish.

• Ekologik xavfsizlik bo‘yicha xalqaro ekspertlarning fikrlarini yoritib borish.

Agrar jurnalistikada innovatsion yondashuvlar qishloq xo‘jaligi masalalarini keng jamoatchilikka yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari, multimediali materiallar va ekologik masalalarga alohida e’tibor qaratish orqali ushbu yo‘nalishni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shuningdek, ushbu yondashuvlar auditoriya qiziqishini oshirish bilan birga, agrar sohaga ko‘maklashish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Milliy telekanalarda qishloq xo‘jaligi masalalarini yoritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, **“Qishloq hayoti”**, **“Dehqonlar uchun maslahatlar”**, **“Yer va suv resurslari”** kabi ko‘rsatuvlar orqali fermer xo‘jaliklarining muammolari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari hamda ekologik xavfsizlik bo‘yicha ma’lumotlar berib boriladi. Ushbu dasturlar aholining agrar sohaga bo‘lgan qiziqishini oshirish va fermerlarning ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Xorij televideniyaesida esa agrar mavzularni yoritishning texnologik va ijodiy jihatlari ko‘zga tashlanadi. Masalan, AQSHdagi **“AgDay”** va **“Farm Journal”** kabi ko‘rsatuvlar sun’iy intellekt, ekologik dehqonchilik, va qishloq xo‘jaligida global tendensiyalarni keng yoritadi. Yevropada esa ekologik barqarorlikka qaratilgan dasturlar, masalan, **“Green Farming TV”** orqali organik mahsulotlarni yetishtirish va bozorlarga chiqarish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Xorij tajribasi O‘zbekiston televideniyaesida innovatsion formatlarni joriy etishda namuna bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda agrar mavzudagi ko‘rsatuvlar aholining qishloq xo‘jaligiga oid bilimlarini oshirish, fermerlar uchun amaliy maslahatlar berish va qishloq xo‘jaligidagi dolzarb muammolarni muhokama qilish vazifasini bajaradi. O‘zbekiston televideniyaesidagi agrar ko‘rsatuvlarning tahliliy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Axborotning dolzarbligi.** Mavjud muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan mavzular tanlanadi.

- **Ekspert yondashuvi.** Har bir dasturda sohaga oid ekspertlarning fikrlari yoritiladi.

- **Tushunarli format.** Ovozli va vizual materiallardan foydalanib, mavzular keng ommaga tushunarli tarzda taqdim etiladi.

Biroq ayrim holatlarda, tahliliy chuqurlik yetishmasligi yoki zamonaviy texnologiyalar haqida yetarli ma'lumot berilmasligi kuzatilmoqda. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorijiy tajribalarni o'rganib, amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, agrar jurnalistika nima uchun kerak?

Qisqacha qilib aytganda, agrar jurnalistika qishloq xo'jaligi sohasidagi dolzarb masalalarni keng jamoatchilikka yetkazish orqali nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga ko'maklashuvchi muhim vositadir. Masalan:

- **Axborot yetkazish.** Fermerlar, agronomlar va qishloq xo'jaligi sohasi vakillariga zamonaviy bilim va texnologiyalar haqida ma'lumot berish.

- **Jamiyat ongini shakllantirish.** Agrar sektorning ahamiyati, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari haqida jamoatchilikni xabardor qilish.

- **Muammolarni yoritish.** Suv resurslarining tanqisligi, tuproq unumdorligini saqlash va mahsulotlarning eksportiga oid muammolarni omma muhokamasiga olib chiqish.

- **Innovatsiyalarni targ'ib qilish.** Smart texnologiyalar, sun'iy intellekt va ekologik usullardan foydalanish imkoniyatlarini keng targ'ib etish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, agrar jurnalistika qishloq xo'jaligining dolzarb masalalarini yoritish orqali nafaqat fermerlar uchun, balki butun jamiyat uchun ham axborot manbasi va tahliliy platforma vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, sohaning strategik rivojlanishi uchun yo'nalish ko'rsatadi.

Agrar jurnalistika qishloq xo'jaligi sohasidagi masalalarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita bo'lib, u nafaqat axborot uzatish, balki jamiyatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada agrar jurnalistikaning rivojlanishi, soha bilan bog'liq yangiliklar va innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqildi. Zamonaviy texnologiyalar, axborot vositalari, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy masalalar barchasi agrar jurnalistikaning ahamiyatini oshiradi va qishloq xo'jaligiga bo'lgan ijtimoiy e'tiborni orttiradi.

Asosiy tavsiya sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. **Innovatsion yondashuvlar.** Agrar jurnalistika sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimediali vositalar yordamida qishloq xo'jaligi mavzulari tezkor va interaktiv tarzda yoritilishi kerak. Bu, ayniqsa, yoshlar va keng jamoatchilikka qishloq xo'jaligi sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlarni yetkazishda samara beradi.

2. **Ekologik xavfsizlik va barqarorlik.** Qishloq xo'jaligi sohasida ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va ekologik texnologiyalarni yoritish uchun OAVda alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bu nafaqat tabiiy resurslarni saqlash, balki agrar sektorda ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham yordam beradi.

3. **O'zbekiston medialarining roli.** O'zbekiston medialari agrar jurnalistikaning rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shishi zarur. Buning uchun agrar mavzular bo'yicha maxsus ko'rsatuvlar, tahliliy dasturlar va multimediali materiallar ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuvlar nafaqat aholi o'rtasida qishloq xo'jaligi siyosatini yoritishda yordam beradi, balki fermerlar va qishloq xo'jaligi mutaxassislarini rag'batlantiradi.

4. **Yosh jurnalistlarni tayyorlash va rag'batlantirish.** Agrar mavzular bo'yicha ixtisoslashgan jurnalistlarni tayyorlash va ularni rag'batlantirish zarur. Jurnalistika fakultetlarida agrar soha bo'yicha maxsus kurslar, amaliyot dasturlari va xalqaro agrar seminarlarga qatnashish imkoniyatlarini yaratish kerak. Shuningdek, yosh jurnalistlar uchun agrar mavzular bo'yicha tanlovlar va grantlar tashkil qilish orqali ularni qo'llab-quvvatlash muhim.

Agrar jurnalistika qishloq xo'jaligi va ekologik barqarorlik masalalarini yoritish orqali ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga katta hissa qo'shadi. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari agrar jurnalistikani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali bu sohani yanada kuchaytirishi kerak. Yosh jurnalistlar va ixtisoslashgan mutaxassislar agrar mavzularni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, agrar jurnalistika sohasining rivojlanishi faqat OAVning hara-

katlari bilan cheklanmasdan, keng jamoatchilik va davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali amalga oshirilishi lozim.

Shundagina, agrar jurnalistika jamiyatning qishloq xo'jaligi sohasiga bo'lgan e'tiborini oshirish bilan birga, mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ushbu sohani rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishi, yosh jurnalistlarni agrar mavzularga jalb qilishi va xalqaro tajribani o'zlashtirishi zarur. Bu esa qishloq xo'jaligi siyosatini ommalashtirish va aholining ongida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun muhim qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdullayev M. O'zbekistonda agrar islohotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish tajribasi. T., O'zMU, 2021.
- (2). Brown P., Smith, T. Agricultural Journalism. A Global Perspective. London, Taylor & Francis Group, 2019.
- (3). Mirzayev B. O'zbekiston qishloq xo'jaligida innovatsiyalar va ularning axborot vositalarida aks etishi. T., "Fan va texnologiyalar", 2023.
- (4). Jones M. (2021). The Role of Multimedia in Agricultural Communication. Journal of Agricultural Media, 12(1), p. 23–36.

Atamuratov Rasuljon (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, ped.f.f.d (PhD);
rasul_atamuratov@mail.ru)

**O'QUV JARAYONIDA IMMERSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayoniga immersiv ta'lim texnologiyalarni tatbiq qilish har qachongidan ham jadallashib borayotganligi, o'quv materiallarini interaktiv va realistik qilish orqali ta'limning samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar sifatida ularning pedagogik ahamiyati hamda ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahlillari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** immersiv texnologiyalar, immersiv ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, virtual voqelik, to'ldirilgan voqelik.*

Атамуратов Расулжон (доцент, Ташкентский государственный университет Узбекского языка и литературы)

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИММЕРСИВНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

***Аннотация.** В статье обсуждается растущая значимость применения иммерсивных образовательных технологий, а также результатов педагогической информации и научных исследований как технологий, повышающих качество образования за счет придания интерактивности и реалистичности учебным материалам.*

***Ключевые слова:** иммерсивные технологии, иммерсивное образование, инновационные технологии, образовательный процесс, виртуальная реальность, дополненная реальность.*

Atamuratov Rasuljon (Associate Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature)

**PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF USING IMMERSIVE EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

***Annotation.** The article discusses growing importance of the application of immersive educational technologies as well as the results of pedagogical information and scientific research as technologies that increase education by making educational materials interactive and realistic.*

***Keywords:** immersive technologies, immersive education, innovative technologies, educational process, Virtual Reality, Augmented Reality.*

Kirish. Yangi asrda jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanib, ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Bioinformatika, geoinformatika, telemeditsina, raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lishi dunyoda sohalar tobora raqamli texnologiyalarga o'zaro bog'liq bo'lib borayotganidan dalolat beradi. 2030-yilgacha ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni haqida UNESKOning Ta'limda axborot texnologiyalari instituti (UNESCO IITE) tomonidan ishlab chiqilgan dasturda ta'lim sifatini oshirish axborot texnologiyalari orqali erishish alohida e'tirof etilib, unda o'quvchilarni o'qish va o'rganishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish hamda ta'limdagi har bir jarayonida axborot texnologiyalarini samarali qo'llash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sifatida ilgari surilgan.

O'quvchilarning axborot-kommunikativ, raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda virtual borliqning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida qo'llashga mo'ljallangan immersiv texnologiyalar asosidagi raqamli ilovalarni ishlab chiqish, informatika o'qituvchilarining immersiv texnologiyalar elementlarini yaratish va foydalanishga doir ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston va xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida immersiv texnologiyalardan foydalanish kun sayin oshib bormoqda. Ilmiy lug'atlarda immersivlik (ing. immersive – sho'ng'ish) sun'iy ravishda yaratilgan raqamli dunyoda mavjud bo'lgan insonning his-tuyg'ularining yaxlit birikmasi sifatida izohlanadi. Insonning o'zini virtual voqelikda his qilishi hamda har qanday manipulatsiya: turli rakursdan ko'rish, yorug'likni boshqarish, obyektlarni yaqin va uzoqlashtirish, ularning o'lchamlarini oshirish va kamaytirishni amalga oshirishi mumkin.

O'quv jarayonida virtual ta'lim texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari [1], elektron ta'limni rivojlantirish, elektron axborot-ta'lim resurslari hamda dasturiy qobiqlarni yaratish va qo'llash imkoniyatlari [6], umumta'lim maktablari uchun virtual ta'lim vositalarini dasturiy yaratish va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish [5] tadqiq qilishgan. Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari ta'lim jarayonida immersiv texnologiyalarni qo'llash xususiyatlari [11], o'quv materialini vizualizatsiya qilishda immersiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari [10], virtual o'quv muhitining fikrlashga sezilarli ta'siri, o'quvchining kognitiv jarayonlari va ijodkorligi [12], immersivlik parametrlari kommunikatsiyaning hech qaysi turiga xos bo'lmagan namoyish effekti o'ziga xosligi ko'rib chiqilgan [9].

Immersiv ta'lim texnologiyalari – bu ta'lim oluvchini sun'iy ravishda yaratilgan muhit – virtual voqelikka sho'ng'ishga yordam beradigan dasturiy va texnik vositalar to'plami. Shuningdek, ko'plab tadqiqotlarda *immersive teaching* tushunchasi tez-tez uchraydi, bu ta'limda qo'llaniladigan virtual olamlarning imkoniyatlarini har tomonlama o'rganishni tavsiflaydi.

Chaykovskiy va Izotova immersiv ta'lim texnologiyalari orqali inkluziv ta'limni kengaytirish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotida standart ta'lim tizimlarini takomillashtirishga qo'shimcha ravishda, virtual voqelik vositalari imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'quv va kasbiy faoliyatining integratsiyalashuviga katta hissa qo'shishini ta'kidlagan [8]. Bu immersiv tajribalar nomoddiy tushunchalarga asoslangan murakkab yoki mavhum mavzular uchun xotirani yaxshilash bilan birga, motivatsiya va hissiy rohatlanishni oshiradi [7]. Xorijiy manbalarda virtual texnologiyalarni yaratish, ularning ta'limiy funksiyalari, tajribaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi ekanligi [3], o'quv jarayoniga VR/AR texnologiyalarini joriy etishning amaliy jihatlari [4] va immersiv ta'limning didaktik asoslari [13], konsepsiyalar va dasturlar ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan. Ba'zi tadqiqotchilar immersiv texnologiyalar o'quv muhitini yaxshilashi va ta'lim tizimini imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligi bilan birga, immersiv texnologiyalar o'quv jihozlari yaxshilash uchun qimmatli vosita ekanligi, shuningdek, virtual o'qitish o'qituvchilar uchun katta tajriba maydoni bo'lib xizmat qilish va o'z kasbiy mahoratini oshirishga imkon beradi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda o'quv immersiv texnologiyalar bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi anketa, suhbat, pedagogik kuzatish, sintez qilish va loyihalash, tahliliy jadvallarni tuzish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Har bir inson dunyoni his etish va idrok qilish tizimlari orqali angelaydi, ya'ni axborotni insonga yetkazishda sezgi organlaridan foydalanadi. Immersiv texnologiyalar deganda barcha his-tuyg'ulardan foydalangan holda insonning atrofdagi voqelikda his etishi uchun vositalar va usullar to'plami tushuniladi. Bunda obyektiv tabiiy voqelikni sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Inson miyasidagi neyronlar virtual elementlarga haqiqiy dunyo elementlariga javob bergani kabi javob beradi. Shuning uchun inson virtual muhitni idrok etadi va virtual olam ichra sodir bo'layotgan voqealarga haqiqatda sodir bo'layotgan voqealar singari munosabatda bo'ladi.

Binobarin, immersiv texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quv jarayonini muayyan jarayon va hodisalarning mohiyati va mazmunini yanada batafsilroq tushuntirish imkonini beruvchi yangi texnologiyalar bilan boyitishdan iborat. Buning natijasida o'quvchilarni rag'batlantirish, bilim sifatini oshirish va ijodiy, tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yanada real, interfaol va hayajonli vaziyatlar yaratish orqali o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyati yaratiladi.

Immersiv ta'lim quyidagi texnologiyalardan bir yoki bir nechtasini qo'llaydi:

Virtual voqelik (VR) – sezgi (ko'rish, eshitish va sezish) organlari orqali sun'iy dunyoni anglash axborot muhiti; axborotni foydalanuvchi ongiga yetkazish imkonini beruvchi dasturiy va texnik vositalar to'plami.

To'ldirilgan voqelik (AR) – har qanday qurilma ekrani orqali har qanday raqamli ma'lumot (rasm, video, matn, grafika va h.k.)ni proektsiyalash.

Aralash voqelik (MR) haqiqiy va virtual olamlarning obyektlari birgalikda mavjud bo'ladigan real vaqtda, virtual uzluksizlikning bir qismi sifatida o'zaro ta'sirlashadigan texnologiya.

3D immersiv ta'lim – bu 360 darajali, immersiv yoki sferik video bo'lib, tomshabinni har tomonlama ko'rish imkonini bera oladigan, real muhitni yozib oladigan panoramali kameralar hamda kompyuter grafikasi yordamida yaratiladi. Ular ikki xil turda bo'ladi: monoskopik va stereoskopik.

Immersiv ta'lim dasturlari LMS (elektron ta'lim muhitlari) bilan birlashtirilishi mumkin, bu yerda immersiv o'quv sessiyasi ma'lumotlari tahlillari universitetning LMSga yuboriladi va boshqa talabalar ma'lumotlari orasida saqlanadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'z fanlaridagi amaliy tajriba va AR/VRning ijobiy misollarini o'rganish orqali tegishli ta'lim mazmunini ishlab chiqishlari muhim.

Immersiv ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonidagi afzalliklarini aytib o'tadigan bo'lsak, bular: *Xarajatlarni tejash*. O'quv jarayonida uskunalari, laboratoriya xonalari, kerakli xomashyolar va bosh-

qa qurilmalar yetishmasligi sababli ko'pgina tajribalarni amalga oshirish mumkin emas. Immersiv texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilar uydan chiqmasdan turli xil tajribalar o'tkazishlari, haqiqiy tajriba kabi kerakli natijalar olishi mumkin. Bu orqali ta'limga ajratiladigan mablag'larni sezilarli ravishda kamaytirishga erishish mumkin.

Xavflarni oldini olish. Real tajribalar yoki turli vazifalar ko'pincha har xil xavflar bilan bog'liq bo'lganligi sababli amalga oshirilmay qoladi. Immersiv muhitda o'quvchilar turli xil xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan tajribalarni ishonchli bajarishlari mumkin. Masalan, parvoz simulatori o'quvchilar xato qilganda samolyot halokati natijasida yuzaga keladigan jiddiy baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

Makon va vaqt chegarasizligi. Immersiv texnologiya yordamida butun koinot bo'ylab sayohatlar tashkil etishi, atom zarralarini kuzatish, yillar, hatto zamonlar osha virtual sayohatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, "Immersiv texnologiyalar ta'limda ishlatiladigan metod, yuqori texnologiyali didaktik o'qitish vositasi va axborotlarni anglashni ta'minlaydigan ta'lim texnologiyasidir".

Immersiv texnologiyalarining afzalliklari bilan bir qatorda, bizning fikrimizcha, bir qator muammolar ham mavjud: 1) dasturiy va texnik ta'minot vositalarini muntazam yangilab turish zarurati; 2) foydalanuvchilarning salomatligi va xavfsizligi uchun xatarlar; 3) texnologik muammolar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, immersiv texnologiyalar ta'limda ulkan salohiyatga ega, chunki ular o'quv dasturidagi mavzularni interaktivlashtiradi va o'rganishni osonlashtiradi. Shuningdek, ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari, motivi, axborotlarni idrok qilishi, mavhum tushunchalar anglashi va tizimlashtirishi asosida bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali vositadir. Bunday texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash o'quvchilarning kreativ fikrlashini o'stirish bilan birga ularning raqamli texnologiyalarga qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). A.R.Kadirjanovich, A.N.Isayevna, P.G.Gulomjonovna and P.S.Botir qizi, "Improving the Methodology of Teaching Specialized Subjects in The Preparation of Future Computer Engineering on The Basis of Innovative Technologies". 2023 8th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Burdur, Turkiye, 2023, pp. 125–130.
- (2). Abdallah, A.K., & Musah, M.B. (2021). Effects of teacher licensing on educators' professionalism: UAE case in local perception. *Heliyon*, 7 (11).
- (3). Jantjies M., Moodley T., Maart R. Experiential learning through Virtual and Augmented Reality in Higher Education Proceedings of the 2018 International Conference on Education Technology Management.
- (4). Jumani A.K., Siddique W.A., Laghari A.A. [et al.] Virtual Reality and Augmented Reality for Education / Multimedia Computing Systems and Virtual Reality. pp. 189–210.
- (5). K.Z.Turdiyeva, K.M.Abdijabborovna and A.R.Kadirjanovich. "Theoretical Basis for Creating a Virtual-Educational Museum". 2022, 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 1–4.
- (6). M.Fayziyeva. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish. *Ped.fan.dok...dis.avtoref.*, T., CHDPU, 2023, 72-bet.
- (7). Morimoto, J., and Ponton, F. (2021). Virtual reality in biology: could we become virtual naturalists? *Evol. Educ. Outreach*. 14, 1–13. doi: 10.1186/s12052-021-00147.
- (8). Tchaikovskiy, D.S., and Izotova, V.F. (2020). The impact of AR and VR technologies on the educational process. *Inf. Technol. Educ*. 3, 316–319.
- (9). Андрюхина Л.М. Технологии телеприсутствия – новая антропологическая платформа развития образования.
- (10). Давыдова Д., Гильванов Г.Р., Кукушкина Я.В., Романова И.Ю. Иммерсивные технологии в высшем образовании. *Известия Петербургского университета путей сообщения*. СПб., ПГУПС, 2023, Т., 20, вып. 1, с. 120–132.
- (11). Паскова Анна Александровна (2022). Особенности применения иммерсивных технологий виртуальной и дополненной реальности в высшем образовании. *Вестник Майкопского государственного технологического университета*, 14 (3), с. 83–92.
- (12). Селиванов В.В., Селиванова Л.Н. Эффективность использования виртуальной реальности при обучении в юношеском и взрослом возрасте. *Непрерывное образование, XXI век*.
- (13). Шапиров К.В. Дидактика смешанной реальности. *Виртуальная реальность современного образования: идеи, результаты, оценки VRME 2018, материалы Международной Интернет конференции (Москва, 8–11 окт. 2018 г.)*, М., МПГУ, 2019, с. 101.

Jovliyev Baxtiyor Xolbayevich (Qarshi shahridagi Osiyo Texnologiyalar universiteti katta oqituvchisi; baxtiyordilorom@mail.ru),

Rajobov O'rol Mamatovich (Qarshi shahridagi Osiyo Texnologiyalar universiteti katta oqituvchisi; pedagogika fanlari nomzodi; Radjabov.u@gmail.com)

BOLALARDA XUDBINLIKNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Maqolada xudbinlik salbiy axloqiy sifat ekanligi, nafsga, hirsga asoslanligi, insofsizlik, berahmlik kabi illatlarda namoyon etilishi, xudbinlar o'zlarining manfaati uchun hech narsadan tap tortmasligi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Z.Freydning xudbinlik haqidagi fikrlari, shimpanze misolida olib borilgan ilmiy tajribalarning ma'lumotlari keltirilgan, bolada xudbinlik shakllanishining oldini olish uchun takliflar berilgan.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭГОИЗМА У ДЕТЕЙ

Аннотация. В статье показано, что эгоизм является отрицательным нравственным качеством, что он основан на похоти, жадности и проявляется в таких пороках, как бессовестность, жестокость и что эгоистичные люди не остановятся ни перед чем ради собственной выгоды. Также в статье приведены мысли З.Фрейда об эгоизме, сведения о научных экспериментах, проведенных с использованием шимпанзе, и рекомендации по профилактике формирования эгоизма у детей.

Ключевые слова: эгоизм, инстинкт, альтруизм, психоанализ, «Я».

FORMATION OF EGOISM IN CHILDREN

Annotation. The article shows that egoism is a negative moral quality, that it is based on lust, greed and manifests itself in such vices as shamelessness, cruelty, and that egoistic people will stop at nothing for their own benefit. The article also presents Z.Freud's thoughts on egoism, information about scientific experiments conducted using chimpanzees, and recommendations for preventing the formation of egoism in children.

Keywords: egoism, instinct, altruism, psychoanalysis, "I".

Kirish (Introduction). Xudbinlik (egoizm), avvalo, o'zini-o'zi saqlashning tabiiy instinkti sifatida paydo bo'lganligini e'tirof etish lozim. U salbiy axloqiy sifat bo'lib, manfaatparastlik va shaxsiyatparastlikni o'z ichiga oladi. Xudbinlar o'zlarining manfaati uchun hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydi. Xudbinlik nafsga, hirsga asoslanib, o'zini adolatsizlik, insofsizlik, berahmlik kabi illatlarda namoyon etadi.

Xudbinlikni shaxsning o'ziga bo'lgan muhabbati bilan chalkashtirmaslik lozim. Imom G'azzoliy insonning o'ziga, o'zining a'zolariga, salomatligiga bo'lgan muhabbatini birinchi o'ringa qo'yadi. Uningcha, bu muhabbat Alloh, ota-ona, qarindosh-urug', do'st-birodar, muhtoj, ehtiyojmandlar xizmatida bo'lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi.

Oliyjanoblik (altruizm) – boshqa odamlarga yordam berish va evaziga hech narsa talab qilmasdan, ularga g'amxo'rlik qilish istagi bo'lib, hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbati, boshqalarda ham o'ziga shunday muhabbat borligini inkor etmaslik kerak, bu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xudbinlik haqidagi ma'lumotlar psixoanaliz asoschisi Z.Freydning "Tushlar ta'biri" deb nomlangan birinchi yirik fundamental asarida berilgan, unda bolaning ruhiyatini tushunish bilan bog'liq bir qator fikrlar bilan bir qatorda, yosh bolalarning o'ta xudbin ekanligi aytib o'tilgan. Freyd, o'z ma'ruzalarida "Bola mutlaqo xudbindir, u o'z ehtiyojlarini kuchli his qilib, ularni qondirishga, ayniqsa, raqiblariga, boshqa bolalarga, ayniqsa, aka-uka va opa-singillariga qarshi kurashadi", deb yozgan. Shuningdek, "Bolaning aka-uka va opa-singillarining o'limiga bo'lgan istagini xudbinlik deb izohlagan. Shu bilan birga, u bolalik davrida ham "kichkina xudbinda u o'zining xohish-istagidan voz kechib, boshqa odamlarning xohish-istagini inobatga olishga moyillik uyg'onishiga" umid qilish uchun asos bor, degan fikrni bildirgan.

Z.Freyd xuddi shu fikrni, keyinchalik, "Psixoanalizga kirish" asarida "Bola, birinchi navbatda, o'zini sevadi va faqat keyinroq boshqalar uchun o'z "MEN"ining bir qismini qurbon qilishni o'rganadi. Hatto u boshidanoq yaxshi ko'radigan odamlarni ham, faqat ularga muhtoj bo'lgani uchun hurmat qiladi, bu ham xudbinlik asosida bo'ladi. Faqat keyinroq hurmat-izzat, yaxshi ko'rish kabi tuyg'ular uning xudbinligidan mustaqil tarzda shakllana boradi.

Shunday qilib, Z.Freyd "bola o'zini-o'zi yaxshi ko'rishi, hurmat qilishiga asoslangan fikrlash tizimi" bilan tug'iladi, deb hisoblaydi, chunki uning xohish-istagi o'ziga qaratilganligi, go'yo hayotining boshida

odamni uning atrofidagi olamdan ajratib turadi, uni faqat o'zi bilan shug'ullanishga undaydi. Demak Z. Freydning fikriga ko'ra, odam xudbin bo'lib tug'iladi, deyishimiz mumkin. O'smirlik davrida, u o'zining xohish-istagidan voz kechib, boshqa odamlarning xohish-istagini inobatga ola boshlaydi. Keyinchalik, xohish-istak yana o'z egasini topa boshlaydi va birlamchiga o'xshash, ammo boshqa ko'rinishda takrorlanadigan ikkilamchi "o'zini-o'zi yaxshi ko'rish, hurmat qilishga asoslangan fikrlash tizimi"ni keltirib chiqaradi, va u yana xudbinga aylanadi.

Demak, Z. Freydning fikricha, bolada "Men atrofimdagi odamlarni qanchalik ko'p yaxshi ko'rsam, o'zimni shunchalkam yaxshi ko'rib qolaman, aksincha, men o'zimni qanchalik ko'p yaxshi ko'rsam, odamlarni shunchalik kam yaxshi ko'raman", degan fikr bo'ladi. Ijtimoiy hodisa sifatida yaxshi ko'rish asosida xohish-istak yotib, qayerga yo'naltirilganiga qarab, biz o'zimizni yoki boshqalarni yaxshi ko'ramiz.

Z. Freyd jamiyat shaxsga bir tomonlama rivojlanish beradi, odamdagi o'zining xohish-istagidan voz kechib, boshqa odamlarning xohish-istagini inobatga olishini yo'q qiladi va uni xudbinga aylantiradi, deb hisoblagan va inson tabiatan xudbin ekanligini juda keng talqin qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Psixologiyada xudbinlik (egoizm) va oliynoblik (altruizm) kabi tushunchalar bo'yicha ilmiy tajribalardan olingan ma'lumotlar yetarli bo'lib, quyida bunday tajribalarning ayrimlarini misol qilamiz.

Odamsimon maymun shimpanze qafasga solingan va uning qarshisiga ikkita quti qo'yilgan. Shimpanzalar oldidagi qutilarning biriga banan solingan, ikkinchisi esa bo'sh. Tajriba davomida bir kishi qutilarga yaqinlashib, maymun unga ko'rsatgan qutini ochadi. Agar ko'rsatgan qutida banan bo'lsa, uni maymunga beradi, agar ko'rsatgan qutida banan bo'lmay, u bo'sh bo'lsa, demak, u banansiz qoladi.

Ushbu tajribada ishtirok etgan maymunlar banan bor qutiga ishora qilishlari kerakligini juda tez angladilar va kerakli qutini ko'rsatishni mashq qildilar. Shunday qilib, bir odam kiradi, maymun unga banan solingan qutini ko'rsatadi, qutini ochadi va unga qutidagi bananni beradi. Keyin tadqiqotchilar tajribani murakkablashtirdilar: maymunlar oldida bir emas, ikki kishi, ya'ni biri "yaxshi", ikkinchisi esa "yomon" kishi paydo bo'ldi. "Yaxshi" odam qafas oldiga kelgach, shimpanze unga banan solingan qutini ko'rsatdi, va u bananni oldi. Ammo "yomon" odam bilan hamma narsa boshqacha edi: maymun unga banan solingan qutini ko'rsatganida, u bu mevani oldi va maymunga bermasdan, uning ko'zicha bananni yeb qo'ydi.

Albatta, maymunlar nima bo'layotganini tezda angladilar va bunga chora izlay boshladilar. "Yaxshi" odam kirib kelganda, maymunlar banan solingan qutini ko'rsatdilar. "Yomon" odam kirib kelganda, maymunlar o'zlarini banan solingan qutini, umuman, bilmagandek ko'rsatishdi. Boshqacha aytganda, banan uchun kurash boshlandi. Ammo tajribaning davomida sakkizta maymun ishtirok etdi va shu sakkiztadan bittasi odamsimon maymun – shimpanza edi. Uning eksperimental vaziyatdagi xatti-harakati boshqa maymunlarning xatti-harakatlaridan sezilarli darajada farq qildi. "Yaxshi" odam kirganida, u boshqa shimpanzalar singari banan solingan qutiga ishora qildi. Ammo "yomon" odam paydo bo'lganda, u qarindoshlari kabi passiv betaraflikni ko'rsatmadi. U yana qutiga ishora qildi, lekin banansiz qutiga!

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, tajribada qatnashgan barcha maymunlar ma'lum harakatlarni altruistik emas, balki xudbinlik sabablargia ko'ra qilgan. Ammo maymunlarning eng aqllisi xudbinlikning eng yuqori darajasiga erishdi – u nafaqat o'zi uchun, balki uchinchi tomonning zarar ko'rishi uchun qildi.

Maymun, ongning eng arzimasi asoslarini egallashi bilanoq, birinchi navbatda, aldashni o'rgandi. Bu esa, ba'zi ilonlar beixtiyor va o'ylamay, ov qilish maqsadida o'zini o'lgandek qilib ko'rsatayotgan yoki yirtqichni inidan nasli bilan chalg'itish uchun qushlar qanoti shikastlangandek ko'rsatayotgan yolg'on emas. Yolg'on, yolg'on, ayyorlik – bular uchun primatlarning miyasining ko'payishi tufayli intellektual qobiliyatlardan foydalanila boshlandi. Albatta, bu yerda hamma narsa hali ham juda ibtidoiy va murakkab emas, lekin bu yaxshi – oldinda yana ko'p narsalar bo'ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xudbinlik – o'zi uchun, o'z manfaati uchun kurash sifatida shakllangan va o'z-o'zini saqlash instinktining bunday namoyon bo'lishida qoralanadigan va uyatli narsa yo'q. Agar hayvon yashash uchun kurashmasa, uning butun turlari nobud bo'ladi. Shunday qilib, tirik mavjudotlar yashash uchun kurashadi, shuning uchun u tirik qo'lgan.

Bola xudbin bo'lib o'smasligi uchun nima qilish kerak? Ota-onalar yosh bolaning qanday odam bo'lib o'sishi, nimalarga erishishi, qanday hayot yo'lini tanlashi to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Shuningdek, ular farzandining qanday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi va bu fazilatlar uning keyingi hayotini va boshqa odamlar bilan muloqotini yengillashtirishi uchun nimalar qilish kerakligini ham o'ylashadi.

Nima uchun bolalar xudbin bo'lishadi? Yosh bolalarga qarasangiz ularning hammasini xudbin deb o'ylaysiz. Har biri o'yinchoqlarni o'z tomoniga tortishga harakat qiladi, hammasi ham aynan shu arg'imchoqda uchgisi keladi. Aslida, bolalar xudbin emas, lekin maktabgacha bo'lgan yoshda ularning hammasi

manman bo'ladilar. Bu o'sishning va rivojlanishning me'yoriy bosqichi hisoblanadi. Keyinchalik, o'smir yoshiga kelib, tarbiya va shaxsiy fazilatlar kuchi ta'sirida bolalar yoki xudbin, yoki g'amxo'r, yoki ikkalasini ham o'zida birlashtiruvchi shaxs bo'lib yetishadilar.

Nimalar bolada xudbinlik shakllanishiga olib keladi? Bola shaxsi ahamiyatining mubolag'a qilinishi. Sababsiz maqtamang, bolaning haqiqiy yaxshi fazilatlarini to'g'risida esa jim turmang. Bolaga o'z pragmatik nuqtai nazarini va o'z istaklarini majburlab o'tkazish motivatsiyani va hayotga qiziqishni kamaytiradi.

Zarur ishlarni bolalar o'rniga bajarish ularni o'z tashabbuslaridan mahrum qiladi. Axloqiy me'yorlar deklaratsiyasida ota-onalarning shaxsiy o'rnatish ko'rsatishi. Bunday holatda fikrlarning ichki to'qnashuvi tufayli bolalarning axloqiy tasavvurlari noaniq bo'lib qoladi.

Bolalarni sotib olish. Uydagi ishlar, maktabdagi baholar uchun to'lov. Bunday vaziyatda bola o'zining qiliqlariga emas, balki ularning narxlariga qiziqqa boshlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bolada xudbinlik belgilarini sezsangiz yoki ularning oldini olmoqchi bo'lsangiz, u holda nima qilish kerak? Bir necha maslahat beramiz.

Mayda g'amxo'rliklarni to'xtatish (uxlab qolmasligi uchun ertalab uyg'otish; zarur ishlarini eslatish; dars tayyorlayotganda yonida o'tirish va shunga o'xshash).

Bolaga mustaqil tanlash va qaror qabul qilishga imkoniyat bering.

Uyda uni o'z-o'ziga emas, boshqalar uchun ham xizmat qilishga o'rgating.

Faqat o'zining ishlari bilan emas, balki do'stlarining yutuqlari bilan ham qiziqing. Uning do'stlariga bo'lgan ijobiy baholariga rag'bat bildiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). A. Курпатов. Быть эгоистом. Универсальные правила 176 печатных страниц, 2012,
- (2). Фрейд Зигмунд, Толкование сновидений. Из серии Философия в кармане. "Эксмо", 2021, 560 с.
- (3). Д.И.Довбун, Н.И. Козлов. Дискуссия о эгоизме. 2022. <https://psychologos.ru/articles/view/diskussiya-o-egoizme.-d.i.-dovbun--n.i.-kozlov>
- (4). B. Jovliyev, M. Mavlyanov. Imkoniyati cheklangan bolalarga mashg'ulot o'tish xususiyatlari. "Ilm sar-chashmalari" jurnali, 2024-yil 5/2-son, 76–79-bet.
- (5). Jamolova, L.A., Cho'liyev, I.N., & Jovliyev, B.X. (2024). Me'yoridan ko'p ovqatlanishning organizm antropometrik ko'rsatkichlariga ta'siri. Miasto Przysto'sci, 214–220-betlar.
- (6). Jovliyev, B.X., & Quldoshov, J.L. Sportchilarning chiniqishini baholashda funksional sinamalardan foydalanish. Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, каракалпакский государственный университет имени Бердаха, факультет биологии, 33. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2-qism 33-36-bet, 2022-yil 30- iyun.
- (7). Rajobov O'.M., Jovliyev, B.X. Imkoniyati cheklangan bolalarga mahalliy tendensiyalar asosida umumiy ta'lim berish xususiyatlari. QarshiDU BT xalqaro konferensiya, 2024-yil 26–27-aprel, 214–220-betlar.

Ilmurodova Dilobar Hamzayevna (ilmiy izlanuvchi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali, o'qituvchi, Qashqadaryo, O'zbekiston; dilobar.ilmurodova@mail.ru)
**GUMANITAR FAN O'QITUVCHILARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA NAZARIY BILIMLARINI BAHOLASH METODIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida gumanitar fan o'qituvchilarining axborot-kommunikativ hamda AKT kompetensiyalari, ularning nazariy bilimlarini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan darajalar asosida monitoring qilish uchun metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim, axborot-kommunikativ kompetensiya, AKT kompetensiyasi, monitoring, baholash darajalari.

Илмуродова Дилобар Хамзаевна (научный исследователь Каршинского филиала ТУИТ имени Мухаммада аль-Хорезми, Кашкадарьинской области, Узбекистан; dilobar.ilmurodova@mail.ru)
**МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ УЧИТЕЛЕЙ ГУМАНИТАРНЫХ
ДИСЦИПЛИН В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация. В статье представлены методические рекомендации по проведению мониторинга информационно-коммуникативной и ИКТ-компетентности педагогов системы гуманитарного образования на основе разработанных уровней оценки их теоретических знаний, основанных на компетентностном подходе

Ключевые слова: образование, компетентностно-ориентированное образование, информационно-коммуникационная компетентность, ИКТ компетентность, мониторинг, уровни оценки.

Ilmurodova Dilobar Khamzaevna (Karshi branch of TUIT named after Muhammad al-Khorezmi of the, Kashkadarya region, Uzbekistan; dilobar.ilmurodova@mail.ru)

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE THEORETICAL KNOWLEDGE OF HUMANITIES TEACHERS IN THE FIELD OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Annotation. This article presents methodological recommendations for monitoring the information-communicative and ICT competencies of teachers in the humanities education system, based on the developed levels for assessing their theoretical knowledge, based on a competency-based approach.

Keywords: education, competency-based education, information and communication competence, ICT competence, monitoring, assessment levels.

Kirish (Introduction). Bugungi kun ta'lim sharoitida o'qituvchilarda umummadaniy, fan va maxsus kompetensiyalarni shakllangan bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchisi AKT kompetensiyasi kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, jumladan, asosiy kompyuter savodxonligi, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalana olish qobiliyatidir. Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va ulardan foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan usullar, orqali axborotni taqdim etish, uni tinglovchiga zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalangan holda yetkazish qobiliyati o'qituvchining intellektual va hissiy-axloqiy madaniyatining sifat jihatidan yangi darajasini ta'minlaydi, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ichki ehtiyojni yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). AKT kompetensiyasini tushunish o'qituvchida quyidagi ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi:

– axborotni taqdim etish – kerakli ma'lumotlarni aniqlash va tegishli tarzda taqdim etish uchun AKT vositalaridan foydalanish qobiliyati;

– axborotga kirish – internet vositalari va xizmatlaridan hamda shu maqsadda dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, ma'lumotlarni qidirish, to'plash yoki chiqarib olish imkoniyati;

– axborotni tanqidiy baholash – axborotning sifati, ahamiyati, foydaliligi, samaradorligi, shuningdek, uning ishonchligi, ilmiy xususiyati va maqsadli yo'naltirilganligi to'g'risida xulosa chiqarish qobiliyati;

– axborot yaratish – axborotni sharhlash va taqdim etish qobiliyati (ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash va taqqoslash), asosiy ofis dasturlari yordamida axborotni yaratish (moslashtirish, loyihalash, ishlab chiqish) va axborotni elektron shaklda formatlash qobiliyati;

– aloqa va axborot almashinuvi – AKT muhitida axborotni to'g'ri uzatish qobiliyati [5].

A.A.Elizarov AKT kompetensiyasini bilim, ko'nikma va tajriba to'plami sifatida tushunadi. Aynan shunday tajribaning mavjudligi, muallifning fikriga ko'ra, kasbiy funksiyalarni bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [1]. Shu bilan birga, bir qator olimlar (T.S.Panina, S.A.Dochkin, Y.V.Kletsov)ning zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi haqidagi fikrlari mavjud [2]:

– o'qituvchining fanlarini o'qitish jarayonida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining vositalari hamda usullaridan foydalangan holda kasbga doir muammolarni hal qila olish qobiliyati;

– kasbiy faoliyat davomida AKTning zamonaviy vositalaridan foydalanish bo'yicha erishilgan yutuqlarining darajasini aks ettiruvchi xususiyat, shaxsiy sifatlar;

– AKTning zamonaviy vositalaridan foydalanish bilan kasbiy va pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan vaziyatlarni to'g'ri baholay olish va samarali bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

E.K.Henner asarlarida axborot kompetensiyasi deganda informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitish va o'z-o'zini o'rganish jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi, shuningdek, pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Shunga muvofiq axborot kompetensiyasi uch komponentdan iborat: bilish, foydalana olish, o'quv faoliyatini tashkil etishda qo'llay olish hisoblanadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi faoliyatining mazmunini aks ettiruvchi o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini monitoring qilish o'qituvchining kasbiy faoliyatini o'rganish sohasidagi faol rivojlanayotgan tadqiqot yo'nalishlaridan biridir [6].

O'qituvchining AKT kompetensiyasini tahlil qilish axborotlarni tanlash, ularni qayta ishlash, yaratish, joylashtirish hamda axborot va ta'lim jarayonlarida aloqani tashkil etish kabi operatsion komponentlarni aniqlashga imkon berdi.

Gumanitar fan o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazariy bilimlarini baholash darajalarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

–zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari haqida nazariy ma'lumotlarni egallash, nazariy ma'lumotlar negizida AKT savodxonligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaklarni rivojlantirish, ushbu ko'nikmalarni didaktik tamoyillarini bilish, nazariy ma'lumotni amaliyotda qo'llay olish darajasini baholash. Ushbu baholash tizimida nazariy, amaliy, kognitiv baholash darajalarini e'tiborga olish;

–axborot texnologiyalari haqida nazariy materiallarni egallaganlik darajasini aniqlash uchun quyi pog'onali testlardan foydalaniladi;

–axborot texnologiyalari vositalari bilan amaliy ishlash ya'ni texnik va dasturiy vositalar, tarmoq texnologiyalari, internet tarmog'i, web texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaganlik darajalarini aniqlash uchun mavzular doirasidagi topshiriqlardan foydalanilganda o'rta darajadagi baholash amalga oshiriladi;

–quyi va o'rta darajada baholash doirasidagi bilim va ko'nikmalarni malakaga aylantirilgan holda, o'z fanlarining portfoliosini yaratganlarida baholashning yuqori darajadagi pog'onasiga erishiladi [6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gumanitar fan o'qituvchilarining AKT malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablarida o'qituvchilar uchun umumiy bo'lgan kompetensiyalar qatorida berilgan AKT va mediasavodxonlik kompetentligining ko'rsatkichlari keltirilgan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ta'lim muassasasini axborotlashtirish g'oyalarini ilgari surish, AKT madaniyatini rivojlantirish va ushbu g'oyalarni amalga oshiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishni ta'minlash;

– AKTdan foydalangan holda o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini joriy etishga ko'maklashish;

– ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning ijtimoiy, huquqiy va axloqiy normalari ahamiyatini tushunish, ulardan xavfsizlikni ta'minlagan holda foydalanish va ushbu yo'nalish bo'yicha tegishli yo'riq-nomalarni ishlab chiqish;

– ta'lim mazmuniga mos bo'lgan AKTni o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning turli samarali strategiya va yondashuvlarini rejalashtirish, ilgari surish va qo'llab-quvvatlash;

– maktab boshqaruvida va fanlarni o'qitish jarayoni faoliyatini takomillashtirish va samarali tashkil etishda AKT vositalarini joriy etilishini ta'minlash;

– ta'lim muassasa faoliyatini va o'quvchilar kompetensiyasini baholashning samarali usullarini joriy etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

– ommaviy axborot vositalaridagi mediakontentni tushunish, mediasavodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda, ularni o'quvchilarda shakllantirish yo'llarini bilish;

– turli xil shakllarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, boshqarish va yangi ma'lumotlarni yaratish.

Ushbu darajalarga to'liq javob berish uchun gumanitar fan o'qituvchilarida AKT kompetensiyalarini shakllantirish va bilimlarni baholash uchun portfoliodan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Taklif etilayotgan portfolio quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi nazarda tutiladi:

– shaxsiy ma'lumotlar;

– aktdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish uchun tizimlashtirilgan nazariy va metodik materiallar;

– o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan (belgilangan mavzular asosida) elektron-didaktik mahsulotlar (matn, taqdimotlar, videodars va hokazo);

– o'qituvchilar erishgan yutuqlar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ta'lim muassasalarida tahsil olib, o'sib kelayotgan yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalari asri talablari darajasidagi yetuk kadrlar etib tayyorlashda avvalombor ta'lim berayotgan o'qituvchilarning o'zida nafaqat fanlari doirasidagi bilim va ko'nikmalari, balki AKT savodxonligi bilimlariga ham ega bo'lmog'i, egallangan bilim va ko'nikmalardan samarali foydalana olishi lozim.

Shunday qilib, taqdim etilgan AKT kompetensiyasini baholash metodologiyasi gumanitar fan o'qituvchilarini axborot texnologiyalaridan foydalanish natijalarini baholash imkonini beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, AKT kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish portfoliodan o'qituvchilar foydalanishlari jarayonida izchil amalga oshiriladi, ular o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasini o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Базовая ИКТ компетенция как основа интернет-образования учителя. Тезисы доклада А.А.Елизарова на конференции RELaRN-2004 июнь 2004 г., Ассоциация RELARN.

(2). Панина Т.С., Дочкин С.А., Клецов Ю.В. Уровни информационно-коммуникационной компетентности педагогических работников [электронный ресурс]. <http://www.belpc.ru/kriqpo/index.php>

(3). Хеннер Е.К. Структурирование и формализация требований к компьютерной грамотности и ИКТ-компетентности субъектов системы непрерывного образования. Информатизация образования и науки. 2009, № 2, с. 71–85.

(4). Хеннер Е.К., Шестаков А.П. Информационно-коммуникационная компетентность учителя: структура, требования и система измерения. “Информатика и образование”, 2004, № 12, с. 5 – 9.

(5). Ев Якушина. “Народное образование”, ИКТ-компетентность: что нужно знать и уметь учителю. 2013, №1, с. 184–187.

(6). Hamzayevna I.D. Kasb-hunar maktablari ijtimoiy fanlar o‘qituvchilari akt kompetensiyasilarini baholashda yondashuvlar. Kasb-hunar ta’limi мундарижа, с. 50.

Sattorova Feruza Elmurodovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o‘qituvchi, PhD, doktorant)
CHET TILI TA’LIMIGA KOGNITIV YONDASHUV HAQIDA MULOHAZALAR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada til o‘rganishda va o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lgan kognitiv yondashuv haqida asosiy ma’lumotlar berilib, bu yondashuvning til o‘zlashtirishga yordami, shuningdek, til o‘rganish va tilni o‘zlashtirish tushunchalar o‘rtasidagi farqlar haqida mulohazalar berilgan. Til ta’limida bu yondashuvdan foydalanish til va undan foydalanish o‘rtasida vujudga keladigan bo‘shliq – pragmatik interferensiyani bartaraf etishga ko‘maklashishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** kognitiv yondashuv, kommunikativ yondashuv, til o‘rganish, til o‘zlashtirish, pragmatik interferensiya.*

Сатторова Феруза Элмуродовна (Самаркандский государственный институт иностранных языков, старший преподаватель, PhD, докторант)

СООБРАЖЕНИЯ О КОГНИТИВНОМ ПОДХОДЕ К ИНОСТРАННОЯЗЫЧНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

***Аннотация.** В статье представлен обзор когнитивного подхода к изучению и преподаванию языка, его вклад в овладение языком, а также приведены различия между концепциями изучения языка и овладения языком. Думается, что использование этого подхода в языковом образовании может помочь устранить разрыв между языком и его использованием – прагматическую интерференцию.*

***Ключевые слова:** когнитивный подход, коммуникативный подход, изучение языка, овладение языком, прагматическая интерференция.*

Sattorova Feruza Elmurodovna (Samarkand State Institute of Foreign languages Senior teacher, PhD, doctorant)

THE COGNITIVE APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: OVERVIEW

***Annotation.** This article provides an overview of the cognitive approach to language learning and teaching, its contribution to language acquisition, and the differences between the concepts of language learning and language acquisition. It is thought that the use of this approach in language education can help to eliminate the gap between language and its use, in other words, elimination of pragmatic interference.*

***Key words:** cognitive approach, communicative approach, language learning, language acquisition, pragmatic interference.*

Kirish. Ma’lumki, hozirgi globallashuv davrida sodir bo‘layotgan to‘xtovsiz yangiliklar va rivojlantirish til ta’limiga talablarning tobora oshishiga olib kelmoqda, bunda har tomonlama malakali kadrlarni yetkazib berish, o‘quvchi-talabalarning sohalari bo‘yicha eng so‘nggi bilimlarni o‘zlashtirishi, pirovardida ularning kelajakda ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi maqsad qilingan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari tog‘risidagi” PQ 5117-qaror turli soha mutaxassislarining salohiyatini oshirish va xorijiy tilni talab darajasida o‘rganganlarni moliyaviy rag‘batlantirish kabi harakatlar orqali yurtimiz yoshlarini chet tillarini o‘rganishga ruhlantirish ko‘zda tutilgan edi. Afsuski, “dunyo mamlakatlarida ingliz tilini bilish darajasini baholovchi eng yirik reyting–EF English Proficiency Index 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, yurtimiz aholisi ingliz tilini bilish bo‘yicha eng past mamlakatlar qatorida qolmoqda” [1]. Til o‘rganish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay, til bilish darajasining pasayishiga bizga ma’lum bo‘lmagan juda ko‘p omillar bo‘lishi mumkin, lekin ingliz tili o‘qituvchisi sifatida nuqtayi nazarimiz til o‘rganish uchun sarflanadigan mehnat va vaqt talabi o‘rganuvchilar sonining kamayishiga olib kelmoqda. Jumladan, til ta’limini

haqiqiy ingliz tili soʻzlashuvchilari bilan taʼminlash mushkul hisoblangan Oʻzbekiston kontekstida ingliz tilida “tabiiy”, til egalari kabi muloqot kompetensiyasini egallash birmuncha mushkul boʻlib tuyuladi. Bu mulohaza ona tilisi ingliz tili boʻlmagan oʻzbek oʻqituvchilari uchun ingliz tilini oʻqitish va oʻrgatish boʻyicha tajribalarini qayta koʻrib chiqish uchun muhim talab boʻlib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Avvalo, til taʼlimida muhim hisoblangan “til oʻrganish” va “til oʻzlashtirish” tushunchalari oʻrtasidagi farqlarni va ularning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlab olish muhimdir. Bunda til oʻzlashtirish nevropsixologik jarayon boʻlib, tilni “tabiiy” oʻrganishni taqozo etadi, boshqacha aytganda, bolalar ona tili va ikkinchi tilni rasmiy taʼlimlarsiz oʻzlashtiradi. Til oʻrganish jarayoni esa rasmiy yoki mustaqil taʼlim olish orqali amalga oshirilib, aqliy mehnat va yodlashni talab qiladi. Kra-shen maʼlum bir tilda muloqot qilish qobiliyati shakllanishida bu ikki tushunchaning nazariy asoslarini haqi-da soʻz yuritib, tilga moslashish, uni qabul qilish va boshqarishda (muallif – foydalanishda) 2 ta model mavjud boʻlib, tilni ongsiz ravishda oʻrganish til oʻzlashtirish va bilish jarayonini taqozo qiladigan til oʻrganish jarayonlaridir. Uning fikricha, til oʻzlashtirishni biz grammatik shakllar, sintaktik qoliqlar va boshqa oʻzaro bogʻliq tilshunoslik tushunchalardan bexabar va xoli tarzda amalga oshirsakda, tildan munosib foydalanishga tabiiy intilish bor. Aksincha, til oʻrganish modelida esa biz oldindan rejalashtirilgan aniq maqsad orqali oʻrganilayotgan tilning barcha grammatik va boshqa oʻziga xos qoidalarini yaxshi bilish orqali erishamiz [2;18-b.].

Quyidagi jadvalda biz til oʻzlashtirishdagi tabiiy bosqichlar va til oʻrganishda qoʻllaniladigan strategiyalarning qiyosiy tahlilini keltirish orqali til oʻrganishda bosib oʻtilishi kerak boʻlgan “xarita”ni taqdim etamiz:

Til oʻzlashtirish bosqichlari	Til oʻrganish strategiyalari
–tugʻilishdan 11-oylik chaqaloq boʻlguncha chiqariladigan erta ovoz chiqarishlar (yigʻlash, qichqirish va gʻoʻngʻirlash); –1,5 yoshgacha bir soʻzdan foydalanish; –2.5 yoshdan boshlab ikki soʻzdan foydalanish bosqichi; –gaplar tuzish bosqichi (soʻzlarni birlashtirish).	–qidirish (nimani oʻrganish); – tayyorgarlik (shakllar ustida mashq qilish); –foydalanish (oʻrganilgan shakllarni qoʻllashga urinish); –muloqot qilish (tildan turli vaziyatlarda foydalanish); – kognitiv strategiyalar (leksemalarni aniqlash, qidirish va saqlash); – metakognitiv strategiyalar (oldindan baholash, rejalashtirish va koʻrib chiqish); –hissiy strategiyalar (his-tuygʻularni va munosabatlarni uygʻunlantirish); –ijtimoiy strategiyalar (oʻrganuvchilar oʻzaro muloqotda tanlagan harakatlar ketma-ketligini oʻz ichiga oladi); –kompesatsion strategiyalar (kontekst va ishoralarga qarab taxmin qilish) – yodlash strategiyalari.

Til oʻrganishdagi strategiyalar qatori, haqiqatan ham, bu jarayonning ogʻirligini, kishidan mashaqqatli va tizimli harakat qilish zarurligini koʻrsatadi. Til oʻzlashtirish esa tabiiy va oʻziga xos jarayon boʻlib, chegaralab yoki taqiqlab boʻlmaydi, shuning uchun ijtimoiy muhit taʼsirida kuzatish va taqlid qilish orqali bi-lim ongsiz ravishda egallanadi. A.A.Leontev birinchi va ikkinchi chet tilini oʻzlashtirishdagi xususiyatlarni quyidagicha izohlaydi. Ikkinchi chet tilini oʻrganishni boshlagan odam yoshga qarab turli xil psixologik xususiyatga ega. Ikki tilli oilalar uchun birinchi til bilan ikkinchi tilni oʻzlashtirish parallel sodir boʻladi. Ikkinchi chet tili maktabgacha yoshda oʻrganishni boshlash ham samarali boʻladi, bola bu davrda hech qanday fonetik va grammatik qoidalarsiz ikkinchi tilni toʻgʻridan toʻgʻri egallashni boshlaydi. Chet tilini birinchi til uchun umumiy boʻlgan malakalar asosida oʻrganishni boshlaydi. Ona tilini oʻrganish kichik mexanizmdan yaʼni pastdan yuqoriga tomon oʻrganib nutqning barqarorligiga erishiladi. Chet tilini oʻrganish esa ixtiyoriy til birliklarini yuqoridan pastga tomon tanlov asosida oʻrganish yuzaga keladi. Koʻpincha, chet tili taʼlimida bu mexanizm eʼtibordan chetda qoladi” [3;128-b.]. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, siz tillararo interferensiya turlarini aniqlashda faqat bu hodisaning manbasi va taʼsir doirasi bilan qoniqmaysiz. Bu yerda tilda sodir boʻladigan buzilishning tabiatini hal qilishda ikki tilli kishining roli muhim ahamiyatga ega. Ushbu koʻrinishda “yuqori darajada farqlanuvchi” tillararo interferensiya, “farqlar” (deffirensiatsiya) va “farqlarni qayta talqin qilish” kabi uch turdagi interferensiyani ajratish mumkin. Differensiatsiya atamasi bu chet tilidagi xususiyat ona tilida yoʻqligi yoki aksincha holatni anglatadi. Farqlarni qayta talqin qilish esa maʼlum tildagi farqlanuvchi xususiyatini ona tilidagi yoki chet tilidagi oʻrindoshi bilan almashtirishni anglatadi. Bunday interferensiyalar tilning turli sathlarda uchragan hodisalar boʻlsa-da, ularni koʻproq prag-

matik muammolar ildizi deb hisoblaymiz. Zero, pragmatik adabiyotlar tahlili, hozirgi davrda grammatik salbiy transformalardan ko'ra pragmatik muvaffaqiyatsizliklar kommunikatsiyada to'siqlarga ko'proq sabab bo'lyapti. Bundan tashqari, "konseptual tizimdagi nomutanosiblik til sohiblarining hayot tajribasidagi farqlar bilan bog'liq" [4;206-b.] degan mulohazalar ham tillararo interferensiyaga va suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunish faoliyatiga ham salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi. Masalan, turli tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, biror-bir taklifni rad etish uchun haqiqiy ingliz *I would love, but...* deb rad etishning "yumshoq yo'li"ni tanlasa, ingliz tilini chet tili sifatida qo'llovchi ko'plab insonlar oddiyroq va to'g'ridan to'g'ri *Sorry I have other plans for that day* deya javob berishni ma'qul ko'rishadi. Bunga sabab ularning ochiqdan ochiq rad etish me'yoriy hisoblangan jamiyatda voyaga yetganliklari ehtimoldan xoli emas. Ikkinchidan, chet tilida so'zlovchida bunday diskursiv koeziyadan *-I would love to...* dan foydalanish ko'nikmasi shakllanmaganligi bo'lishi mumkin. Uchinchidan, so'zlovchining ona tilida bunday qurilmaning mavjud emasligi ham pragmatik nomutanosiblikka yetaklashi mumkin.

Ammo tajribali o'qituvchi tilni o'zlashtirishdagi duch kelinadigan bunday qiyinchiliklarni yumshatish uchun til o'zlashtirishda muhim bo'lgan ijtimoiy muhitga yaqin sharoitni til ta'limiga olib kirish kerak. Shunday imkoniyatni beradigan ta'limga kognitiv yondashuvni umumiy tadqiqini ushbu maqolada ko'rib chiqamiz. Bu yondashuv til ta'limida vaziyatlarni ingliz tilida so'zlashuvchilarga odatiy bo'lgan muhitga ko'ra hayotiy muloqot qoidalariga muvofiq modellashtirish bilan shug'ullanadi. Garchi kommunikativ yondashuv o'quvchilarning ehtiyojiga, tildan vazifaviy foydalanishga, o'quvchilarning kommunikativ qobiliyat va ko'nikmalariga e'tibor qaratsada, bu yondashuv bugungi kunning globallashtirish talablariga yetarlicha javob bermaydi. Natijada yangi yondashuvlarga va ularning mavjud yondashuvlar bilan uyg'unlashuviga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa ta'limning barcha bog'inlarida chet tili ta'limidagi muammolar mazmunini ongli o'rganish orqali ba'zi bir maqsadli ko'nikmalarni shakllantirishda muhim sanaladi. Til ta'limi bo'yicha mutaxassislar fikricha ushbu turdagi o'quv muhitini yaratishda kognitiv tilshunoslik yutuqlaridan samarali foydalanish mumkin. Zero, professor Sh. Safarov ta'kidlaganidek, "bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo'lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo'q" [4:11-b.]. Kognitiv yondashuv til ilmi qoidalarini tushunish asnosida mazmunli o'rganish va mazmunli amaliyotga urg'u beradi [5:25-b.]. Bu yondashuvning asosiy g'oyasi o'quv jarayonida bilimlarni egallashga, aniqlashga, xulosa chiqarishga, tuzilishiga va uning birliklarini tizimli ravishda tartibga solish, saqlash va qo'llashga mo'ljallangan. Kognitiv yondashuvda idrok etish jarayoni ma'lumotlarni tajriba, his-tuyg'u va fikrlash orqali miyaga singdirishdir. Bu fikrlash, eslab qolish, o'rganish va foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'limda kognitiv yondashuv mavjud bilimlar bilan yangi ma'lumot va tushunchalar o'tasidagi bog'liqlikni tushunishga, axborotni analiz (tafsilotlari bilan o'rganish) va sintez (qayta qurish)ga yordam beradi. Natijada bunday jarayon xotirani mustahkamlaydi va eslab qolish jarayonini yuqori darajada oshiradi. Kognitiv ta'lim bilishning barcha shakllarini, jumladan, xotira, psixolingvistika, fikrlash, tushunish, idrok etish va qo'llashni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi vaqtda keng qo'llanib kelayotgan chet tili ta'limida kommunikativ yondashuv til o'rganuvchilarning turli maqsadlari va kasbiy muhit talablarini qondirishga intilmoqda. Ammo til ta'limidagi yangi talablar va o'qitishni takomillashtirish uchun kommunikativ va kognitiv paradigmalari sintezini amalga oshirish xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ularning integratsiyasi o'quvchilarni o'rganilayotgan tildagi lisoniy bilimlarni ongli ravishda egallashga va o'quv va fan sohasidagi mazmuniy bilimlarni kommunikativ vaziyatga bog'liq ravishda qo'llashga yordam beradi. Shunday qilib, kommunikativlikning asosiy yo'nalishi bo'lgan tilni bilish, muloqot qila olish kompetensiyasi, til ko'nikmalari, nutqning ravonligi va aniqligi, til boyligi va xilma-xilligi tilni deduktiv o'qitish usuli kognitiv yo'nashidagi metalingvistik ongga asoslangan kognitiv qobiliyat, bilimlarni tizimlashtirish malakasi, konseptual ravonlik, foydalanilayotgan tilning kontekstga mosligi, pragmatik adekvatlik va induktiv texnikalar bilan takomillashtiriladi. Bunda o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilish bilan o'quvchilar uchun interaktiv, haqiqiy va qiziqarli o'qitish muhitini yarata oladi. Kognitiv yondashuvga asoslangan texnologiyalar ma'lumotlarni moslashtirish, birlashtirish, guruhlash, umumlashtirish, fikrlash, xulosa chiqarish kabi mashqlarga asoslanishi kerak. Tilni o'rgatishda o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab kognitiv strategiyalar mavjud. Biroq o'quvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko'ra, ularning aqliy jarayonlarini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratish lozim. Masalan, o'quvchilar yangi lug'atlarni takrorlay olish, lingvistik tuzilmani tartibga solish, kontekstdan ma'noni taxmin qilish va va ularning inikosini miyasida aks ettirish kabi harakatlarni amalga oshira oladi. Talabalar to-

monidan olib boriladigan ushbu tadbirlar o'quvchilarga tilni faol o'zlashtirish va qayta ishlashga imkon beradi .

Xulosa va takliflar. Xullas, til – belgilar tizimiga asoslangan muloqot shakli. Ammo tilni tushunarli qiladigan omil bu tildan ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga asosan muloqotga kirisha olish qobiliyatini egallashdir. Ingliz tili chet tili hisoblanadigan O'zbekiston sharoitida o'quvchilar bu tilning lingvistik, madaniy va tarixiy kelib chiqishi bo'yicha tajribaga ega emaslar. Bundan tashqari, ular ingliz tilini faqatgina o'quv xonalarida qo'llash bilan cheklanadilar. Shuningdek, o'quvchilarning ingliz tilidagi mavjud bilimlari va darsda o'zlashtirilgan yangi bilimlar o'rtasida aloqadorlik, ko'pincha, uzilib qolgan. Talabalarining til haqidagi bilimlarini shakllantirishdagi to'siqlarni yumshatishga til ta'limiga kognitiv yondashuv orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). <https://kun.uz/news/2024/11/13>
- (2). Kenneth R.Rose, Gabriele K. Pragmatics in language teaching. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, p. 18.
- (3). Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. М., МГУ, 1982, с. 128.
- (4). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Ж., “Сангзор”, 2006, 92-бет.
- (5). Safarov Shaxriyor. Til nazariyasi va lingvometodologiyasi. Monografiya, T., “BAYOZ”, 2015, 216-bet.
- (6). Boers F., Lindstromberg S. Cognitive linguistic approaches to teaching vocabulary and phraseology. Berlin, Mouton de Gruyter, 2008, p. 25.
- (7). Kasper Gabriele. Pragmatik transfer. Second Language Research, Volume 8(3), 2001, p. 207.
- (9). Krashen S.D. Second Language Acquisition and Second Language Learning. Oxford: Pergamon, 1981, p. 18.

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti “Xorijiy tillar” kafedrasida assistenti; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com; UO'K 8.81.81-13.81'23)

INGLIZ TILINI O'QITISHDA MEXATRONIKA YO'NALISHI TALABALARINING PRODUKTIV KO'NIKMALARINI INTERFAOL-AXBOROT MUHITIDA TAKOMILLASHTIRISH SHARTLARI

***Annotatsiya.** Ingliz tilini mexatronika yo'nalishi talabarlari uchun o'qitishda produktiv ko'nikmalarini takomillashtirishda interfaol-axborot muhitidan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy talablaridan biridir. Bu yo'nalishda talabalar nafaqat tilni bilishlari, balki o'z sohalari bilan bog'liq texnik atamalar va tushunchalarni ingliz tilida aniq va to'g'ri ifodalashni o'rganishlari kerak.*

***Kalit so'zlar:** mexatronika, produktiv ko'nikma, interfaol metod, integratsiya, motivatsion yondashuv.*

Бегимова Гулшоода Жаҳон кызы (Каршинский Инженерно-экономический институт, ассистент кафедры иностранных языков; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОДУКТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ПО МЕХАТРОНИКЕ В ИНТЕРАКТИВНО-ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

***Аннотация.** Использование интерактивно-информационной среды в обучении английскому языку студентов по направлению «мехатроника» является одним из ключевых требований современного образовательного процесса. В этом направлении студенты должны не только овладеть языком, но и научиться точно и правильно выражать технические термины и понятия, связанные с их профессиональной областью, на английском языке.*

***Ключевые слова:** мехатроника, продуктивные навыки, интерактивный метод, интеграция, мотивационный подход.*

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Karshi Engineering-Economics Institute Assistant at the Department of Foreign Languages; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

CONDITIONS FOR IMPROVING THE PRODUCTIVE SKILLS OF MECHATRONICS STUDENTS IN AN INTERACTIVE-INFORMATION ENVIRONMENT IN TEACHING ENGLISH

***Annotation.** The use of an interactive information environment to enhance productive skills in teaching English to students of mechatronics is one of the main requirements of the modern educational*

process. In this field, students need to not only know the language but also learn to accurately and correctly express technical terms and concepts related to their specialty in English.

Keywords: *mechatronics, productive skills, interactive method, integration, motivational approach.*

Kirish. Muhandislikning zamonaviy dunyo qurilishida katta ta'sir ko'rsatayotgan sohalaridan biri bu, albatta, "Mexatronika muhandis"ligidir. Mexatronikaga ko'plab ta'riflar mavjud bo'lib, ularning askariyati mexanika, elektronika va kompyuter texnologiyalarining integratsiyasini tushuntiradi. Mexatronika muhandisi – mexatronik tizimlarni ishlab chiqish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan, mamlakat sanoatini rivojlantirish orqali dunyo standartlariga mos ishlab chiqarish darajasiga erishishga hissa qo'shadigan mutaxassisdir.

Qanday qilib mexatronika muhandisi uchun sanoat rivojlanishining ortib borayotgan talablari va mutaxassis uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni qondiradigan mexanik va elektron muhandislik, kompyuter va avtomatik boshqaruv bilimlarining muvozanatini yaratish mumkin? Ushbu maqolada ushbu va boshqa savollarga javoblar taqdim etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda ko'zga ko'ringan yetuk olimlardan O'.Hoshimov, I. Yoqubov, J.J.Jalolov, I.M.Tuxtasinov, J.F.Yo'ldoshev va boshqa olimlarning xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilmiy ishlari mavjud. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini chet tiliga o'qitish metodikasi va produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar ham o'rganildi [1; 320-b.]. Jumladan, B.Xoliyorov, F.M.Rashidova, B.G.Kulmatov, F.Sh.Alimov, S.Nazarova, D.M.Isroilova ishlarida ushbu masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan [2;21–22-b.]. Oliy o'quv yurtlarining mexatronika yo'nalishlari talabalarida produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish, nofilologik oliy ta'limi paradigmalarining o'zgarishi va pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish, har bir talabaning intellektual qobiliyatini hisobga olish hamda interfaol vositalar orqali produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi. Interfaol-axborot muhitida o'qitish, asosan, talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Bunda quyidagi interfaol texnologiyalar qo'llaniladi:

1. Onlayn platformalar: Zoom, Google Classroom, Moodle va boshqa o'quv platformalari orqali talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishlari, o'zaro va o'qituvchi bilan savol-javob qilishlari mumkin.

2. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar: mexatronika yo'nalishidagi texnik bilimlarni o'zlashtirish uchun talabalarga maxsus virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar taqdim etiladi. Bu usullar talabalarga real texnik holatlarni ingliz tilida tushuntirish va ularga yechim topishga yordam beradi.

3. Veb-resurslar va multimedia vositalari: texnik lug'atlar, audio va video materiallar, texnik maqolalar va hisobotlar orqali o'quv jarayoni interfaol tarzda tashkil etiladi. Bu o'quv resurslari til ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega [3;309-b.].

Produktiv ko'nikmalar (gapirish va yozish) interfaol o'quv muhitida quyidagi usullar orqali rivojlantirilishi mumkin:

– yozma ko'nikmalar: texnik ingliz tilida qisqa texnik eslatmalar, hisobotlar yoki prezentatsiyalar tayyorlash orqali. Bunda talabalar o'z g'oyalarni aniq va to'g'ri ifodalashga o'rganadilar;

– og'zaki ko'nikmalar: texnik prezentatsiyalar qilish, loyiha himoyalash va guruhli muhokamalar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar;

– vaziyatli topshiriqlar va rolli o'yinlar: talabalarga texnik masalalarni ingliz tilida muhokama qilish va ularga yechim topishga qaratilgan rolli o'yinlar va topshiriqlar beriladi. Bu talabalar uchun shaxsiy hamda kasbiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Muhokama. Mutaxassislar tanlagan soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, ingliz tili o'qitish jarayonida kerakli interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'lajak kadrlarni til o'rganish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Bunda muqobillik usullaridan ham foydalanish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni boshqa davlatlarning ta'lim tizimidagi muqobil uslublar, masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va tilni integratsiyalashgan o'qitish) uslubini qabul qilish yo'li bilan talabalarda til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, produktiv ko'nikmalarni shakllantirishda interfaol metodlardan turli kombinatsiyalarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz. Uslubiyotchi olimlarimizdan J.Jalolov ta'kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash orqali yoki matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrlari bayoni orqali tushunishlari yanada osonroq amalga oshadi hamda o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, talabalarda lug'at boyligini ortishiga, ingliz tilida to'g'ri fikrlashlariga yordam beradi [4;152-b.].

Ushbu maqola orqali ingliz tilini interfaol-axborot muhitida o'qitish natijasida talabalar texnik sohada ingliz tilidagi bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalar har birining o'rni katta. Shunday ekan, ularni o'zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Tinglab tushunish va o'qish passiv (qabul qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi, chunki ular yordamida til materiali ijod qilinmaydi, aksincha, ular o'zgalardan tomonidan ijod qilingan materialni qabul qilib olishga yordam beradi. Gapirish bilan yozish esa aktiv (ijod qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi, chunki bunda o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma gaplar shaklida til materiali yordamida ifodalaydilar. Shunday qilib, aktiv va passiv ko'nikmalar, bir paytning o'zida, namoyon bo'lmaydi. Gapirishdan oldin tinglash, yozishdan oldin o'qish talab qilinadi (yoki aksincha). Tinglab tushunish (listening) – bu o'rganuvchi tomonidan eshitish ko'nikmasining yaxshi o'zlashtirilishi hisoblanadi. Tinglab tushunish ko'nikmasi orqali o'quvchilar o'zlarining eng yaxshi taraflarini shakllantiradi. Tinglab tushunish eshitish qobiliyatini yuksaltiradi. Ingliz tili darslarida quyidagi usullar orqali eshitish ko'nikmasini yaxshilash mumkin [5;103–104-b.]:

1. Guruh o'yinlari (Mock).
2. Audio o'yinlar (Li-li).
3. Video o'yinlar (Cinema class).
4. O'z-o'ziga gapirish (I and you).

Natija. Tinglab tushunishni o'zlashtirish til o'rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishib o'rganishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi axborot vositalari yuksak taraqqiy etgan davrda bizning Vatanimizda ham ingliz tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish va mahoratlarini rivojlantirishda auzantik materiallardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tinglab tushunishni o'rganishga qaratilgan topshiriqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- muvaffaqiyatli tinglab tushunish til (vaziyat)ni to'la tushunishni ta'minlaydi;
- ravon va bexato gapirishga xizmat qiladi;
- o'quvchilarning nutq vaziyatiga to'g'ri baxo berishga yordam beradi;
- o'quvchilarning suhbatdoshi bildirayotgan fikrlariga munosib javob berish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- mazmuni to'la anglab yetishga yordam beradi;
- yangi materialda berilayotgan yangi tushuncha va mazmuni o'zlashtirishda foydali;
- mavjud bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
- suhbatdoshining ishonch va hurmatiga erishishga yordam beradi [6;553-b.].

Til va nutq hodisalari umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, invariant variantlilik tushunchalari bilan uzviy bog'lanadi. Umumiylik va xususiylik dialektikasi to'g'risida gapirganda, Gegelning bir iborasini eslash o'rinlidir. Biz gilos, olma, o'rikni yeymiz, hech qachon mevani yeya olmaymiz. Yoki V.M.Solnsev ta'kidlaganidek, yilqi ichidagi qaysi otni boshqa otga nisbatan invariant deb hisoblash mumkin. Tabiiyki, hech qaysisini, faqat ularning bittasini «namuna» deb e'tirof etish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gapirish (speaking) – ushbu ko'nikma bevosita muloqot orqali shakllanuvchi ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma suhbat qurish orqali amalga oshadi. Asosan, bu ko'nikma grammatikani tushungan holda amalga oshiriladi. So'zlovchilar audiolarni qo'yib, tinglashni kuchaytirishlari mumkin. Bu usul orqali ularning lug'at tizimi rivojlanadi. Bu voqealarning ko'pchiligi real hayotiy vaziyatlaridir. Ular shulardan foydalanadilar. Zamonaviy o'qituvchilar til muammosini hal qilishi uchun, o'quvchilarning nutqiy malakalarini oshirishi uchun quyidagi o'yin va yo'llarni qo'llaydilar: Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tili o'rganuvchisi mana shu yuqoridagi to'rtta ko'nikmani o'zlashtirishiga ko'zlangan maqsadiga erisha oladi, o'zi uchun ham foydali saboqni olgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Xotamov J.S. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar”. Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari. Dekabr 2021, 320-bet.
- (2). Xoliyorov B.H. “Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyasini rivojlantirish”. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Samarqand, 2021, 21–22-betlar.
- (3). Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. док.пед.наук, Т., 2017, с. 309.
- (4). J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, “O'qituvchi”, 2012, 152-bet.
- (5). Greenalls and M.Swan. 1986. Effective Reading. Cambridge. Cambridge University Press, p. 103–104.
- (6). Begimova G.J. “Leksik sath birliklari tavsifi”. “NamDU Ilmiy axborotnomasi”, 2024, 5-son, 553-bet.

Kunduz Karimova (Urganch davlat universiteti dotsenti v.b.; e-mail:q_karimova@mail.ru)
**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGANILADIGAN NOSTANDART MASALALARNING
TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA AXLOQIY AHAMIYATI**

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda nostandart masalalarning o'rni yoritilgan. Nostandart masalalar bilan ishlashning boshlang'ich sinflarda o'quvchilar uchun nafaqat matematik bilimlarini oshirishga, balki ularni axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga ham xizmat qilishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, nostandart masala, usul, metod, yechim, matematik tafakkur, ko'nikma, fikr, axloq, tarbiya.

УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ И ПРАВСТВЕННАЯ ЗНАЧИМОСТЬ НЕСТАНДАРТНЫХ ВОПРОСОВ, ИЗУЧАЕМЫХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье освещается роль нестандартных вопросов в преподавании математики в начальных классах. Выявлено, что работа с нестандартными задачами служит учащимся начальных классов не только для повышения их математических знаний, но и для их нравственного и социального становления.

Ключевые слова: начальный класс, ученик, нестандартная задача, прием, метод, решение, математическое мышление, навык, мысль, мораль, воспитание.

THE EDUCATIONAL, DEVELOPMENTAL, AND MORAL SIGNIFICANCE OF NON-STANDARD PROBLEMS STUDIED IN ELEMENTARY GRADES

Annotation. The article discusses the role of non-standard problems in teaching mathematics in primary school classes. It reveals that working with non-standard problems not only enhances students' mathematical knowledge but also contributes to their moral and social development.

Keywords: primary school, student, non-standard problem, method, technique, solution, mathematical thinking, skill, thought, ethics/morals, upbringing.

Kirish (Introduction). Ertangi kun egalari bo'lgan bugungi kun yoshlarini kuchli bilimga ega qilib tarbiyalash, o'quv muassasalarida zamon talablariga mos sifatli ta'limni ta'minlash, o'quvchi-yoshlarni har jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazishda dastlabki tushunchalarni berish, o'quvchilarning dunyoqarashini to'g'ri rivojlantirish masalasi maktab o'qituvchilari zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Davlatimizda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor hamda g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda zamonaviy ta'lim berish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchilarni jamoaviy va yakka tartibda ishlash, mustaqil o'qib o'rganish, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilar barcha qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsadida ta'lim sohasida yangiliklar yaratish borasida ilmiy tadqiqotchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kun o'quvchilariga matematikaga oid nostandart masalalarni, ularning turlari va yechish usullarini o'rgatuvchi, ularga bunday masalalar to'g'risida aniq ma'lumotlar beruvchi, o'quvchilarning kreativ qobiliyatini o'stiruvchi topshiriqlardan foydalanish maqsadida darsliklar, qo'llanmalar, monografiyalar nashr etish, bo'lajak o'qituvchilarning bu sohadagi bilimlarini rivojlantirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirishga yo'naltiruvchi o'quv va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish faoliyatiga oid metodik ko'rsatmalar, qo'llanmalar yaratish metodist olimlarimiz oldiga qo'yilgan, hal qilinishi kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kun o'qituvchisi zamon bilan hamnafas bo'lishi bilan birga qobiliyatli, o'z ishining ustasi, mohir notiq va ijodkor bo'lishi talab qilinadi.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: "Talim-tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi. Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar" [5;179-b.].

O'qituvchining o'quvchilarga bilim berishi yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyati qanchalik yuqori darajada ekanligiga bog'liq. Maktab o'qituvchisining faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol, yetuk shaxs darajasida tarbiyalashda va yangi bilimlarni chuqur singdira olishida namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati esa, albatta, o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga bog'liq. O'qituvchi qobiliyati o'qitish faoliyati jarayonida shakllanib va rivojlanib boradi. Buning uchun o'qituvchida intilish, layoqat, zehn, qiziqish va matonat bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarga oid qiziqishlarini orttirishning eng maqbul usuli bu fanga oid noodatij topshiriqlardan va savol-javoblardan foydalanishdir. Matematika fanida bunday masalalar no-standart masalalar deyiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar nostandart vazifalarga ta'rif berganlar, ammo aniqroq va umumiy ta'rif L.M.Fridman tomonidan berilgan: "Nostandart masalalar – matematika kursida ularni yechishning aniq dasturini belgilovchi umumiy qoidalar va qoidalar mavjud bo'lmagan masalalardir" [6:45-b.]. Bunday masalalar o'quvchilarda ijodiy fikrlash va matematik tafakkurni rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, nostandart vazifa deganda o'quvchi uni yechish usulini bilmagan vazifalar tushuniladi va bunday masalalarni hal qilishda o'rganilgan bilimlarga tayanish talab qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Nostandart masalalar boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematik tafakkurini, ijodkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar odatdagi matematik masalalardan farqli ravishda, o'quvchilardan yanada ijodiy yondashuv va nostandart yechim usullarini talab qiladi. Ushbu masalalar orqali o'quvchilar muammolarni turli burchaklardan ko'rish, mantiqiy fikrlash va tasavvurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nostandart masalalar boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ta'limiy rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Ushbu masalalar o'quvchilarning matematika fani bo'yicha ko'nikmalarini chuqurlashtiradi va ularning umumiy aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Quyida nostandart masalalarning ta'limiy jihatlari batafsil berilgan:

1. Matematik tafakkurni rivojlantiradi. Nostandart masalalar o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ular odatdagi masalalardan farqli o'laroq, o'quvchilardan ijodiy va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Bu masalalar o'quvchilarning sonlar, geometrik shakllar, qiyoslash va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nostandart masalalar yechishda o'quvchilar turli xil matematik tushunchalarni o'zlashtiradi va ularni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Nostandart masalalar muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan masalalarni tahlil qilish va ularga yechim topish uchun turli strategiyalarni qo'llaydilar. Bu masalalar o'quvchilarga yangi sharoitlarga moslashish, muammoni har tomonlama ko'rib chiqish va yechim topishda ijodkorlik bilan yondashishni o'rgatadi. Bunday mashg'ulotlar orqali o'quvchilar muammolarni tahlil qilish va ularga o'ziga xos yondashish orqali turli yechimlarni topishga o'rganadilar.

3. Mustaqil fikrga ega bo'ladi va o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Nostandart masalalar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda masalalarni yechishga va o'z bilimlarini sinab ko'rishga o'rganadilar. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'quvchilar nostandart masalalarni hal qilishda o'zlarining yondashuvlarini sinab ko'rish va yechimlarni mustaqil topish orqali qiyinchiliklarga bardosh berishni o'rganadilar.

4. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Nostandart masalalar o'quvchilardan oddiy yondashuvlardan tashqari ijodiy yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. O'quvchilar nostandart masalalarni hal qilishda o'z fantaziyalarini va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ishga soladilar. Bu esa ularning matematik va umumiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Nostandart masalalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar bu turdagi masalalarni yechishda o'zlarining mantiqiy ketma-ketliklarini aniqlash, muammoni tahlil qilish va to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularga nafaqat matematikada, balki boshqa fanlar va hayotiy vaziyatlarda ham mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini qo'llashga yordam beradi.

6. Darslarni qiziqarli tashkil qilish uchun yordam beradi. Nostandart masalalar darslarni qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi. O'quvchilar odatij masalalarni hal qilishdan ko'ra nostandart masalalar bilan shug'ullanishni yanada qiziqarli deb hisoblaydilar. Bu ularda matematikaga nisbatan qiziqishni oshiradi va fanga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Qiziqarli va murakkab masalalarni yechish orqali o'quvchilar matematikani chuqurroq o'rganishga qiziqadilar, bu ularning ta'limiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

7. Matematik bilimlarni hayotda tatbiq qila oladi. Nostandart masalalar, ko'pincha, hayotij vaziyatlarga asoslangan bo'lib, bu o'quvchilarga matematikani kundalik hayotda qo'llashni o'rgatadi. Masalan, oddij savdo qilish, buyumlarni taqqoslash yoki har xil vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi masalalar o'quvchilarga matematikani amaliyotda qo'llashni o'rgatadi.

8. Matematik kompetensiyalarni rivojlantiradi. Nostandart masalalar yordamida o'quvchilar matematik kompetensiyalarni rivojlantiradilar, ya'ni, ular masalalarni tahlil qilish, reja tuzish, muammolarni hal qilish va yechimlarni tekshirish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Bu kompetensiyalar, keyinchalik, murakkab matematik tushunchalarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadi.

Nostandart masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda foydali bo'lib, ularning matematik tafakkuri, mustaqil va ijodiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu masalalar ta'limiy jarayonni qiziqarli qilish bilan birga, o'quvchilarning shaxsiy va aqliy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

Nostandart masalalar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar uchun tarbiyaviy va axloqiy jihatlari katta ahamiyatga ega. Bunday masalalar o'quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini oshirishga, balki ularni axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga ham xizmat qiladi. Quyida nostandart masalalarning boshlang'ich sinflardagi tarbiyaviy va axloqiy jihatlari haqida batafsil ma'lumot keltiramiz:

Tarbiyaviy jihatlari:

1. Mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nostandart masalalar bilan ishlashni o'rgatish bolalarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga undaydi. Bu esa ularda har qanday muammolarni o'ziga xos tarzda ko'rib chiqib o'rganish va faqat o'zigagina xos bo'lgan ijodkorlik bilan yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu turdagi masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini tartibga solishga, tizimlashtirishga va bir maqsad sari ishonch bilan intilishga o'rganadilar.

2. Hayotda turli muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilar nostandart masalalar bilan ishlashda turli muammolarni ijobiy hal qilish yo'llarini izlaydi. Bu ularni hayotda duch keladigan turli muammolarni sabr-toqat bilan, aql bilan, eng mukammal tarzda hal qilishga o'rgatadi. Muammoni yechish uchun sabr qilish va turli yo'llarni sinab ko'rish muhim tarbiyaviy xususiyat bo'lib, bu hayotda juda muhimdir.

3. Mustaqil fikrga ega bo'lish orqali o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Nostandart masalalar bilan ishlash o'quvchilarga mustaqil ravishda fikr yuritish va qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'quvchilar masalani o'zlari mustaqil hal qilishni o'rgangan sari o'zlarini mustaqil va mas'uliyatli his qiladilar. Bu esa o'z-o'ziga ishonch tuyg'usining shakllanishi uchun muhimdir.

Aхлоqiy jihatlari:

1. Jamoa bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Nostandart masalalar, ko'pincha, guruhda yechiladi. Bu esa o'quvchilarni bir-biriga yordam berishga, hamkorlik qilishga, jamoa bilan ishlashga o'rgatadi. Guruhda ishlash orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, bir-biriga hurmat ko'rsatish va boshqalarni tinglash va ularning fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ijtimoiy va ahloqiy tarbiya jihatidan juda muhimdir.

2. Mehnatsevarlik va qiyinchiliklarga bardoshlilik shakllanadi. Nostandart masalalarni hal qilish qiyin va masalani hal qilish jarayonida juda ko'p xatoliklar kuzatilishi mumkin. Bu jarayon bolalarda mehnatsevarlik va qiyinchiliklarga bardoshlilik, qat'iyatlilik, boshqalar fikrini oxirigacha eshita olish kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa ularni kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyorlaydi va ijtimoiy jihatdan bardoshli inson bo'lib yetishishida yordam beradi.

3. To'g'ri so'zlash va o'zaro hurmat hissi ortadi. Masalalarni hal qilish jarayonida nostandart yondashuvlar bilan ishlash o'quvchilarni o'z yechimlarini tekshirish va adolatli ravishda tanqid qilishga o'rgatadi. Bunday jarayon ularda to'g'ri so'zlashga va boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish kabi axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda nostandart masalalarni hal qilishda o'quvchilar, ko'p hollarda, muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Ammo bu muvaffaqiyatsizlikning o'quvchilar uchun foydali tomonlari mavjud bo'lib, bu ularni sabrli bo'lishga, qiyinchiliklarni qanday qabul qilishga va ularni qanday hal qilishga o'rgatadi. Bu axloqiy jihatdan muhim, chunki hayotda ham muvaffaqiyatsizliklar va qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Bu jarayonda qiyinchilikni yengish uchun sabr va matonat talab etiladi.

O'quvchilarda nostandart masalalarni yechish orqali muammolarga ijodiy yondashish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu ularning hayotda ham kutilmagan muammolarni har xil ijobiy yo'llar bilan hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, bu juda muhim axloqiy fazilatdir.

Nostandart masalalarni yechishga o'rgatishning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematik tafakkurni shakllantirishi, tarbiyaviy va axloqiy jihatlari aniqlangan bo'lib, bu masalalar bolalarni mustaqillikka, to'g'ri so'zlikka, sabrlikka, hamkorlikka, o'zgalarga yordam berishga va ijodkorlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ularning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Фридман Л.М. Изучаем математику. Кн. для учащихся 5–6 кл. общеобразовательных учреждений.

М., «Просвещение», 1995, 255 с.

(2). Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. В.В.Давыдов. М., «Интор», 1996, с. 56.

(3). Rauxhanov Sh.R., Qosimov F.M. O'quvchi ijodiy faoliyatini oshirishda mantiqiy topshiriqlarning roli. To'plam. O'qitishning pedagogik-psixologik asoslari. Muammo va istiqbollar. Buxoro, 2002, 198-bet.

(4). E.G'.G'oziyev. Psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 2008, 351-bet.

(5). Фридман, Л.М. Как научиться решать задачи [текст]. Л.М.Фридман, Е.Н.Турецкий. М., «Просвещение», 1984, 175 с.

(6). В.У.Ягудайев. Аjoyib sonlar olamida. Toshkent, «Oqituvchi», 1973, 230-bet.

(7). Karimova K.R. The Content and Essence of the Concept of Logical Problem in Primary Education. International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 1, Jan, 2022, p .219–223.

(8). Mamatov M.Sh., Mamadjanova M.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda mantiqiy masalalarni o'rni va ahamiyati. «Xalq ta'limi», Toshkent, 2020, 5-son, 56–60-betlar.

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti «Maktabgacha ta'lim» kafedrasida o'qituvchisi; e-mail: esanovas@mail.ru),

Tangirova Ruhshona (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti «Maktabgacha ta'lim» yo'nalishi talabasi; e-mail: tangirovar@bk.ru)

XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Har bir xalqning kundalik hayotida xalq hunarmandchiligi namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq hunarmandchiligi xalqning tarixiy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi bebaho hazinadir. Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, uning pedagogik imkoniyatlari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid bilimlarni rivojlantirishning yo'nalishlari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** xalq hunarmandchiligi, pedagogika, ijtimoiy kompetensiya, ta'lim-tarbiya, amaliy san'at.*

Эсанова Сарвиноз Уктамовна (Институт предпринимательства и педагогики Денова, преподаватель кафедры дошкольного образования; esanovas@mail.ru),

Тангирова Рухшона (Институт предпринимательства и педагогики Денова, студентка дошкольного образования; tangirovar@bk.ru)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАРОДНЫМИ ПРОМЫСЛАМИ

***Аннотация.** Образцы народных промыслов играют важную роль в повседневной жизни каждого народа. Народные промыслы – бесценное сокровище, отражающее исторические ценности народа. В данной статье представлены взгляды на развитие социальных компетенций, связанных с народным ремеслом и его педагогическими возможностями. Также были проанализированы направления развития знаний учащихся о народных промыслах.*

***Ключевые слова:** народные промыслы, педагогика, социальная компетентность, образование, практическое искусство.*

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denau, Teacher of the Department of Preschool Education; e-mail: esanovas@mail.ru),

Tangirova Rukhshona (Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denau, Student of Preschool Education e-mail: tangirovar@bk.ru)

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING COMPETENCES IN FOLK CRAFTS

***Annotation.** Examples of folk crafts play an important role in the daily life of every nation. Folk crafts are a priceless treasure that reflects the historical values of the people. This article presents views on the development of social competencies related to folk crafts and their pedagogical possibilities. The directions of development of students' knowledge about folk crafts were also analyzed.*

***Key words:** folk crafts, pedagogy, social competence, education, practical art.*

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda umumta'lim maktablarida «Texnologiya» fanining joriy etilishi yoshlarni mehnatga o'rgatish, bilimli avlodni shakllantirish va ularni rivojlanayotgan ijtimoiy va bozor sharoitlariga moslashtirishga prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda har tomonlama rivojlangan, kreativ fikrlaydigan talabalarni tarbiyalash maktab ta'limining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa maktab o'quvchilarini tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish, o'smirlarda ijodiy mehnatga bo'lgan ehtiyojni qondirish va o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishni taqozo etadi. Zamonaviy maktab ya-

ngi mazmun va yangi pedagogik texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etuvchi ijodiy laboratoriya bo'lishi lozimligi davr talabiga aylanib bormoqda. U o'quvchilarning o'zini shaxs sifatida anglashidan boshlab, ijtimoiy yetuklik va kasbiy rivojlanishgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonini ta'minlashi kerak.

Ko'p asrlar davomida dekorativ-amaliy san'at va xalq hunarmandchiligi bolalarni ma'naviy va ijodiy tarbiyalash vositalaridan biri bo'lgan hamda pedagogik katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib kelgan. Dunyoning boshqa hech bir mamlakatida bizning yurtimiz kabi turli xil xalq hunarmandchiligi sohalari mavjud emas. Chuqur tarixga ega bo'lgan xalq hunarmandchiligi an'analari asrlar davomida rivojlanib, takomillashib kelmoqda, naqsh va bezaklar texnologik mahorat bilan birga avloddan avlodga o'tib bormoqda.

Xalq hunarmandchiligi jamiyatning ma'naviy hayotidan ko'chirilgan, yetuk shaxsni tarbiyalashda ishtirok etuvchi, uning ijtimoiy tajribasini shakllantiruvchi an'analari, yangilik va me'yorlarni zamonaviy madaniyatda o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalarga xalq madaniyatining mohiyatida mujassam bo'lgan urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining milliy o'ziga xosligini ko'rsatish zarur. San'at o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, intellekt faollashadi, his-tuyg'ular barqarorlashadi. Bolalarni ijod bilan tanishtirish yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning eng to'g'ri yo'lidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari masalasi bo'yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular qatoriga N.G.Alekseev [3], S.Gruzenberg [4], K.Dunker [2], Y.L.Lvova [5], A.Nekrasova kabilarni alohida qayd etish joiz. Ushbu tadqiqotchilar o'z izlanishlari orqali xalq hunarmandchiligining pedagogik jihatlari, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishdagi rolini asoslab berishga harakat qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari mavzusiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning pedagogika fanlari sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, kuzatish, induksiya, deduksiya kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xalq badiiy hunarmandchiligi hamunalaridan pedagogik jarayonlarda professional foydalanish va bolalarning estetik tarbiyasi XV asrda boshlangan. U umuminsoniy qadriyatlarga va ularni avloddan avlodga yetkazish usullariga katta ta'sir ko'rsata oldi. XX asrning 20-yillarida sovet pedagogika fani, xalq ta'limi, jumladan, o'quvchilarga estetik tarbiya berish amaliyotiga asos solingan. 1918-yil oktabrda e'lon qilingan "Yagona mehnat maktabining asosiy tamoyillari" hujjatida shunday deyilgan edi: "Umuman olganda, estetik tarbiya ba'zi bir soddalashtirilgan bolalar san'atini o'rgatish emas, balki hissiyotlar va ijodiy xususiyatlarni tizimli ravishda rivojlantirishni anglatishi kerak. Bu elementdan xoli mehnat va ilmiy ta'lim ruhsiz bo'lar edi, chunki hayot quvonchi mehnat va ilmning oliy maqsadidir" [4;18-b.].

Pedagogikaning xilma-xil tarbiyaviy maqsadlarida: estetik tarbiya va tabiat vositalari, ijtimoiy foydali mehnat va san'atning barcha turlari orqali tarbiyalash katta o'rin egallaydi.

Taniqli psixolog P.P.Blonskiy o'quv materialini qadimgi xalq dunyoqarashining xususiyatlarini saqlab qolgan bolalik xususiyatlariga yaqinlashtirish lozimligiga alohida urg'u beradi. "Biz, – deb yozadi P.P. Blonskiy, – bolani o'rgatishda, bolaning ongi bizga qaraganda xalqqa va qadimiylikka yaqinroq ekanligini doimo yodda tutishimiz kerak. Shuning uchun ham o'rganishning boshlang'ich nuqtasi bolalar, xalq va qadimiy san'atdir" [2;107-b.].

Bugungi globallashuv sharoitida maktab umuminsoniy qadriyatlarni e'tibordan chetda qoldirmasdan, o'quvchilarni o'z xalqining tarixiy ildizlari va an'alariga, millatlararo munosabatlarga, diniy bag'rikenglikka, o'z xalqining tarixiy ildizlariga g'amxo'rlik qilishga o'rgatuvchi madaniyat markaziga aylanishi lozim. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi yosh avlodni bu borada oldingi ajdodlar tomonidan yaratilgan xalq hunarmandchiligi namunalarini o'zlashtirish asosida ma'naviy va moddiy qadriyatlarni yaratishga tayyorlashdir. An'analari xalq, millat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini jamlab, g'oyaviy-axloqiy, mehnat va estetik madaniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ularga qo'shilish orqali navqiron avlod falsafiy, psixologik, g'oyaviy-axloqiy-estetik mazmuni o'ziga singdiradi, milliy o'ziga xoslikni, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirishga ijodiy munosabatni shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan ham keyingi yillarda xalq hunarmandchiligi namunalaridan shaxsning barkamol rivojlanishining uzviy qismi va eng muhim omili sifatida foydalangan holda badiiy-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti muammolariga e'tibor kuchaymoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda umumta'lim maktabining asosiy e'tiborini milliy ta'limni rivojlantirish va milliy maktabni tiklash muammolarini ishlab chi-

qishga qa-ratish kerak. Ammo bu o'tmishga qaytishni anglatmaydi. Bular milliy madaniyatni ijodiy o'zgar-tirishni amalga oshiradigan va o'quvchilarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga moslashtiradigan metodlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib ,O'zbekistonda har bir yosh avlod vakilini ona xalqining qadriyatleri va an'alarining tashuvchisi sifatida shakllantirish, uning kamolotiga ko'maklashish respublika ta'lim muassasalarining eng muhim vazifasi hisoblanadi [3;98-b.].

Bugungi kunda o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bolaning xalq amaliy san'atining madaniy ahamiyati va xususiyatlari haqidagi g'oyalarini shakl-lantirish.

2. "Texnologiya" fani tarkibida xalq hunarmandchiligi namunalari bilan bog'liq bo'lgan mavzularni chuqurlashtirilgan tartibda tashkil etish.

3. Badiiy hunarmandchilikning ayrim turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish.

4. Xalq hunarmandchiligining obrazli motivlarini namoyish qilish, bu orqali o'quvchilarda badiiy tasvirni yaratish qobiliyatini rivojlantirish.

5. Ijodkorlikning turli shakllari orqali bolaning o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish [5; 14-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xalq hunarmandchiligi asosida maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish holatini o'rganar ekanmiz, biz ushbu faoliyat turining samarali bo'lishi bevosita o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita aloqador degan xulosaga keld-ik. Umuman aytganda, o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish ular-ni kelgusida mehnatsevar, o'z xalqning tarixi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarini hurmat qiluvchi, ularni ya-nada rivojlantirishga harakat qiluvchi shaxs bo'lib shakllanishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 30.12.2021. Lex.uz.

(2). Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. Berlin, Springer, 1935.

(3). Алексеев Н.Г., Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества. Проблемы научного творчества в современной психологии. М., 1971.

(4). Грузенберг, Сергей. Книжные знаки. М., "Художественная печать", 1924, 21 с.

(5). Львова Ю.Л. Творческая лаборатория учителя. Из опыта работы. 2-е изд., перераб. и доп., М., "Просвещение", 1985, 158 с.

Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna (Urganch Ranch Texnologiya universiteti "Pedagogika va aniq fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi) BO'LG'USI O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING USUL VA VOSITALARI

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lg'usi o'qituvchi faoliyatidagi innovatsion yondashuvlar va ularning usul vositalari haqida fikr yuritilgan. Bo'lg'usi o'qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri bo'lgan ijodkorlik, yangiliklarni o'zlashtirib borish bilan birga, ularni o'z faoliyatida qo'llashi va peda-gogik jamoa o'rtasida targ'ib qila olishi nazarda tutiladi.*

***Kalit so'zlar:** o'qituvchi, faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik mahorat, kasbiy ma-horat, muomala madaniyati.*

Худайбергано́ва Наргиса Курбанбаевна (Ургенч Ранч технологический университет, кафедра «Педагогика и точные науки», старший преподаватель)

ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ

***Аннотация.** В статье рассматриваются инновационные подходы к работе будущего учи-теля и их методы. Креативность является одной из основных характеристик инновационной дея-тельности будущего учителя при изучении нового и использовании его в своей работе. Предполага-ется, что он умеет это применять и пропагандировать в педагогической среде.*

***Ключевые слова:** педагог, деятельность, инновация, инновационная деятельность, педаго-гическое мастерство, профессиональное мастерство, культура обращения.*

Khudayberganova Nargisa Kurbanbaevna (Urgench Ranch Technological University “Pedagogy and Exact Sciences” senior lecturer of the department)

ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITIES OF A FUTURE TEACHER. METHODS AND TOOLS

***Annotation.** The article discusses innovative approaches to the work of future teachers and their methods. Creativity is one of the main characteristics of the innovative activity of a future teacher; when learning something new and using it in his work, it is assumed that he knows how to apply and promote it. among the teaching staff.*

***Keywords:** teacher, activity, innovation, innovative activity, pedagogical skills, professional skills, culture of treatment.*

Kirish (Introduction). Bugun O‘zbekistonning yangi qiyofasini kashf qilish, bevosita ta‘lim jarayonining amalga oshishi bilan bog‘liq ekanligini tushunishimiz, ta‘lim jarayoniga jiddiy e‘tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: “Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” deb alohida ta‘kidlashi ta‘lim tizimini har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi (1). Zamonaviy ta‘lim tizimida innovatsion faoliyat muhim o‘rin tutadi. Bulg‘usi o‘qituvchi, ya‘ni o‘qituvchilarning kelajagi, o‘zining professional faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali ta‘lim jarayonini samarali tashkil qilishlari kerak. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishi va ta‘limning sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun zarur hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlili (Literature review). Bunda ko‘plab olimlar zamonaviy ta‘lim metodlari, innovatsion texnologiyalar va pedagogik usullar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, A. Abdullayev “Innovatsion ta‘lim texnologiyalari” asarida innovatsion ta‘lim metodlari, ularning samaradorligi va o‘quvchilarning faolligini oshirish usullari haqida so‘z boradi. Rajabov Sh. “Pedagogik innovatsiyalar”, Pedagogikadagi inovatsiyalarning rivojlanishi, ularning ta‘lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati haqida, Saidov F. “Ta‘limda informatsion texnologiyalarni joriy etish” Sharipov A. “Kritik fikrlash va ijodiy yondashuv”. “O‘quvchilarda kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik usullar”. Nasimov R. “Innovatsion pedagogika”. Innovatsion pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliyotdagi ifodalanihi kabi jihatlari o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasiga (Research Methodology). Tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutadi, ular:

- innovatsion faoliyatning mohiyatini aniqlashi;
- o‘qituvchilar innovatsion metodlarni qanday qo‘llashi;
- innovatsion vositalarni tahlil qilish kabilarni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar ta‘lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishni talab etadi. Shu o‘rinda o‘qituvchining faoliyatida innovatsiya muhim o‘rin egallaydi. Mazkur vaziyatda bo‘lg‘usi o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifasi yuzaga keladi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda duch kelinadigan qiyinchiliklarni hisobga olish va ularni bartaraf etish lozim. “O‘qituvchining innovatsion faoliyati haqida gapirganda, bu faoliyatning ilmiy-metodik o‘ziga xosligi haqidagi savol paydo bo‘ladi. Bu faoliyatning imkoniyatlari ta‘lim tizimi ko‘lamida innovatsion g‘oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi” [5;174–176-b.]. Bu esa muayyan faoliyat jarayonida quyidagi imkoniyatlarni o‘zida jamlaydi:

- o‘qituvchi o‘z sohasiga oid yangiliklardan xabardor bo‘lishi;
- o‘zining faoliyatida yangiliklarni samarali qo‘llay olishi;
- o‘qituvchining jodkorlik va kommunikativ qobiliyatini rivojlanganligi.

O‘qituvchilarning yangilikni o‘zlashtirishga tayyorgarligining mezonlari esa o‘qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish borasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi. “Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq, puxta belgilanib, bo‘lg‘usi o‘qituvchining oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq” [3;108-b.].

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda innovatsion faoliyat shakllanishida quyidagi omillar asosiy ekanligi ma‘lum bo‘ladi:

- yangilikka nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishi;
- o‘qituvchilarda yangilik kiritish uchun pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi;

–o‘qituvchi pedagogik faoliyatida yangilikni qo‘llay olish mahoratiga egaligi;
–o‘qituvchidagi ijodkorlik va izlanuvchanlik, o‘quvchilar va pedagogik jamoa orasida ko‘tarinki kayfiyatni yaratish sifatlarining mavjudligi.

Shu o‘rinda innovatsion faoliyat natijasi nimada ko‘rinadi, uning belgilari qanday? degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Ya‘ni, innovatsion dasturlar qanday ishlanadi? Yangi g‘oyalarni rivojlantirish va yaratishda qanday metodlardan foydalanish lozim? degan savollarga ham javob berish lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bu shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar va vositalar orqali o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faolligi, ijodiy qobiliyatlari va mustaqilliklari oshadi.

–zamon talablariga mos yangiliklarni tatbiq qilish, o‘qitish samaradorligini oshishiga hissa qo‘shadi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning innovatsiyalardan foydalanishi kasbiy faoliyatning sifatini ta‘minlaydi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

- muayyan faoliyatni maqsadini aniqlashda;
- turli vaziyatlarni to‘g‘ri baholab, tezkorlik bilan xulosaga kelishida;
- o‘z sohasiga kreativ yondashishida;
- mutaxassislik malakasini puxta egallaganligida.

O‘qituvchi faoliyatida innovatsialarni tatbiq eta olish ko‘nikmasini shakllanganlik darajasi muayyan talablarga mos bo‘lishi lozim, bular:

– har bir o‘qituvchi innovatsion-pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratini yaxshi egallashi;

–o‘qituvchi shaxsi kerakli metodlarni o‘rinli rejalashtirishi va uni amalda samarali qo‘llay olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

–o‘qituvchidagi ijodkorlik, izlanuvchanlik, o‘quvchilar va pedagogik jamoasi orasida ko‘tarinki kayfiyatni yarata olish sifatleri mavjudligida;

–mualliflik konsepsiyalarini yarata olish mahoratiga egaligi kabilarda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining ilmiy-metodik ta‘minlanishi muhim ahamiyatga ega. “Pedagogik jamoaning innovatsion salohiyati ta‘lim tizimi ko‘lamida innovatsion g‘oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va ularni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi” [2;158-b.].

O‘qituvchining yangilikni o‘zlashtirib olishga tayyorligi o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- o‘qituvchining yangilik haqidagi ma‘lumotlarga egaligi;
- o‘qituvchining malakaviy tayyorgarligi;
- sohaga oid bilim ko‘nikmaga ega bo‘lishi;
- innovatsiyalarni qo‘llashga to‘sqinlik qiladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kabilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa va takliflarimiz, bayon etilgan mulohazalarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo‘lib, o‘zining nazariy va amaliy asoslariga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi. Innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagoglar psixologik tayyorgarligini oshirish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tadbirlar malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Ta‘lim oluvchida ta‘lim va bilimga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ishlashni, o‘z kasbiga hurmat va iftixor, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirish innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion faoliyat deganda, yangi g‘oyalar, yondashuvlar amalga oshirish jarayoni tushuniladi. Bu faoliyat tadqiqot va rivojlantirish yangi texnologiyalarni joriy etish, mavjudlarini yaxshilash yoki bozor talablariga mos ravishda yangi yechimlar taklif etishni o‘z ichiga oladi. Innovatsion faoliyat, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va jamiyatning turli sohalarida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muhim jarayon bo‘lib, bu ularning pedagogik malakalarini oshirish va zamonaviy ta‘lim tizimiga moslashishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash o‘qitishning sifat va samaradorligini oshiradi. Bunday sharoitda faqat bu borada ma‘lum tajribaga ega, yangilikka intiluvchan o‘qituvchilar misolida kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu bilan birga, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a‘zolarining qanchalik darajada dunyo ta‘lim bozoridagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi masalaning muhim tomoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Sh.M.Mirziyoyev. "Qonun ustunorligi va inson manfaatlarinn ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016-yil 8-dekabr, 243-son.
- (2). Ангеловский К. Учителя и инновации. Книга для учителя. Перевод с македонского В.П.Диденко. М., "Просвещение", 1991, с. 158.
- (3). Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. Рига, НПЦ Эксперимент, 1995, 108 с.
- (4). Леонтьев А.Н. Наука и человечество. 2 т., М., "Знания", 1963, 366 с.
- (5). U.A.Sapayev. Innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishda texnik oily ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi. "Ilm sarchashmalari", 2022, 9-son, 174–176-betlar.

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna (Urganch Innovatsion universiteti, "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini o'qituvchisi; UrDU mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: feruzahonkutlieva@gmail.com)
BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH QOBILİYATINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o'rganish, shuningdek, ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdir. Maqola, boshlang'ich sinfi o'qituvchilari uchun o'z-o'zini rivojlantirishning zarurligi va uning o'quvchi ta'limi sifatini oshirishdagi o'rni haqida chuqur tahliliy yondashuvni taklif etadi.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, kompetensiya, kasbiy mahorat, takomillashtirish, ilmiy va pedagogik asoslar, professional.*

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.** Целью данной статьи является изучение научно-педагогических основ повышения компетентности саморазвития учителей начальных классов, а также определение факторов, влияющих на этот процесс. В статье предлагается углубленный аналитический подход к вопросу о необходимости саморазвития учителя начальных классов и его роли в повышении качества образования учащихся.*

***Ключевые слова:** профессиональное саморазвитие, компетентность, профессиональные навыки, совершенствование, научно-педагогические основы, профессионал.*

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SELF-EDUCATIONAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

***Annotation.** The purpose of this article is to study the scientific and pedagogical foundations of increasing the self-development competence of primary school teachers, as well as to determine the factors influencing this process. The article offers an in-depth analytical approach to the issue of the need for self-development of a primary school teacher and his role in improving the quality of student education.*

***Keywords:** professional self-development, competence, professional skills, improvement, scientific and pedagogical foundations, professional.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat o'quvchilarga bilim berish qobiliyatini, balki boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy mahoratiga yuqori o'sish talabini ham qo'yadi. Bunday o'sishning asosiy jihatlaridan biri bu o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishdir. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish kasbiy o'sishning ajralmas qismiga aylandi va o'qituvchilarning yangi bilim, texnologiyalarni mustaqil izlash, tushunish, qo'llash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu kompetensiyani rivojlantirishga nafaqat uslubiy yondashuvlarni, balki boshlang'ich sinfi o'qituvchilarida uni shakllantirishning amaliy jihatlarini ham ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida ishlash tartibini amalga oshirish zaruratining asosiy sababi, zamonaviy ta'lim tizimi ideal sifatida bo'lishini ta'minlashdir. Bu esa bizdan o'qituvchilarni professional darajada tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, ular, keyinchalik, bolalarni o'z-o'zini rivojlantirishga to'g'ri yo'naltira oladilar, chunki ular bolaning ichki, yashirin iste'dodlarini faollashtirishga yordam berishlari mumkin. Har yili o'quvchilar bilan to'g'ri ishlashni aniqlaydigan ko'proq yangi usullar paydo bo'lgan-

ligi sababli, o'qituvchi pedagogikadagi asosiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi va rivojlanish qoidalarini bilishi uchun ushbu aniq ma'lumotlarni o'rganishi kerak. Bugungi kunda o'qituvchining o'zini-o'zi o'qitishning ahamiyati va zarurligini belgilaydigan standartlar mavjud bo'lib, o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi uning yuqori kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim bosqich ekanligi ayon bo'ladi.

O'z-o'zini rivojlantirishning mohiyati intellektual mehnat texnikasi va madaniyatini o'zlashtirish, muammolarni hal qilish, nafaqat shaxsiy o'zini-o'zi takomillashtirish, balki kasbiy o'zini takomillashtirish ustida ham mustaqil ishlashdir. Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilim poydevori boshlang'ich ta'limda qo'yiladi. Ushbu bosqichda inson ongi va dunyoqarashini rivojlantirish uchun asos bo'lgan bilimlar ham beriladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va kasbiy yetukligi ular tarbiyalayotgan o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Agar shaxsiyatning barcha nozikliklari va xususiyatlari haqida oldindan bilmasak, hech qanday rivojlanish bo'lmaydi. O'z-o'zini bilish shaxsni o'rganish uchun eng muhim manba hisoblanadi. Faqatgina inson o'z tajribasi, hayotiy tanlovi va xatti-harakatlari asosida o'zining eng aniq qiyofasini yaratishga qodir. Har qanday sohada, shu jumladan, professional sohada rivojlanish qiyinchiliklar mavjud. Bu qiyinchiliklardan chiqishda esa professional o'qituvchi sifatida har bir pedagog o'ziga xos uslubi bilan ajratib turadigan o'ziga xos shaxsiy qobiliyatlarga ega. Gap shundaki, odamlar shaxsning o'zini-o'zi anglash orqali hayotning har qanday yo'nalishida yanada mustaqil taraqqiyotga erisha oladi. Xuddi shu narsa kasbiy rivojlanish uchun ham amal qiladi. Agar inson o'z qobiliyat va imkoniyatlarini bilsa, u ularga ishonadi va o'z ishida ulardan oqilona foydalanish yo'llarini izlab topadi. Shuningdek, shaxsiy imtiyozlarni, nafaqat obro'-e'tibor, daromad, balki zavq keltiradigan sohada yanada takomillashtirish uchun ham aniqlash muhimdir. Darhaqiqat, insonning o'zini-o'zi anglashi va kasbiy mahorati bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki shaxs o'zining tanlagan yo'lida faqat ma'lum bir vazifaning muayyan yutuqlari bilan amalga oshirishi haqiqatdir. Bu esa insonning "Qalb kasbi" deya atalmish o'z-o'zini rivojlantirishning tub asosi bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishsiz shaxsiy o'sishga erishish juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun dastlabki yillarda bo'lajak o'qituvchi o'zini ishlashga ko'niktirishi juda muhimdir. Pedagogik tajriba 1–3 yilda hosil bo'lsa, pedagogik mahorat esa 3–7 yilda, tajriba maktabi esa 7–10 yilda hosil bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda o'quv, malaka oshirish kurslari o'qituvchini o'z-o'zini rivojlantirishning muhim va asosiy bosqichi va o'ziga xos usuli hisoblanadi. Bunday kurslar odatda ta'lim muassasasi rahbari tomonidan o'tkaziladi. Shuningdek, har bir o'qituvchi o'z-o'zini rivojlantirish dasturini yaratishi kerakligini ko'rsatadigan standartlar mavjud. Shuningdek, o'qituvchi o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida foydalanadigan adabiyotlarni ko'rsatib, o'z faoliyatining xulosalarini belgilaydi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi kelajakda malaka va umumiy kasbiy mahorat darajasini oshirish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni chuqur o'rganishdir. O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi davlat ta'lim standartini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilashga, ta'lim faoliyatining kompetensiyalar shaklida universal ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, talabalarning o'quv jarayonini aniq va malakali ravishda amalga oshirishga qaratilgan [1].

Yosh o'qituvchining o'quv jarayonini malakali va samarali tashkil etishga imkon beruvchi psixologik usullardan foydalanishni o'rganishi, bolalarni kamsitish emas, balki ularni o'z maqsadlari sari qat'iy yo'naltirishi muhim ahamiyatga ega. Yuqori malakali o'qituvchilar bilan samarali muloqotda bo'lgan yosh o'qituvchi asta-sekin hurmatli, zamonaviy, faxriy va malakali o'qituvchiga aylanadi.

T.P.Terentyeva o'zining ilmiy ishida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga kiruvchi kompetensiyani ikki guruhga ajratdi: "individual" va "umumiy". Individual (shaxsiy) kompetensiya bu o'qitilayotgan fan bo'yicha zarur bo'lgan maxsus kompetensiya, aniq mutaxassislariga va ularning maxsus bilimlari va tajribasiga qo'yiladigan talablar tizimi. Umumiy kompetensiya bu o'quv jarayonining har bir ishtirokchisi o'zlashtirishi kerak bo'lgan refleksli, kommunikativ, umumiy pedagogik, texnologik kompetensiyadir [2]. O'z-o'zini rivojlantirish yosh o'qituvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga to'g'ri yo'l va kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish shakllaridan biridir. O'z navbatida, o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish bu tashqi ijtimoiy talablarga, kasbiy faoliyat shartlariga va shaxsiy rivojlanish dasturiga muvofiq, uning kasbiy malakasini oshirish va kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayoni.

J.X.Salxanova kompetensiyani natijaga yo'naltirilgan ta'lim tizimida shaxs bilimining mezonini deb hisoblaydi. Muallif o'z ishida "kasbiy kompetensiya" deganda o'z kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, shaxsiy qobiliyatlari darajasi, kasbiy mahorat darajasini doimiy ravishda oshirish istagi, o'z ishiga ijodiy va mas'uliyatli yondashish bilan tavsiflangan guruh sifatida ta'riflaydi [3].

O‘z-o‘zini rivojlantirish yosh o‘qituvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining ishonchli usuli va kasbiy o‘zini takomillashtirish shakllaridan biridir. O‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish bu tashqi ijtimoiy talablar, kasbiy faoliyat shartlari va shaxsni rivojlantirish dasturiga muvofiq, uning kasbiy malakasini oshirish va kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayoni.

Sorokina T.M. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya tuzilmasi modernizatsiyasini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning kasbiy tayyorgarligining dinamik, protsessual tomoni, kasbiy o‘shirish xususiyatlari, kasbiy o‘zgarishlar, motivatsion va faoliyatga asoslangan xarakteristikasi sifatida talqin etiladi. U kasbiy kompetensiyani bo‘lajak o‘qituvchining bosqichma-bosqich kasbiylashuv hodisasi deb biladi. Shu bilan birga, “kompetentlik” tushunchasi, uning nuqtayi nazari bo‘yicha, yetuk o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ko‘proq belgilaydi [4].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishning eng muhim psixologik sharti bu, asosan, bo‘lajak o‘qituvchining psixologik tayyorgarligini professionalashtirish tufayli o‘quv va kasbiy xususiyatga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatining o‘zgarishidir [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Muhim jihat bu o‘qituvchilarning ichki motivatsiyasi va butun kasbiy hayoti davomida o‘rganishga tayyorligi. Shu nuqtayi nazardan, nafaqat o‘qituvchilarning tashabbuslari, balki ta‘lim tashkilotlari va davlat tuzilmalari tomonidan o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bu ta‘lim muassasalari tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, u nafaqat o‘quv materiallari bilan ta‘minlash, balki o‘qituvchilar tajriba almashishi va maslahatlar olishi mumkin bo‘lgan professional jamoalarni tashkil etishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini tashkil qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini ta‘kidlash kerak. Ta‘lim jarayonlarini raqamlashtirish o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar, jumladan, onlayn kurslar, bilim almashish platformalari va professional vositalardan foydalanish imkoniyatini ochadi.

O‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi bu o‘qituvchiga yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni mustaqil ravishda aniqlash, kasbiy faoliyati sifatini yaxshilash uchun ma‘lumotlarni izlash, o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar to‘plamidir. Bu nafaqat o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyati, balki bilimlarni tizimlashtirish, o‘z ta‘lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ta‘lim amaliyotida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatidir.

Tahlil va natijalar. O‘qituvchilar duch keladigan asosiy muammolar o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorgarlikning yetarli emasligi, vaqt yetishmasligi, shuningdek, mavjud ta‘lim dasturlari doirasida kasbiy o‘shirishning cheklanganligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ko‘plab o‘qituvchilar ta‘lim tashkilotlari tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlashni talab qiladigan eng yangi pedagogik texnologiyalar va usullarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurligini anglash, yangi bilim, ko‘nikma va usullarni mustaqil ravishda o‘zlashtira olish qobiliyati kabi keng ko‘lamli tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy omillari motivatsiya, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, shuningdek, zamonaviy ta‘lim resurslaridan foydalanishdir.

Xulosa. O‘z-o‘zini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta‘lim sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish tizimli yondashuvni, shu jumladan, o‘qituvchilarning shaxsiy motivatsiyasini va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Ta‘lim muassasalari va ta‘limni boshqarish organlari bu jarayonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, o‘quv dasturlarini amalga oshirish, tajriba almashish uchun resurslar, vaqt va imkoniyatlar taqdim etishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish ta‘lim sifatini oshirish va zamonaviy ta‘lim muammolari sharoitida samarali ishlashga qodir o‘qituvchilarni tayyorlash yo‘li muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
- [2]. Терентьева Т.П. Формирование профессионально-педагогической компетентности у будущих учителей изобразительного искусства на основе полихудожественного подхода. Дис.... канд. пед. наук, Спец. 13.00.08. «Теория и методика профессионального образования». Т.П.Терентьева, Чебоксары, 2014, 151 с.

[3]. Салханова Ж.Х. Компетентность и компетенции. Моногр. Ж.Х.Салханова, Алматы, Казах. нац. ун-т им. Аль-Фараби, 2013, 178 с.

[4]. Лидия Ярмолович, Элеонора Урунбасарова (Алматы, Казахстан). Особенности развития профессиональной компетентности у будущих учителей начальных классов. <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/1801>

[5]. Т.М.Сорокина. “Развитие профессиональной компетенции будущего учителя начальной школы в условиях многопредметной вузовской кафедры”, 2010, 128 с.

Rahimova Indira Quadrat qizi (Urganch davlat universiteti Ta’lim va ta’rbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktorantura 1-bosqich talabasi; irakhimova123@gmail.com)
ILMIY TADQIQOTLARDA KUZATILADIGAN PLAGIAT PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

***Annotatsiya.** Plagiat akademik yozuvda, ayniqsa, yangi tadqiqotchilar uchun jiddiy muammo hisoblanadi, chunki ular bu axloqiy qoidabuzarlikni bilmagan holda sodir etishlari mumkin. Ushbu tadqiqot plagiat va uning keng tarqalgan turlarini chuqur o’rganadi hamda undan qochish uchun amaliy usullar va maslahatlar taqdim etadi. Plagiatga ta’rif berish, to’g’ri iqtibos keltirish bo’yicha yo’l-yo’riqlar ko’rsatish va axloqiy yozish amaliyotlarining ahamiyatini ta’kidlash orqali, ushbu tadqiqot yangi tadqiqotchilarga akademik halollikni saqlash va o’z sohalarida bilimlarni rivojlantirishga hissa qo’shish uchun zarur vositalarni taqdim etishni maqsad qiladi. Tadqiqotning o’ziga xos hissasi shundaki, u yangi tadqiqotchilarga plagiatning oldini olish bo’yicha aniq ko’rsatmalar berishga qaratilgan.*

***Kalit so’zlar:** plagiat, manbaa, mozaik plagiat, parafraza, antiplagiat dasturlar, iqtibos.*

Рахимова Индира Кудратовна (Ургенчский государственный университет, специальность теории и методики обучения и воспитания, базовая докторантура, студентка 1 курса; irakhimova123@gmail.com)

ПЛАГИАТ, НАБЛЮДАЕМЫЙ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ, КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

***Аннотация.** Плагиат является существенной проблемой в академической письменности, особенно для начинающих исследователей, поскольку они могут совершить это нравственное нарушение, не зная об этом. Данное исследование глубоко изучает плагиат и его распространенные виды, а также предоставляет практические методы и советы по его избеганию. Подчеркивая важность определения плагиата, инструктажа по правильному цитированию и практике нравственного письма, данное исследование направлено на предоставление новым исследователям необходимых инструментов для поддержания академической честности и содействия развитию знаний в своей области. Отличный вклад исследования заключается в том, что оно направлено на предоставление новым исследователям конкретных рекомендаций по профилактике плагиата.*

***Ключевые слова:** плагиат, источник, мозаичный плагиат, парафраза, антиплагиатные программы, цитата.*

Rahimova Indira Kudrat kizi (Urgench State University Theory and Methodology of training and education Basic doctoral 1st-year student; irakhimova123@gmail.com)

PLAGIARISM IN SCIENTIFIC RESEARCH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

***Annotation.** Plagiarism is a serious problem in academic writing, especially for new researchers, as they may commit this ethical violation without knowing it. This study deeply examines plagiarism and its common types, and provides practical methods and advice for avoiding it. By emphasizing the importance of ethical writing practices, providing guidance on how to describe plagiarism, and providing proper citation, this study aims to provide new researchers with the necessary tools to maintain academic integrity and contribute to the development of knowledge in their field. The distinctive contribution of the research is that it aims to provide new researchers with specific guidelines for the prevention of plagiarism.*

***Keywords:** plagiarism, source, mosaic plagiarism, paraphrase, antiplagiarism programs, quotation.*

***Kirish.** Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonda ilm-fanga e’tibor tobora ortib bormoqda. Ilm-fan rivoji uchun ko’plab dunyo universitetlari olimlarni qo’llab-quvvatlash yo’lida turli xil grantlar va stajirovkalarni taqdim qilishmoqda. Shu o’rinda olimlar muayan bir muammo ustida ish olib borib, unga kerakli yechimlar topishmoqda va o’z yutuqlari bilan ilmiy yozuv orqali ham bo’lishishmoqda. Afsuski, bunday maqolalardan fikr keltirishda ko’plab yosh olimlar ko’chirmachilikka yo’l qoyishmoqda desak, muholag’a bo’lmaydi. Bu, albatta, maqoladan iqtibos olayotgan olimning plagiat, ya’ni ko’chirmachilik qonunlarini bilmasligidan dalolatdir.*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Plagiat akademik dunyoda yaxshi ma'lum va tobora kengayib borayotgan muammodir. Ba'zi jurnallar uchun bu, haqiqatan ham, jiddiy muammo bo'lib, nashr etilgan gazetalarning uchdan bir qismi plagiatdan iborat [1;1-b.]. Plagiatlik ilmiy hamjamiyat uchun jiddiy muammo sifatida qaralayotganini hisobga olgan holda, nimani plagiat deb hisoblash kerakligi haqida batafsil tushuncha berish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Ilmiy yozuvda muqobilik o'zi nima deganda, ko'pchilikni xayoliga aynan "plagiat" tushunchasi kelishi tabiiy hol, plagiat atamasi, asli, qanday tushunchada kelishiga turli xil ta'riflar mavjud. Longman English Advanced Dictionary (ingliz tili lug'ati)da ta'kidlanichicha, plagiatlik bu boshqa bir olimning ishini, g'oyasini va so'zlarini o'zining so'zlaridek bayon qilish va iqtibos keltirmaslik deb ta'riflanadi. Plagiatlik bu ilm sohasidagi o'g'rilik deb mashhur bo'lgan atamalardan biri hisoblanadi. Merriam-Webster lug'ati esa plagiatni quyidagicha ta'riflaydi: a) o'zgalarning g'oyalari yoki so'zlarini o'zining sifatida o'g'irlash va foydalanish; b) manbalardan tavsifsiz foydalanish; d) adabiy o'g'irlik; e) ba'zi g'oyalarni o'z va yangi sifatida taqdim etish, bu g'oya allaqachon boshqa manbada mavjud.

Plagiatning, ko'pincha, ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq holda muhokama qilinishi bejiz emas. Plagiat musiqa, adabiyot, san'at va dizayn sohalarida ham dolzarb masala, bu hodisa, asosan, boshqa shaxsning aqliy mehnat mahsulini o'zlashtirib, uni o'zining deb ko'rsatish bilan bog'liq. Bu jarayon boshqa insonning intellektual ishini o'zining qilib ko'rsatishni anglatadi [1;4-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy yozuv ko'nikmalarini oshirishda plagiat tushunchasiga e'tibor qaratilgan, bunda tavsifiy metoddan foydalanilgan. Metod orqali plagiatning asl mohiyati, plagiat turlari va plagiatdan qochish usullari to'liq yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar. Plagiatning turlari. Plagiat ilmiy noto'g'ri xulq-atvorning bir ko'rinishi bo'lib, boshqa shaxsning yoki o'zining oldingi nashrlaridan olingan g'oyalar yoki so'zlarni o'zlashtirib, asl muallif va nashrni tegishli tarzda ko'rsatmasdan, bunday asarni chop etishga urinishdir. Albatta, plagiat faqatgina bir yo'l bilan chegaralanib qolmaydi, uning ham turlari mavjud. Plagiatning turlari quyidagicha:

Ataylab qilingan plagiat va tasodifiy plagiat. Ataylab qilingan plagiat muallif butun matn, paragraf yoki ma'lumotlarni ataylab ko'chirib o'zining sifatida taqdim etganida sodir bo'ladi. Tasodifiy plagiat esa muallif bunday tadqiqotlardan xabardor bo'lmaganda, yozma etika haqida xabardor bo'lmaganda yoki qanday iqtibos keltirishni bilmaganda sodir bo'ladi va shuning uchun o'xshash maqolani taqdim etadi.

Misol uchun, *asl nusxa*: Jismoniy shaxslar umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq QTEM qurilmalari o'rnatganda imtiyozlar har bir obyekt bo'yicha bir marotaba qo'llanadi.

Plagiat: Quyosh pannellarini har bir xonadonda o'rnatish hozirgi zamon energiyasini tejashning bir usulu hisoblanadi. Jismoniy shaxslar ham umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq QTEM qurilmalari o'rnatganda imtiyozlar har bir obyekt bo'yicha bir marotaba qo'llanadi.

To'g'ridan to'g'ri plagiat. Plagiatning eng keng tarqalgan shakli "nusxa ko'chirish-kesib qo'yish" yoki "to'g'ridan to'g'ri" yozish deb nomlanuvchi matn bo'lib, unda to'liq jumlar, paragraflar, jadvallar yoki hatto rasmlar qanday bo'lsa shundayligicha o'zgarishsiz takrorlanadi.

Misol uchun, *asl nusxa*: "Deduktiv yondashuv (qoidaga asoslangan) qoidani taqdim etishdan boshlanadi va undan keyin qoida qo'llaniladigan misollar keltiriladi. Induktiv yondashuv (qoida-kashfiyot) qoida xulosa qilinadigan ba'zi misollar bilan boshlanadi" – Tornburri, 1999.

Plagiat: Deduktiv yondashuv (qoidaga asoslangan) qoidani taqdim etishdan boshlanadi va undan keyin qoida qo'llaniladigan misollar keltiriladi. Induktiv yondashuv (qoida-kashfiyot) qoida xulosa qilinadigan ba'zi misollar bilan boshlanadi.

Manba. Plagiatning bu turi bibliografiyani o'qimasdan yoki o'zaro havola qilmasdan, oldingi maqoladagi iqtiboslardan foydalanish kiradi.

Plagiat: Qachonki tadqiqot predmeti tadqiqotchining subyektiv nuqtayi nazari obyektga nisbatan aniq belgilab olingan bo'lsa, "jarayon" sifatida aniqlashtirish mumkin. E.V.Berejnovaning tadqiqot ishi obyektini "pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorlash jarayoni", tadqiqot predmeti esa "kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirish tarzida belgilangan.

Bu misol shuni ko'rsatadiku, muallif Berejnovning tadqiqoti qayerdan olinganini qayd etmagan va manbaa noma'lum.

Mozaik plagiat. Bu holat yangi muallif oldingi maqola matnini ishlatib, so'zlar yoki jummalarni almashtirish, qayta tartiblash yoki boshqacha ifodalash orqali unga yangi ko'rinish berishga harakat qilganda, ammo asl muallifga iqtibos keltirmaganda yuz beradi.

Misol uchun, *asl nusxa*: Bugungi kunda o'smirlar oldingi avlodlar boshdan kechirmagan noyob muammoga duch kelmoqda. Ijtimoiy tarmoq platformalaridan foydalanishning ko'payishi ularning ruhiy faro-

vonligiga ta'siri haqida xavotir uyg'otdi. So'nggi tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadigan vaqt va o'smirlarning umumiy farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

Plagiat. Bugungi kunda o'smirlar oldingi avlodlar duch kelmagan o'ziga xos qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan tobora ko'proq foydalanish yoshlar farovonligiga ta'siri haqidagi tashvishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ekran oldida o'tkazilayotgan vaqtning ruhiy salomatlikka ta'sirini keng ko'lamda o'rganishga turtki bo'lmoqda. Tadqiqotlar haddan tashqari ko'p ekran vaqti va ruhiy salomatlik o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Natijada yoshlar xavotir va tushkunlik kabi his-tuyg'ularni boshdan kechirmoqda.

O'z-o'zidan plagiat. O'z-o'zidan plagiat muallif avval nashr etilgan maqola, kitob, hissa qo'shilgan bob yoki jurnaldagi tadqiqotiga yangi ma'lumotlar qo'shib, uni birinchi maqolani eslatmasdan yoki oldingi nashriyotdan ruxsat olmasdan, yangi ish sifatida taqdim etishi holatiga aytiladi. Bu holat muallif o'z avvalgi ishiga yangi tadqiqot natijalarini qo'shib, uni yangi asar sifatida ko'rsatganda yuz beradi.

Plagiatning oldini olish usullari. Mualliflar hech qanday bosma manbalardan nusxa ko'chirmay, matnni o'z so'zlari bilan yozish va zarur bo'lganda, manbani ko'rsatish orqali plagiatdan osonlikcha yiroq bo'lishi mumkin. Albatta, ilmiy faoliyatda fikrlar faqat maqola muallifiga tegishli bo'lishi va boshqa olimlarni fikri bilan qiziqmaslik, maqolani ishonchsizligidan dark beradi. Boshqa olimlarning fikridan mohirona foydalanilsa bu ilmiy ishni yanada professionallashtiradi. Quyida plagiatdan qochish usullari keltirib o'tiladi:

Xulosalash. Xulosa – bu boshqa odamning fikrlari yoki g'oyalarini o'z so'zlari bilan qisqacha bayon qilishdir. Xulosa, odatda, asl nusxadan qisqaroq bo'ladi. Boshqa odamlarning g'oyalari, dalillari yoki xulosalarini umumlashtirishda, manbalarni albatta keltirish kerak.

Parafraza. Parafraza – bu boshqa shaxsning fikrlari yoki g'oyalarini o'z so'zlaringiz va gap tuzilishingiz bilan qayta ifodalashdir. Parafraz, odatda, asl matn bilan taxminan bir xil uzunlikda bo'ladi. Parafrazada qo'shtirnoqlardan foydalanish shart bo'lmasa-da, manbani, albatta, ko'rsatish, ya'ni qavs ichida yoki izohda keltirish lozim. Agar boshqa muallifning g'oyasi ayniqsa yaxshi ifodalangan bo'lsa, uni so'zmaso'z keltirish va iqtibos belgilaridan foydalanish kerak.

Iqtibos keltirish. Iqtibos va foydalanilgan adabiyotlar ilmiy yozuvning muhim qismi hisoblanadi. U nafaqat plagiatning oldini oladi va originallikni ta'kidlaydi, balki yangi g'oyalarning qanday shakllanishi, mavjud g'oyalardan qanday farq qilishi yoki ular bilan qanday muvofiq kelishini ham yoritib beradi. Iqtibos matnda boshqalarning asarlariga ishora qilish usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlarni tashkillashtirish. Har bir iqtibosda foydalanilgan axborot manbasi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etuvchi tegishli havola bo'lishi kerak. Bunga ijodkorning ismi, nashr sanasi, asar nomi, nashriyot tafsilotlari va agar onlayn kiritilgan bo'lsa, URL kirishi mumkin. Havolalar, odatda, ma'lumotlar ro'yxatining oxirida joylashtiriladi.

Akademik yozuvning yaxlitligi va sifati uchun manbalarga havola qilish va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini kiritish muhim ahamiyatga ega. Buning sabablari:

- o'qish doirasini ko'rsatib, maqolaga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi;
- o'quvchiga argumentlar qanday shakllantirilganligini va boshqalarning g'oyalari bilan qanday muloqotga kirishilganligini ko'rsatadi;
- o'quvchiga foydalanilgan asl manbalarni ko'rish imkonini beradi; ular havola orqali ishda muhokama qilingan g'oyalar haqida ko'proq ma'lumot olishlari yoki har qanday fakt va raqamlarni tekshirishlari mumkin;
- qaysi g'oyalar yozuvchiga tegishli va qaysilari boshqalardan olinganligini aniq ko'rsatiladi;
- adabiyotlarga havola berish plagiatdan saqlanishga yordam beradi.

Anti-plagiat dasturlar. XXI asrda inson kuchini qadrlashga katta imkoniyatlar va sharoitlar mavjud bo'lib, bu sun'iy intellekt yordamida biror-bir masalaga yechim topish imkonini beradi. Shunday imkoniyatlardan biri bu hech kimning ko'magisiz programmalar orqali ishni plagiat foizini aniqlab berish imkoniyatidir. Anti-plagiat.uz, turnitin.com va turli xildagi anti-plagiat dasturlari izlanuvchiga vaqtini tejashga yordam beradi va ishni tekshirgan xolda plagiatdan xolis bo'lishga undaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot akademik yozuvdagi plagiat tushunchasini chuqur o'rganib, yangi tadqiqotchilarga beixtiyor plagiatdan qochish uchun amaliy strategiya va tavsiyalar taqdim etdi. Plagiatning ta'rifi va keng tarqalgan turlarini muhokama qilish orqali tadqiqotchilar o'z ishlarida to'g'ri iqtibos keltirish va manbalarni ko'rsatishning ahamiyatini yaxshiroq anglashlari mumkin. Tadqiqotda ko'rsatilgan strategiyalar, xususan, aniq ma'lumotlarni qayd etish, iqtibos keltirish uslublarini tushunish va plagiatni aniqlash dasturlaridan foydalanish, tadqiqotchilarga axloqiy yozish amaliyotlarini qo'llab-quvvatlash va ilmiy halollik-

ni saqlashga yordam berishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning qiymati shundaki, u yosh olimlarni akademik yozuvning murakkabliklarini yengishga va plagiatning oldini olishga yo'naltiruvchi aniq ko'rsatmalar berishga qaratilgan. Axloqiy yozuv amaliyotini targ'ib qilish va to'g'ri manba ko'rsatishning ahamiyatini ta'kidlash orqali tadqiqotchilar o'z sohalarida bilimlarni rivojlantirishga hissa qo'shishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Jan, Y. Chinese journal finds 31% of submissions plagiarized. Buyuk Britaniya, Nature, 2010, 153-bet.
- (2). Roka, Yam. Plagiarism. Types, Causes and How to Avoid This Worldwide Problem. Nepal, Nepal Journal of Neuroscience, 2017, 2–6-betlar.
- (3). Holli, O., Scott, S., Elson, D. Five Simple Rules to Avoid Plagiarism. Buyuk Britaniya. Annals of biomedical engineering, 2013, 1–2-betlar.
- (4). Helgesson, G., Eriksson, S. Plagiarism in research. Niderlandiya, Medicine Health Care and Philosophy. 2015, 91–101-betlar.
- (5). Elov B., Murodbekova Sh. Matnlarni plagiatga tekshirish dasturiy ta'minotini yaratish. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbol-lar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2022, 261-bet.

Saydazimov Kamol Tulkunovich (Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi)

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA BAHO VA NORMALARNING EMPIRIK TAHLILI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yoshlar dunyoqarashida baho va normalar shakllanishining empirik tahlili amalga oshiriladi. Yoshlar ongida ijtimoiy va madaniy omillarning ta'siri, qadriyatlar iyerarxiyasi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, yoshlar o'rtasidagi qadriyatlar va normalarning o'zgaruvchanligi, ularning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri muhokama qilingan.*

***Kalit so'zlar:** yoshlar dunyoqarashi, baho va normalar, empirik tahlil, qadriyatlar, ijtimoiy normalar, madaniy omillar, ijtimoiy jarayonlar.*

Сайдазимов Камол Тулкунович (старший преподаватель кафедры "Социальные науки, педагогика и психология" Ташкентского педиатрического медицинского института)

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЦЕННОСТЕЙ И НОРМ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация.** В данной статье проводится эмпирический анализ появления ценностей и норм в мировоззрении молодежи. Изучено влияние социальных и культурных факторов, иерархии ценностей и значения норм, регулирующих социальные отношения, на сознание молодежи. Также обсуждалось изменение ценностей и норм среди молодежи и их влияние на социальные процессы.*

***Ключевые слова:** мировоззрение молодежи, ценности и нормы, эмпирический анализ, ценности, социальные нормы, культурные факторы, социальные процессы.*

Saydazimov Kamol Tulkunovich (Senior Lecturer of the Department of Social Sciences, Pedagogy and Psychology at Tashkent Pediatric Medical Institute)

EMPIRICAL ANALYSIS OF VALUES AND NORMS IN THE WORLDVIEW OF YOUTH

***Annotation.** This article provides an empirical analysis of the emergence of values and norms in the worldview of young people. The influence of social and cultural factors, the hierarchy of values and the meaning of norms regulating social relations on the consciousness of young people has been studied. Changing values and norms among young people and their impact on social processes were also discussed.*

***Key words:** Worldview of youth, values and norms, empirical analysis, values, social norms, cultural factors, social processes.*

Kirish (Introduction). Bugun O'zbekiston Respublikasida yoshlar jamiyatning eng faol qatlami sifatida ijtimoiy jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va normalari jamiyatning umumiy ma'naviy va madaniy rivojlanishini belgilab beradi. Shu bois yoshlar ongida shakllanadigan baho va normalarni tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar dunyoqarashi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi, jumladan, oila muhiti, ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitning ta'siri asosiy o'rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida madaniy ta'sirlar va axborot manbalari xilma-xil bo'lib, ular yoshlarning dunyoqarashiga nisbatan ko'proq ta'sir o'tkazmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy axborot texnologiyalari yoshlarning jamiyatdagi qadriyatlar va normalarni qabul qilish yoki qayta shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar yoshlar o'rtasida qadriyatlarning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Jumladan, yoshlar, ko'pincha, individga yo'naltirilgan qadriyatlarni – shaxsiy erkinlik, ijodkorlik va individuallikni

ustun qo'yadilar. Buning sababi, globallashuv jarayonlari va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishidir.

Qadriyat baholanovchi obyekt qanday bo'lishi kerakligi haqida subyektning fikri bilan obyektning o'zi o'rtasidagi munosabat orqali ifodalanadi. Agar obyekt unga qo'yiladigan talablarga mos bo'lsa, ya'ni qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'lsa, "yaxshi" (ijobiy qimmatga ega) deb qabul qilinadi. Talabga javob bermaydigan obyekt esa "yomon" (salbiy qimmatga ega) deb baholanadi [2;87-b.].

Normalar ijtimoiy tartibni saqlab qolishda muhim mexanizm bo'lib, ular jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi. Yoshlar, ko'p hollarda, normalarni tanqidiy ravishda qabul qiladilar, ularni yangi sharoitlarga moslashtiradilar yoki rad etgan holda, yangi normalarni shakllantiradilar. Bunday jarayon ijtimoiy o'zgarishlarning asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Baholash jarayonida yoshlar shaxsiy va jamoaviy manfaatlarni uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Masalan, ular bir vaqtning o'zida, o'z mustaqilligini saqlab qolishga va jamoa bilan aloqalarni mustahkamlashga intilgan holda, turli holatlarga mos ravishda qarorlar qabul qiladilar. Bunday dixotomiya yoshlar dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarni belgilab beradi. Shuningdek, yoshlar o'rtasidagi qadriyatlar va normalarning shakllanishi jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bo'lgan. Iqtisodiy barqarorlik va siyosiy holat yoshlar ongidagi baho va normalarni mustahkamlashga yoki ularning o'zgarishiga ta'sir qiladi. Masalan, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy kafolatlar yuqori bo'lgan jamiyatlarda yoshlar an'anaviy qadriyatlarga e'tiborli bo'lib, ijtimoiy normalarga ko'proq moslashadilar.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq-atvori, yurish-turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalanadigan munosabatlarning majmuyiga aytiladi [3;280-b.].

Yoshlar dunyoqarashini chuqurroq o'rganish jamiyatning ma'naviy va madaniy salohiyatini mustahkamlash uchun muhimdir. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimining roli katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim yoshlarni tanqidiy fikrlashga, ijtimoiy va shaxsiy mas'uliyatni anglashga o'rgatishi lozim. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlash uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tahlil yoshlar dunyoqarashida baho va normalarning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq anglash uchun imkoniyat beradi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni samarali boshqarishga ko'maklashadi. Yoshlar dunyoqarashi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashi sababli, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Yoshlar ongida shakllanadigan baho va normalar nafaqat shaxsiy qarorlarga, balki ularning jamiyatdagi ijtimoiy rollarini bajarishga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda madaniy an'analar, globallashuv va texnologik rivojlanish kabi omillarning o'zaro ta'siri yoshlarning dunyoqarashida muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, yoshlar ongida qadriyatlar iyerarxiyasining shakllanishi ijtimoiy ta'sirlar natijasida sodir bo'ladi. Oila tarbiyasi yoshlar uchun birinchi ijtimoiy muhit sifatida ularning qadriyatlarini aniqlaydi. Tarixiy va madaniy an'analar esa jamiyatdagi umumiy qoidalarni saqlab turishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar, ko'pincha, o'zlariga xos "yangi qadriyatlar"ni yaratadilar, ular ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi mexanizm vazifasini o'taydi.

Odamlarning turli hayot shakllarida ifoda etiladigan, qadrlanuvchi obyektlar subyektivlik pozitsiyasidan kelib chiqadi. Hozirgi kunda monogam hayot kechirish ma'qullaydiganlar lageri monogam hayot kechirayotganlarni ma'qullashi uchun emas, balki o'zlari shu pozitsiyada bo'lganliklari uchundir [4;82-b.].

Ikkinchidan, raqamli axborot vositalari va internet muhiti yoshlar dunyoqarashiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy yoshlar o'zlarining axborot manbalari sifatida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadilar, bu esa ularning normalarga munosabatini o'zgartirishga olib keladi. Masalan, global ommaviy axborot vositalari orqali yetkaziladigan universal qadriyatlar mahalliy an'analar bilan qarama-qarshilikka tushishi mumkin. Bu holat yoshlarning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishda ixtilofli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, yoshlar orasida individualizmga bo'lgan qiziqish o'sib bormoqda. Bu jarayon shaxsiy maqsadlar, manfaatlar va erkinlikni qadrlash orqali namoyon bo'ladi. Lekin, bir vaqtning o'zida, jamoaviylik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar ham saqlanib qolmoqda. Bunday dixotomiya yoshlarning ijtimoiy rollarini to'g'ri belgilash uchun imkoniyat yaratadi.

To'rtinchidan, yoshlar ongidagi normalarning shakllanishi iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga bevosita bo'lgan. Masalan, siyosiy barqarorlik mavjud bo'lgan joylarda yoshlar ko'proq ijtimoiy me'yorlarga mos

bo'lishga moyil bo'ladilar. Shu bilan birga, iqtisodiy tanglik va siyosiy notinchlik sharoitida yoshlar mavjud normalarni rad etib, yangi qoidalar yaratishga harakat qiladilar.

Psixologik jihatdan yoshlar baholash jarayonida emotsional va ratsional yondashuvlarni uyg'unlash-tirishga harakat qiladilar. Ular, ko'pincha, shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy vazifalar bilan birlashtiruvchi qarorlar qabul qiladilar. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimi yoshlar ongida axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarga doir tushunchalarni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar dunyoqarashini o'rganish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyatdagi barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta'minlash uchun ham zarur. Mazkur tadqiqotlar orqali yoshlarning ijtimoiy normalar va qadriyatlarini chuqurroq anglashga va ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantirishga imkon beradigan tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Yoshlar ongida shakllanadigan baho va normalar jamiyatdagi o'zaro munosabatlar tizimini tartibga solishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda axborot oqimining kuchayishi va global madaniyat ta'siri yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish jarayonida yangicha tendensiyalarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur jarayonda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining o'zaro ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, shaxsiy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor o'sishi bilan birga, jamiyatga xos an'anaviy qadriyatlarining ahamiyatini saqlab qolish ehtiyoji ham sezilarli darajada oshmoqda. Yoshlar o'z mustaqil qarorlarini qabul qilish jarayonida shaxsiy manfaatlarini ustuvor, deb biladilar, biroq jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar bilan bo'lgan cheklovlarni ham inobatga oladilar. Bunday muvozanat yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlarda o'ziga xos yondashuvlarini shakllantiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta'lim jarayonida yoshlar ongidagi baho va normalarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri – bu pedagogik yondashuvlar va o'quv muhiti. Mukammal ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Buning uchun ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy loyihalar va axloqiy muhokamalar tashkil etilishi muhim. Bu jarayon yoshlarning ijtimoiy normalarga hurmat bilan qarashini ta'minlaydi va shaxsiy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, yoshlar ongida axborot texnologiyalarining ta'siri kundan kun sezilarli bo'lib bormoqda. Zamonaviy yoshlar axborotni, asosan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali qabul qiladilar. Bu axborot manbalaridagi turli xil kontent yoshlarning qadriyatlar iyerarxiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan turli madaniy trendlar yoshlarning an'anaviy me'yorlar bilan yangi, global qadriyatlar o'rtasida tanlov qilishlariga olib keladi. Bu holatda yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning ongidagi noxolis ta'sirlarning oldini oladi. Jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ham yoshlar ongidagi normalar va qadriyatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, barqaror iqtisodiy sharoitlar yoshlarning ijtimoiy normalarga ijobiy munosabatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, siyosiy notinchlik yoshlarning mavjud normalarni qayta ko'rib chiqishga va ularni o'ziga shaklda qabul qilishga undaydi. Bunday jarayonlarda yoshlar o'z dunyoqarashini qayta shakllantirib, shaxsiy va ijtimoiy masalalarga yondashuvlarini o'zgartirib boradi. Eng muhimi, yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy tarbiya jarayonlarini samarali yo'lga qo'yish orqali jamiyatda barqarorlik va birdamlikni ta'minlash mumkin. Bu jarayonda ta'lim, axborot texnologiyalari, madaniy tadbirlar va faoliyatdagi integratsiya muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning shakllanishi ikki tomonlama jarayonni o'zida aks ettirib, unda kundalik muloqot jarayoni, insonlar o'rtasida fikr, mulohazalar bilan almashinish, chuqur munozaralar alohida ahamiyatga ega [5; 43-b.].

Jamiyat va davlat yoshlarning ijtimoiy rollarini aniq belgilab berishi va ularni rag'batlantirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqishi zarur. Qisqa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashida baho va normalarning empirik tahlili zamonaviy jamiyatning ma'naviy rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda o'ta muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda yoshlar qadriyatlari va normalarini chuqur o'rganish, ularni tanqidiy baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Bunday yondashuv jamiyatda madaniy va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga ko'maklashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlar dunyoqarashida baho va normalarning shakllanishi jamiyatning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ongidagi qadriyatlar va normalarning shakllanishiga turli omillar – oila tarbiyasi, ta'lim, madaniyat, iqtisodiy va siyosiy muhit, shuningdek, raqamli axborot vositalari ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar o'zaro bo'lganlikda yoshlarning dunyoqarashidagi individual va ijtimoiy qadriyatlarining uyg'unlashuvini belgilaydi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, yoshlar o'z qadriyatlarini shakllantirish jarayonida an'anaviy va zamonaviy ta'sirlar o'rtasida muvozanat saqlashga harakat qiladilar. Ularning ongida

shaxsiy erkinlikka intilish bilan birga, jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy hamjihatlikni qadrlash sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli muhitdagi axborot manbalari yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir etuvchi asosiy vositalardan biriga aylangan. Yoshlar dunyoqarashidagi qadriyatlar va normalarni chuqurroq o'rganish, ularni tarbiyalash va ijtimoiy jarayonlarga jalb etishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarni tanqidiy fikrlashga, ijtimoiy mas'uliyatni anglashga o'rgatish, shuningdek, ularning ijtimoiy rollarini aniqlashtirish jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi qadriyatlar va normalarni o'rganish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy tiklanish uchun ham ulkan ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijalari yoshlarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", T., 2017, 486-bet.
- (2). A.A.Ивин. Основания логики оценок. Москва, 2015.
- (3). J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muxammadiyev. Falsafa. Darslik, Samarqand, 2021.
- (4). Макеева Л.В. Объективность ценностей и проблема реализма. История философии. Вып. № 5, с. 46.
- (5). К.Х.Ханазаров. К проблеме философии языка. "Узбекистан", Т., 2007, с. 133.

Umarova Zebiniso Nizom qizi (Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti; znjurayeva@gmail.com) CHET TILI O'QITISH JARAYONIDA MADANIYATNING O'RNI HAMDA UNI AMALDA QO'LLASH YO'LLARI

Annatsiya. Madaniyat chet tili o'qitish jarayonida eng asosiy konseptlardan biri hisoblanadi. Biroq ko'p hollarda madaniyat chet tili darslarida o'qituvchilar tomonidan grammatika va so'z boyligi si-ngari turli texnika va metodlar yordamida alohida e'tibor bilan o'rgatilmaydi. Ushbu maqolada chet tili o'qituvchilari uchun madaniyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini turli texnika va mashqlar yordamida o'qitish, XXI asr o'quvchisining kommunikativ qobiliyatini shakllantirish kabi masalalar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, chet tili o'qitish jarayoni, zamonaviy metodologiya, kognitiv, ta'limiy va tarbiyalovchi maqsad, madaniy kapsula, madaniy klaster, madaniy assimilyator, baholash.

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ И ПУТИ ЕЕ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ

Аннотация. Культура является одним из важнейших понятий в процессе обучения иностранному языку. Однако во многих случаях культура не преподается преподавателями на уроках иностранного языка с особым вниманием, используя различные приемы и методы, например, грамматику и лексику. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как культура преподавания и ее особенности для преподавателей иностранного языка с помощью различных приемов и упражнений, формирующих коммуникативную способность студента XXI века.

Ключевые слова: язык, культура, процесс обучения иностранному языку, современная методика, познавательная, учебно-воспитательная цель, культурная капсула, культурный кластер, культурный ассимилятор, оценка.

THE ROLE OF CULTURE IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE, AND WAYS TO APPLY IT IN PRACTICE

Annotation. Culture is one of the most important concepts in foreign language teaching. However, in general, culture is not taught by teachers with attention using techniques and methods, such as grammar and vocabulary. This article examines some matters and specific features of teaching culture with the help of effective techniques and exercises forming communicative skills of the student of 21st century.

Key words: language, culture, process of foreign language teaching, modern methodology, cognitive, educational and behavioural objective, cultural capsule, cultural cluster, cultural assimilator, evaluation.

Kirish. Har bir jamiyatning turmush tarzi, taraqqiyoti, qadriyatlari va an'analarini belgilab beruvchi omillardan biri bu uning o'ziga xos madaniyatidir. Madaniyat aynan bir jamiyatda yashovchi insonlarning

moddiy hamda ma'naviy boyliklarini o'zida qamrab olgan, ularning o'tmishi, buguni va kelajagini ko'rsatib beradigan vositadir. Bizga ma'lumki, "madaniyat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "madina", ya'ni shahar so'zidan kelib chiqqan. "Madina" so'zi esa shahar yoki shaharlik kishining turmush va yashash tarziga xos bo'lgan ijtimoiy va madaniy hayotni anglatadi. Keyinchalik, "madaniyat" so'zi turli til va millatlar o'rtasida keng ma'noda qo'llanilib, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarga nisbatan ishlatila boshlandi. Hozirgi kunga kelib esa ushbu so'z jamiyatning barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotlar guruhiga murojaat qilingan:

1. Xorijiy olimlar ilmiy izlanishlari va tadqiqot natijalari.
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida analiz, sintez, qiyosiy tahlil, empirik-nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Madaniyat milliy g'oyalardan tashkil topgan bo'lib, qadriyatlarga aloqador hisoblanadi; u o'rganiladi, insonlar orasida targ'ib qilinadi va bir avloddan ikkinchisiga o'tadi, tartibga solinadi va hayot tarzini anglashga ko'maklashadi.¹ Negaki, madaniyat bu juda keng tushuncha bo'lib, insoniyat hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi.² Shunga ko'ra, madaniyatning uchta tarkibiy qismi mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- artifaktlar, ya'ni artifacts – tarixiy ashyolar, yasalgan, ishlab chiqarilgan buyumlar;
- sotsiofaktlar, sociofacts – ijtimoiy munosabatlar, ya'ni jamiyat tomonidan yaratilgan va ularga tegishli bo'lgan tizimlar jamlanmasi;
- mentifaktlar, ya'ni mentifacts – g'oya, aqida va qadriyatlar.³

Yuqoridagi madaniyatning komponentlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, madaniyat faqatgina san'at, musiqa, tarix, rassomchilik, me'morchilik, raqs, adabiyot kabilar bilangina aloqador bo'lmay, balki ijtimoiy qarashlar, odob-axloq qoidalari kabi jamiyatga xos bo'lgan jihatlarni ham qamrab oladi.

Chet tili o'qitish jarayonining madaniyatni o'rgatishda foydalaniladigan texnikalari Z.Mor tomonidan mahsuldorlik va mashqlarga asoslangan hamda muhokamalarga asos bo'ladigan texnikalarga bo'lingan.⁴ Uning ikkinchi guruhida 3P, ya'ni mahsuldorlik, Products, mashg'ulotlar, Practices, yondashuvlar, Perspectivesdan iborat chet tili ta'lim dasturining xalqaro standartlari – National Standards in Foreign Language Education Projectdagi madaniyat uchligi – The Culture Trianglening o'zaro aloqadorligi nazarda tutilgan:



H.Shtern esa texnikalarni 4 guruhga bo'lgan, bunda bilim, qobiliyat, xulq-atvorni rivojlantirish maqsad qilingan va ular quyidagicha tasniflanadi:⁵

1. Madaniy ma'lumotni ta'minlash uchun:
 - o'qituvchining target madaniyat elementi haqidagi qisqacha taqdimoti, ya'ni "cultural aside";
 - aynan target madaniyat haqida taqdimot, ya'ni, "cultural capsule", bunda ikki madaniyatning farqli jihatlari ko'rsatib beriladi, madaniyat elementi ustida muhokama olib boriladi;
 - madaniy klaster, ya'ni, "cultural cluster", 2–3 ta kapsuladan iborat bo'lib, har bir kapsulani o'rganib bo'lgandan so'ng, dramaga o'xshash topshiriqlar orqali izchillashtiriladi.
2. Madaniyat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechish uchun mo'ljallangan:

¹ Moule J. Cultural Competence. A Primer for Educators. Second edition. Wadsworth: Cengage learning. 2005, p. 90.

² Seelye H.N. Teaching culture. Strategies for intercultural communication (3rd ed.). Lincolnwood, IL: National Textbook Company. 1993, p. 15.

³ Fantini B.C. y Fantini A. Artifacts, sociofacts, mentifacts. In Fantini, A.E. (Ed.). New Ways in Teaching Culture. Alexandria, TESOL, 1997, p. 57–61.

⁴ Moore Z. Culture: How do teachers teach it? In Z. Moore (Ed.), Foreign language teacher education. Multiple perspectives. Maryland: University Press of America. 1996, p. 269–288.

⁵ Stern H.H. Issues and Options in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 1992.

– target madaniyatga aloqador muammoni o‘z ichiga olgan bir nechta axloqiy voqealardan tashkil topuvchi topshiriqlar, ya’ni cultural assimilator.

3. Axloqiy va aqliy qobiliyatni oshirish uchun.

– bunda talabalar o‘qituvchining yo‘riqnomasiga amal qilgan holda, bir nechta harakatlardan iborat target jamiyatning sahnasini ijro etishadi, bu esa audiomotor unit, deb ataladi.

– sahnalashtirish, ya’ni dramatization;

– minidrama;

– rol orqali biror madaniy holat yoki xarakterni gavdalandirish – role-play.

4. Real hayotda bajariladigan texnikalarga esa chet tilida so‘zlashuvchi kishiga xat yozish, chet tili so‘zlashuvchilarining darsiga kirish va chet el davlatlari va shaharlariga sayohat qilish kabilari kiritilgan.

Chet tili o‘qitish jarayonida madaniyat qay tarzda o‘zlashtirilganligini nazorat qilishda baholash bosqichi muhim hisoblanib, bunda bilim, dunyoqarash, sotsiologiyaviy va axloqiy qobiliyatlar, madaniyat va uning elementlariga bo‘lgan munosabatni aniqlashga ko‘maklashuvchi texnikalar mavjud. Quyida oliy ta‘lim tizimida talabalarning madaniyat haqidagi bilim va malakalarini oshirish uchun bir nechta topshiriq va texnikalardan misollar keltirib o‘tamiz:

– chet tili darslaridagi tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘qitishda virtual sayohat, “Virtual Field Trip”-lardan foydalanish vizual o‘rganuvchi o‘quvchilarga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan target madaniyatga xos muzey, tarixiy inshoot, festival kabilarga onlayn sayohatlar uyushtiriladi. Masalan: London muzeyi, Viktoriya va Albert muzeyi kabilarga. Bunda o‘quvchi ham ma‘lumotlarni eshitadi, ham o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar, masalan, “Bo‘sh joyni to‘ldirish”, “Muqobil javobni tanlash” kabilarni bajaradi;

– o‘qish darslarida “Collaborative Reading” texnikasini qo‘llash mumkin, bunda o‘qituvchi mavzuga mos matn, hikoya yoki she‘rni o‘quvchilarga taqdim etadi va ulardan kichik guruhlarda o‘qish, muhokama va xulosa qilish, savollar tayyorlash kabilari so‘raladi;

– yozish darslarida chet ellik do‘stiga turli mavzularda xat yozish: uni o‘z davlatiga taklif qilish, undan yordam so‘rash yoki o‘zining hayotida ro‘y berayotgan voqealar haqida hikoya qilib berish kabilarni misol qilsak bo‘ladi. Masalan, “Write a letter to your pen-friend who is from another country. In your letter, describe your favourite holiday and invite your friend to celebrate it”;

– darsda gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda “Question Scramble” texnikasidan foydalanish mumkin. Bunda tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga xos bo‘lgan biror-bir ma‘lumot savol tariqasida doskaga yoziladi va shu madaniyatga aloqador so‘zlar beriladi. O‘qituvchi tomonidan so‘zlardan iloji boricha uzun va ma‘noga ega bo‘lgan gaplar tuzish so‘raladi.

Xulosa. Xulosa o‘laroq, ushbu maqolada chet tili o‘qituvchilari til, uning paydo bo‘lish tarixi, grammatikasi, talaffuz va punktuatsiyasi, so‘z ma‘nosi va lug‘at boyligi kabilarni o‘rgatish barobarida, til bilan bog‘liq boshqa faktorlarga ham alohida e‘tibor berishi nazarda tutilgan. Negaki, chet tilini o‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchidan faqatgina tilga xos unsurlariga emas, balki uning yaratuvchisi bo‘lgan jamiyatga aloqador barcha xususiyat va faktorlarni o‘rganishni talab qiladi. Masalan, insoniyatning ham moddiy, ham ma‘naviy yaratgan boyliklarini o‘z ichiga olgan madaniyat shular jumlasidandir. Eng asosiysi, chet tili o‘qituvchilaridan talab etiladigan narsa bu madaniyatni shunchaki texnika, metod va yondashuvlar xilma-xilligida o‘tish emas, aksincha, darsning madaniy maqsadi bo‘lgan kognitiv, ta‘sir etuvchi va tarbiyalovchi unsurlaridan foydalanish, o‘quvchilardagi madaniy mahsuldorlik va ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘maklashish hisoblanadi. 1999-yilda tan olingan madaniyat uchligida ham aynan mahsuldorlik, amaliy mashg‘ulotlar va turli yondashuvlardan foydalangan holda madaniyatni o‘rgatish nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Brown H. D. Principles of language learning and teaching. New York, Pearson Education, 2007, 345 p.
- (2). Fantini B.C. Fantini A. Artifacts, sociofacts, mentifacts. In Fantini, A.E. (Ed.). New Ways in Teaching Culture. Alexandria: TESOL, 1997, p. 55–67.
- (3). Fernandez M. Manifestaciones culturales y la ensecanza de un idioma. In Colwell, V.A. (Coord.). La voz del profesor. Sobre la ensecanza de lenguas extranjeras. Universidad de Leyn, Servicio de Publicaciones, 2002.
- (4). Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012, 432 bet.
- (5). Kramsch C. Context and culture in language teaching. Oxford: Oxford University Press, 1993, 290 p.
- (6). Moule J. Cultural Competence. A Primer for Educators. Second edition. Wadsworth: Cengage learning. 2005, 367 p.

(7). Moore Z. Culture: How do teachers teach it? In Z. Moore (Ed.), Foreign language teacher education. Multiple perspectives, Maryland, University Press of America, 1996, p. 109–128.

(8). Nida E. "Translation and culture". In Fuertes, P.A. (Coord.), 2007.

(9). Seelye H.N. Teaching culture: Strategies for intercultural communication (3rd ed.). Lincolnwood, IL, National Textbook Company, 1993, 353 p.

Doschanova Mohinur Maxsudovna (Urganch davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti)
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
MEDIASAVODXONLIKDAN FOYDALANISH METODIKASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish metodikasi o‘rganilgan. Mediasavodxonlik ta‘lim jarayonida o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko‘rilgan. Kreativlikni shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan va bu borada samarali metodik yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonni boyitishda mediasavodxonlikning roli va ahamiyatini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, kreativlik, mediasavodxonlik, pedagogik metodika, zamonaviy texnologiyalar, axborot bilan ishlash, ta‘lim jarayoni, innovatsion yondashuvlar, kompetensiyalar.*

**Дошанова Мохинур Максудовна (Ургенчский государственный университет,
базовый докторант 1 степени)**

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ
ТВОРЧЕСТВА УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.** В данной статье изучается метод использования медиаграмотности в развитии творческих способностей учителей начальных классов. Медиаграмотность рассматривалась как инструмент развития навыков учителя по работе с информацией в образовательном процессе. Анализируется значение использования современных информационных технологий в формировании креативности и предлагаются эффективные методические подходы в этом отношении. Также рекомендуются инновационные подходы, служащие повышению социальных и личностных компетенций студентов. Результаты исследования показывают роль и значение медиаграмотности в обогащении педагогического процесса.*

***Ключевые слова:** начальное образование, креативность, медиаграмотность, педагогическая методика, современные технологии, работа с информацией, образовательный процесс, инновационные подходы, компетенции.*

Doschanova Mohinur Maxsudovna (Urganch State University 1st stage basic doctoral student)
METHODOLOGY OF USING MEDIA LITERACY IN DEVELOPING THE CREATIVITY OF
PRIMARY EDUCATION TEACHERS

***Annotation.** In this article, the method of using media literacy in the development of creativity of primary education teachers is studied. Media literacy was seen as a tool for developing teachers' skills in working with information in the educational process. The importance of using modern information technologies in the formation of creativity is analyzed and effective methodical approaches in this regard are proposed. Also, innovative approaches that serve to increase the social and personal competences of students are recommended. The results of the study show the role and importance of media literacy in enriching the pedagogical process.*

***Key words:** primary education, creativity, media literacy, pedagogical methodology, modern technologies, working with information, educational process, innovative approaches, competencies.*

***Kirish.** Bugungi kunda ta‘lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ayniqsa, ularning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalari va mediasavodxonlikni samarali qo‘llash o‘qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi esa bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida alohida o‘rin tutadi.*

Mediasavodxonlikning ahamiyati nafaqat o‘quv jarayonida axborot bilan ishlashni o‘rgatish orqali cheklanadi, balki o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyatida kreativ yondashuvlarni joriy etishida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar mediasavodxonlik asosida yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirib, dars-

larni interaktiv va samarali tarzda tashkil eta oladilar. Bu esa nafaqat o'quvchilarni o'qitishda, balki ularning mustaqil fikrlash va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda ham muhimdir.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanishning metodik asoslari, uning ahamiyati va samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, mediasavodxonlikni o'qituvchilarning kundalik amaliyotiga joriy etishning pedagogik va texnologik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Metodika. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish bo'yicha samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorlov bosqichi:

– mediasavodxonlik darajasini baholash. O'qituvchilar orasida maxsus savolnomalar va testlar orqali ularning mediasavodxonlik ko'nikmalari darajasi aniqlanadi. Bu orqali mavjud muammolar va rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlar aniqlanadi;

– ta'lim resurslarini tanlash. Zamonaviy o'quv dasturlari, interaktiv vositalar va multimedia materiallari o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun tayyorlanadi.

2. O'qitish bosqichi:

– mediasavodxonlik treninglari. O'qituvchilar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil qilinadi, unda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, ma'lumotlarni tahlil qilish, taqdimotlar yaratish va raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalari o'rgatiladi;

– kreativlikni rivojlantirish usullari. O'qituvchilarga kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va metodikalar taklif etiladi. Masalan, turli pedagogik o'yinlar, interaktiv darslar va loyiha faoliyatlari orqali kreativ yondashuvlar shakllantiriladi;

– axborot texnologiyalaridan foydalanish. Elektron o'quv dasturlari, raqamli platformalar va onlayn ta'lim vositalari dars jarayonida faol qo'llaniladi. Masalan, bolalar uchun ta'limiy videokontent, qulay grafik vizualizatsiyalar va elektron kitoblar yordamida ijodiy fikrlash rivojlantiriladi.

3. Amaliy qo'llash bosqichi:

– darslarda mediasavodxonlikni integratsiya qilish. O'qituvchilar dars jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanadi. Bu o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirib, mavzularni yanada tushunarli qilishga yordam beradi;

– loyiha faoliyatlari. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun loyiha asosida ta'lim tashkil etiladi. Masalan, "Mediamanzara yaratish" kabi ijodiy loyihalar orqali o'quvchilar axborotni qayta ishlash va uni taqdim etish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantiradilar;

– refleksiv baholash. Har bir darsdan so'ng o'quvchilarning kreativligi va mediasavodxonlik darajasi o'qituvchi tomonidan baholanadi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'z faoliyatlari bo'yicha fikr-mulohazalar bildirishlari rag'batlantiriladi.

4. Monitoring va takomillashtirish bosqichi:

– natijalarni tahlil qilish. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligi va mediasavodxonlik ko'nikmalari rivojlanish darajasi muntazam ravishda tahlil qilinadi;

– metodikani rivojlantirish. Tadqiqot natijalari asosida metodikaga qo'shimcha taklif va tavsiyalar kiritiladi, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodika boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini oshirish va mediasavodxonlikni pedagogik jarayonda samarali qo'llash uchun kompleks yondashuvni taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifati va o'quvchilarning rivojlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili (sharhi). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish mavzusiga oid ilmiy-adabiy manbalar kreativlik, mediasavodxonlik, va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mohiyatini chuqur yoritib beradi. Ushbu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik nafaqat ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish, balki o'qituvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham asosiy vosita hisoblanadi.

Kreativlik va uning rivojlantirish usullari haqida yozilgan G.M.Torrance [4;178-b.], E.P.Guilford [1; 79-b.] kabi tadqiqotchilarning ishlari kreativlikni shaxsning muammolarni yechish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Ularning tadqiqotlarida o'qituvchilar uchun kreativ yondashuvlarni shakllantirish zarurligi alohida qayd etiladi. Kreativlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati muhim o'rin tutadi.

Mediasavodxonlik masalasida R.Hobbs [2;96-b.], P.Freire [3;49-b.] kabi olimlarning ishlari muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. R.Hobbs mediasavodxonlikni shaxsning ommaviy axborot vositalari bilan

muloqot qilish, axborotni tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalari sifatida ta'riflaydi. Ushbu ko'nikmalar o'qituvchilarning dars jarayonida axborotni innovatsion yondashuvlar bilan taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar orasida N.A.Musurmonova [5;25-b.], U.T. Qurbonov [8;46-b.], va O.A.Toshpulatov [6;39-b.] kabi olimlarning ishlari e'tiborga molikdir. Ularning tadqiqotlarida mediasavodxonlikning ta'lim jarayoniga integratsiyasi va uning o'qituvchilarning professional rivojlanishidagi o'rni keng yoritilgan. Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishda multimedia vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari batafsil o'rganilgan.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo'yicha xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar ham ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, UNESCO [7] tomonidan mediasavodxonlik va axborot savodxonligini rivojlantirishga bag'ishlangan dasturlar o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'lim metodikasining muhim qismi ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik va kreativlikni rivojlantirish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning kombinatsiyasi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional kompetensiyalarini oshirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bois ushbu masalani keng qamrovli o'rganish va pedagogik metodika shaklida amaliyotga tatbiq etish bugungi kun ta'limi uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muhokama. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish pedagogik jarayonni yangicha yondashuvlar bilan boyitib, zamonaviy ta'lim talablariga javob berishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik nafaqat o'qituvchilarning axborotga ishlov berish qobiliyatlarini oshiradi, balki ular tomonidan o'quvchilarga ijodiy muhit yaratishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mediasavodxonlikni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'qituvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanishiga erishiladi:

1. Axborot bilan ishlash. O'qituvchilar ommaviy axborot vositalaridan axborotni saralash, tahlil qilish va ta'limiy resurslarga aylantirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa kreativ dars jarayonlarini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega.

2. Innovatsion vositalardan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar, multimedia ilovalari va vizual vositalar kreativ ta'lim muhitini shakllantirishda o'qituvchilarga yordam beradi. Masalan, dars jarayonida interaktiv vositalardan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

3. Ijodiy muammolarni hal etish. Mediasavodxonlik kreativlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi, chunki o'qituvchilar turli xil pedagogik usullar va multimedia materiallari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi.

Muhokamalar jarayonida aniqlangan asosiy masalalardan biri bu mediasavodxonlik bo'yicha maxsus o'quv dasturlarining yetishmasligidir. O'qituvchilarga mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar va treninglarning tashkil etilishi bu boradagi muammolarni hal etishga yordam beradi. Shu bilan birga, mediasavodxonlikni amaliyotga joriy etishda mavjud resurslar va infratuzilmaning yetarli darajada emasligi ham muammoli jihatlar sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni rivojlantirish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga katta hissa qo'shadi. Shu bois mediasavodxonlikni o'qituvchilar tayyorgarlik dasturlariga joriy qilish, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayonida keng qo'llash va metodik yondashuvlarni boyitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama davomida ilgari surilgan yondashuvlar boshlang'ich ta'limda ijodiy va samarali ta'lim muhiti yaratishda foydalanishga imkon beradi, bu esa o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

Natijalar. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanishning o'rganilishi quyidagi natijalarga olib keldi:

Kreativlikning o'sishi. Mediasavodxonlik asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni o'qituvchilarni yangicha fikrlash va ijodiy yondashuvga undadi. Interaktiv vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilar faoliyatida yangi g'oyalar va metodlarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Pedagogik samaradorlikning oshishi. Mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali o'qituvchilar o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirdi va foydalanishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qildi.

Axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarining shakllanishi. O'qituvchilar o'quv jarayonida axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash va taqdim etish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishdi. Bu nafaqat ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirdi, balki o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

Kreativlikni qo'llab-quvvatlash uchun mediavositlardan foydalanish mexanizmi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish natijasida o'qituvchilar darslarda turli vizual, audiovizual va interaktiv materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu jarayon o'quvchilarning yangi bilimlarni qabul qilish jarayonini yengillashtirdi va samaradorligini oshirdi.

Mustaqil o'qitish va o'z-o'zini rivojlantirish. Mediasavodxonlik o'qituvchilarning mustaqil o'qitish faoliyatini takomillashtirish uchun muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ular zamonaviy onlayn platformalar, ta'lim resurslari va dasturlardan foydalanish orqali o'z malakalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv aloqani rivojlantirish. Mediasavodxonlik o'qituvchilarni o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishga rag'batlantirdi. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini, balki ularning o'quvchilarga bo'lgan ta'sirini ham kuchaytirdi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish samarador pedagogik mexanizm sifatida o'zini oqladi. Mediasavodxonlik vositalaridan foydalanish orqali nafaqat o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlari rivojlandi, balki ta'lim jarayonining sifati va qiziqarliligi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, o'qituvchilar zamonaviy ta'lim jarayonining talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo'lib, ijodiy yondashuvlari orqali yosh avlodning keng qamrovli rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shdilar.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda mediasavodxonlikdan foydalanish bugungi kun ta'lim tizimida dolzarb vazifa hisoblanadi. Mediasavodxonlik o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion vositalardan samarali foydalanish imkonini berib, ularning ijodiy salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi.

Mediasavodxonlikning ahamiyati. Bu o'qituvchilarni axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va pedagogik maqsadlarda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Natijada ular dars jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil eta oladilar.

Kreativlikni rivojlantirish usullari. Mediasavodxonlik o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatida kreativ yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish va yangi bilimlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amaliy natijalar. O'qituvchilar tomonidan mediasavodxonlik vositalarining samarali qo'llanilishi ta'lim jarayonining sifatini oshirib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda mediasavodxonlikdan foydalanish, o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Buning uchun maxsus metodik dasturlarni joriy qilish, o'qituvchilarga mediasavodxonlikni o'rgatishga qaratilgan treninglar tashkil etish, shuningdek, zamonaviy texnologik resurslarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Ushbu yondashuvlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi nafaqat o'qituvchilarning, balki ta'lim oluvchilarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni zamonaviy jamiyat talablariga tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Guilford, J.P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. McGraw-Hill.
- (2). Hobbs, R. (2011). *Digital and Media Literacy. Connecting Culture and Classroom*. Corwin Press.
- (3). Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. Seabury Press.
- (4). Torrance, E.P. (1988). *The Manifesto for Children's Creativity*. Creative Education Foundation.
- (5). Musurmonova, N.A. (2020). Mediasavodxonlikning pedagogik jarayondagi ahamiyati. *Ta'lim va tarbiya*, 12(1), p. 23–28.
- (6). Toshpulatov, O.A. (2022). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchilar kreativligidagi o'rni. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*, 7(4), 34–41-betlar.
- (7). UNESCO. (2013). *Global Media and Information Literacy Assessment Framework*. Paris, UNESCO Publishing.
- (8). Qurbonov U.T. (2021). Boshlang'ich ta'limda ijodiy yondashuvlar. "O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish", jurnal, 8(3), 45–50-betlar.
- (9). Madraximovich, K.E. (2020). Improving the methodological training of primary school teachers on the basis of innovative approaches. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. Vol, 8(7).

(10). Xudoynazarov, E.M. (2019). Didactic possibilities of oral exercises in forming initial classes pupils' mathematical thinking activity. Eastern European Scientific Journal, Ausgabe. Germany (1–2019), 249 p.

(11). Khudoynazarov E. (2023). Boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. "Молодые ученые", 1(13), с. 32–37.

**Avazov Sherimmat (Toshkent davlat Pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, professor;
avazov-sh@mail.ru),**

**Yadgarova Sadokat Kenjabayevna (Urganch davlat universiteti o'qituvchisi;
sadokatvadgarova5@gmail.com)**

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA MAKTAB O'QUVCHILARINING EKOLOGIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

***Annotatsiya.** Maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ekologik ko'nikmasini shakllantirish bosqichlari, ekologik ko'nikmalarni shakllantirish turli usullar va yondashuvlar yordamida amalga oshirilish yo'llari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ekologik ko'nikma, ekotizim, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik savodxonlik, ekologik o'yin.*

Авазов Шериммат (Ташкентский государственный педагогический университет, кандидат педагогических наук, профессор; avazov-sh@mail.ru),

**Ядгарова Садокат Кенжабаевна (Ургенчский государственный университет, преподаватель;
sadokatvadgarova5@gmail.com)**

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНИКОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК.

***Аннотация.** В статье описаны этапы формирования экологических навыков студентов при преподавании естественных наук, пути формирования экологических навыков с помощью различных методов и подходов.*

***Ключевые слова:** экологический навык, экосистема, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая грамотность, экологическая игра.*

**Avazov Sherimmat (Tashkent state pedagogical university Candidate of pedagogical sciences, professor;
avazov-sh@mail.ru),**

Yadgarova sadokat (Urganch stary university teacher; sadokatvadgarova5@gmail.com)

STAGES OF FORMATION OF ECOLOGICAL SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN TEACHING NATURAL SCIENCES

***Annotation.** The article describes the stages of developing students' environmental skills in teaching natural sciences, and ways of developing environmental skills using various methods and approaches.*

***Key words:** Environmental skills, ecosystem, environmental education, environmental education, environmental literacy, environmental play.*

Kirish. Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek,¹ oxirgi yillarda "jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. ...[1;2–3-b.]. O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda". Prezidentimizning O'qituvchi va murabbiylar bayramiga bag'ishlangan marosimdagi nutqida ta'kidlanganidek,² ilm-fanga intilish millatimiz qonida, genida borligi, «Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi!» shiori olg'a surilishi, shuningdek, maktab muallimi yangi Uyg'onish davrining besh tayanch ustunidan biri bo'lishi – Uchinchi Renessans uchun poydevor, salohiyat mavjudligini anglatadi. Biroq bugun kunda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'lanmagani, o'quv dasturlarida uzviylik yo'qligi, darsliklar mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Bu mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimidagi biologiya va ekologiya ta'limiga ham to'la daxldor bo'lib, masalaning yechimi, birinchi galda, biologiya va ekologiya ilm-fanini yanada rivojlantirish, ayniqsa, biologiya va ekologiya ta'limi metodikasini mazmunan yangilash, pedagogik jarayonga eng samarali texnologik tuzilmani joriy etish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda [2;8–9-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida tabiiy fanlarni o'qitishda, ekologiya va atrof-muhit muhofazasining nazariy asoslarini A.To'xtayev, E.O.Turdiqulov, Sh.Avazov, B.Ziyomuxammedov, X.Tursunov, A.Nigmatov, T.Ergashev, A.Ergashev, Sh.T.Otaboyev, R.U.Beknazarov, Y.G.

¹ "Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда" / <https://yuz.uz/news/ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda>

² Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон оstonаси мактабдан бошланади / <https://www.ekogazeta.uz/xabarlar/5399>

Mahmudov, S.X.Fayzulina, D.Yormatovalarning ekologik ko'nikmalarni shakllantirish sohasidagi harakatlari tahsinga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish – bu insonning atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayon. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishning bir necha bosqichlari mavjud:

1. Boshqaruv va ma'lumot olish bosqichi. Bu bosqichda inson ekologik masalalar haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'ladi. Atrof-muhitning holati, uning muhofazasi va ekologik muammolarni tushunish boshlanadi. Bu bilimlar ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi.

2. Tushunish va tahlil qilish bosqichi. Ekologik tizimlar va ularning o'zaro aloqalarini tushunish, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ekologik inqirozlar va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini chuqurroq anglashga qaratilgan bosqichdir.

3. Qaror qabul qilish bosqichi. Bu bosqichda odam ekologik muammolarni hal qilish uchun qarorlar qabul qilishga tayyor bo'ladi. Masalan, ekologik toza mahsulotlarni tanlash, energiya tejash, qayta ishlash kabi amaliy qadamlarga o'tish.

4. Amaliy harakatlar bosqichi. Bu bosqichda ekologik ko'nikmalar amalda qo'llaniladi. Atrof-muhitni asrash, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya resurslarini tejash kabi harakatlar orqali ekologik maqsadlarga erishish mumkin.

5. Yaratilish va rivojlanish bosqichi. Bu bosqichda inson o'z ekologik ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi g'oyalarni ishlab chiqadi va ularni kengaytiradi. U o'z tajribalarini boshqalar bilan bo'lishib, jamiyatdagi ekologik ongni oshirishga hissa qo'shadi [3;101–105-b.].

Ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni odamning o'zini va atrof-muhitni hurmat qilishni o'rganish, ekologik mas'uliyatni oshirish va atrof-muhitni saqlashga qaratilgan turli amaliyotlarni o'z ichiga oladi.


Tahlil va natijalalar. Tabiiy fanlarni o'qitish ekologik ko'nikmalarni shakllantirish turli usullar va yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Mana, shulardan ba'zilari:

1. Ta'lim va tarbiya:
 - tabiiy fanlarni o'qitishda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ma'ruzalar, seminarlar va mahorat darslari o'tkazish;
 - maktab o'quvchilari va talabalari uchun o'quv dasturlari va kurslarini yaratish.
2. Amaliy mashqlar:
 - ekotizimlarni o'rganish uchun tabiiy hududlarga sayohatlar va ekskursiyalar tashkil etish;
 - ifloslanish va ekotizimlarni tahlil qilish bilan bog'liq laboratoriya ishlarini olib borish.
3. Loyihalar va tadqiqotlar:
 - tabiiy fanlarni o'qitishda, ekologiya va barqaror rivojlanishga oid ilmiy loyihalar va tadqiqotlarda ishtirok etish;
 - obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish.
4. O'yin usullari:
 - tabiatdagi o'zaro ta'sirlarni va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini tushunishga yordam beradigan ekologik o'yinlar va simulatsiyalarni o'ynash;
 - ekologik mavzularda tanlov va viktorinalar o'tkazish.
5. Munozara va bahslar:
 - tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beruvchi dolzarb ekologik muammolar yuzasidan munozara va munozaralar tashkil etish;
 - guruh muhokamalari orqali barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha fikr va yondashuvlarni shakllantirish.
6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:
 - ekologik muammolarni tasvirlash uchun multimedia resurslari, video va interaktiv ilovalardan foydalanish;
 - atrof-muhitga oid mavzularda onlayn kurslar va vebinarlarda qatnashish.
7. Ijtimoiy aloqa:
 - ko'ngillilar harakati va ekologik tadbirlarda ishtirok etish;
 - ekologik tashkilotlar va tashabbuslar bilan hamkorlik qilish.
8. Shaxsiy loyihalarni ishlab chiqish:
 - shaxsiy va jamoat ekologik loyihalarini yaratish va amalga oshirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

– kuzatishlar kundaliklarini yuritish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarni qayd etish.

Turli xil usul va yondashuvlardan foydalanish ekologik savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshirish va aholi o'rtasida barqaror ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi [4;36–39-b.].

O'quvchilarning tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik savodxonligi darajasini sezilarli darajada oshirish va barqaror ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun turli usullar va yondashuvlardan foydalanish mumkin.



1. Ta'lim dasturlari.

– rasmiy kurslar: ekologiyani maktab va universitet kurslariga integratsiyalash;

– qo'shimcha ta'lim: barcha yosh guruhlari uchun ekologiya bo'yicha kurslar, seminarlar, treninglar tashkil etish.

2. Interfaol usullar.

– o'quv o'yinlari: ekologik simulatsiya va murakkab ekologik tushunchalarni aks ettiruvchi o'yinlardan foydalanish;

– kvestlar va viktorinalar: ekologiyani o'rganishga qaratilgan tadbirlarni interaktiv shaklda o'tkazish.

3. Amaliy mashqlar:

– dala tadqiqotlari: ekskursiyalar, tabiatga sayohatlar, bu yerda ishtirokchilar ekotizimlarni kuzatish va amaliyot orqali o'rganishlari mumkin;

– laboratoriyalarda ishlash: atrof-muhitni tahlil qilish, suv va havo sifatini kuzatish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish.

4. Loyiha faoliyati:

– ijtimoiy loyihalar: atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirish yoki tozalash bo'yicha loyihalarni yaratish va unda ishtirok etish;

– individual va guruh loyihalari: ishtirokchilarni atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan o'z tashabbuslarini rivojlantirishga undash.

5. Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar.

– onlayn kurslar: masofaviy ta'lim platformalarida ta'lim dasturlarini ishga tushirish;

– virtual jamoalar: ijtimoiy tarmoqlarda ekologik muammolarni muhokama qilish va tajriba almashish uchun guruhlar yaratish [5;52–54-b.].

6. Tashkilotlar bilan hamkorlik.

– NNT bilan hamkorlik: bilim va resurslarni almashish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik;

– davlat-xususiy sheriklik: ekologik xabardorlikni oshirish bo‘yicha davlat organlari bilan qo‘shma tashabbuslar.

7. Targ‘ibot va axborot kompaniyalari.

– ekologik texnologiyalarga startaplar va investitsiyalar: ekologiya sohasidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

– axborot materiallarini ishlab chiqish: asosiy ekologik tushunchalar va masalalarni tushuntiruvchi risolalar, plakatlari, videoroliklar.

8. Tadbirlarda ishtirok etish.

– ekologik festivallar va ko‘rgazmalar: odamlar ekologiya sohasidagi yangi texnologiyalar va tashabbuslar bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan tadbirlarni o‘tkazish;

– ochiq eshiklar kuni: atrof-muhit ob‘ektlarida yoki ushbu sohada ishlaydigan tashkilotlarda tadbirlar tashkil etish.

9. Munozaralar va muhokamalar.

– forumlar va davra suhbatlari: ekologiya va barqaror rivojlanishning dolzarb masalalari bo‘yicha ochiq suhbatlar o‘tkazish;

– debatlar: yoshlarni ekologik siyosat va innovatsiyalar muhokamalarida ishtirok etishga undash.

10. Shaxsiy javobgarlikni shakllantirish.

– barqaror iste‘mol dasturlari: barqaror iste‘mol va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga o‘rgatish;

– atrof-muhit xulq-atvori bo‘yicha treninglar: har bir inson o‘z uyida atrof-muhitni muhofaza qilishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi haqida darslar [6;17–20-b.].

Xulosa va takliflar. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish va turli usullarni birlashtirish jamiyatning ekologik muammolarga nisbatan ongliroq va mas‘uliyatli munosabatini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida barqaror ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishga olib keladi. Ekologiyani o‘rganishga qaratilgan tadbirlarni interaktiv shaklda o‘tkazish.

Shunday ekan, bugungi kunga kelib tabiiy fanlarni o‘qitishda turli ko‘nikmalarni shakllantirish uchun pedagog kadrlar bilim saviyasi, kreativlik potentsiali, ijodkorlik qobiliyati kuchli darajada rivojlangan bo‘lishi va har qanday muammoli vaziyatlarni muhokama qila oladigan ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi shart. Bu vazifalar esa oliy ta‘lim muassasasi tomonidan hal qilinishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). "Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда" / <https://yuz.uz/news/o'zbekistonda-yangi-bir-uygonish--uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda>

(2). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi./<https://www.ekogazeta.uz/xabarlar/5399>

(3). Avazov Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Ekologik o‘lkashunoslik. O‘quv qo‘llanma, T., “Adabiyot uchqunlari”, 2016, 101–105-betlar.

(4). G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova. Biologiya 11-sinf, Toshkent, «Sharq», 2018, 36–39-betlar.

(5). Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 52–54-betlar.

(6). To‘xtayev A.S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma, «O‘qituvchi», 2001, 17–20-betlar.

**Umarxo‘jayeva Xilola Sirojiddinovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
Axborot texnologiyalari universiteti)**

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) TA‘LIM SOHASI
TALABALARINING TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR**

Annotatsiya. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta‘lim sohasi talabalarining tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklar, asosan, tala-

balarning tahlilii va tanqidiy tinglash ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi, kommunikatsiya jarayonlarida pasiv ishtirok etishlari, shuningdek, nutq va ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishdagi muammolar bilan bog'liq. Tinglab tushunish ko'nikmasining samarali rivojlanishi uchun maxsus o'quv metodikalari va amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tahlil qilish va qaror qabul qilishda tinglash malakalarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati e'tiborga olinishi zarur.

Kalit so'zlar: *tinglab tushunish ko'nikmasi, autentik tinglash, texnologiya integratsiyasi, hamkorlikda o'rganish, AKT.*

ТРУДНОСТИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ СФЕРЫ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ)

Аннотация. *Существует ряд трудностей в развитии навыков аудирования у студентов сферы образования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Эти трудности в основном связаны с недостаточной сформированностью у студентов навыков аналитического и критического слушания, пассивным участием в коммуникативных процессах, а также проблемами правильного восприятия речи и информации. Специальные учебные методики и практические занятия имеют важное значение для эффективного развития навыков аудирования. Необходимо учитывать особую роль и значение навыков аудирования при научном анализе и принятии решений.*

Ключевые слова: *навыки слушания, аутентичное слушание, интеграция технологий, совместное обучение, ИКТ.*

Umarkhojyeva Khilola Sirojiddinovna (Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi)

DIFFICULTIES IN IMPROVING THE LISTENING SKILLS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY (ICT) STUDENTS

Annotation. *There are a number of difficulties in developing students' listening skills in the field of information and communication technologies (ICT). These challenges are primarily related to students' underdeveloped analytical and critical listening skills, passive participation in communication processes, as well as difficulties in accurately perceiving speech and information. Specialized teaching methodologies and practical exercises play a crucial role in effectively developing listening skills. It is essential to consider the particular significance and importance of listening skills in scientific analysis and decision-making processes.*

Keywords: *listening skills, authentic listening, technology integration, collaborative learning, ICT.*

Kirish. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish malakalarini oshirishdagi qiyinchiliklar zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu sohada o'quv jarayonlarida tinglab tushunishning samarali rivojlanishi va o'quvchilarni faol tinglovchilarga aylantirish katta ahamiyatga ega. Biroq ko'plab talabalarining tinglash malakalarini oshirishda duch keladigan qiyinchiliklar ularning ta'lim va kasbiy faoliyatida muammolarni yuzaga keltiradi. Maqolada axborot-kommunikatsiya fakulteti talabalarining tinglash malakalarini oshirishdagi asosiy to'siqlar va bu muammolarni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasi talabalarining ko'plab hollarda passiv tinglashga moyil bo'lishi ularning samarali o'rganish jarayonini cheklaydi. Passiv tinglashda talabalar faqat eshitish bilan cheklanib, ma'lumotni to'liq va chuqur anglamasliklari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, axborotni tahlil qilish va undagi muhim nuqtalarni ajratib ko'rsatish imkoniyatlarini kamaytiradi. Talabalarining faqat tinglash orqali bilim olishga urinishlari, ularning tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga to'siq qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tarqalishi talabalarining diqqatini tarqatishi va tezkor ma'lumotlarga tezda kirish imkoniyatini yaratishi, ularning an'anaviy tinglash malakalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Multimedia vositalaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar talabalarining qisqa va tezkor ma'lumotlarga o'rganishiga olib keladi. Buning natijasida ular uzoq davom etadigan va murakkab nutqlarni, maxsus ma'lumotlarni tinglashda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar. Yangi texnologiyalarning ta'sirida, talabalar faqat ma'lumotni tezda qabul qilishga e'tibor berib, uning mazmunini chuqur tahlil qilishni unutishadi. Ayniqsa, o'rganilayotgan tilning murakkabligi, jargonlar yoki o'ziga xos atamalarni tushunmaslik talabalar uchun alohida qiyinchiliklar tug'diradi. Xususan, ingliz tilida o'qiyotgan talabalar uchun texnik va maxsus sohalaridagi ilmiy nutqlarni tushunish yanada murakkab bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun madaniy va lingvistik to'siqlarni yengish va tinglash malakalarini yaxshilashga qaratilgan o'quv metodlarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Keyingi yillarda til ta'limida AKT ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar muhim tadqiqot yo'nalishiga aylandi. AKT vositalarining til ta'limiga integratsiyalashuvi tinglab tushunish darajasini oshirishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish, xususan, AKT ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim metodologiyasi, psixologiya, lingvistika va kommunikatsiya sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy ishlar turli yondashuvlar va metodlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, talabalar tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari bo'yicha chuqur tahlillarni taqdim etadi.

Goh (2000) fikriga ko'ra, tinglab tushunishning eng keng tarqalgan beshta muammosi quyidagilardir: o'quvchilar "eshitganlarini tezda unutadilar, o'zlariga tanish bo'lgan so'zlarni tanimaydilar, so'zlarni tushunadilar, ammo taxmin qilingan xabarni emas, xabarning keyingi qismini e'tiborsiz qoldirib, ma'no haqida o'ylaydilar va eshitilgan so'zlar haqida fikriy tasavvurni shakllantira olmaydilar". Bu elementlar ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun eshitishni qiyinlashtiradigan elementlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Indoneziyaning universitetlaridan birida N.Putri (2018) tomonidan o'tkazilgan avvalgi tadqiqotda EFL talabalarini akademik tinglab tushunish mashg'ulotlarida duch keladigan tinglab tushunish qiyinchiliklari o'rganilgan. Tadqiqotga ellik nafar ishtirokchi tanlab olingan va ma'lumotlarni yig'ish uchun anketa va intervyulardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, notanish leksika, nutq tempi va tegishli uskunalarining yo'qligi talabalar duch keladigan eng muhim muammolar bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolar etiologiyasida tashqi omillar ustunlik qiladi.

N.Sari (2019) "EFL talabalarining tinglab tushunish muammolarini o'rganish" nomli tadqiqotida ma'lumotlarni to'plash uchun kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish kabi muqobil yondashuvdan foydalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'z tinglab tushunish ko'nikmalariga ishonchsizlik va nutqni eshitib tushunishga yetarli darajada e'tibor bermaslik kabi ichki omillar talabalar duch keladigan eng muhim muammolar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotlar nofilologik yo'nalish talabalarida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi va bu ko'nikmalarining ularning ta'lim sohalarida ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

Natija va muhokama. Quyidagi tavsiyalar AKT talabalariga tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda duch keladigan ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan:

- tinglash mashg'ulotlari o'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'qituvchilar o'quvchilarga ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan aytiladigan tabiiy nutqni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan autentik tinglash materiallarini taqdim etishlari kerak;

- o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishini jalb qiladigan va tinglash ko'nikmalari va strategiyalarini egallashga yordam beradigan tinglash topshiriqlarini ishlab chiqishlari kerak. Bunday topshiriqlar nafaqat talabalarining tinglab tushunish darajasini baholashga, balki ularni topshiriqlarni bajarishni optimallashtirish uchun bir qator tinglash strategiyalaridan foydalanishga undashga ham xizmat qiladi;

- o'qituvchilar o'quvchilarga ma'ruzalar, radio yangiliklari, filmlar, teleseriallar, reklamalar va kundalik suhbatlarni o'z ichiga olgan turli xil audiomateriallarni taqdim etishlari lozim. Shuningdek, talabalar suhbatlar va intervyularni qamrab olgan turli xil og'zaki ingliz tiliga duch kelishlari kerak.

Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarini tez va tabiiy nutqning turli shakllarini eshitishga ko'maklashish va ularni ona tili sifatida so'zlashuvchilarning talaffuziga taqlid qilishga rag'batlantirish uchun talaffuz qoidalari bilan tanishtirishi zarur. Shu bilan birga, o'qituvchilar o'z o'quvchilariga boshqa til egalarining talaffuzidan xabardor bo'lishda yordam berishlari kerak. Til egalari o'z aksentlariga ega bo'lganligi sababli talabalar Amerika va Britaniya aksentlari o'rtasidagi farqni tushunishlari kerak.

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ga ixtisoslashgan talabalarining tinglab tushunish kompetensiyasini oshirish birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki bu ularning ham akademik, ham kasbiy kontekstdagi muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Biroq o'qituvchilar bir qator muammolarni hal qilishlari kerak, jumladan, faol tinglash odatlari, texnik jargon, chalg'ishlar, tezkor uzatish, til to'siqlari, motivatsiya yo'qligi va tinglash amaliyoti uchun cheklangan imkoniyatlar. Pedagoglar faol tinglash, texnik atamalarni aniqlashtirish, o'quv dasturiga turli xil yondashuvlarni kiritish kabi maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali o'quvchilarning tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga va AKT sohasida yanada samarali muloqotchi bo'lishga yordam berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abbas Pourhosein Gilakjani. Narjes Banou Sabouri. Learners' Listening Comprehension Difficulties in English Language Learning: A Literature Review. English Language Teaching; Vol. 9, № 6, 2016. ISSN 1916-4742 E-ISSN 1916-4750. Published by Canadian Center of Science and Education.
- (2). Dewanti D. An Analysis of EFL Students' Difficulties in Listening Comprehension at STKIP Muhammadiyah Bogor. Jurnal Educatio. ISSN: 2459-9522 (Print), 2548-6756 (Online). Vol. 8, № 1, 2022, pp. 174–179.
- (3). Goh. A cognitive perspective on language learners' listening comprehension problems. 2000, p. 55–75.
- (4). Karakas. (2002). Study of Factors Affecting EFL Learners' English Listening Comprehension and the Strategies for Improvement. Journal of Language Teaching and Research, 2(5), p. 977–988.

Urazimbetova Zuxra Uzakbaevna (Phd student, Karakalpak State University, Nukus)

THE USE OF AUTHENTIC MATERIALS IS AN EFFECTIVE METHOD FOR DEVELOPING WRITING PROFICIENCY

Annotation. This article provides information about the utilization of authentic materials in the writing process. The generation of words, sentences and paragraphs with grammatical accuracy necessitates a high level of knowledge and a capacity for deep thinking. It is of the utmost importance that a writer possesses the requisite linguistic abilities, including an understanding of grammar, vocabulary, punctuation and spelling, in order to facilitate effective communication through written language. The act of writing establishes a connection between the writer and the audience, thereby fostering the formation of a community of minds. It is widely acknowledged that the utilization of authentic material represents an efficacious methodology for the enhancement of writing abilities. This paper will examine the components of writing and the advantages of using authentic materials to enhance writing skills.

Keywords: skills, factual, imaginary creative, inventing, drafting, revising, editing, authentic materials, writing abilities.

Urazimbetova Zuhra Uzakbaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi assistenti)

AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH–YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULI

Shunda u quyidagicha mulohaza yuritdi. Birinchi idishdagi sharlarning har beshtasidan bittasini oq, ikkinchi idishdagi sharlarning har uchtasidan bittasini oq, demak, jami sharlarning har sakkiztasidan ikkitasini oqqa, qolgan barcha sharlarni qoraga bo'yasam bo'ladi. 2 ta idishdagi barcha sharlarni aralashtirib yubordi. Sharlarni bo'yash ishlari tugagach, natijada u o'ylagandek emas, balki oqqa bo'yalgan sharlar soni 4 ta kam, qora sharlar soni esa 4 ta ko'p bo'ldi. Nima uchun shunday bo'ldi?

3-masala (Yerni shudgor qilish masalasi). Ma'lum bir fermer xo'jaligida, asosan, 3 ta yer bo'lib, ular yer maydoni bo'yicha birinchi yer ikkinchi yerdan 2 marta kichik, uchinchi yer esa ikkinchi yernikiga qaraganda 1,5 marta katta.

Bu yerlarni traktorlarining ish quvvati har xil bo'lgan 4 ta traktorining shudgor qilish rejasi quyidagicha: birinchi traktorchi birinchi yer maydonining har 3 gektaridan 1 gektarini, ikkinchi traktorchi ikkinchi yer maydonining har 5 gektaridan 3 gektarini va uchinchi traktorchi uchinchi yer maydonining har 7 gektaridan 5 gektarini hamda to'rtinchi traktorchi esa uchala yerdan qolgan barcha yer maydonlarini shudgorlashi kerak edi.

Lekin ular bu yerlarni kelishuv asosida shudgorlamoqchi bo'lishdi. Shunda ular quyidagicha mulohaza yuritib kelishishdilar: birinchi yer maydonining har 3 gektaridan 1 gektarini, ikkinchi yer maydonining har 5 gektaridan 3 gektarini uchinchi yer maydonining har 7 gektaridan 5 gektarini, demak, jami uchala yerning har 15 gektaridan 9 gektarini birinchi, ikkinchi va uchinchi traktorchi birgalikda, to'rtinchi traktorchi esa uchala yerdan qolgan barcha yerlarni shudgorlashini. Ma'lum vaqtdan so'ng, shudgorlash ishlari yakunlandi. Natijada rejadagiga qaraganda birinchi, ikkinchi va uchinchi traktorchilar birgalikda ishlab 8 gektar kam, to'rtinchi traktorchi esa 8 gektar ko'p yerni shudgor qilgani ma'lum bo'ldi. Nima uchun shunday bo'ldi? Aslida, har bir traktorchi necha gektardan yerni shudgorlashi kerak edi?

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Quyida berilgan masalalar yuzasidan yuritilgan mulohazalardan shuni anglash mumkinki, obyektlarning har biri miqdori bo'yicha qaralayotgan qiy-

matining katta parametri va kichik parametri aralashtirilib, yangi parametr olinib va uni berilgan obyekt-larga tatbiq qilish, majoziy ma'noda yolg'onning rostga yoki rostning yolg'onga aylanishi demakdir.

Xulosa o'rnada shuni ham aytish mumkinki, tanlanmani kuzatish usuli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati, asosiy demografik tavsiflar, aholi bandligi, uning turmush darajasi, yashash sharoitlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalaridagi ko'rsatkichlarini aniqlashda, tovar va xizmatlar iste'moli bozori, transport va aloqa xizmatlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llaniladi.

Yuqorida aytilgan gaplardan sotuvchini yoki xaridorni, yoxud biror-bir bajarilgan ish natijasida kelib chiqqan xatolarni qo'shtirnoq ichida gapirmoqchi emasmiz, ammo yuqorida e'tirof etganimizdek, inson manfaatlari hamma narsadan ustundir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). S.Husanov. Internet materiallari asosida. Prezidentimizning nutqi "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun". "Xalq so'zi"-Xs.uz online. 2017-yil 18-iyun.
- (2). Y.Abdullayev. "Statistika nazariyasi". Ittisodchi kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik (uchinchi nashri), Toshkent, "O'qituvchi", 2002, 53-bet.
- (3). S.I.Afonina. "Matematika va go'zallik". Maktabda matematikadan sinfdan tashqi mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha qo'llanma, Toshkent, "O'qituvchi", 1987, 76-77-betlar.
- (4). B.Usarov. "Termiz universiteti" gazetasi, 2020, 18-aprel, 15-bet.
- (5). Kitobook.com (Internet (Google qidiruv) materiallari asosida). Hikoyalar. Muqaddas kitob. "Yoqub musofir yurtida". Ibtido kitobi. 29-30. 31-bob. 1-12-oyatlar.
- (6). Sh.Turabekov, A.S.Almatov, G.J.Jalolov, A.K.Rahimov, S.U.Ibragimxodjaev, M.M.Ergashev. "Genetikadan masalalar to'plami va ularni yechish usullari". Uslubiy qo'llanma, qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri, Toshkent, 2013, 11-bet.

**Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi;
e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)**

SODDA GAP SHAKLIDAGI TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek tilida sodda gap shaklidagi tez aytishlarning sintaktik tarkibini o'rganishga bag'ishlangan. Unda tez aytishlarning gap turlariga ko'ra sinflanishi, ularning tuzilishi va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqola davomida turli xil misollar keltirilgan bo'lib, ular orqali tez aytishlarning mantiqiy va estetik jihatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** tez aytishlar, sodda gap, sintaksis, o'zbek tili, tahlil, grammatik xususiyat.*

Маматалиева Навбахор Хужамбердиевна (преподаватель Термезского университета экономики и сервиса; e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СКОРОГОВОРОК В ФОРМЕ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

***Аннотация.** Статья посвящена изучению синтаксической структуры простых предложений в узбекском языке. В ней анализируется классификация быстрых высказываний по типам предложений, их структура и грамматические особенности. На протяжении всей статьи приводятся различные примеры, посредством которых раскрываются логические и эстетические аспекты быстрых высказываний.*

***Ключевые слова:** быстрые высказывания, простое предложение, синтаксис, узбекский язык, анализ, грамматическая особенность.*

**Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna (Teacher at Termez University of Economics and Service;
e-mail: mamadaliyeva.n@bk.ru)**

SYNTACTIC FEATURES OF TONGUE TWISTERS IN THE FORM OF SIMPLE SENTENCES

***Annotation.** This article is devoted to the study of the syntactic structure of simple sentences in the Uzbek language. It analyzes the classification of quick utterances according to sentence types, their structure and grammatical features. Throughout the article, various examples are presented, through which the logical and aesthetic aspects of fast sayings are revealed.*

***Key words:** Quick sayings, simple sentence, syntax, Uzbek language, analysis, grammatical feature.*

Kirish (Introduction). O'zbek xalq og'zaki ijodida tez aytishlar alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat bolalar o'yin-kulgi shakli sifatida, balki xalqning nutq madaniyati, so'z boyligi va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish etish vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. Tez aytishlar xalq orasida tilning o'ziga xos estetik jihatlarni ifodalash, mantiqiy va grammatik qiyinchiliklarni yengish uchun maxsus til o'yinlari shaklida

keng qo'llaniladi. Mazkur til birliklari, asosan, bola nutqini rivojlantirish, talaffuzni mustahkamlash va til o'rganuvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun foydalaniladi. Tez aytishlar tilshunoslik nuqtai nazaridan qator ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lgan bo'lsa-da, ularning sodda gap shaklidagi sintaktik tarkibi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tez aytishlar har bir xalq og'zaki ijodining eng qadimiy namunalari biri sifatida har doim tadqiqotchilarning diqqat-markazida bo'lib kelgan. Tez aytishlar borasida xorijlik tadqiqotchilardan R.Sproat tomonidan nashr qilingan "A Computational Theory of Tongue Twisters and Speech Errors" [7] nomli kitob muhim tadqiqotlardan biri bo'lib, unda tez aytishlarning nutq rivojlanishidagi ahamiyati aniq dalillar asosida ochib berilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan I.B. Madiyarovning "O'zbek va qoraqalpoq tez aytishlari tipologiyasi" [3] mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatdiyada esa ikki tildagi tez aytishlar qiyosiy tahlil metodidan foydalanilgan holda tadqiq etilgan. Shuningdek, B.Sarimsoqov tomonidan nashrga tayyorlangan "Epik janrlar diffuziyasi. O'zbek folklorining epik janrlari" nomli kitob ham mazkur mavzuga doir muhim izlanishlar qatoriga kiradi [6].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sodda gap shaklidagi tez aytishlarning sintaktik xususiyatlariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sodda gap shaklidagi tez aytishlar gapning minimal strukturasi bilan foydalanib, qisqa va aniq ma'noni ifodalash imkonini beradi. Shunday tez aytishlarda fonetik uyg'unlik bilan birga, grammatik mazmun ham muhim o'rin tutadi. Bu gaplar, odatda, egani ochiq holda ifodalash, kesimni qo'llash va boshqa ikkinchi darajali gap bo'laklari orqali shakllanadi. Ushbu o'ziga xoslik ularni sintaktik tahlil qilishni zaruratga aylantiradi. Shuningdek, tez aytishlar xalq nutqining estetik va didaktik jihatlari o'zida mujassamlashtirib, ularning milliy madaniyat va an'alarini aks ettiruvchi ifoda vositasi ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ularning lingvistik va stilistik o'rganilishi zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi [2;18-b.].

Sodda gap shaklidagi tez aytishlarning tuzilishi. Sodda gap shaklidagi tez aytishlar grammatik jihatdan qisqa va ixcham bo'lib, odatda, bir bosh gapdan iborat bo'ladi. Ular quyidagi tuzilma elementlarini o'z ichiga olishi mumkin:

1. **Ega va kesim asosida tuzilgan gaplar.** Ega va kesim sodda gapning asosiy komponentlari hisoblanadi. Bu gaplar mazmunan to'liq va mustaqil bo'lib, nutqda oddiy va tushunarli tuzilmani ifodalaydi.

Qop qora.

Kop kokildi kop ko'tarildi.

Bu tuzilma gapning minimal shaklda mazmunni to'liq ifodalashiga imkon beradi [4;71-b.].

2. **Ega, kesim va to'ldiruvchi bilan tuzilgan gaplar.** Tez aytishlarda to'ldiruvchi qo'shilishi gapning mazmunini aniqlashtiradi va talaffuzda murakkablik yaratadi.

Ena arqonni arqonlagan.

Sholcha shosha-shosha sho'r sho'rvani yutdi.

3. **Aniqllovchilar bilan boyitilgan gaplar.** Aniqllovchilar qo'llanganda gapning mazmuni kengayadi va estetik jihatdan qiziqarli bo'ladi.

O'n qop qizil qopqoq.

Yumaloq joydan yumaloq tosh yumaladi.

4. **O'xshash bo'g'inlar asosida yaratilgan gaplar.** Bir xil yoki o'xshash bo'g'inlar bir necha bor takrorlanadi. Bu nafaqat talaffuzni murakkablashtiradi, balki gapni esda qolarli qiladi.

Qizil cho'ntak, qizil cho'chqa.

Sham yondi, sham shovqini shamolda uchdi [6;29-b.].

5. **Chigal so'z o'yinlari bilan tuzilgan gaplar.** So'z o'yinlari orqali gapning grammatik tuzilishi murakkablik kiritadi, bu esa tez aytishni yanada qiziqarli qiladi.

Bir kulcha non, ikki kulcha non.

Chin chipor chipor chiroq yoqildi.

6. **Kesimdan oldin joylashgan murakkab aniqllovchilar.** Tez aytishlarda aniqllovchilar, ko'pincha, kesimdan oldin keladi va talaffuzni qiyinlashtiradi.

To'q qopqoq to'qmoq qildi.

Qora ko'rpa qora ko'zaning ustiga yopildi.

7. **Parallel tuzilma asosida tuzilgan gaplar.** Parallel bo'g'inlar yoki gap tuzilmalari bir xil grammatik elementlar asosida takrorlanadi. Bu talaffuzda dinamiklik va ritmiklik qo'shadi.

Besh bola besh bosh baliqni bo'ldi.

Chin chig'anoq chig'anoq ichida chin o'tirar.

Sodda gap shaklidagi tez aytishlarning tuzilishi fonetik uyg'unlikni saqlash, grammatik mazmunni boyitish va talaffuz murakkabligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tuzilma bolalar va kattalarning nutqini rivojlantirish, til o'rganishda qiziqarli metod sifatida muhim ahamiyatga ega. Sodda gap shaklidagi tez aytishlar o'zbek tilining boy grammatik va sintaktik xususiyatlarini namoyon qiladi. Quyida ularning asosiy xususiyatlari va misollar keltiriladi:

Qisqalik va ixchamlik. Sodda gap shaklidagi tez aytishlar, odatda, qisqa, ixcham va ma'noli bo'ladi. Ular ortiqcha so'zlar yoki grammatik tuzilmalar bilan yuklanmaydi, bu esa tezkor talaffuzga imkon beradi [3;102-b.]:

Yetti yoqilgan sham, yetti yoqilmagan sham.

Oltin yosti, oltin yopinchiq.

So'zlarning takrorlanishi. So'zlarning takrorlanishi nafaqat tovush uyg'unligini, balki tez aytishni qiyinlashtiruvchi omillarni ham kuchaytiradi. Takrorlanish gapning melodik va ritmik tuzilishini mustahkamlaydi:

Choychaqa uchun cho'michdan chayqadim.

Oq qop, qora qop, qop-qop qop.

Aniqlik va o'xshashlik. Tez aytishlar, ko'pincha, bir xil tovushlar, bo'g'inlar yoki grammatik tuzilmalarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali yaratiladi. Bu esa gapni talaffuz qilishni ham oson, ham qiyin qiladi:

Besh baliqni besh bola bo'lib bo'lishdi.

Yumshoq shoyi, shoyi yumshoq [4;81-b.].

Tovush uyg'unligi. Fonetik moslik orqali gaplar eshitishga yoqimli va o'ynoqi tus oladi. Bu xususiyat tez aytishlarda nutqning estetik ta'sirini kuchaytiradi:

Tilla tovoq, tilla tugma.

Qora qozonda qaynagan qatiq.

Grammatik moslik. Tez aytishlar grammatik jihatdan to'liq va mustaqil gap bo'lib, ma'lum bir ma'noni ifodalash uchun zarur bo'lgan barcha bo'laklarni o'z ichiga oladi:

Suvga sho'ng'igan suvchi sho'ng'inib suvdan suv chiqaradi.

To'qmoqchi to'qmoq to'qmoqladi.

Egalar va kesimlarning uyg'unligi. Sodda gap shaklidagi tez aytishlarda eganing aniq ifodalanishi va kesim bilan uyg'unligi gapni ravon qilishga xizmat qiladi:

Shirin shakar sharaqlab shitirladi.

Besh yashik yelim yashikka yopishdi [5;11-b.].

Bu xususiyatlar tez aytishlarning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlarini birlashtirib, ularni o'rganish va o'rgatishda qimmatli materialga aylantiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tez aytishlarning sodda gap shaklidagi tahlili ularning mantiqiy va grammatik tuzilishidagi nozik jihatlarni yoritib beradi. Bu turdagi gaplar qisqa, aniq va mantiqiy uyushgan bo'lib, egasi, kesimi va boshqa yordamchi bo'laklari orqali to'liq gap bo'lish imkonini beradi. Ular so'zlarning takrorlanishi, tovush uyg'unligi va grammatik mosligi orqali nutqni esda qolarli va qiziqarli qiladi. Shuningdek, tez aytishlar til o'rganuvchilar, ayniqsa, yosh avlod uchun didaktik ahamiyatga ega. Ular talaffuzdagi qiyinchiliklarni yengish, nutq texnikasini takomillashtirish va til tuzilishini o'rganish uchun samarali vositadir. Tilshunoslar uchun esa tez aytishlar sintaktik qurilishning o'ziga xosliklarini aniqlash va grammatik tizimni yanada chuqur o'rganishda qimmatli material hisoblanadi. Kelgusida tez aytishlarning boshqa sintaktik shakllarini tahlil qilish, ularning stilistik va pragmatik jihatlarini yoritish, shuningdek, boshqa tillardagi tez aytishlar bilan qiyosiy o'rganish o'zbek tilshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli ushbu til birliklarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish davom ettirilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Jo'rayev A. O'zbek tilining sintaktik asoslari. Toshkent, "Fan", 2019, 198-bet.
- (2). Karimov X. Til o'yinlari: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent, "Yozuvchi", 2018, 219-bet.
- (3). Madiyarov I.B. O'zbek va qoraqalpoq tez aytishlari tipologiyasi. Fil.f.f.d. diss., Toshkent. 2021, 143-bet.
- (4). Qodirova G. Tez aytishlar va ular orqali talaffuz mashqlarini rivojlantirish. Andijon, "Ziyo nashr", 2023, 107-bet.
- (5). Rasulov N. O'zbekcha tez aytishlarning lingvistik tahlili. Samarqand, "Zarafshon", 2021, 92-bet.
- (6). Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7-kitob. O'zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, «Fan», 1981, 432-bet.

(7). Sproat R. A Computational Theory of Tongue Twisters and Speech Errors. *Speech Communication*, 20(1), 1996, p. 99–116.

(8). Tursunov S. Xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy tilshunoslik. Toshkent, “Sharq”, 2020, 219-bet.

**Djumayeva Sofiya Kodirovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti “O‘zbek adabiyoti” kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi; sofiyakodirovna@gmail.com)
O‘RXUN-ENASOY YOZMA YODGORLIKLARIDA RAQAMLAR BILAN BOG‘LIQ
QARASHLAR**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi sanalgan O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida qo‘llanilgan raqamlar va ular bilan bog‘liq qarashlar, yodgorliklar matnidagi raqamlarning ramziy mohiyati, qadimgi turkiy xalqlar dunyoqarashi, ma‘naviy va siyosiy hayotida raqamlarning tutgan o‘rni hamda mohiyatiga e‘tibor qaratiladi. Yodgorliklar matnida uchraydigan raqamlarni tahlil qilishda qiyosiy-tipologik usuldan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: raqam, to‘rt raqami, to‘rt jihat, bo‘luk, shad, tug‘, vujudnoma, yoshnoma.

ВЗГЛЯДЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЧИСЛАМИ В ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКАХ ОРХУН-ЭНАСАЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются цифры и связанные с ними взгляды, использованные в письменных памятниках Орхун-Энасай, которые являются общими памятниками тюркских народов, символическая сущность цифр в тексте памятников, мировоззрение древних тюркских народов, роль цифр в их духовной и политической жизни, а также их сущность. При анализе цифр, встречающихся в тексте памятников, использовался сравнительно-типологический метод.*

Ключевые слова: число, число четыре, четыре аспекта, отрезок, шад, флаг, вужуднома, ёшнорма.

VIEWS RELATED TO NUMBERS IN THE WRITTEN MONUMENTS OF ORKHUN-ENASAI

Annotation. *This article will focus on the numbers used in the written monuments of Orkhon-Enasai, which are considered a common monument of Turkic peoples, the views associated with them, the symbolic essence of the numbers in the text of monuments, the worldview, place and essence of ancient Turkic peoples in their spiritual and political life. The comparative-typological method was used in the analysis of the numbers found in the text of the monuments.*

Keywords: number, number four, four aspects, boluk, shad, tug, vujudnoma, yoshnoma.

Kirish. O‘zbek milliy madaniyatining tarixiy ildizlari juda chuqur bo‘lib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma‘naviy xazinadan bahramand bo‘lish ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insonning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari orqali bizga yetib kelgan qadimgi turk xo‘qonligi tarixi, undagi ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot va vatan uchun kurash tasvirlaridan xabardor bo‘lish mumkin. Shunisi e‘tiborliki, bu yozma yodgorliklarda ham raqamlar bilan bog‘liq qarashlar va raqam mohiyatiga katta e‘tibor berilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Olimlarning ta‘kidlashicha, to‘rt raqamining asosiy ma‘nosi uning doimiylikning anglatishidir. Ko‘pgina tadqiqotchilar, jumladan, V.V.Ivanov, V.N.Toporov, N.L. Jukovskaya, A.T.Xrolenko singari olimlar dunyo kosmik modelining gorizontaal tuzilishini to‘rt raqam bilan bog‘lashadi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan yodnomalarda bu raqam olamning to‘rt tomoni ma‘nosida qo‘llanilgan. Shuningdek, yoshnoma janrining dastlabki unsurlari keltirilganligini Sh.Rahimovning “Davlatyor-bek” dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferatidagi insonning yosh xususiyatlari va hayoti bilan bog‘liq she‘rlar xususidagi fikrlariga asoslanib qayd etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida keltirilgan raqamlar, ularning mohiyatini qiyosiy va kontekstual tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muammoni kengroq yoritish maqsadida tarixiy tahlil metodi ham qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. Yodgorliklarda xalq yoki elat nomi bilan bog‘liq raqamlarni (“uch qarluq”, “uch bayroqli turk xalqi”, “uch iduq tatar”, “to‘qquz o‘g‘iz”, “to‘qquz tatar”, “o‘n uyg‘ur”, “to‘qquz arsan qabilasi”, “uch quriqan”, “o‘ttiz tatar”, “o‘ttiz to‘qquz o‘g‘uz”) avlodlarga ishora qiluvchi raqamlarni (“uch avlod”, “uch aka”, “uch o‘g‘lon”, “sakkiz o‘g‘il”) uchratamiz.

Ba‘zi bir o‘rinlarda raqamlar ma‘noni kuchaytirish, ifoda etilayotgan fikrga e‘tiborni tortish maqsadida qo‘llanilganligini ham qayd etish lozim. Masalan, Irq bitigida tabulg‘alarning ko‘pligi qo‘shin uchun

yaxshi ekanligi fol qilinadi: “Bir tabulg‘a yuz bo‘ldi, Yuz tabulg‘a ming bo‘ldi, Ming tabulg‘a tuman bo‘ldi, deyshadi. Bilib qo‘ying: foydasi bor, bu – yaxshi” [1;52-b.].

Kosmosning to‘rt o‘lchovli bo‘linishi qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar mifologik asarlarda o‘z aksini topgan, hatto bino qurilishlarida ham to‘rt raqamiga e‘tibor qaratiladi. Juda qadimiy an‘analarda ham bu raqam to‘rt tomonni, to‘rt burchakni yoki butun dunyoni anglatib kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining juda ko‘plab o‘rinlarida to‘rt raqami dunyo tomonlarini anglatish uchun qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Kul tigin bitigida “To‘rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to‘rt tarafdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar” [1;24-b.], deya e‘tirof etilsa, Irq bitigida “To‘rt tomondan Ezgu va dongdorlari yig‘ilib, suyunishadi va quvonishadi, deydilar. Bilib qo‘ying: bu – yaxshi”, deb fol ta‘bir qilinadi [1;52-b.]. Ba‘zi o‘rinlarda “to‘rt tomon” birikmasi o‘rnida “to‘rt jihat” ifodasi ham qo‘llaniladiki, bu ham aynan dunyoning to‘rt tomonini anglatish uchun ishlatiladi: “To‘rt jihatdagi xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do‘st qildim, butunlay menga qaradi” [1;27-b.] yoki Ungin bitigida “Ota-bobomiz Yami xoqon to‘rt jihatdagi xalqni ushlab turgan, birlashtirgan, tebratib, tinchitib turgan” [1;34-b.], deyiladi. Eltarish xoqon “Otam Xoqon yetti odam bilan birga bosh ko‘tardi. Eltarish xoqon bosh ko‘tardi, deb shahardagilar tog‘ga chiqdi, tog‘dagilar shaharga tushdi, to‘planib, yetmish kishi bo‘ldilar... keyin yetti yuz kishiga aylandilar”, deydi. Ushbu matnda takrorlangan o‘n yetti, yetmish va yetti yuz raqamlari xalqning mifologik qarashlariga ishora qiladi.

Raqamlar nafaqat xalqning madaniy va maishiy hayotida, balki turkiy davlatlarning siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Harbiy qo‘shinlarni ma‘lum bir umumlashmasida raqamlarga tayanilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, IV–V asrlarda yuzaga kelgan jujanlarda ham harbiy, ham ma‘muriy birlik bo‘luk (polk) hisoblanishi uchun uning tarkibi ming kishidan iborat bo‘lishi lozim sanalgan. Bo‘luk xon tomonidan tayinlanadigan sarkardaga bo‘ysungan. Bo‘lukda har yuz kishi hisobiga bittadan, jami o‘nta tug‘bo‘lib, har bir tug‘ning o‘z boshlig‘i bo‘lgan [2]. Demak, jujanlarda bo‘luklar ming kishidan iborat bo‘lgan. Uyg‘ur xoqoni Moyun chur sharafiga qo‘yilgan bitiktoshda ham Moyun chur mingboshi ekanligi ta‘kidlanadi. Turk xoqonligi davrida yetti yuz kishilik lashkar boshlig‘iga “shad” unvoni berilgan. Masalan, Tunyuquq bitiktoshida: “Ichkari-yu tashqarida qolgani to‘planib, yetti yuzta bo‘ldi, ikki qismi otliq, bir qismi yayov edi. Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig‘i shad edi” [1;18-b.], deyilsa “Bilga xoqon” bitigida: “Men o‘n to‘qqiz yil shad bo‘lib turdim, o‘n to‘qqiz yil xoqon bo‘lib turdim” [1;35-b.], deyiladi. Moyun chur bitigida “shad” unvoni bilan birga yana bir unvon tilga olinadi: “...ikki o‘g‘limga Yabg‘u, Shad unvonini berdim” [1;37-b.]. Turk xoqonligida yetti yuz kishilik bunday jamoalar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklatilganligi, xalqning or-nomusi va erki uchun kurashga chog‘langanligini “Kul tigin” bitiktoshidagi quyidagi jumlar isbotlaydi: “...Hammasi yig‘ilib, yetti yuz er bo‘libdi. Yetti yuz er bo‘lib, davlatini yo‘qotgan xalqni, cho‘riga aylangan, qulga aylangan xalqni, turk hukmronligini boy bergan xalqni ota-bobolarim qonun-qoidalari bo‘yicha boshqaribdi, tashkil qilibdi” [1;26-b.].

Turkiy xalqlar adabiyotida inson hayoti tasviriga bag‘ishlangan yoshnoma, vujudnoma, umr dostoni, tarjimai hol singari nomlar bilan yuritiladigan asarlar yaratilgan. Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bunday asarlar tadqiqiga bag‘ishlangan turli izlanishlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, ozarbayjon adabiyotshunosligida inson hayotini va undagi muhim voqealarni uning yoshi bilan bog‘lab tasvir etgan asarlar vujudnoma deb yuritilib, bu janr haqidagi ilmiy-nazariy ma‘lumotlar juda ko‘plab mashhur folklorshunos olimlarning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq ilmiy asarlarida berilgan [3]. O‘zbek adabiyotshunosligida ham yoshnoma xususidagi qarashlarni biz xalq og‘zaki ijodi namunalarini tadqiq etilgan ilmiy ishlarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Sh.Rahimova “Davlatyorbek” dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferatida insonning yosh xususiyatlari va hayoti bilan bog‘liq she‘rlar o‘zbek folklorshunosligida janr sifatida tilga olinmaganligini akademik T.Mirzayev fikrlariga asoslanib, qayd etsa-da, “Davlatyorbek” tarixiy dostonida “yoshnoma” janrining mukammal namunasi mavjud” [4], deya yoshnomani janr sifatida e‘tirof etadi. Biz ham tadqiqotchining ushbu fikrni ma‘qullagan holda, yoshnomalarda T.Mirzayev ta‘kidlaganlaridek, tarjimai holga oid ma‘lumotlar keltirilishini, muallif yoki asar qahramoni hayotida yuz bergan muhim voqealar yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda bayon etilishini qayd etamiz. Yoshnomalarda qahramonning bolalik, tarbiya va tahsil yillari, yigitlik davri, sevgi, oila, keksalik yillari hamda hayotidagi muhim voqealar – el-yurt ozodligi va vatan ravnaqi yo‘lida olib borgan qahramonliklari badiiy bo‘yoqlarda tasvir etiladi. Sh.Raximovanning avtoreferatida yoshnoma janrining yozma adabiyotdagi qadimgi namunasi sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingan parcha beriladi. Bizningcha, yoshnomalarning dastlabki unsurlarini yanada qadimroqdan, to‘g‘rirog‘i, O‘rxun-Enasoy bitiklaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizning dalili sifatida Kul tigin bitiktoshiga yuzlanamiz: “Otam xoqon uchganda (o‘lganda) inim Kul ti-

gin yetti yoshda (ta'kidlar bizniki J.S.) qoldi, o'n yoshda Umayday onam xotun baxtiga inim Kul tigin er degan nom topdi. O'n olti yoshida amakim hoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qo'lga kiritdi". "Yigirma bir yoshida Chacha Sangunga urush qildik". "Kul tigin yigirma olti yoshida Qirg'iz tomonga lashkar tortdik". "Kul tigin yigirma yetti yasharligida qarluq xalq begonalashib ketgach, dushman bo'ldi". "Kul tigin shu jangda o'ttiz yashar edi". Ko'rinib turibdiki, Kul tigin tomonidan amalga oshirilgan ishlar, hayotida yuz bergan o'zgarishlar, uning olib borgan janglari, vatan ozodligi va yurt sarhadlarini kengaytirish uchun qilgan harakatlari qahramonning yoshi bilan bog'liq ravishda tasvir etilmoqda. Bunday misollarni bitiktoshlarning boshqa turlari, ya'ni Bilga xoqon bitigi, Begra yodnomasi, Oznocheniya qishlog'idan topilgan yodnoma, Oltinko'ldagi yodnomalarda ham uchratish mumkin. Xususan, Bilga xoqon bitigida yetti o'rinda, shuningdek, Ubayt yodnomasi ("Olti yoshimda otamdan ayrildim"), Achur qishlog'ida yodnoma ("O'n yetti yoshida shuhrati o'ldi"), Oznachennaya qishlog'idan topilgan yozuv ("Men o'ttiz besh yoshimda qahramon bo'ldim"), Oltinko'ldagi ikkinchi yodnoma ("O'ttiz sakkiz yoshimda vafot etdim"), Begra yodnomasi ("Yoshim oltmish yetti"), Uyuq tarlaq yodnomasi ("Sizlardan oltmish yoshimda ayrildim"), Uyuq turan yodnoma ("Oltmish uch yoshimda sizlardan ayrildim")larida ham yosh bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Demak, bitiktoshlarda ham qahramonning hayotida yuz bergan voqealar uning yoshi bilan bog'liq holda tasvir etilmoqdaki, buni xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozma adabiyotda yaratilgan yoshnomalarning dastlabki variantlari sifatida qabul qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan qadimgi yozma yodgorliklar ko'hna Turon o'lkasida yashagan ota-bobolarimiz hayoti, yashash tarzi, madaniyati va tafakkuri haqida bizga ma'lumot beradi. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matni bilan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan qarashlar, yodnomalarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari zamirida raqam bilan bog'liq o'rinlarni, raqamlarning mohiyati yoki ramzlariga urg'u berilgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Yodnomalarda qo'llanilgan raqamlar xalqimiz dunyoqarashi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviy aloqadorligi sababli ham turkiy xalqlarning qadimgi yozma yodgorliklarida raqamlar bilan bog'liq qarashlarni maxsus o'rganishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987.
- (2). L.N.Gumilyov. Qadimgi turklar. Toshkent, 2007, 15-bet.
- (3). Elmira Fikrətqizi. Vücutnamələrdə mətnlərarası əlaqə. Monografiya. Baki, 2018, "Elm və Təhsil", 256 səh.
- (4). Sh.Rahimova. "Davlatyorbek" dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020, 15-bet.

Quvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich (Termiz davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi) FANGA OID AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlarni chog'ishtirma tahlil qilishga bag'ishlangan. Aforizmlar madaniy, ilmiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlar o'ziga xos tarixiy va madaniy jihatlari bilan farqlanadi. Maqola aforizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularning ekvivalentlik darajasini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek, tahlil, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, aforizm, kontekst, til.

ПЕРЕКРЁСТНЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ АФОРИЗМОВ

Аннотация. Данная статья посвящена перекрестному анализу афоризмов, связанных с наукой, на английском и узбекском языках. Афоризмы глубоко анализируются с точки зрения культурологии, науки и лингвистики, изучаются их семантические и прагматические особенности. Научные афоризмы на английском и узбекском языках отличаются своим историческим и культурным аспектом. Цель статьи определить проблемы, возникающие при переводе афоризмов и уровень их эквивалентности.

Ключевые слова: узбекский язык, анализ, культурология, лингвистика, афоризм, контекст, язык.

CROSS-COURSE ANALYSIS OF SCIENTIFIC APHORISMS

Annotation. This article is devoted to the cross-analysis of aphorisms related to science in English and Uzbek languages. Aphorisms are deeply analyzed from the point of view of cultural, scientific and linguistics, and their semantic and pragmatic features are studied. Aphorisms related to science in English

and Uzbek differ in their own historical and cultural aspects. The article aims to determine the problems that arise in the translation of aphorisms and their level of equivalence.

Key words: Uzbek, analysis, cultural studies, linguistics, aphorism, context, language.

Kirish. Aforizmlar inson tafakkuri va tajribasini qisqa, lekin mazmunli va samarali ifodalovchi nutq shakllaridir. Fanga oid aforizmlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ilmiy bilimlarni keng targ'ib qilish va yangi avlodlarni ilmgacha qiziqtirishda muhim o'rin tutadi. Ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan fanga oid aforizmlar nafaqat lingvistik xususiyatlar, balki madaniy o'ziga xosliklarni ham aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fanga oid aforizmlar sohasida bir qancha ilmiy ishlar mavjud. Ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda aforizmlar ko'proq filosofik, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yoritishda ishlatilgan. Masalan, Schopenhauer, Einstein kabi mashhur shaxslar o'zlarining aforizmlari bilan fanga oid qarashlarni qisqacha, lekin mazmunli ifodalashgan. Shuningdek, ingliz tilidagi adabiyotlarda aforizmlar fanning tarixi va rivoji, ilmiy uslublar va metodologiyalar haqidagi muhokamalarga ham tayanadi.

O'zbek tilida esa aforizmlar asosan madaniyat, ilmiy tadqiqot, va falsafiy qarashlar kontekstida mavjud. O'zbek tilidagi aforizmlar ko'pincha adabiy va xalq orasida mashhur bo'lib, ilmiy izlanishlarni yoritishda foydalanilsa-da, ular ingliz tilidagi aforizmlar singari keng tarqalgan emas. Biroq o'zbek tilida aforizmlar tarixiy va madaniy kontekstda yanada chuqurroq ma'no kasb etadi.

Adabiyotlarni tahlil qilishda aforizmlar qisqa, lekin mazmunli bo'lib, ularni ishlab chiqish va taqdim etishning turli usullari mavjudligini ko'rsatadi. Bu usullar orasida ilmiy fikrni qisqacha va aniq ifodalashga asoslangan usullar hamda aforizmlarni ijodiy tarzda ishlab chiqish ham mavjud.

Metodologiya. Tadqiqotda ikkita til – ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan fanga oid aforizmlarni taqqoslash uchun quyidagi metodlardan foydalanish rejalashtirilgan.

Kontent tahlili. Ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlarni yig'ish va ularni ma'no, tuzilish, va maqsad nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

Taqqoslash metodi. Har ikki tilning aforizmlari orasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash, ay-niqsa, til va madaniyatga bog'liq o'zgarishlarni tahlil qilish.

Kvalitativ tahlil. Har bir til uchun aforizmlar haqida yozilgan ilmiy asarlarni o'rganish va ularning ilmiy tadqiqot jarayoniga qo'shgan hissasini baholash.

Bu metodologiya yordamida aforizmlarning ilmiy faoliyatga qanday ta'sir qilishi, ularning qanday yondoshuvlar asosida yaratilib, tarjima qilinganligi o'rganiladi. Shuningdek, tahlil qilingan aforizmlarning axborot va ilmiy fikrlarni qanday taqdim etishdagi ahamiyati ham aniqlanadi.

Tahlil va natija. Quyida ushbu aforizmlarning mazmuni va funksiyalari bo'yicha o'xshashlik va farqlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

Science is organized knowledge (ilm – bu tizimlashtirilgan bilim). Bu aforizm ilmnning asosiy mohiyatini, ya'ni bilimlarni tartib va tizim orqali o'rganish jarayonini ta'riflaydi. Dunyoviy ilmga urg'u qaratilgan.

An investment in knowledge pays the best interest – Benjamin Franklin (Bilimga qilingan sarmoya eng yaxshi foyda keltiradi). Ushbu aforizm ilm olishni kelajak uchun eng foydali boylik sifatida ko'rsatadi.

The important thing is not to stop questioning – Albert Einstein (Eng muhimi – savol berishni to'xtatmaslikdir). Bu fikr ilmiy izlanish va doimiy o'rganishning muhimligini ifodalaydi.

Ilm – insonni yuksaklikka olib chiqadigan qanotdir. Bu aforizm ilmni inson taraqqiyotining asosiy vositasi sifatida ko'rsatadi va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Bilim – eng katta boylik. Ushbu xalqona ibora ilm va bilimning kundalik hayotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Ilmsiz odam – ko'zsiz qush. Bu o'zbek aforizmi ilmsiz insonni hayotiy yo'nalishdan mahrum deb tasvirlaydi.

Ingliz tilidagi aforizmlar, odatda, rasmiyroq va ilmiy uslubda ifodalangan. O'zbek tilidagi aforizmlar esa, ko'pincha, xalqona, she'riy ohangda va ramziy obrazlar orqali beriladi. Ingliz aforizmlari qisqa va lo'nda gaplardan tashkil topadi, tushunish oson. O'zbek aforizmlari, ko'pincha, qiyoslash va o'xshatishlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida ilmiy terminlar, masalan, *knowledge, science, question* kabi so'zlar ko'p ishlatiladi.

O'zbek tilida esa ilm, bilim, qanot, ko'z kabi xalqona va ramziy ifodalar kengroq tarqalgan. Ingliz madaniyatida ilm zamonaviy dunyoqarash va taraqqiyotning asosiy omili sifatida qaraladi. O'zbek madaniyatida esa ilmni qadrlash diniy va an'anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. Ingliz aforizmlarida mantiq

va natijaga urg'u qaratilgan bo'lsa, o'zbek aforizmlarida obrazlilik va hissiyot ustuvor. Ingliz tilidagi aforizmlar ilmiy izlanishga qaratilgan, tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbek tilidagi aforizmlar esa yoshlarga nasihat shaklida, ilmning hayotiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlar til va madaniyatning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ingliz tilidagi aforizmlar ko'proq dunyoviy va amaliy, o'zbek tilidagilari esa xalqona va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan. Ushbu aforizmlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda nafaqat lingvistik balki ijtimoiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Fanga oid aforizmlarning xususiyatlari. Ingliz tilidagi ilmiy aforizmlar, odatda, ilm-fan va tadqiqot natijalari bilan bog'liq bo'lib, qisqa va aniq ifoda uslubiga ega. Bu aforizmlar ilmiy mantiq, tajriba va kuza-tuv asosida shakllangan. Ingliz madaniyatida aforizmlar orqali insonni rag'batlantirish va ilmiy fikrlashni targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Misollar:

- *The important thing is not to stop questioning. Curiosity has its own reason for existence* (Albert Einstein).

- *Science is the poetry of reality* (Richard Dawkins).

- *Research is what I'm doing when I don't know what I'm doing* (Wernher von Braun).

- *Equipped with his five senses, man explores the universe around him and calls the adventure Science* (Edwin Powell Hubble).

- *The good thing about science is that it's true whether or not you believe in it* (Neil deGrasse Tyson).

O'zbek tilidagi aforizmlar. O'zbek tilidagi fanga oid aforizmlar, ko'pincha, hayotiy tajribalarga asoslangan bo'lib, xalqning milliy qadriyatlari va donishmandlik an'analarini aks ettiradi. Bu aforizmlar o'ziga xos badiiy uslub va axloqiy mazmunga ega bo'lib, ilm-fanni inson hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Misollar:

- "Bilim ming qatla boylikdan ustun".

- "Ilmni egallagan odam, dunyoni egallaydi".

- "Fan – jaholatni yenguvchi qurol."

- "O'rgangan odam har yerda hurmat topadi".

- "Bilim orttirishdan ortiq boylik yo'q".

Ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlar turli xil madaniy va tarixiy muhitning mahsuli bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bir xil: insonlarni ilm-fanga oshno qilish, bilim orttirishga undash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Aforizmlar turli tillarda turli ko'rinishda namoyon bo'lsa-da, ular chuqur ma'no va o'ziga xos mazmun bilan boyitilgan.

Fanga oid aforizmlarni ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma o'rganish, ularning lingvistik va madaniy o'ziga xosliklarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ingliz tilidagi aforizmlar, asosan, ilm-fanning mantiqiy va analitik jihatlari e'tibor qaratib, qisqa va to'g'ri ifoda bilan o'z fikrini yetkazadi. Boshqa tomondan, o'zbek tilidagi aforizmlar xalqning hayotiy tajribalari va milliy qadriyatlarini yoritadi. Bu ikki turdagi aforizmlar o'rtasidagi farqlar ularning turli tarixiy va madaniy kontekstlarda shakllanganini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tarjima jarayonida aforizmlarning mantiqiy va badiiy mazmunini saqlash, madaniy kontekstni to'g'ri tushunish katta ahamiyatga ega. Ingliz aforizmlarining qisqa va aniq ifodalari o'zbek tiliga, ko'pincha, metaforik va ko'chma ma'nolarda tarjima qilinadi, bu esa mazmunni to'g'ri yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Tarjima qiyinchiliklariga qaramasdan, bunday aforizmlar madaniyatlararo mu-loqot va til o'rganish jarayonida qimmatli vosita hisoblanadi.

Xulosa. Fanga oid aforizmlar ikki tilda ham ilm-fan universalligini aks ettiradi. Ingliz aforizmlarida ilmning o'ziga xosligi, innovatsiya va fikrlash erkinligi aks etsa, o'zbek aforizmlarida ilmiy bilimlar milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa nafaqat lingvistik o'zgaruvchanlikni, balki madaniy yondashuvdagi xilma-xillikni ham ochib beradi.

Natijada bunday tahlillar ilm-fanning til va madaniyatga ta'sirini o'rganish imkonini beradi, shuningdek, ilmiy bilimlarni turli tillarda o'zlashtirish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Aforizmlarning cho-g'ishtirma tahlili orqali yangi tarjima yondashuvlari va o'quv metodlarini shakllantirish mumkin, bu esa nafaqat tarjimonlar, balki tilshunoslilar va o'rganuvchilar uchun ham foydalidir. Shu sababli aforizmlar til va madaniyatning chuqur tadqiqotiga yo'l ochuvchi muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

(2). Provides linguistic insights, including the evolution of language and cultural phrases.

- (3). Explores Uzbek aphorisms and their linguistic characteristics.
- (4). Nazarova, G T. (2020). The cultural and linguistic impact of aphorisms in English and Uzbek languages. *Journal of World Languages and Cultures*, 8(3), p. 45–56.
- (5). Discusses comparative aspects of English and Uzbek aphorisms.
- (6). Smith, J.A. (2018). Science and language: Analyzing scientific aphorisms in English literature. *Language & Science Quarterly*, 12(4), p. 102–120.
- (7). O‘zbek milliy ensiklopediyasi (n.d.). Ilm va axloqiy qadriyatlar. Retrieved November 18, 2024, from <https://ensiklopediya.uz/ilm-axloqiy-qadriyatlar>.

Haydarova Dilafruz Inoyatullaevna (Navoiy davlat Pedagogika instituti o‘zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti; e.mail: haydarovadilafruz9@gmail.com)
O‘ZBEK TILIDAGI DINIY MATNLARDA KECHIRIM NUTQIY AKTINING IFODALANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada so‘nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan “diniy matn” tushunchasi va uning mohiyati, diniy matnlar tadqiqi, kechirim nutqiy akti va uning diniy matnlar doirasida o‘rganilishi masalasiga oydinlik kiritilgan. Maqolada o‘zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayricha o‘rganib bo‘lmasligi asoslangan. Diniy manbalar tahlilida mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo‘lgan til birliklari aniqlangan, misollar bilan dalillangan. Shuningdek, duo deb ataluvchi diniy matnlar, ularning turlari, mohiyati, pragmatik tarkibi va tahlili keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** diniy matn, dunyoviy matn, kechirim nutqiy akti, gunoh, kechirim so‘rovchi adresant–inson, kechirimni qabul qiluvchi adresat – Alloh, gunohni tan olish, adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq, kechirimning noverbal shakllari, bilvosita aloqa.*

Хайдарова Дилафруз Иноятуллаевна (Навоийский государственный педагогический институт, докторант специальности узбекский язык)

ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВОГО АКТА ИЗВИНЕНИЯ В РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТАХ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

***Аннотация.** В данной статье разъясняется понятие “религиозный текст”, получившее широкое распространение в лингвистике в последние годы, и его суть, изучение религиозных текстов, речевой акт извинения и его изучение в рамках религиозных текстов. Статья основана на том факте, что речевой акт извинения в речи носителей узбекского национального языка никаким образом не изучается отдельно от религиозных текстов. При анализе религиозных источников в содержательном наполнении выявлены языковые единицы, содержащие семы извинения и подтверждаются примерами. Также представлены религиозные тексты, так называемые молитвы, их виды, сущность, прагматический состав и анализ.*

***Ключевые слова:** религиозный текст, светский текст, речевой акт прощения, грех, адресантом, просящим прощения является человек, адресатом, принимающим прощение является Бог, признающий грех; речь, выражающая душевное состояние адресата; невербальные формы извинения, непрямое общение.*

Khaidarova Dilafruz Inoyatullaevna (Navoi State Pedagogical Institute, doctoral student, specialty Uzbek language)

EXPRESSION OF THE SPEECH ACT OF FORGIVENESS IN RELIGIOUS TEXTS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

***Annotation.** This article explains the concept of “religious text”, which has become widespread in linguistics in recent years, and its essence, the study of religious texts, the speech act of apology and its study within the framework of religious texts. The article is based on the fact that the speech act of apology in the speech of speakers of the Uzbek national language is in no way studied separately from religious texts. When analyzing religious sources, the content revealed linguistic units containing semes of apology and is supported by examples. Also religious texts, the so-called “prayers”, their types, essence, pragmatic composition and analysis are presented.*

***Key words.** religious text, secular text, speech act of forgiveness, sin, the addressee asking for forgiveness is a person, the addressee receiving forgiveness is God, recognizing the sin; speech expressing the addressee’s state of mind, non-verbal forms of apology, indirect communication.*

***Kirish.** So‘nggi yillarda tilshunoslikda keng tarqalgan “diniy matn” tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bunday har xillik yangi va ayni damda tarixiy o‘rganish obyektining murakkabligi va ko‘p qirraliligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda “diniy matn” deganda diniy mavzudagi matn, din sohasidagi nutqiy aktlar, mavzuiy jihatdan inson e’tiqodiga bog‘liq matnlar to‘plami va h.k. tushuniladi [2]*

Diniy matnlarda insonning Xudo bilan aloqasi, diniy bilimlarni egallash, uzatish kabilar ifodalanadi. Tadqiqotimiz ob'ekti kechirim nutqiy akti ekanligini inobatga olib aytish mumkinki, o'zbek milliy tili egalarining nutqidagi kechirim nutqiy aktini diniy matnlardan ayri-cha o'rganib bo'lmaydi. "Muayyan bir millat tilini antropotsentrik jihatdan mukammal o'rganish uchun "til va din"ning o'zaro aloqasi va munosabatini o'rganuvchi teolingvistika (grek. theos – Xudo va lot. lingua – til) yo'nalishi muhim o'rin tutadi" [1].

Adabiyotlar tahlili. Dunyoviy matnlarda kechirim nutqiy aktlarining asosini "ayb, xato, noto'g'ri ish" tushunchalari tashkil etsa, diniy matnlarda "gunoh" tushunchasiga asoslanadi. Shunga ko'ra, diniy va dunyoviy matnlardagi kechirim nutqiy aktlari mundariyasi "samoviy", "ichki" va "tashqi", "dunyoviy" semalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, E.V.Artamonova kechirimning diniy va dunyoviy shakllarini turli janrlar sifatida ajratib ko'rsatadi: "Diniy kechirim so'rash Xudoning amrlarini buzish, inson tabiatining gunohkorligi bilan bog'liq yuksak axloqiy va manaviy muammolarni ko'rib chiqadi. Dunyoviy kechirim so'rash insonning jamiyat bilan oqilona, o'zaro manfaatli munosabatlarini aks ettiradi. Bunda muloqot hamkorlarining e'tibori o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi [3].

Diniy kechirim nutqiy aktida kechirim omili gunohdir. Gunoh (fors – jinoyat, ayb; asli shu ma'nodagi arab. "junoh" so'zidan olingan) diniy axloqiy tushuncha bo'lib, diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakatni bildiradi. Gunoh tushunchasi qadimda turli ta'qiqlarni buzuvchi, axloqsiz odamning harakati ma'nosida qo'llangan.¹

Diniy matnda qo'llanilgan nutqiy aktning umumiy kommunikativ maqsadi Xudoning hukmidan qo'rqish va kechirim so'rashdir. Mazkur nutqiy akt murakkab illokutsiyaga ega. So'zlovchi qilgan gunohi uchun tavba qilganidan keyin ruhiy holati o'zgaradi: ma'naviy kamolotga bir qadam qo'ygandek, vijdoni engillashgandek his etadi. E'tiborlisi shundaki, so'zlovchi adresat bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishmaydi. Adresat tasavvuri bo'lib, u bilan qilingan nutqiy muloqot ichki va tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi. So'zlovchi o'z gunohini e'tirof etar ekan, ya'ni, tan olar ekan uning kechirilishiga ham ishonadi va Xudoning rahm-shafqatiga umid qiladi, ya'ni so'ralgan kechirim uchun javob talab qilinmaydi.

Shu nuqtayi nazardan ayrim tadqiqotchilar kechirimga asoslangan diniy murojaatni uzr so'rashning maxsus turi deb baholashadi (E.V.Artamonova; A.Y.Chernisheva). Bunday kechirimning pragmatik tarkibini kechirim so'rovchi adresant– inson; kechirimni qabul qiluvchi adresat – Alloh; gunohni tan olish; adresant ruhiy holatini ifodalovchi nutq (samimiy tuyg'ular, pushaymonlik), kechirim so'rashning noverbal shakllari, tiz cho'kish, sajda qilish, aybini tan olishning o'z vaqtidaligi, adresat bilan bevosita aloqa yo'qligini e'tirof etish (xayolan kechirim so'rash), boshqa inson uchun kechirim so'rash, kechirim so'rashning sababi: Xudoning hukmidan qo'rqish; vaziyat ishtirokchilarining hissiy holati o'zgarishi (adresant vijdon azobidan yengillashadi, adresat adresantga nisbatan "nimadir yaxshilik" taqdim etishiga ishonch).

Material va metodlar. Ma'lumki, O'zbekistonda islom dini eng ko'p tarqalgan va millatimiz egalari aksariyati e'tiqod qiladigan din sanaladi. Shu nuqtayi nazardan biz mazkur o'rinda musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi Qur'oni karim ("Qur'oni karim – o'zbekcha ma'nolari tarjimai" [9], atoqli islom olimi Imom Ismoil al-Buxoriyning 4 jildli „Al-Jome' As-Sahih" kitobi tarjima matnlari va ayrim badiiy asarlardan olingan diniy kechirim nutqiy aktlarga murojaat qilishni maqsad qildik. Tadqiqot obyekti kechirim nutqiy akti bo'lganligini inobatga olib mazkur manbalarda kechirim nutqiy aktini ifodalovchi til birliklari aniqlandi va statistik tahlil qilindi.

Natijalar. Ma'lumki, Qur'on 114 sura, 6666 oyatdan iborat bo'lib, mazkur manba imkon darajasida tahlil qilinganda mazmuniy mundarijasida kechirim semasi mavjud bo'lgan quyidagi til birliklari qo'llanilganligi kuzatildi:

Kechirmoq fe'li 25 marta ("Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirilishini kechirmas. Undan boshqani, kimdan xohlasa, kechirur (Niso surasi, 116-oyat).

Afv qilmoq//etmoq fe'li 32 marta ("Albatta, Alloh afv qiluvchidir, mag'firatlidir" (Haj surasi, 60-oyat).

Istig'for aytmoq//keltirmoq (arabcha – gunohni kechirishini, afv etishni so'rash) – Xudodan gunohni kechirishini so'rash, qilgan gunohlariga tavba izhor etib, "Astag'firulloh!!"deyish)² fe'li 21 marta. ("Bas, Unga istig'for ayting, so'ngra Unga tavba qiling" (Hud surasi, 61-oyat).

Tavba, tavba qilmoq (arabcha–aybiga iqror bo'lish, gunohlari uchun kechirim so'rab yolvorish) fe'li 94 marta ("Gunoh ishlarni qilganlar undan keyin tavba qilsalar va iymon keltirsalar, albatta, Robbing undan so'ng mag'firatlidir, rahmlidir" (A'rof surasi, 153-oyat). Shuningdek, Qur'oni karimda "Tavba" deb nom-

¹Gunoh – Vikipediya (wikipedia.org).

² Афу ва мағфират (muslim.uz).

langan 129 oyatdan iborat sura ham mavjud bo'lib, shu birgina suraning o'zida tavba so'zi 15 marta qo'llanilgan [4].

Mag'firat, mag'firatli, mag'firat qilmoq (arabcha –“عَفْرَ” fe'li ma'nosida bo'lib, “kechirish”, “yashirish” va “berkitish” ma'nolarini bildiradi) so'zlari 196 marta (“Aniqki, bandalarimdan bir guruhi: «Robbimiz, biz iymon keltirdik. Bizni mag'firat qilgin. Bizga rahm qilgin. Sen rahm qiluvchilarning yaxshisidan», degan edilar” (Nur surasi, 109-oyat).

Tazarru, tazarru qilmoq (uzr bilan yalinish, yolvorish) - 7 marta (“*Qaysi bir shahar-qishloqqa rasul yuborsak, albatta, shoyad tazarru qilsalar deb, uning ahlini zararlar va musibatlar ila tutganmiz” (A'rof surasi, 94-oyat).*

Ma'lumki, Imom Ismoil al-Buxoriyning „Al-Jome' As-Sahih“ kitobi Islomda ishonchliligi jihatidan Qurondan keyingi ikkinchi manba bo'lib hisoblanadi. Mazkur kitobning 4 jildi statistik tahlil qilinganda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldik: *Kechirmoq* fe'li 129 marta (“Sizlardan qaysiningiz qavmga zararu boshqalarga manfaat yetkazuvchi amaldor bo'lib qolsangiz, ansorlarning yaxshi ishlarini qabul qilib, yomon ishlarini kechiringizlar!» deb marhamat qildilar (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Afv qilmoq /etmoq fe'li 176 marta (“Guvohlik beramanki, Olloh taolo ul kishini afv etib, gunohlarini kechirdi” (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (2-jild).

Mag'firat, mag'firatli, mag'firat qilmoq fe'li 211 marta. («Yo parvardigorim, gunohlarimni, jaholatimni, me'yordan ortiqcha qilgan barcha ishlarimni va o'zing mendan yaxshiroq xabardor bo'lgan qilmishlarimni mag'firat qilg'aysan!» (Imom Ismoil al-Buxoriy. “Al-jome as-sahih” (4-jild).

Xulosa. Ko'rinadiki, diniy matnlar kechirim nutqiy aktining ifodalanishida muhim va maxsus manba sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar ham buning yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Dementiev. V.V. Theories of speech genres. Moscow, “Znak”, 2010, p. 594.
- (2). Gadomsky A.K. On the genres of the religious language in Russian and Polish theolinguistics. Style, 2009, № 8, p. 107–118.
- (3). Itskovich T.V. Genre system of religious style. Moscow, 2021.
- (4). Karasik V.I. Language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change, 2002, 477 p.
- (5). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, 241-bet.
- (6). O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild, 631-bet.
- (7). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2022, 1-jild, 162-bet.
- (7). O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, Toshkent, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2000, 408-bet.

Qurbanov Muxtarbay Dauletbaevich (Nukus DPI “Qoraqalpoq tili” kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi; muxtar_kurbanov@mail.ru)

QORAQALPOG'ISTON ETNOOYKONIMLARI TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoq'iston etnooykonimlari, jumladan, o'zbek millati, uning tarkibiga kiruvchi urug' nomlari bilan bog'liq oykonimlar, ularni o'rganishning ahamiyati, o'zbeklarning mazkur hududga ko'chib kelish tarixi, joylashish areallari tahlil qilingan. Mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot xulosalari qoraqalpoq toponimikasiga foydali manba bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: etnonim, urug', qabila, qavm, xalq nomlari, etnotoponim, etnonim bilan atalgan joy nomlari, etnooykonim, etnonim asosli aholi yashash maskanlari nomlari.

Курбанов Мухтарбай Даулетбаевич (доцент кафедры Каракалпакского языка НГПИ, кандидат филологических наук; muxtar_kurbanov@mail.ru)

АНАЛИЗ ЭТНООЙКОНИМОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация. В статье анализируются этнонимы Каракалпакстана, в том числе узбекский народ, названия, связанные с названиями входящих в него родов, важность их изучения, история миграции узбеков в этот регион, ареалы их расселения. В процессе освещения темы использовались синхронный анализ, сравнительно-исторический и описательный методы. Выводы исследования могут стать полезным источником по топонимии Каракалпакстана.

Ключевые слова: этноним, род, племя, народ, народные имена, этнотопоним, названия мест, названных этнонимом, этноним, названия населенных пунктов на основе этнонима.

Kurbanov Mukhtarbay Dauletbaevich (Associate Professor of the Karakalpak Languages Department of NSPI, Candidate of Philological Sciences; muxtar_kurbanov@mail.ru)

ANALIS OF ETHNOICONIMS OF KARAKALPAKSTAN

Annotation. *The article analyzes the ethnonyms of Karakalpakstan, including the Uzbek people, names associated with the names of its clans, the importance of their study, the history of migration of Uzbeks to this region, and the areas of their settlement. Synchronic analysis, comparative-historical and descriptive methods were used in the process of covering the topic. The conclusions of the study can become a useful source on the toponymy of Karakalpakstan.*

Keywords: *ethnonym, clan, tribe, people, folk names, ethnotoponym, names of places named by an ethnonym, ethnonym, names of settlements based on an ethnonym.*

Kirish. Toponimikada urug‘, qabila, qavm, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan geografik nomlar *etnotoponimlar*, aholi punktlari, qishloq, ovul nomlari *etnooykonimlar* deb yuritiladi. Etnonimlarning joy nomlariga o‘tishi toponimlarning gidronim, oronim, nekronim turlariga nisbatan oykonimlarda ko‘p uchraydi. Chunki, aholi yashash joylarining nomlanishida ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar asosiy motiv hisoblanadi.

Etnooykonimlar ma‘lum joyda turli urug‘, millat vakillari qo‘shni, aralash yashagan hududlarda paydo bo‘ladi. Etnonim biror joyni boshqasidan farq qiluvchi belgi vazifasini bajarganda oykonimga aylanadi. Bunday nomlar o‘sha qabila, urug‘ vakillarining o‘zlari tomondan emas, balki qo‘shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan beriladi. Etnonim asosli oykonimlar urug‘, qavm, xalq va millatlar, ularning tarixi, migratsiyasi haqida boy ma‘lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, etnooykonimlar hozirda assimilyatsiyaga uchragan yoki yo‘q bo‘lib ketgan xalqlarning o‘tmishda yashagan joylarini aniqlashda ishonchli manba bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnooykonimlarning tarqallish arealini tahlil qilish etnos vakillarining geografiyasi haqida ma‘lumot olish imkonini beradi. Akademiklar V.V.Bartold, V.A.Gordlevskiy-lar o‘zlari o‘rganayotgan xalqlarning dastlabki yashash manzillarini aniqlashda etnotoponimlarni ishonchli manba sifatida foydalanganlar [1;3-b.]. A.P.Dulzon Sibirdagi qadimiy xalqlarning etnik tarkibini etnotoponimlar yordamida aniqlagan, N.A.Baskakov Moldaviya etnotoponimlarini tadqiq qilishi natijasida qipchoqlarning o‘sha hududlarda istiqomat qilgan joylarini ko‘rsatib berdi [5;189–295-b., 2;63–75-b.]. O‘zbek tilshunos olimlari S.S.Gubayev Farg‘ona vodiysi, A.Otajanova Xorazm hududi, A.Turabov Samarqand, A.Ergashev Andijon viloyati etnotoponimlari bo‘yicha olib borgan maxsus tadqiqotlarida urug‘, xalq va millatlar tarixi, etnik tarkibi hamda ularning yashash joylarini aniqlashda etnooykonimlar juda katta ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar [4;10, 11, 14-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, qiyosiy-tarixiy va tavsif metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Etnonim asosli oykonimlar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududlarida ko‘p uchraydi. Biroq ularning tarqalish geografiyasini bir xil deb bo‘lmaydi. Toponimshunos olim S.Qorayevning ma‘lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘iston toponimlarining 1/5 qismi etnooykonimlardir [8; 190-b.]. Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibida qoraqalpoq urug‘ nomlaridan tashqari, o‘zbek, qozoq va turkmanlarning urug‘-aymoq nomlari ham toponimlar sifatida respublika xaritasidan kattagina o‘rin olgan. Bu esa shu xalqlar vakillari mamlakat hududida qadimdan yonma-yon yashaganliklarini ko‘rsatadi. Ma‘lum bir hudud etnotoponimlarini tarixiy-lingvistik jihatdan tahlil qilishda etnos vakillari tarixi, ularning etnik tarkibi, migratsiyasini chuqur o‘rganish kerak.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining siyosiy-iqtisodiy, madaniy hamda etnik aloqalarining tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Akademik S.Kamolovning to‘g‘ri ta’kidlaganidek, qadimdan bu ikki xalqning ota-bobolari Janubiy Orol bo‘yi kengliklarida birga yashaganlar, qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini shakllantirishda qatnashganlar. *Qo‘yqirilgan qal‘a* (er.av. IV asr), *To‘proqqal‘a* (I–VI asr), *Qiyot qal‘a* (VI–IX asr), *Mizdaxxon* (qadimiy va o‘rta asr) kabi qal‘a hamda savdo markazlarini xorazmlilar – bugungi o‘zbek va qoraqalpoqlarning ajdodlari birgalikda qurgan [7;106-b.].

Orol dengizining janubiy bo‘ylari qadimgi Xorazm yerlari bilan tutashadi. Bu joylar qadimda Xiva xonligi tarkibida bo‘lgan. Xiva xonligi hududlarida turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, oz sonli tojik, yahudiy, eronlilar yashagan. Xonlikning asosiy o‘troq xalqi – bu joylarni qadimdan makon qilgan o‘zbeklardir [15]. Tarixiy manbalarda Xorazm o‘zbeklari etnogenezi, geografik joylashuviga qarab shimoliy o‘zbeklar va janubiy o‘zbeklar deb ikkiga bo‘lib qaralgan. Xorazm viloyati Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hamda Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlarida istiqomat qiladigan o‘zbeklar Xorazmning asosiy xalqi, ular o‘zlarini qadimgi xorazmlilar avlodi deb hisoblaydilar. Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumani atrofi-

da yashayotgan shimoliy o'zbeklar etnogenezi Orol bo'yi xalqi hamda bu yerda shakllangan orolli o'zbek qavmlari bilan aloqador [13;23-b.].

XVI asrning oxirida Oltin O'rda qulagandan keyin o'zbeklarning ko'pchilik qismi shimoldan Orol bo'ylariga ko'chib kelgan hamda Xorazmning o'troq xalqi bilan tezda aralashib ketgan. Orol bo'yi o'zbeklari XVI asrning oxirida (oz qismi XVIII asrning boshida) Sirdaryoning quyi bo'ylaridan bu yerlarga ko'chib kelgan bo'lsa ham, qangli hamda qo'ng'irot urug'lari xorazmlilar bilan avvaldan tarixiy aloqada bo'lgan. Chunki bu ikki urug' qadimda O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hududlarida yasagan [13;25-b.]. Aslida, ikki hududdagi o'zbeklar o'zbek millatiga xos. Lekin o'zbeklarning janubiy qismi xorazmlilar, shimol qismi qoraqalpoqlar, qozoqlar ham turkmanlar bilan birga aralashib yashaydi. Hatto orolli o'zbeklar etnik tarkibi jihatdan Orol bo'yidagi qoraqalpoq va qozoqlarga ancha yaqin. XVII asrning boshida Orol dengizi bo'yida shakllangan Orol mamlakatida uch yuz mingga yaqin o'zbeklar (*qo'ng'irot, qipchoq, qang'li, mang'itlar*) yashagan. Ularning etnik bo'linishi qadim davrlardan buyon qoraqalpoqlarning urug' bo'linishlariga juda o'xshash bo'lgan. Bu holat ikki xalqning bir-biriga yaqin, etnogenezida tarixiy bog'liqliq borligidan darak beradi [12;33-b.].

M.U.Shalekenov tarixiy manbalarga tayanib, Amudaryoning quyi deltasida o'zbek urug'larining joylashuv geografiyasini quyidagicha ko'rsatib beradi: mang'itlar Amudaryoning ong qirg'og'ida, qo'ng'irotlar chap qirg'oq sohillarda yasaganlar. Mang'itlarning ma'muriy markazi Shaxtemir qal'asi hozirgi Nukus shahridan shimolda joylashgan edi. Qo'ng'irotlar hozirgacha o'z nomini saqlab qolgan Qo'ng'irot shahri atrofni makon etgan. Qipchoqlarning yashash joylari Amudaryo deltasining ustida joylashgan hozirgi Qipchoq posyolkasi atroflariga to'g'ri keladi. Xo'jayli o'zbeklarining markazi Amudaryoning chap tomoni, ya'ni hozirgi tuman markazidagi Xo'jayli shahri bo'lgan [13;25-b.]. K.L.Zadixinaning ko'rsatishicha, Amudaryoning quyi oqimi bo'ylaridagi o'zbeklar urug'-aymoq bo'lib yashashga odatlangan, shu bois bu hududlarda o'zbek urug'lari nomlari bilan atalgan *Qo'ng'irot, Qipchoq, Mang'it, Xitoy, Nayman* oykonimlari paydo bo'lgan [6;329-b.]. Olimning yuqoridagi ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, o'zbeklar hududiy joylashishi bo'yicha Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l, Qo'ng'irot va Xo'jayli tumanlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham bu hududlarda o'zbek etnonimlari bilan aloqador kelib chiqqan geografik nomlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Nukus, Taxiotosh va Xo'jayli tumanlaridagi *O'zbek avuli* ushbu hududda yashab kelayotgan o'zbeklar bilan bog'liq paydo bo'lgan. Shuningdek, Amudaryo tumanidagi *Do'rman* ovuli, *Qangli* ovuli, *Qoraqipchoq* ovuli, *Qo'ng'irot* ovuli, *Qipchoq* elati, *Mang'it* shahri, Xo'jayli tumanidagi *Qurbanaq* ovuli, Amudaryo hamda Qo'ng'irot tumanlaridagi *Xitoy* ovullari, Qo'ng'irot tumanidagi *O'giz* ovuli, Qo'ng'irot, Sho'manoy va Nukus tumanlaridagi *Sag'ir* ovuli, Qo'ng'irot, Sho'manoy tumanlaridagi *Sayat* ovuli v.b. oykonimlar o'zbek urug'lari nomlari bilan bog'liq kelib chiqqan. *Tama* urug'i qozoq, o'zbek hamda qirg'iz xalqlarining etnik tarkibida uchraydi. *Tama* urug'i Amudaryo tumanidagi *Tama* ovuli oykonimida saqlangan. *Uyshin, Tuyaqli* ovullari ham o'zbeklarning *uyshin* va *tuyaqli* urug'lari nomlari bilan bog'liq nom olgan. Ushbu hududdagi *Qo'ng'irot* ovuli atamasi XIII asrning o'rtalarida bu joylarga ko'chib kelgan o'zbeklarning qo'ng'irot urug'i bilan aloqador paydo bo'lgan [9; 129-b.]. Keltirilgan misollar o'zbek urug'larining tarqalish geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Amudaryo tumanining markazi *Mang'it* 1973-yildan boshlab shahar maqomini olgan. Qadimda (1789-yilda) bu joyda *Mang'it* deb atalgan qal'a bo'lib, u o'zbeklarning *mang'it* urug' nomi bilan bog'liq paydo bo'lgan. *Mang'it* toponimi Moldaviya va Bashqurtston hududlarida ham uchraydi.

Taxiotosh tumanidagi *Nayman* ovuli aholosining asosiy qismi o'zbeklarning *nayman* urug'i vakillaridir. Beruniy, Qonliko'l, Qo'ng'irot hamda Xo'jayli tumanlaridagi *Nayman, Naymanko'l* ovullari nomlari ham ushbu urug' bilan aloqador. Tarixdan ma'lumki, naymanlar etnik guruh sifatida qozoq, qoraqalpoq, o'zbek, turkman, qirg'iz, no'g'ay xalqlarining etnogeneziga kirgan. Xorazm, Buxoro, Samarqand, Naman-gan, Toshkent viloyatlarida *Nayman, Qozog'istonda Nayman mola, Naymansuek, Turkmanistonda Naymanoba, Naymangol* toponimlari naymanlarning tarqalish arealini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Davrlar o'tishi, turli xil ijtimoiy-siyosiy, tarixiy omillar ta'sirida oz sonli qavmlar, etnik guruhlar ko'p sonli xalqlar tarkibiga qo'shib assimilyatsiyaga uchrashi, buning natijasida ularning etnik belgilari unutilishi, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ularning tarixi haqida (yozma yoki og'zaki) ma'lumotlar saqlanib qolmagan taqdirda etnik materiallar, ayniqsa, etnotoponimlar qimmatli manba vazifasini bajaradi. Bu xil oykonimlar xalqlarning shakllanish tarixini, etnogenezi masalasini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpog'iston toponimlari tizimida ham etnooykonimlar katta bir guruhni tashkil etadi. Kelgusida ular tarixiy, etnografik, lisonoy jihatdan tadqiq qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 1. М., изд-во Восточной литературы, 1963, 1020 с.
- (2). Баскаков Н.А. Родоплеменные названия кыпчаков в топонимии Южной Молдавии. Топонимика Востока. Новые исследования. М., "Наука", 1964, 63–75 с.
- (3). Гордлевский В.А. Избранные сочинения. Том I, М., изд-во "Восточной литературы", 1960, 551 с.
- (4). Губаева С.С. Этнонимы и топонимии Ферганской долины. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук, М., 1973, 21 с.
- (5). Дульзон А.П. Этнический состав древнего населения Западной Сибири по данным топонимии. Материалы XXV Международного конгресса востоковедов, М., "Наука", 1960, 189–295 с.
- (6). Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т. 1, М., 1952, 319–426 с.
- (7). Камалов С. Исторические корни дружбы узбекского и каракалпакского народов. "ӨзР ИА ҚБ хабаршысы", Нөкис, 1993, № 4. 106–109-бетлар.
- (8). Қорав С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, 240-бет.
- (9). Нуржонов К., Хўжаниёзов Ф. Амударё. Тошкент, Тиббиёт, 2004, 152-бет.
- (10). Отажанова А. Хоразм этнопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 1997, 139-бет.
- (11). Турабов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноонимларнинг таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 1999, 154-бет.
- (12). Хожаниязов Г., Джумашев А. Этнический состав Аральско-Кунградского владения в XVII–XIX вв. Забытая страница истории. Оазисы Шелкового пути. Сб. науч. ст., М., Исламская книга, 2018, 131–141 с.
- (13). Шалекенов М.У. Взаимоотношения народов Приаралья в XVIII–XIX вв. Алматы, "Ғылым", 1995, 192 с.
- (14). Эргашев А.А. Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс., Тошкент, 2012, 123-бет.
- (15). Эшов Б. Хива хонлиги (шайбонийлар, эронийлар, козоклар ва кўнғирот сулоласи). // <http://khorezmiy.uz/uz/pages/view/576>

Atabayeva Nilufar Atamuratovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Fakultetlararo chet tillar" kefedrasi o'qituvchisi; nilufaratabayeva1983@gmail.com)
TEODER DRAYZERNING "JENNI GERXARDT" ROMANIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TARIJIMASIGA DOIR

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada taniqli Amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning "Jenni Gerxardt" romani misolida frazeologizmlar tarjimasi tahlil etildi. Ya'ni, roman matnida uchraydigan frazeologizm-larning o'zbekcha shakli asliyat bilan solishtirilib, teng ekvivalentlik masalasi o'rganildi.*

***Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, ekvivalentlik, shaklan tenglik, muqobil variant, grammatik qurilish, ma'no va uslubiy vazifa, tarjimon mahorati.*

РОМАН ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА "ДЖЕННИ ГЕРХАРДТ": О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИИ

***Аннотация.** В данной статье проанализирован перевод фразеологизмов на примере романа «Дженни Герхардт» известного американского писателя Теодора Драйзера. То есть узбекская форма фразеологии, встречающаяся в тексте романа, сравнивалась с оригиналом и изучался вопрос равнозначности.*

***Ключевые слова:** фразеологизмы, эквивалентность, формальное равенство, альтернативный вариант, грамматическая конструкция, значение и структура, навыки переводчика.*

THEODORE DREISER'S NOVEL "JENNIE GERHARDT": ON THE TRANSLATION OF PHRASEOLOGY

***Annotation.** This article analyzed the translation of phraseological units on the example of the novel "Jenny Gerhardt" by the famous American writer Theodore Dreiser. That is, the Uzbek form of phraseology found in the text of the novel was compared with the original, and the issue of equivalence was studied.*

***Key words:** Phraseological units, equivalence, formal equality, alternative option, grammatical construction, meaning and structure, translator's skills.*

Kirish. Amerika adabiyotining yirik vakillaridan biri Teodor German Albert Drayzerdir (1871–1945). U yozuvchi va jamoat arbobi bo'lgan, o'zining qirq besh yillik ijodiy faoliyati davomida "Baxtiqaro Kerri" ("Sister Carrie", 1900), "Jenni Gerxardt" ("Jennie Gerhardt", 1911), "Sarmoyador" ("Financier", 1912), "Amerika fojiasi" ("American tragedy", 1925) va shu kabi ko'plab yirik romanlar va hikoyalar yaratgan. Drayzer asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima etilgan. Shu jumladan, adibning bir qator roman

va hikoyalari o'zbek tiliga bilvosita rus tili orqali o'zbekchalashtirilgan. Binobarin, Drayzerning o'zbek tarjimonlari Erkin Nosirov ("Baxtiqaro Kerri", "Amerika fojiasi", "Jenni Gerxardt" romanlari), Orif Hoji ("Qudratli Rurk" hikoya), Xolida Ahrorova ("Erk" hikoya), Saidjamol Saidmurodov ("Neft", "Izg'irinda", "Omonat", "G'aroyib jumboq" hikoya) kabi mutarjimlar o'tgan asrning 70–80-yillarida, asosan, rus tili orqali o'zbekchalashtirib, kitobxonlarga taqdim etishdi. Mustaqillik yillarida jahon adabiyotining boshqa titan ijodkorlari singari, Teodor Drayzer asarlari ham asliyatdan ba'zi yosh mutarjimlar, jumladan, Qandilat Yusupova ("Qoracha Jef" hikoya asliyatdan tarjima) tomonidan o'girila boshlandi. Adib asarlari, asosan, bilvosita til orqali tarjima qilingan. Shu bois badiiy tarjimada bilvosita tarjima jarayonida paydo bo'ladigan muammolar va bu muammolarni mahorat bilan hal eta olgan mutarjimlarning mahoratini (so'z tanlash, yozuvchi uslubini adekvatga yaqinlashtirish, teng ekvivalentlik asosida ibora va xalq maqollari, idioma va obrazli ifodalarni to'g'ri tarjima qilish kabi) o'rganish bugungi tarjimashunoslik fanining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri", "Amerika fojiasi", "Jenni Gerxardt" romanlari o'tgan asrning 70–80-yillarida mahoratli tarjimon Erkin Nosirov tomonidan o'zbekchalashtirildi. Adibning "Jenni Gerxardt" asari 1911-yilda yozilgan. Asarning tarjima tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, roman 1951-yilda rus tarjimonlari Nora Gal va Mariya Loriye, 2018-yilda V.Barbashaeva tomonidan rus tiliga o'girilgan. O'zbekistonda Daryzer asarlarining tarjimoni va targ'ibotchisi Erkin Nosirov bo'ldi. U 1982-yilda "Jenni Gerxardt" romanini o'zbek tiliga tarjima qildi. Mutarjim mazkur asarning voqea-hodisalar ko'lamini, undagi qahramonlarning ichki kechimmalarini o'sha davrning zahmatkash xalq hayotidagi qiyinchiliklarini kitobxon qalbiga chuqur yetkazib berishda o'zining ulkan tarjimonlik mahoratini namoyish eta olgan.

Roman matnida uchraydigan turg'un birikmalar, ya'ni, frazeologizmlar tarjimasiga diqqat qaratamiz. Frazeologik birliklarni tarjimada teng ekvivalentlik asosida qayta yaratish tarjimaning o'ta murakkab, shu bilan birga, juda mas'uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Frazeologik birliklarni tarjima qilish vaqtida vazifadosh, teng lingvistik birliklar ikki til o'rtasida taqqoslab tanlanadi. Taqqoslash jarayonida ular o'rtasidagi ekvivalentlik yoki farqni tahlil etib, umumiy ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish mumkin. Ularning ba'zi qismlari shaklan teng (qisman yoki butunlay), ba'zilarining esa muqobil variant, umuman, topilmasligi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Taniqli tarjimashunos olim G'.Salomov ekvivalentlik masalasi to'g'risida fikr bildirib, rus tili va o'zbek tilidagi mutlaq ekvivalent bo'lgan iboralarni misollar yordamida izohlab bergan. "Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To'g'ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham ma'noviy tarafdin aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvivalentlar ham topiladi. Masalan, *цтылят по осени считают*–jo'jani kuzda sanaydilar; *покорную голову меч не сечет*–egilgan boshni qilich kesmaydi; *куй железо пока горячо*–temirni qizig'ida bos va hokazo. Biroq bunday mutlaq ekvivalentlar soni kam" [5:118-b.].

Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga, asosan, to'rt xil yo'l bilan, asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa xossalari farq qilgani holda, ma'no va uslubiy vazifasi o'xshash muqobil variantlar, kalka usulida va tasviriy yo'sinda tarjima qilinadi.

Bu asar markazida ajoyib qalb sohibasi bo'lgan qiz Jennining taqdiri turadi. Yaxshi niyatli, his-tuyg'ulari beg'ubor Jenni o'zining halol mehnati bilan kun ko'rishga, oilyjanob inson bo'lib yetishishga intiladi. Biroq kapitalistik tuzumning yovuz kuchlari bu pokiza qiz taqdirini ham o'z girdobiga oladi, sof muhabbatini paymol etadi. "Jenni Gerxardt" yozuvchining tengsizlik olamidagi inson taqdiriga bag'ishlangan eng yaxshi asarlari qatorida turadi [2:3-b.].

"Jenni Gerxardt" romanida kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamiyatidagi fojiasi ko'rsatilgan. Jenni bilan boy oilaning o'g'li Lester Keyn o'rtasida muhabbat rishtalari bog'lanadi. Kambag'al Jenni boy oila farzandi Keyn bilan turmush qurolmaydi. Burjua jamiyati vakillari dunyoqarashlari, urf-odatlari ijtimoiy adolatsizliklar, tabaqalanish ularning muhabbatiga to'sqinlik qiladi. Yozuvchi Jennining odobliligi, vafodorligi, pokiza ko'ngil sohibasi ekanligini romanda badiiy ifodalaydi. Jenni o'zining eng yaqin kishilari ota-onasi, qizi Vesta va sevgilisi Lasterdan ajraladi. Biroq bundan tushkunlikka tushmagan Jenni yetim bollalarni asrab olib, o'z hayotini ularga g'amho'rlik qilishga bag'ishlaydi. Asarda matonatli ayol obrazi badiiy talqin etilgan.

Frazeologik birliklarni ekvivalentlar vositasida tarjima qilish borasida, Q.Musayevning fikriga ko'ra, turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi, aksariyat hollarda, xalqlar tur-

mush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar [4;185-b.]. Masalan ingliz tilidagi *believe ones (own) eyes* [3;282-b.] iborasi o'zbek tilidagi *ko'zlariga ishonmaslik* iborasining ma'nosini beradi. Aynan "Jenni Gerxardt" romanida uchraydigan frazeologizmlarning ruscha-o'zbekcha tarjima nashrlarini asliyat bilan qiyosan o'ramiz.

Asliyatda: "Neither Gerxardt nor the mother **could believe their eyes** when a grocery wagon halted in front of their cottage and a lusty clerk began to carry in the gifts".

Erkin Nosirov yaratgan o'zbekcha tarjimada yuqoridagi parcha quyidagicha o'girilgan:

O'zbekchada: "Baqqolchilik magazinining soyavon aravasi eshiklari oldida to'xtab, barvasta dastyor paketlarni ichkariga olib kira boshlaganida, er-xotin **o'z ko'zlariga ishonishmadi**" [2;29-b.].

Ingliz tilidagi *find one's tongue* (F 304) iborasi o'zbek tilida ham *tili kalimaga kelmaslik*, ya'ni, biror narsadan hayratlanib, hech nima ayto'lmaslik ma'nosini ifodalaydi. Aynan shu ibora romanda Jenni Gerxardtning ruhiy holatini obrazli ifodalashda ishlatilgan.

Asliyatda: "Jennie came forward, extending her hand and blushing. She found herself so much disturbed by this visit that **she could hardly find tongue** to answer his questions" [1;20-b.].

O'zbekchada: "Jenni unga yaqinlashdi-da, qizarib qo'l uzatdi. Senatorning kelganidan, azbaroyi hayajonga tushganidan **tili kalimaga kelmasdi**" [2;34-b.].

Tahlil va natijalar. Muallif "Jenni Gerxardt" romani matnida yuzlab frazeologizmlarni qahramonlarning ruhiy holatini, amerikalik odamlarning o'ziga xos gapirish uslubini, milliy koloritini ishonarli va jonli, aks ettirish uchun mahorat bilan foydalangan. Quyidagi jadvalda Teodor Drayzer roman matnida qo'llagan iborali parchalarni hamda Erkin Nosirov tarjimasida aynan o'sha parchalarni namuna sifatida keltiramiz.

Asliyatda

1. Wash one's hands of smth (H. 209)

"She must go out! out!! out!!! She has become a street-walker, that's what she has become. She has set herself right to go to hell. Let her go. **I wash my hands of the whole thing.** This is enough for me" (J.G. 47 p.)

2. One's right hand (R. 258). Robert, the eldest, a man forty years of age, was his **father's right-hand man** in financial matters,... (J.G. 109 p.).

3. Take somebody at his word (W 672). Suppose she went on to inform him that she had a child, and beg him to leave her in peace. Would he obey her? She doubted it. **Did she really want him to take her at her word?** (J.G.114 p.).

4. To slip like a thief. That's what comes of such conduct in the first place. Now she has to slip around like a thie (J.G. 135 p.).

5. to blind somebody

Tarjimada (Erkin Nosirov tarjimasida)

1. Qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq.

Qizing endi ko'zimga ko'rinmasin! Daf bo'lsin!!!..., ha, xuddi shunday. Endi uning boradigan joyi bitta – jahannam! O'sha yoqqa boraversin. **Undan qo'limni yuvib qo'ltig'imga urdim.** Basharasi qursin (J.G. 74-bet).

2. Kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq.

Robert moliyaviy masalalarda ko'pdan buyon otasining **o'ng qo'li bo'lib qolgandi** (J.G.117-bet).

3. O'z tilidan ilintirmoq.

Boringki, Jenni unga bolasi borligini aytib, tinch qo'yishini iltimos qildi ham deylik. Gapiga Lester quloq solarmikan? Solmasa kerak. Jenni ham **Lester tilidan ilintirishini** istarmidi deysiz? (J.G.123-bet).

4. chap bermoq

Qizlar to'g'ri yurmagandan keyin keti shunaq abo'ladi. Endi huddi **o'g'riday chap berishiga to'g'ri keladi.** (J.G. 144 bet)

5. Ko'zini tindirmoq.

Then, too, his attitude, in spite of the money which had first blinded them, was peculiar. He really did not carry himself like a married man (J.G. 138 p.).

6. To have claim on somebody.

Should he forsake Jennie?—that thought also, came to him. **She had no claim on him.** She could make no protest (J.G. 144 p.).

7. To kiss one's feet.

She could have kissed Lester's feet for his goodness to her family (J.G. 162 p.).

8. Put one's nose in (N 229).

“Damn him!” said Lester fiercely. “What the devil does he mean by **putting his nose in my private affairs?** (J.G. 303 p.).

Buning ustiga, garchand saxiyliigi dastlabki paytlarda Gerxardtlarning ko'zini tindirib qo'ygan bo'lsada, Lester ham o'zini g'alati tutardi. (Jenni Gerxardt. 147-bet).

6. Kingadir osilib olmoq.

Bunda Jennini qurbon qilishga to'g'ri kelmasmikan? Bu narsa ham uning hayolig akeldi. **Jenni unga osilib ololmaydi** (J.G. 154-bet).

7. Oyoqlarini o'pishga ham tayyor bo'lmoq.

Oila a'zolariga bunchalar yaxshilik qilayotganidan hozirda Lesterning oyoqlarini o'pishga ham tayyor edi (J.G. 146-bet).

8. Birovning ishiga tumshug'ini tiqmoq.

—*Ming la'nat!—Lester yomon so'kindi.—Mening ishlarimga tumshug'ini tiqishga qanday jur'at etdi!* (J.G. 279-bet).

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollardan ayon bo'lmoqdaki, mahoratli tarjimon Erkin Nosirov buyuk amerika adibi T.Drayzerning “Jenni Gerxardt” romanida uchraydigan frazeologizmlarni o'ta nozik did bilan o'zbek tilida jaranglata olgan. Zero, iboralar badiiy matn tarkibida qahramon nutqini, psixologik holatini, muallif bayonini bezovchi muhim badiiy til unsure hisoblanadi. E.Nosirov mazkur romanni o'zbekchalashtirishda rus tarjimonlarining tarjima nashrlariga suyanib, Drayzer matnini qaytadan o'zbek tilida muvaffaqiyat bilan yaratishga erishgan.

Amerikaning mashhur yozuvchilaridan biri U.Folkner: “Rus adabiyoti Gogolnig “Sheneli”dan chiqqani kabi, biz Drayzerning romanlaridan chiqqanmiz”, deb aytgan edi [6;320-b.].

Mahoratli mutarjim Erkin Nosirov Amerika adabiyotining yirik romannavisi T.Drayzerning ko'plab romanlarini tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga uning nomini va yetuk badiiy asarini tanitishga katta hissa qo'shdi.

Zahmatkash tarjimon Erkin Nosirov tarjimaning ijodiy jarayon ekanini to'g'ri anglagan holda roman matnida uchraydigan yuzlab frazeologizmlarni teng ekvivalentlik, kalkalab tarjima qilish, uslubiy moslash-tirish, qisman tarjima usullaridan foydalanib, adekvatga yaqin tarjimani yaratishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Dreiser T. Jennie Gerhardt. United States of America Copyright, by Boni & Liveright, Inc. Printed in the, 1911, 448 p.
- (2). Драйзер Т. Женни Герхардт. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1982, 324 бет.
- (3). Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Москва, “Русский язык”, 1984, 942 с.
- (4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005, 352 bet.
- (5). Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 232 бет.
- (6). Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akadem nashr”, 2024, 320 bet.

Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna (Nukus Innovatsion instituti “Filologiya va tillarni o'qitish” kafedراسistent o'qituvchisi)

EMOTSIYALARNING O'ZIGA XOSLIGI, KONSEPTUALLASHUV JARAYONLARI

Annotatsiya. Maqolada konsept atamasiga alohida to'xtalib o'tilgan hamda u haqida turli olimlarning qarashlari, emotsiya, emotsionallik konseptlari va konseptuallashuv jarayonlari, ijobiy emotsional konseptga namuna va uning lug'aviy ma'nolari hamda o'sha emotsional birlikni kontekstda foydalanilgan namunalari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *konsept, lingvomadaniyatshunoslik, semantik birlik, emotsiya, emotsionallik, emotsional konsept, kognitiv-semantik, sinonimik qator, verballashuv.*

Абдусаттарова Шахло Тоштемировна (Нукусский инновационный институт, ассистент преподавателя кафедры “Филология и преподавание языков”)

УНИКАЛЬНОСТЬ ЭМОЦИЙ, ПРОЦЕССОВ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассмотрен термин концепт и взгляды на него различных ученых, понятия эмоции, эмоциональности и процессов концептуализации, пример позитивного эмоционального концепта и его словарные значения, а также примеры использования этой эмоциональной единицы в контексте.*

Ключевые слова: *концепт, лингвострановедение, семантическая единица, эмоция, эмоциональность, эмоциональный концепт, когнитивно-семантический, синонимический ряд, вербализация.*

Abdusattarova Shakhlo Toshtemirovna (Nukus Innovation Institute assistant teacher of the department “Philology and language teaching”)

THE UNIQUENESS OF EMOTIONS, CONCEPTUALIZATION PROCESSES

Annotation. *The article focuses on the term concept and the views of various scientists about it, the concepts of emotion, emotionality and conceptualization processes, an example of a positive emotional concept and its dictionary meanings, and examples of that emotional unit used in the context.*

Key words: *concept, linguistic and cultural studies, semantic unit, emotion, emotionality, emotional concept, cognitive-semantic, synonymous series, verbalization.*

Kirish. Tilshunoslikda “konsept” atamasi oʻtgan arsning ikkinchi yarmida muomalaga kirgan boʻlib, u olam toʻgʻrisidagi bilim va koʻnikmalarni maʼlum darajada tartibga soluvchi lisoniy hodisa. Shuni qayd etish mumkinki, “konsept” atamasi tilshunoslikka falsafa fanidan oʻzlashtirilgan boʻlib, dastlab, U.Gobs, U.Okkam, P.Abelyar kabi olimlarning ishlarida kuzatish mumkin. Konsept atamasining tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik tilshunos N.Xomskiyning xizmati beqiyos, u oʻzining “Universal Grammar” asarida til kognitiv faoliyat mahsuli ekanligini taʼkidlagan. Konsept inson ongida gavdalanadigan va zarur maʼlumotni jamlovchi universal va xususiy lingvistik hodisa degan. Tilshunoslikda ilk marotaba konsept atamasi 1928-yilda S.N.Askaldov tomonidan yozilgan “Konsept va soʻz” deb nomlangan maqolasida foydalanilgan [Baxronova. 2019;62].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Olimlar konsept termini boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borgan va bu borada turlicha qarashlarini bildirgan. V.A.Maslova konsept bu lingvomadaniyatshunoslikda oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan, muayyan madaniyat egalari tomonidan tavsiflanuvchi semantik birlik degan fikrni ilgari surgan boʻlsa [Maslova B. 2004;296], E.S.Kubryakova konseptga inson ongi, bilimi va ruhiy kechinmalarida namoyon boʻluvchi tafakkur mahsuli deb taʼrif bergan [Kubryakova.1996;90]. Popova Z.D. hamda Sternin I.A. konsept bu keng darajada oʻrganilishi kerak boʻlgan murakkab mental birlik va oʻzlashtirilgan bilimning asosiy qismi ekanligini [Попова З., Стернин И. 2000;4].

Konsept atamasi toʻgʻrisida oʻzbek tilshunoslari ham oʻz fikr va mulohazalarini bildirgan. Tilshunos Sh.Safarovning fikricha, konsept zamiridagi mental struktura moddiy koʻrinishga ega emas, balki u aqliy idrok jarayonida paydo boʻladigan tasavvuriy hodisa deb hisoblanadi [Safarov Sh. 2006;41]. Xudoyberganova konsept koʻp qirrali mental birlik va u bir vaqtda psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarida namoyon boʻladigan birlik, degan fikrni olgʻa surgan [Xudoyberganova D. 2013;13]. Ashurova U. har qanday tushunchani konsept deb atash notoʻgʻri. Madaniyat muhitida muhim ahamiyat kasb etadigan tushunchalargina konsept boʻla oladi, degan xulosaga keladi [Baxronova D. 2019;64].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni taʼkidlash kerakki, konsept – bu har bir insonning tashqi olamni idrok etishda tasniflanuvchi, har bir xalq ongida mental tarzda namoyon boʻladigan, til sohiblarining milliy qadriyatlarini, dunyoqarashi, etnik xususiyatlarini oʻzida ifoda etuvchi birlik hisoblanadi. Shaxslararo muloqotni shakllantirish uchun, avvalo, konseptlarni voqelantirish, yaʼni til vositasidan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Tildagi konseptlar, soʻz, soʻz birikmasi, turgʻun birikmalar, hatto butun matn orqali verballashuvi mumkin. Qayd etilgan matnlarning verballashuvida emotsiyalarni faollashtirish muhim oʻrin tutadi. Emotsiya konsept sifatida insonlar oʻrtasidagi munosabatlarda namoyon boʻluvchi verbal va nonverbal tartibga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Insonning borliqqa boʻlgan munosabatida paydo boʻladigan kechinmalari hissiy emotsiyalar doirasini tashkil etadi. Emotsiyalar inson faoliyati, uni oʻrab turgan olam bilan oʻzaro munosabatda hamda jamoaviy faoliyati va shaxsning ijtimoiylashuvi asosida paydo boʻladi. Darhaqiqat, hissiy emotsiya psixologik jarayon boʻlib, ijtimoiylashuv, jamoaviy psixologiyaning rivojlanishiga taʼsir

ko'rsatadi. Shu sababli hissiy emotsiya psixologiya fanining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tilshunoslar insonning fundamental emotsiyalarini belgilab olish masalasini ilgari suradi va muayyan til yoki turli xil tillar doirasidagi emotsiyalarni qiyoslash asosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quvonch, hayrat, lazzatlanish, qiziqish, hayajon, ajablanish kabi ijobiy emotsiyalarni universal hodisa sifatida qbul qilishadi. Emotsiyalarning o'ziga xosligi, konseptuallashuv jarayonlarini o'rganishdan avval, ushbu tushunchalarni alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Emotsiya (lotincha–tebrantiraman, to'qlinlantiraman) – bu mavjud yoki mumkin bo'lgan vaziyatlarga va obyektiv dunyoga subyektiv baho berish munosabatini ifodalovchi psixik jarayon. Emotsiyalar turli lingvomadaniyatga xos leksemalar bilan ifodalanadi. Emotsional – emotsiya jihatdan bo'lgan, emotsiyaga oid, his-tuyg'uni ifodalovchi. Emotsionallik–emotsional belsi, xususiyat, shunday belgi xususiyatga egalik.

Emotsional konsept–bir til doirasida emotsional konseptlarning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi tushuncha.

Emotsiyalar konseptuallashuvida ikkita o'zaro bog'langan aspekt farqlanadi. 1) emotsional kechinmalarining bevositaligi; 2) subyektning obyektga hissiy munosabati [O'TIL. 2006;592].

Tahlil va natijalar. Ingliz tiliga oid bo'lgan *happy* konsepti ijobiy baho kategoriyasiga ega bo'lib, quvonch, shodlik, sevinch kabi tushunchalarni ifodalovchi emotsional birlikdir. Uning lug'oviy ma'nolari quyidagicha:

happy *adj* –sifat so'z turkumiga oid bo'lib *xursand, mamnun, shod, baxtli* degan ma'nolari mavjud.

1) feeling pleasure and enjoyment because of your life, situation, etc. Ushbu konseptdan inson hayotidan yoki muayyan vaziyatdan mamnunlik va shodlik hissini ifodalash uchun foydalaniladi. Masalan: *She is really happy playing with her lovely toy.* Qizaloq sevgan o'yinchog'i bilan o'ynab, o'zini, haqiqatdan, baxtiyor his qiladi. Bunda inson vaziyat natijasida baxt hissini tuyushi ko'rsatilgan;

2) showing or causing feelings of pleasure and enjoyment. So'zlovchi *happy* konseptidan baxtiyorlik hissini ko'rsatish yoki sababini ifodalash uchun ham foydalanish mumkin. Masalan: *She had a very happy childhood. I was glad the movie had a happy ending.* Keltirilgan misollar “Uning bolaligi xursandchiliklarga boy bo'lgan”, “Kino baxtli yakun topganidan xursandman” deb tarjima qilinadi. Insonning zavqli, quvonchli, baxtli paytdagi vaziyatdagi holatini ifodalash uchun *happy* so'zidan foydalaniladi. Bunda yozuvchilar ham asar qahramonlari nutqidagi hodisalarni baholash uchun hamda o'quvchiga personajning xursand bo'lgan vaziyatlarini yetkazib berish uchun *happy* sifatidan foydalanadi. Masalan: *There is something curiously warm, hopeful about light pouring from an open door into a dark place. Voices came to him, laughing happy voices, the child's gleeful* (Rendel R. 110);

3) very willing to do something usually followed by to + verb happy so'zi to infinitiv shakli oldidan kelib biror ish harakatni bajarishga kuchli xohishni ifodalab keladi. Misollar: *His daughter's car was parked at the kerbside. He told himself he was always happy to see his children but just at this moment, this evening* [Rendel R. 51];

4) used as part of a greeting or wish for someone on a special holiday or occasion. Insonlar ingliz tilida bir-birlarini maxsus hodisalar ya'ni, tug'ilgan kun, bayram tadbirlarda bir-birlarini tabriklayotgan paytda *happy* so'zidan keng foydalanadi. Masalan: *Happy birthday, Happy Women's Day, Happy Anniversary.* So'zlovchi tug'ilgan kun, xotin-qizlar kuni hamda yubiley kuni bilan tabriklash uchun keltirilgan birkimlardan foydalanadi;

5) sometimes used before a noun: fitting or suitable. Bazan ushbu termindan o'ning aniqlovchisi sifatida foydalanilib, bu paytda *mos, munosib, to'g'ri keladigan kabi ma'nolarni ifodalaydi.* Masalan: *a happy choice of words.* Ushbu gapda *so'zlarni to'g'ri tanlash* ma'nosini ifodalab kelingan [MWALED. 2008; 748].

Xulosa va takliflar. Tildagi ifodalanayotgan ba'zi birliklar lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari-ga ko'ra, suhbatdoshlarning kayfiyati hissiyotlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil emotsional holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. So'nggi paytlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki emotsional semantika muammolari eng yuqori bosqichda turuvchi masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Emotsional birliklarni kontekstda qo'llash matn mazmunini o'quvchiga yuqori darajada yetkazib berish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, asarning yuqori saviyaga ega ekanligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi ta'svirida konsept va konseptosfera. Xorijiy filologiya, 2019, 68-bet.

- (2). Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. Под ...istina.msu.ru publications book. Издательство Московского государственного университета. Москва, 1996. 90 с.
- (3). Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. Учеб. пособие, М., "Наука", 2011, 296 с.
- (4). Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. Воронеж, изд-во Воронеж, ун-та, 2000, 30 с.
- (5). Ruth Rendell End in tears a chief inspector wexford mystery. 122 p.
- (6). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, "Sangzor", 2006, 46-bet.
- (7). Xudoyberganova antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, "Fan", 2013, 286-bet.
- (9). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1-jild, 2006, 2-jild, 2006, 2008, 592-bet.
- (10). Webster's Learners D SESS: 48 OUTPUT. Mon Jul 14 2008 /data31/webster/dict/mw-learners-dictionary/001-fm-copyright, 2032 p.

**Abdullayeva Muxtasar Abdulla qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dots.v.b.,PhD)
O'ZBEK BADIY ASARLARIDA IDIOMATIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI VA
ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI**

***Annotatsiya.** Hozirgi tilshunoslikda tillar o'rtasidagi munosabatlarni ma'no va ijtimoiy-madaniy voqelikni uzatishning asosiy vositalaridan biri sifatida o'rganish dolzarb mavzulardan biridir. Zamonaviy tilshunoslik tomonidan o'rganilayotgan ko'plab muammolar orasida "tarjima" yoki "tarjima faoliyati" deb ataladigan tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarni o'rganish muhim o'rin tutadi. Aynan tarjima orqali biz tarjimonlar yordamida uning talqiniga ega bo'lgan boshqa madaniyatlarning ma'no tizimlariga kirishimiz mumkin. Tarjima bir tilda ifodalangan narsani boshqa til vositasida to'g'ri va aniq ifodalashni nazarda tutadi. Ushbu maqola tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etishga bag'ishlanadi.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, tarjimashunoslik, adabiyot, madaniyat, frazeologik birliklar.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДИОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКИХ
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК**

***Аннотация.** В современном языкознании изучение отношений между языками как одного из основных средств передачи смысла и социокультурной действительности является одной из актуальных тем. Среди множества проблем, изучаемых современной лингвистикой, важное место занимает изучение лингвистических аспектов межъязыковой речевой деятельности, называемое «переводом» или «переводческой деятельностью». Именно посредством перевода мы можем получить доступ к смысловым системам других культур с помощью переводчиков, которые их интерпретируют. Перевод – это правильное и точное выражение того, что выражено на одном языке, на другом языке. Данная статья посвящена проблемам в области переводоведения и их устранению.*

***Ключевые слова:** перевод, переводоведение, литература, культура, фразеологизмы.*

**THE USE OF IDIOMATIC EXPRESSIONS IN UZBEK FICTION AND THEIR
TRANSLATIONS INTO THE ENGLISH LANGUAGE**

***Annotation.** In modern linguistics, the study of relations between languages as one of the main means of transmitting meaning and socio-cultural reality. Among the many problems studied by modern linguistics, the study of linguistic aspects of interlingual speech activity, which is called "translation" or "translation activity", occupies an important place. It is through translation that we can access the meaning systems of other cultures with the help of translators who interpret it. Translation refers to the correct and precise expression of what is expressed in one language in another language. This article is devoted to problems in the field of translation studies and their elimination.*

***Key words:** translation, translation studies, literature, culture, phraseological units.*

Kirish. Xalqimizning sevimli adibi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'lmas asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Jumladan, "Navoiy" romani ham Ovrupaning qator tillariga o'girilgan. Adibning bu asaridan olingan ayrim boblari ingliz tiliga ham tarjima qilingan. Quyida biz shu tarjimalar haqidagi mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Tadqiqotning metodologiyasi. Oybekning, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi xizmatlari benixoyadir. Bu borada u, hech mubolag'asiz, yetuk navoiyshunoslar qatorida turadi. Uning Navoiy dunyoqarashi, lirikasi, "Xamsa" tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari navoiyshunoslikning oltin fondini tashkil etadi. Ayni paytda yetuk alloma Sultonmurod, Fazliddin, noyob va iste'dod sohibi Behzod, Xondamir,

pokiza qalb va aql-zakovat egasi Mo‘min Mirzo, g‘ayratli va fidoyi Arslonquldek qahramonlar Vatan saodati va millat baxtini ko‘zlagan yurtdoshlarimiz uchun yuksak ibrat namunalari. Oybek ijodiyoti, xususan, “Navoiy” romanining olamshumul tarbiyaviy ahamiyati ham shundandir.

Tahlil va natijalar. “Asar muallifi o‘zi xohlagan epitet maqol, tez aytish va obrazli iboralardan foydalanadi, mutarjim esa ana shu tasviriy vositalarni qayta yaratish uchun o‘z tilida mavjud bo‘lgan ekvivalentlarni qidirib topadi va asar tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarni beradi” (6;126-b.).

Tarjimashunos olim G‘.Salomov frazeologik birliklar haqida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: “Agar mendan: tilda ham mo‘jizalar bo‘ladimi? deb so‘rasalar, men: agar bo‘lsa, tilning “mo‘jizasi” undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob qilgan bo‘lar edim. Chindan ham gapning qaymog‘i, shirini, olam-olam ma‘no beradigani, shu bilan birga, lo‘ndasi maqol, matallardir (7;3-b.).

Keyingi misolga murojaat qilamiz:

O‘zbek tilida (asliyat)	Ruscha tarjimasi:	Inglizcha tarjimasi:
Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Айбек. Навои.М.Салье таржимаси. 140 стр.	Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G. Xanna va D.Skvirskiylar tarjimasi. 18 p.
<i>Shaharlarning, viloyatlarning hokimlari hisob-kitobni qo‘ltiqlab, bo‘zchining mokisiday, Hirotga qatnab turishlari lozim emish. Xalq, adolat, qonun degan shiorlar pardasi ostida Navoiy, bilmadim, yana nimalar o‘ylab chiqarar ekan!</i>	<i>Правители городов и областей, со счетными книгами под мышкой, снуют туда и сюда, словно челнок ткача. Прикрываясь словами “народ”, “справедливость”, “закон”, Навои ещё неведомо что надумает.</i>	<i>Rules of cities and regions with count-books under armpits dash here and there like the weaver’s shuttle. While under cover of the words “people”, “justice”, “law” Navoiy will think about God knows what else.</i>

Bo‘zchining mokisiday iborasi Amir Mo‘g‘ul nutqida **bo‘zchining mokisiday** iborasi rus tili-ga **челнок ткача** tarzida o‘girilgan. Ingliz tiliga rus tilidan o‘girgan mutarjim ham so‘zma-so‘z **weaver’s shuttle** deb o‘girib qo‘ya qolgan.

Xuddi shunday iborani Nazir Safarovning “Momaqaldiroq” nomli romanida, uning ruscha va inglizcha tarjimalarida ham uchratishimiz mumkin. Shu o‘rinda biz shu romandan ham misol keltirishni lozim topdik.

O‘zbek tilida (asliyat):	Ruscha tarjimasi:	Safarov Nazir. The Storm. Uzbekistan-Contact, 4–6, 1993. 19 p.
Safarov N. Momaqaldiroq. 44-b.	Сафаров Н. Гроза. Владимир Салухин таржимаси. 39 с.	
<i>O‘sha kundan boshlab Mamatboyning bir oyog‘i Buxoroda, bir oyog‘i Nurotada bo‘zchining mokisi bo‘lib qoldi.</i>	<i>Он, как челнок в ткацком станке, метался теперь между Бухарой и Нуратой.</i>	<i>Like a shuttle in the weaver’s loom, he dashed up and down from Bukhara to Nurata and back.</i>

Bu yerda ham xuddi yuqoridagidek vaziyatni ko‘rishimiz mumkin.

Shu orada Mamatboyning farzandi Dodbudo ham tug‘iladi. Lekin uning uchinchi xotini hali ham Buxoroda edi:

O‘zbek tilida (asliyat):	Ruscha tarjimasi:	Safarov Nazir. The Storm. Uzbekistan-Contact, 4–6.1993. 30 p.
Safarov N. Momaqaldiroq. 50-b.	Сафаров Н. Гроза. Владимир Салухин таржимаси.45 с.	
<i>Mamatboy Nurota bilan Buxoro oralig‘ida bo‘zchining mokisidek qatnay berib charchadi.</i>	<i>Маматбай, которому надоело мотаться между Бухарой и Нуратой, стал подумывать как бы забрать и жену и сына домой.</i>	<i>Mamatbai, who was tired of going from Bukhara to Nurata and back all the time, began to think of taking his wife and son home.</i>

Bo‘zchining mokisidek iborasi **To‘xtovsiz, tez-tez borib-kelib turmoq, qatnamoq** (8;610-b.) degan ma‘nolarga ega. Bu yerdagi ruscha va inglizcha tarjimalarda mutarjimler butkul **bo‘zchining mokisidek** iborasini rus va ingliz tillarida mavjud bo‘lgan idioma yoki frazeologik ibora bilan almashtirganlar. Ruschadagi **Мотаться** so‘zi ma‘no va uslub jihatidan o‘zbekcha iboraga mos kela oladi. Lekin inglizchada bu so‘zga mos so‘z yoki frazeologik ibora yo‘q. Faqatgina bu ma‘noni berish uchun Mamatboyning Buxoro va Nurota o‘rtasida ko‘p sarson bo‘lganligini ko‘psatish uchun **was tired of going** kabi oddiygina qilib o‘girilgan. Rus tilida **bo‘zchining mokisiday** iborasiga mos bo‘lgan **сновать, непрерывно бежать** (9;87-b.), ingliz tilida esa **be run off one’s feet** ёки **be like a squirrel in a cage** kabi iboralar qo‘llanilganida maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Asarning milliy ruhiga zarar yetmas, rusiyzabon va ingliz-zabon o‘quvchiga esa matn tushunarli bo‘lgan bo‘lar edi.

Keyingi misollarni yana Oybekning “Navoiy” romanidan keltiramiz:

O‘zbek tilida (asliyat).	Ruscha tarjimasi:	Inglizcha tarjimasi:
--------------------------	-------------------	----------------------

Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Айбек. Навои.М.Sal'ye tarjiması. 140 с.	Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjiması. 18 p.
<i>Navoiy qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoqchi.</i>	<i>Навои, желая подсурмить ресницы, выжигает глаза.</i>	<i>Wishing to put eye – paint on the lashes, Navoiy burns out the eyes?</i>

Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq yaxshi, foydali ish qilish uchun urinib, yomon, xato ish qilib qo'yamoq, tuzataman deb buzmoq (10;352-b.) degan ma'nolarni anglatadi. Bu yerda ham xuddi yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatga duch kelamiz, ya'ni, **qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq** iborasi rus tiliga so'zma-so'z "qosh kўyaman deb kўz чиқармоқ" deb so'zma-so'z o'girilgan. Rus tilidan o'giran ingliz tarjimoni esa **Wishing to put eye – paint on the lashes, ...burns out the eyes** deb o'girib qo'ya qolgan. Rus tiliga **оказывать медвежью услугу** deb ingliz tiliga esa **do somebody more harm than good** deb o'girilishi lozim edi.

Quyidagi misolda ham xuddi shunday so'zma-so'z tarjimaning guvohi bo'lamiz. Amir Mo'g'ul va Majdiddinning so'zlarini tasdiqlab, Xo'ja Xatib Navoiy haqida suhbatni davom ettiradi.

O'zbek tilida (asliyat): Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Ruscha tarjiması: Айбек. Навои. М.Salye tarjiması. 140 с.	Inglizcha tarjiması: Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D. Skvirskiylar tarjiması. 18 p.
<i>– Alisher Navoiy el va ulusga o'zini yaxshi ko'rsatur, mamlakat uning guruhi qo'lida o'yinchoq bo'lur.</i>	<i>–Алишер Навоий выставляет себя благодателем государства и народа; государство стало игрушкой в руках его сторонников.</i>	<i>“Alisher Navoiy makes himself out as a benefactor of the State and the people; the State has turned out to be a toy in the hands of his followers.”</i>

Qo'lida o'yinchoq bo'lmoq iborasi **Birovning xohishini so'zsiz, ko'r-ko'rona bajaruvchi, ito-atgo'y; qo'g'irchoq** degan ma'noga ega bo'lib, rus mutarjimi M.Salye **qo'lida o'yinchoq bo'lmoq** idioma-sini so'zma-so'z, ya'ni **стать игрушкой в руках** deb o'giradi. Bundan foydalangan ingliz mutarjimi G. Ovchinnikova ham **to be a toy in the hands...** deb o'giradi. Ba'zan, iboralarni so'zma-so'z o'girish tarjimada qo'llaniladi, bu esa yaxshi natija berishi mumkin; ruscha tarjima shunga misol, chunki ibora ma'nosi o'quvchiga tushunarli, asar kontekstidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, muallif uslubi haqida ma'lumot beradi, personajning gapirish uslubiga mos, tarjima tilini ham boyitadi. Bu yerda matn mazmuni va mohiyatiga zarar yetmagan. O'zbekcha ma'no ruscha va inglizcha tarjimalarda ham to'la saqlangan.

O'zbek tilida (asliyat): Oybek. Tanlangan asarlar. 177-b.	Ruscha tarjiması: Айбек. Навои.М.Salye tarjiması. 219 с.	Inglizcha tarjiması: Aybek. Navoi. Uzbekistan speaks. G.Xanna va D.Skvirskiylar tarjiması. 18 p.
<i>Ammo menga maqsadingiz fonus ichidagi o't kabi ravshan ko'rinadi.</i>	<i>Ведь я вижу ваши цели так же ясно, как огонь в фонаре.</i>	<i>For I see you aims as clearly as the fire in the lantern.</i>

Oybek yuqoridagi iborani, ya'ni, **fonus ichidagi o't kabi ravshan** iborasini ishlatar ekan, o't suzini **olov** ma'nosida emas, **yorug'lik, fonusdan taralayotgan nur** ma'nosida qo'llagan. Lekin rus va ingliz mutarjimi esa bu iborani aynan ag'darganlar. Rus va ingliz tilida mavjud bo'lgan muqobillarni izlamaganlar. Agar bu ibora rus tiliga **ясно как день** deb, ingliz tiliga esa **as clear as day** deb o'girilganda tarjima matni ravon, tushunarli bo'lgan bo'lur edi, deb o'ylaymiz. Badiiy o'xshatishning so'zma-so'z tarjiması asarda, ya'ni boshqa tilda o'z ta'sirini yo'qotishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Til vositalaridan qanday foydalanishni belgilab beradigan ijodiy o'ziga xoslik yozuvchining dunyoqarashi, nafosat haqidagi tushunchasi, adabiy maktab va davr estetikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, muayyan davr yoki adabiy muhit namoyandasi bo'lishi biron yozuvchidan asarini tarjimon o'zi xohlaganicha o'z uslubiga "bo'ysundirgan" holda, izniga solib o'giraverishi mumkin emas. Shuning uchun ham har bir tarjimon o'z e'tiqodi, uslubi, estetik idealiga yaqin adibning asarini tarjima qilgandagina muvaffaqiyat qozona oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, vaziyatga mos so'z va iboralarni tanlay bilish mutarjimdan katta mas'uliyat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2011, 47-bet.
- (2). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2005, 6-may.
- (3). Muxtor A. Tarjima umrboqiy bo'lsin. Tarjima san'ati. 4-kitob, T., 1978, 16-bet.

(4). Амосова Н.Н. Основы английской филологии. Л., изд-во Ленингр. ун-та, 1963, с. 96; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., Международные отношения, 1972, с. 8; Kuzmin S.S. Translating Russian Idioms. М., "Higher School", 1977, p. 8.

(5). Федоров А.В. Введение в теорию перевода (лингвистические проблемы). М., 1958, с. 171.

(6). Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. Т., "Фан", 1957, с. 126.

(7). Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idomalarni tarjima qilish masalasiga doir. Toshkent, 1961, 3-bet.

(8). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Т., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 610-bet.

(9). Узбекско-русский словарь. Т., Главная редакция УзСЭ, 1988, с. 87.

(10). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 352-bet.

(11). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, Т., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 141-bet.

**Komilova Gavharoy (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., PhD; e-pochta: r_gavharoy@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)
TIL TA'LIMI QADRIYAT SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, o'z navbatida, til ta'limi jara-yonida qadriyatlarining singdirilishiga ham e'tibor qaratiladi. Bu esa til ta'limiga qadriyat sifatida qarash dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Maqolada A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari misolida o'sha davr ustuvor qadriyatlari haqidagi tahlillar berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari "Hifzi lison" bo'limida ustuvor qadriyatlar sifatida milliy o'zlikni anglash va as-rash, jumladan, milliy til, adabiyot, lisoniy etika, ta'lim ko'rsatilgan hamda o'sha davr lisoniy vaziyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarda til ta'limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokda, ya'ni, til ta'limi davlat darajasidagi, til ta'limi ijtimoiy qadriyat va til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida namoyon bo'lgan.*

***Kalit so'zlar:** qadriyat, til ta'limi, aksiolingvistika, qiymat, qadriyat, til, aksiologik ong, baho, baholash, subyekt, ijtimoiylashuv, jamiyat, sotsiolingvistika, lisoniy vaziyat.*

Комилова Гавхарой (и.о. доцента Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени А.Навои, PhD; e-pochta: r_gavharoy@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)

ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЦЕННОСТЬ

***Аннотация.** Поскольку ценности рассматриваются как компонент языка, в свою очередь, внимание уделяется привитию ценностей в процессе языкового образования. Это показывает, что рассмотрение языкового образования как ценности является актуальным. В статье анализируются приоритетные ценности того времени на примере работы А.Авлони «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ». По результатам анализа в разделе «Хифзи лисон» произведения «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» в качестве приоритетных ценностей обозначены понимание и сохранение национальной идентичности, включая национальный язык, литературу, языковую этику, образование. Также приводятся сведения о языковой ситуации того времени. В данной работе языковое образование как ценность представлено в трех аксиологических блоках: языковое образование на государственном уровне, языковое образование как социальная ценность и языковое образование как личностная ценность.*

***Ключевые слова:** ценность, языковое образование, аксиолингвистика, ценность, значение, язык, аксиологическое сознание, оценка, оценивание, субъект, социализация, общество, социолингвистика, языковая ситуация.*

**Komilova Gavharoy (Acting Associate Professor of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after A.Navoi, PhD; e-mail: r_gavharoy@mail.ru; ORCID: 0000-0003-4846-2100)
LANGUAGE EDUCATION AS A VALUE**

***Annotation.** Since values are considered as a component of language, attention is paid to the instillation of values in the process of language education. This shows that the consideration of language education as a value is relevant. The article analyzes the value of language education and the priority values of that time using the example of A.Avloni's work "Turkiy guliston yohud axloq" According to the results of the analysis in the "Hifzi lison" section of the work "Turkiy guliston yohud axloq", the understanding and preservation of national identity, including national language, literature, language ethics, and education are designated as priority values. Information about the language situation of that time is*

also provided. In this work, language education as a value is presented in three axiological blocks: language education at the state level, language education as a social value, and language education as a personal value.

Keywords: value, language education, axiolinguistics, value, value, language, axiological consciousness, assessment, evaluation, subject, socialization, society, sociolinguistics, linguistic situation.

Kirish. Bugungi kunda til bilan bir qatorda til ta'limi ham qadriyat sifatida baholanmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida namuna sifatida yondashayotgan Kembrij ta'lim usuli (Finlyandiya tajribasi)da ham inson huquqlari, tenglik, xilma-xillik, barqarorlik qadriyatlari o'quv materiallari, o'quv dasturining spetsifikasi sifatida keltirilgan. Til ta'limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokni namoyon qiladi:

Til ta'limi davlat darajasidagi qadriyat sifatida.

Til ta'limi ijtimoiy qadriyat sifatida.

Til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida [4;6-b.].

Ko'rinadiki, mazkur aksiologik bloklar o'zaro uzviy bog'langan.

Til ta'limini qadriyat sifatida anglash tilga davlat, jamiyat va shaxs munosabatini aks ettiruvchi ilmiy hamda amaliy faoliyatni ishlab chiqish, keng yoyishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Mutaxassislar hozirgi bosqichda qadriyat aspektining ta'lim jarayoni zarur komponenti sifatida qaralishini ta'kidlashmoqda. Tilni xoh ona tili, xoh chet tili sifatida bo'lsin, qadriyatlar tizimisiz o'rgatish mantiqsizdir. Tilning mohiyatida turuvchi sotsiomadaniy kompetensiya shu madaniyatning qadriyatlar bilimiga asoslanuvchi madaniy qoidalardan foydalanish mahoratini o'zida ifoda etadi [3;734-b.].

Qadriyatlar tilning tarkibiy qismi sifatida qaralar ekan, o'z navbatida, til ta'limi jarayonida qadriyatlarining singdirilishiga ham e'tibor qaratiladi. Zero, bugungi globallashuv va ommaviy madaniyatning keng yoyilib borishi milliy qadriyatlarni asrash va avlodlarga yetkazish mas'uliyatini oshirmoqda.

Ona tiliga qadriyat munosabatni shakllantirish, bizningcha, zamonaviy ta'limning, birinchi navbatda, filologik va gumanitar fanlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunonchi, til insonlarning yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqeyi va moddiy holatidan qat'i nazar, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun birlashtiruvchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy to'siqlarga qaramay, avlodlar va ijtimoiy tuzilmalarning tarixiy o'zgarishida xalqning birligini saqlaydi, shu orqali xalqni zamonda, geografik va ijtimoiy makonda birlashtiradi.

Inson va olam munosabatlarida voqea-hodisalarning ijtimoiy belgilanishi jarayonida shakllanadigan asosiy qadriyatlar jamiyat dunyoqarashini aks ettiradi, etnos hamda uning mentalitetida namoyon bo'ladi.

Insonning umumiy madaniyati va nutq madaniyati haqida gapirganda, uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri til merosini o'zlashtirish va til mentalitetini saqlash mas'uliyatiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu jihatdan jadid adabiyoti, jumladan, A.Avloniyning asarlari muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Til qadriyati tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda lingvistik etika va uning namoyon bo'lishi bilan bog'liq fikrlar ham mavjud. Lingvistik etika ichki axloqiy g'oyalarga iborat. Lingvistik etika odob-axloq qoidalari kabi muayyan vaziyat sharoitlariga bog'liq emas, chunki u tilda va til orqali rivojlanib, namoyon bo'ladigan chuqur ongosti tuyg'u hisoblanadi. Ma'naviy qadriyatlardan *haqiqat, mehr va go'zallik* lingvistik etika va xulq-atvoriga asoslanadi. Nutq odob-axloqi - bu insonlarning samarali muloqot qilishiga yordam beradigan qoidalar va tamoyillardir [7;214-b.].

Demak, lisoniy did til birliklarining boyligi va xilma-xilligi ko'rsatadigan lisoniy muhitda: maqollar, frazeologik birliklar, sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi. Bu holat lingvistik etikaning murakkab tarkibga egaligini anglatadi. Ya'ni, lingvistik etika lingvistik mentalitetning tarkibiy qismi bo'lib ona tilida so'zlashuvchilar uchun eng muhim tushunchalar: qadriyat, madaniyat, dunyoqarash va uning xususiyatlarini belgilaydi. Til etikasining bu xususiyatlari ona tilining shakl va birliklarini tushunish hamda o'zlashtirish bilan bir vaqtda spontan ravishda shakllanadi. Boshqa tomondan, inson hayoti davomida ong nazorati ostida lingvistik etika va lingvistik did o'sa-di, ya'ni qadriyatlardek dinamik rivojlanib boradi.

Natija va muhokama. Jadidlarning ilmiy merosini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganar ekanmiz, biz doimo ularning lingvistik etikasi, lingvistik faktlar va hodisalarga nisbatan o'ta obyektivligi, o'sha davr lingvistik hayoti haqida ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berganining guvohi bo'lamiz. Zero, til va xalq mavjudligining ma'lum bir bosqichiga tegishli haqiqiy lingvistik holati - ma'lum bir tilning ona tilida so'zlashuvchilari bilan belgilanadi.

Maqolada A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini aksiolingvistik jihatdan o'rgandik. Ya'ni, o'sha davrdagi ustuvor qadriyatlar va ularning voqelanishi, mazkur qadriyatlarining xalq uchun dolzarbligi qay darajada izohlanganiga e'tibor qaratdik. Zero, jadid ma'rifatparvarlari tanlagan va muhim deb bilgan qadriyatlar hozirgi zamon uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Asarning “Hifzi lison” bo‘limida ona tili, milliy til, lingvistik etika haqidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Mazkur misralarda oyinai hayoti, millatning ruhi til va adabiyotni baholovchi predikat sifatida aksiosferani shakllantirmoqda. “Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur”. A.Avloniy bu yerda o‘sha davrdagi lisoniy vaziyat haqida ma‘lumot beryapti. Ya‘ni, rus tilining rasmiy til sifatidagi mavqeyi oshib borayotgani, rus tilini o‘rganish davr talabi ekanligini anglash mumkin. Shuningdek, “...hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak **hayot va saodatimiz** uchun **osh va non kabi** keraklik narsadur” jumlasida lingvistik faktlar va hodisalarga nisbatan o‘ta obyektivligi namoyon bo‘lmoqda. “**Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur**”da ona tilida so‘zlash, ona tili ta‘limi, milliy tilni asrash va ri-vojlantirish singari muhim masalalar o‘rtaga tashlangan.

“Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar **xususiy og‘iz** orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki **so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini** o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi **fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini** so‘zlagan so‘zidan bilurlar”. Zero, milliy til insonlarni birlashtiruvchi vazifani bajarish bilan birga, milliy mentalitetni aks ettiradi. Lisoniy shaxs bir vaqtning o‘zida madaniy shaxs ham hisoblanadi. Ushbu misralarni tilga sotsiolingvistik va aksiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ya‘ni, “xususiy og‘iz orasi-dagi tilni saqlamak”da har bir inson til va uni asrashga mas‘ulligi, tilning shaxsiy qadriyat darajasi ifoda etilib, shaxsning kommunikativ salohiyatiga ham e‘tibor qaratilgan. “**Xususiy og‘iz orasidagi til**” nutqni ifodalamoqda. Insonning nutq madaniyati va uni o‘stirish ko‘zda tutilgan. Zero, Yangi O‘zbekistonning ichki til siyosatida ham “Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish” davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlardan deb belgilangan [1;PF].

Har bir nutq xususiy va individuallik kasb etib, egasi haqida ma‘lumot beradi. Keyingi misralarda so‘z intellektual va axloqiy jihatdan baholangan: So‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon **tarozusi**”. So‘zning inson hayotidagi, inson va jamiyat munosabatlaridagi o‘rni uning mavqeyi, ilm va ma‘naviyatini belgilovchi mezon bo‘lib voqelangan. “Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”da so‘z qadriyati fikr, niyat, ilm, quvvat, qadr va qiymat leksemalarida so‘z qadriyati alohida aksiosferani tashkil etgan. So‘z qadri tadrijiy ketma-ketlikda ifodalanar ekan, baho darajasi ortib borgan.

Qadriyatlar mavhum tushunchalar orqali ifodalanar ekan, ularning ma‘no darajasida farqlar kuzatiladi. Qadriyatlar aniq otlar bilan ifodalanish darajasidan mavhum otlar orqali ifodalangan tushunchalar tomon tadrijiy, ketma-ketlik asosidagi ma‘noni namoyon etadi [5;35-b.]. Aniq fanlardagi shkala usulini qadriyat va bahoni ifodalash usuli sifatida qo‘llash mumkin.

Aksiologik maqsadlarda qo‘llanadigan shkalalar aksiologik shkalalar hisoblanadi. Aksiologik shkalada o‘z ifodasini topgan inson qadriyatlari tizimi rang-barang xususiyatga ega. Baho shkalasi bahoning obyektiv va subyektiv xarakteri, norma va etalon belgilarini namoyon qiladi [6;83-b.].

Xulosa. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida til ta‘limi qadriyat sifatida uch aksiologik blokda, ya‘ni, til ta‘limi davlat darajasidagi, til ta‘limi ijtimoiy qadriyat va til ta‘limi shaxsiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida milliy tilni asrash, rivojlantirish, nutq madaniyati, lisoniy etika qadriyat sifatida adibning dunyoqarashi va maqsadlarini ifodalamoqda. A.Avloniy ham millatparvar, ham tilshunos bo‘lib o‘sha davr lisoniy vaziyati haqida obyektiv ma‘lumotlar bera olgan. Asarning “Hifzi lison” bo‘limida milliy tilni saqlash, rivojlantirish, insonlarning nutq madaniyati o‘stirish, xori-jiy til, rus tilini o‘rganish ustuvor qadriyatlar sifatida ko‘rsatilgan. Demak, jadid adabiyoti namunalarini maq-qol va matallardek qadriyatlar tarjimoni sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-farmoni. <https://lex.uz/docs/-5058351>.

(2). A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2004, 96-bet.

(3). Дмитриева Н.М. К вопросу о церковнославянском языке и языковой этичности. Библия и национальная культура. Межвуз. сб. научн. ст. и сообщ. Пермь, Пермский государственный университет, 2004, с. 311–312.

(4). Богданова Л.И. Оценки и ценности в зеркале словарей русского языка. Когнитивная лингвистика. Аксиологическая семантика. Вестник РУДН, 2017, серия, Лингвистика, с. 734.

(5). Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. М., “Академия”, 2004, с. 6.

(6). Komilova G. Methods of analysis of values reflected in proverbs (2022). International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), p. 34–43. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05>.

(7). Komilova G. O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Monografiya, Toshkent, 2022, 108-bet.

(8). Самойлова Г.С. Язык как ценность: научное наследие Н.Д.Русинова и современность. Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2013, № 6(2), с. 214–217.

(9). Самойлова Г.С. Языковые ценности как основа формирования человека культуры. Нижегородское образование, 2016, 2, с. 51–58.

Murhanova Nilufar Yigitaliyevna (Andijon davlat Chet tillari instituti “Ingliz tili o‘qitishning integrallashgan kursi” kafedrası arab tili o‘qituvchisi)

O‘ZBEK TILIDA QO‘LLANILAYOTGAN ARAB TILIGA OID TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. O‘zbek tilidagi diniy va ilmiy asarlarda ko‘plab arabcha atamalar, jumladan, kitob, ilm, fikr, zuhd kabi so‘zlar uchraydi. Arab tili Sharq falsafasi va islom ilmi orqali madaniyatimizga katta hissa qo‘shgan. O‘zbek tilidagi arabcha so‘zlarning lingvokulturologik jihatlari O‘zbekiston tarixi, madaniyati va diniy merosi bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlar: arab tili, madaniyat, lingvokulturologiya, Sharq falsafasi, terminlar.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В религиозных и научных произведениях в узбекском языке встречается множество арабских терминов, в том числе такие слова, как *китаб*, *илм*, *фикр*, *зухд*. Арабский язык внес большой вклад в нашу культуру посредством восточной философии и исламской науки. Лингвокультурные аспекты арабских слов в узбекском языке тесно связаны с историей, культурой и религиозным наследием Узбекистана.

Ключевые слова: арабский язык, культура, лингвокультура, восточная философия, термины.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ARABIC TERMS USED IN UZBEKISTAN

Annotation. In religious and scientific works in the Uzbek language, there are many Arabic terms, including words such as *kitab*, *ilm*, *fikr*, *zuhd*. Arabic language has made a great contribution to our culture through Eastern philosophy and Islamic science. Linguistic-cultural aspects of Arabic words in the Uzbek language are closely related to the history, culture and religious heritage of Uzbekistan.

Key words: Arabic language, culture, linguistic culture, Eastern philosophy, terms.

Kirish. Dunyo tilshunosligida nutq egasi tinglovchi yoki o‘quvchiga o‘z fikrini aniq, lo‘nda va tushunarli qilib yetkazishi uchun tilning ta‘sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi tobora ko‘proq e‘tibor jalb qilmoqda. O‘zbek tilshunosligida madaniy qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi milliy konseptosferani antoprotsentrik yo‘nalishda o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Tilning turli xalqlar hayotidagi funkcionalligi hamda lingvokognitiv, lingvokulturologik mohiyatiga asosiy e‘tibor qaratilayotganligini alohida ta‘kidlash joiz. Burchnig turlari va modellarini ochib beradigan hamda odamlarning oilaviy, qarindoshlik, kasbiy, do‘stlik, qonuniy, diniy munosabatlaridagi milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon qiluvchi leksik, frazeologik, paremiologik birliklarning turli diskurslarda namoyon bo‘luvchi jihatlarni tahlil qilish bugungi kunda o‘ta dolzarbdir. So‘nggi yillarda insoniyat ijtimoiy-ma‘naviy hayotidagi yangiliklar – globallashuv, integratsiya, “davri shiddati va ruhi” – inson omili ekanligi va bu inkor qilib bo‘lmas haqiqat (“azaldan to abad”) ekanligi ilm-fan (bilim–tafakkur)ning barcha jabhalarida (aniq, tabiiy, ijtimoiy...) o‘z aksini topgani hech kimga sir emas. Ilm-fandagi bu hodisa lingvistik tadqiqotlarda “olam va odam konsepti” (lingvokulturologik konsept yoki olamning lisoniy manzarasi – muqoyasa bizniki) tushunchasining mutaxassislar diqqat markaziga aylanganligi va “konsept” tushunchasi yangicha mohiyat-e‘tibor kasb etganligi hozirgi zamon tilshunosligi yangi yo‘nalish metodlari bilan isbotlanadi. Umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Fon Gumboldt tilni: 1) mohiyatiga ko‘ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat; 2) tuzilishiga ko‘ra butunlik, yaxlitlik(sistema); 3) vazifasiga ko‘ra, ijtimoiy hodisa sifatida belgiladi [1] va shu asosida hozirgi zamon tilshunosligi turli ildiz va yo‘nalish topdi. Bu ildiz va yo‘nalishlar tarixan bir bo‘lsa-da, antroposentrik tilshunoslik mohiyat e‘tibori – diqqat markazida inson omili bilan peshqadam tilshunoslikka aylandi va lisoniy faoliyat, lingvistik hodisalarni inson, uning dunyoqarashi va ongi (bilim – tafakkur, ong, aql, zakovat, fahm, farosat tamiz, idrok, fikr, tasavvur, tushuncha, xotira, reja, zehn, fasohat, zakiylik, his-tuyg‘u.)ga eng yaqin munosabatda – konseptuallikda ko‘rib chiqishni taqazo qiladi. O‘zbek tilidagi arabcha

so'zlarning lingvokulturologik jihatlari O'zbekiston tarixi, madaniyati va diniy merosi bilan chambarchas bog'liq. Arab tilidan olingan so'zlar, ayniqsa, islom dini tarqalishi bilan birga O'zbekiston madaniyatiga kirib kelgan va shu paytgacha xalq ma'naviyatining bir qismi bo'lib qolgan. Ushbu so'zlarning lingvokulturologik jihatlari asosan quyidagi asoslarda tahlil qilinadi:

1. **Diniy-ma'rifiy terminlar.** Ko'plab arabcha so'zlar O'zbekistonga diniy terminologiya orqali kirib kelgan. Masalan, **namoz, ro'za, zakat, duo, taqvo** kabi so'zlar islom dinining asosiy ibodatlarini ifodalaydi. Bu so'zlar o'zbek tilida keng qo'llaniladi va diniy hayot bilan bog'liq turli lingvistik va ma'naviy ma'nolarni o'zida mujassam qiladi.

2. **Adabiyot va madaniyatdagi o'rni.** O'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodida arab tilidan olingan so'zlar keng tarqalgan. Arabcha so'zlarning ko'plab madaniy qirralari o'zbek adabiy merosi orqali yetkazilgan. Masalan, **shoir, ruboyat, hikmat** kabi arabcha so'zlar Sharq adabiyoti va falsafasida katta ahamiyat kasb etib, ular orqali xalqona donolik va falsafiy qarashlar yetkazilgan.

3. **Lingvistik xususiyatlari va fonetik o'zgarishlar.** O'zbek tiliga kirgan arabcha so'zlar ko'pincha fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilgan. Masalan, arab tilidagi so'zlarda uchraydigan ba'zi tovushlar o'zbek tilida yo'qligi sababli so'zlarning talaffuzi va yozilishi o'zgargan. Shuningdek, grammatik jihatdan ham ba'zi o'zgartirishlar mavjud, masalan, arab tilidagi ma'lum bir grammatik shakllar o'zbekcha uslubga moslashtirilgan.

4. **Dunyoqarash va qadriyatlarda o'z aksini topishi.** Arabcha so'zlarning ayrimlari orqali o'zbek madaniyatida e'tiqod, taqvo, va kamtarlik kabi qadriyatlar ifodalanadi. Bu so'zlar xalq orasida keng tarqalgan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan so'zlarga aylangan. Masalan, **halol, harom, sabr** kabi so'zlar o'zbek xalqining qadriyatlarini ifoda etadi va ijtimoiy hayotda katta o'rin egallaydi.

5. **Ilm-fan va falsafadagi o'rni.** Arab tilidan o'zbek tiliga kirgan ilmiy va falsafiy terminlar, xususan, matematik va astronomiyaga oid terminlar ilm-fan rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, **hisob, jabr** (matematika sohasida algebra tushunchasi), **tibbiyot** kabi so'zlar Sharq ilmiy merosining O'zbekistonda rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy antroposentrik tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda til egasining fundamental tushunchalari va olamning lisoniy manzarasi prizmasi orqali lingvistik faktlar va hodisalar tahlil qilinadi. Inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy ijtimoiy-tarixiy tajribaga asoslangan til yordamida tushunishga qodirdir. Olamning lisoniy manzarasi insoniyatning ijtimoiy xotirasi va tajribasini o'zida aks ettiradi. Shu tariqa, inson olamning lisoniy manzarasida markaziy o'rinni egallaydi [3]. Ijtimoiy xotira va insoniyat tajribasi olamning lisoniy manzarasida aks etishi, unda insonning til vositasida o'zini individ sifatida modellashtirishi inson ongida o'zgarish yasashi orqali yuz beradi. Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslikda antroposentrizmning ontologik mohiyatini belgilaydi. Ushbu muammo bo'yicha fikrlarni O'.Yusupov, D.Ashurova, A.Abduazizov, Sh.Safarov, M.Djusupov, A.Mamatov kabi bir qator o'zbek olimlarining ishlarida ham kuzatishimiz mumkin [2]. Arabcha so'zlarning lingvokulturologik tadqiqoti O'zbekiston madaniy, tarixiy va ma'naviy merosini yanada chuqurroq o'rganishga va tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar O'zbekistonda milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o'rin tutadi. O'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan so'zlarning lingvokulturologik jihatlari yana chuqurroq o'rganish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish mumkin. Jamoatchilik qadriyatlari va odob-axloqiy normalar alohida ahamiyat kasb etadi. Arab tilidan kirgan so'zlar o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari va jamoatchilik qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, **adab, odib, sabr, tahorat** kabi so'zlar orqali shaxsiy tozalik, odob, xulq-atvor va hurmat kabi tamoyillar ifodalanadi. Bular odatda o'zbekcha tarbiya va madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, xalq orasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil va natijalar. Davlat va huquq terminologiyasi jamiyat aloqa aralashuvida muhim o'rin egallaydi. Arabcha so'zlarning ayrimlari davlat boshqaruvi va huquq sohasiga kirib kelgan. Masalan, **amir, sulton, hakam, qozi** kabi so'zlar o'zbek madaniyatida davlat tuzilmasi va boshqaruv jarayonlariga ta'sir ko'rsatib kelgan. Bu terminlar tarixan O'zbekiston hududida o'z ta'sirini o'tkazgan davlat tuzilmalari va huquqiy tizimlar orqali yetib kelgan va uzoq yillar davomida ishlatilgan. Arab tilidan kirib kelgan so'zlar ilmiy va diniy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. O'zbek tilidagi diniy va ilmiy asarlarda ko'plab arabcha atamalar, jumladan, **kitob, ilm, fikr, zuhd** kabi so'zlar uchraydi. Arab tili Sharq falsafasi va islom ilmi orqali madaniyatimizga katta hissa qo'shgan. O'zbek adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband va Abdurauf Fitrat kabi buyuk allomalar asarlarida arab tilining ta'siri yaqqol ko'rinadi. Ushbu so'zlar diniy-tasavvufiy mazmuni yetkazib, xalqni axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Ilmiy ishning maqsadi. Tarixiy-madaniy o‘zgarishlarda o‘zbek madaniyati va urf-odatlarini ifodalash va talaffuz qilishda arab tili terminlari keng qo‘llaniladi. Arabcha so‘zlarning ko‘plab talaffuz va mazmun jihatidan o‘zgarishi xalq nutqida va turmush tarzida qo‘llanishiga ta’sir etgan. Misol uchun, “duo” so‘zi arab tilida “so‘rash” yoki “iltijo” ma’nosini bersa, o‘zbek tilida [4] u faqat ibodat mazmunida ishlatiladi. Bu kabi o‘zgarishlar arabcha so‘zlarning mahalliylashib, madaniyat bilan uyg‘unlashganini anglatadi. Atama va tuzilmalar orqali o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarning shakllanadi. Arab tilidan olingan so‘zlar o‘zbek tilida yangi ma’nolar hosil qilishda ham ishlatilgan. Masalan, **savob** so‘zi “foйда keltiruvchi amallar” ma’nosini anglatrsa, **savob ish** kabi atamalar xalqning ijtimoiy-huquqiy ongini rivojlantirish va mehr-oqibat tamoyillarini ifoda etishda qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek diskursida ishlatilayotgan juda ko‘p so‘zlar arab tilidan o‘z yoki boshqa ma’nolarda ko‘hib o‘tgan. Masalan, o‘z ma’nolarida ishlatiladigan so‘zlar ب عى (bay’) so‘zi ko‘proq bozorlarda qo‘llaniladi. Bu so‘z sotishni boshlash ma’nosini anglatadi. “Ilmiy” so‘zi م لاء so‘zidan olingan bo‘lib, o‘z ma’nosida yangi ilmga oid ma’nosini bildiradi. “Xorijiy” (ج ي جر) so‘zi ham arab tilida tashqi dian ma’noni anglatadi, xuddi shu ma’no o‘zbek tilida ham qo‘llaniladi. *Halol* so‘zi o‘zbek tilida toza, pok ma’nolarini bildirsa, arab tilida o‘zagidan ruxsat etilgan yoki boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin. Harom (ح ل) so‘zi o‘zbek tilida nopok ma’nosini, arab tilida esa man etilgan ma’nosini anglatadi. (م ح ل) so‘zi arab tilida go’sht ma’nosini, o‘zbek tilida esa go’shtning suyaksiz qismini anglatadi. (ل ا و ل) so‘zi arab tilida ranglar ma’nosida, o‘zbek tilida esa turli-tuman ma’nosini ifodalaydi. Kamalakning ناول ranglari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Arab tilidan olingan so‘zlarning bunday lingvokulturologik tadqiqi O‘zbekistonda o‘zbek tilining rivojlanishiga hamda milliy o‘zlik va qadriyatlarni anglashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Зикриллаев Ф. Рух ва тил. Тошкент, 2018, 5–betlar.
- (2). Юсупов У.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида. Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент, 2011, 49-бет.
- (3). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, “Санзор”, 2006.
- (4). Ўзбек тилининг изоҳли лугати. А.Мадвалиев тахрири остида, Т., 2005–2008, “Б”–Х, 384-бет.

Nematova Nargiza Azimovna (NavDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasini ingliz tili o‘qituvchisi; nematovanargiza2019@gmail.com; 0000-0003-4699-3071; УДК 811.111)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI NUTQIY ALOQADA KONNOTATIV SEMANTIKANING PRAGMATIK AHAMIYATI

Annotasiya. Maqola muayyan lingvistik shaxsning nutqi, unga xos bo‘lgan nutq har doim ham, aftidan, amal qilishi kerak bo‘lgan nutq xatti-harakatlari normalari bilan bevosita bog‘liq emas. Milliy tilning har qanday ona tilida so‘zlashuvchisi o‘zining va boshqa odamlarning nutqidagi barcha bu birliklarni osongina va aniq aniqlay oladi va ajrata oladi, shuning uchun so‘zlovchi ulardan foydalanishni nazorat qilish (bu, ayniqsa, jargon va argotizm uchun to‘g‘ri keladi) va unga begona muhitda ulardan voz kechish, aksincha, “o‘z” orasida nutqda o‘z xohishiga ko‘ra aktualizatsiya qilishi kerakligi va buni tarjimada o‘z o‘rnida ishlatilishi, foydalanilishi samarali chiqishi uchun o‘sha milliy ishlatadigan leksik birliklardan foydalanilishiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nominativ, makrokomponent, jargon, frazeologiya, konnotativ, ekstralingvistika.

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОННОТАТИВНОЙ СЕМАНТИКИ В РЕЧИ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Статья не имеет прямого отношения к нормам речевого поведения, которым всегда должна следовать речь конкретного языкового человека, характерная для него речь. Все эти единицы в своей и чужой речи корректор любого родного языка национального языка может легко и точно идентифицировать и различать, поэтому корректировщик может контролировать их употребление (особенно это касается сленга и арготизма) и отказываться от них в речи. Чуждую ему среду или, наоборот, которую он должен актуализировать в речи по своей воле, и что он должен использовать лексические единицы, используемые этим гражданином, чтобы быть эффективным при переводе.

Ключевые слова: прагматика, номинатив, макрокомпонент, сленг, фразеология, коннотатив, экстралингвистика.

PRAGMATIC IMPORTANCE OF CONNOTATIVE SEMANTICS IN SPEECH IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *The article is not directly related to the norms of speech behavior that the speech of a particular linguistic person, the speech characteristic of him, should always follow. Any native speaker of a national language can easily and accurately identify and distinguish all these units in his own and other people's speech, so the speaker can control their use (this is especially true for slang and argotism) and it is aimed at him that he should abandon them in a foreign environment or, on the contrary, actualize them according to his own will in the speech among "his" and use the lexical units that are used by that national in order to use them in the translation.*

Key words: *pragmatics, nominative, macrocomponent, slang, phraseology, connotative, extralinguistics.*

Kirish. Soʻzlarining nominativ maʼnolari maʼlum bir soʻzning oʻz maʼnosi va shu soʻzning koʻp maʼnoliligi, yaʼni polisemantik maʼnolari nazarda tutiladi. Nominativ maʼno toʻgʻridan toʻgʻri voqelik, harakat, holat yoki belgiga qaratilgan leksik maʼnodir. Bunday leksik maʼnoda insonning ichki hayot, undagi ijtimoiy tushuncha ham oʻz aksini topadi. Nutqda nominativ darajadagi soʻznii amalga oshirish uchun suhbatdosh bir qator til birliklarini oʻz oʻrnida foydalanadi. U gapni faqat optimal shaklda soʻzlashtiribgina qolmay, balki unga ekspressiv funksiyani ham berishga harakat qiladi va oʻzi uchun kerakli boʻlgan soʻzlarni leksikadan ajratib oladi yoki ajratib olgan soʻzlar maʼnosining konnotativ makrokomponentli soʻz va frazeologik birliklarni foydalanadi.

Adabiyotlar tahlili. Soʻzlovchi nutqida ishlatilgan soʻz va frazeologik birliklar maʼlumotlarini tahlil qilgan bir qator olimlar tajribalar natijalari va A.A.Zalevskaya, A.N.Leontiev, L.V.Saxarniy, R.M.Frumkin kabi olimlarning tadqiqotlari nutq maqsadini amalga oshirish uchun uning birliklari uchun ona tilini tanlash mexanizmi ham zarurdir degan fikrlarni oldinga surilgan. Yana T.G.Vinokur, K.A.Dolinin, Y.S.Stepanov, G.A.Formanyuklarning fikricha, soʻzning nominativ tashkil etilishini belgilovchi ekstralingvistik omillar yigʻindisida nutq predmeti va uning tinglovchi sherigiga munosabati bilan bogʻliq sabablar hal qiluvchi rol oʻynashi kerak boʻladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maʼlum bir ona tilida soʻzlashuvchining nutqini, u qoʻllagan soʻz va frazeologik birliklarning materiali boʻyicha maʼnoning konnotativ makrokomponenti bilan idrok etgan holda, nutqda pragmatik ahamiyatini uning lingvistik shaxsi (nutq) va muloqotdagi sherigiga boʻlgan munosabati haqida maʼlumot beradi.

Tahlillar va natijalar. Bir tomondan, soʻz va frazeologik birliklar ohangi, uning qay maʼnoda salbiy yoki ijobiy maʼnoda aytilganini soʻzlovchi oʻz nutqida namoyon qiladi. Bu esa tinglovchiga ogʻzaki muloqotni optimallashtirishga, yaʼni qisqa va tushunarli qilib yetkazishga va suhbatdoshning taʼsir kuchini noaniqligini kamaytirishga yordam beradi. Shuning uchun, shubhasiz, bu muloqotni osonlashtiradigan va tartibga soluvchi zarur va foydali hodisa hisoblanadi.

Boshqa tomondan, har qanday boshqa stereotiplar singari, konservativ, qatʼiy va muqarrar ravishda soddalashtiradigan, sxematiklashtiradigan yoki hatto haqiqatni toʻgʻridan toʻgʻri nutq stereotiplariga asoslanib, tinglovchi tomonidan suhbatdoshning soʻzlaridan pragmatik ahamiyatga ega boʻladi. D.Bolinger nuqtayi nazaridan koʻrib chiqish mumkin nutq stereotiplariga qattiq yoʻnaltirilganlik maʼruzachining bayonotlarida pragmatik ahamiyatga kasb etadi.

–Nima uchun stereotipga asoslanib, stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan emotsional boʻyoqdor va favqulodda barqaror boʻlgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining oʻziga xosligidir. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv maʼlumot beradi, boshqa xalqlar bilan bir xil ahamiyat kasb etishi, umuman, rad etishi ham mumkin.

“Nutq stereotiplariga boshqa stereotiplar soddalashtirilganda sxematiklashtirilganda bu nutq stereotiplari har bir tilga taalluqli boʻlmasligi mumkin. Shuning uchun “pragmatik ahamiyatga soʻzlashayotgan nutqning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda namoyon boʻladi. Tilning biz imkon beradigan shunday xususiyatlari bir-birlari adekvat maʼlumotga ega yoki aksincha” [1].

Masalan, ingliz tilida biznesmenlar oʻrtasida:

1) “Bag of snakes” – biznesda kutilmagan juda koʻp muammolarga duch kelganligini tushunish mumkin (A business situation with lots of unforeseen problems), Take that off-line – jim turing maʼnosini anglatadi. Ona tilida gaplashadigan barcha xalq orasida jargon, dialekt, frazeologik birliklardan oʻz nutqlarida obrazlarda foydalanishadi. Obrazlar har bir millatda turlicha qoʻllaniladi;

2) Donkey's years – eshaklar uzoq yashaganligi sababli uzoq vaqt koʻrmagan kishilariga inglizlar “Donkey's years” deyishadi, oʻzbek tilida esa bu, albatta, noaniq tushunchani beradi;

3) Flogging a dead horse. – O‘lik otni kaltaklash – hal qilib bo‘lmaydigan muammoga yechim topishga harakat qilishni anglatadi. O‘zbek tilida bunday holatda ”o‘lganni ustiga tepki qilmoq” jargoni juda mos keladi. “Horse” o‘zbek tilida ijobiy ma‘noni anglatadi, ingliz tilidagi konnotativ ma‘noni o‘zbek tilida salbiy ma‘no anglatib keladi. “You’re flogging a dead horse by asking Martha to move to the UK – she hates rain”. “Siz Martadan Buyuk Britaniyaga ko‘chib o‘tishni so‘rab, o‘lik otni kaltaklayapsiz (o‘lganni ustiga tepki qilyapsiz) – u yomg‘irdan nafratlanadi”;

4) Horses for courses.– Kurslar uchun otlar – bu mashhur gap bo‘lib, hammamizning didimiz har xil va bir kishiga mos keladigan narsa boshqa odamga ham to‘g‘ri kelmasligini anglatadi;

5) It’s brass monkeys outside. – Qattiq sovuqda ishlatiladi. Bu so‘zning kelib chiqishi juda sovuq bo‘lgan eshiklardagi mis tutqichlarga tegishli. Sovuqdan eshik tutqichini ushlaganizda qo‘lning yopishib qolishi, ya‘ni o‘ta darajada sovuqni bildiradi. Bu ma‘noga to‘g‘ri keladi, ammo maymunlarni bu jahonda ishlatilishi hatto britaniyaliklarni ham hayratda qoldiradi. O‘zbeklar esa bu o‘rinda “maymun” o‘rniga “eshakni muzlatadigan sovuq”ni ishlatishadi;

6) Keep your hair on. – can you lose your hair if you get too angry or excited? That’s what this idiom suggests. For example: “Keep your hair on – I only accidentally deleted your dissertation”. Sochingizni ushlab turing – haddan tashqari g‘azablansangiz yoki hayajonlansangiz, sochlaringiz to‘kilishi mumkinmi? Bu idioma nimani taklif qiladi. Masalan: “Sochingni ushlab tur – men tasodifan sizning dissertatsiyangizni o‘chirib tashladim”, o‘zbek tilida buni biz “tepa soching tikka bo‘lmasin” yoki “jahling chiqsa, burningni tishla” o‘rnida ishlatamiz. Demak, ikki tilda ham “soch” so‘zi asosiy o‘rinda ishlatilganini ko‘ramiz;

7) Not my cup of tea. – Mening piyola choyim emas – biror narsa sizga yoqmasa aytiladigan, dunyoqarashi, fikrlari bir-biriga mos tushmaganda aytiladigan gap. Masalan: “Mening yigitim futbolni yaxshi ko‘radi, lekin bu mening piyola choyim emas”. Bu menga yoqmaydi.

Yuqoridagi misollardan, tinglovchining, suhbatdoshning so‘zlaridan pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan buzuvchi chiqishi, shuningdek, shaxsning boshqa odamlarni bilish subyektivi sifatida rivojlanishi ko‘plab bosqichlar va individual ong strukturasi bosqichlardan o‘tishi (bu chuqur o‘zgarishlarga mos kelishi) natijasi bo‘lishi mumkin va xato va noto‘g‘ri tushunchalardan holi emas [2]. Shu sababli turli subyektlar tomonidan ma‘ruzachining bayonotlaridan olinadigan pragmatik ahamiyat ularning mazmuni, individual xususiyatlarning batafsil darajasi va olingan ma‘lumotlarning yetarliligi bilan farq qilishi mumkin [3]. (A.A. Zalevskaya, I.A.Sternin). Bunday bilimlarning arziyasini fondi yoki insonda endigina shakllana boshlagan fond muqarrar ravishda suhbatdoshning gaplaridan pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan adekvatlikning past darajasiga olib keladi.

Muayyan lingvistik shaxsning nutqi, unga xos bo‘lgan nutq har doim ham, aftidan, amal qilishi kerak bo‘lgan nutq xatti-harakatlari normalari bilan bevosita bog‘liq emas. Milliy tilning har qanday ona tilida so‘zlashuvchisi o‘zining va boshqa odamlarning nutqidagi barcha bu birliklarni osongina va aniq aniqlay oladi va ajrata oladi, shuning uchun so‘zlovchi ulardan foydalanishni nazorat qilish (bu, ayniqsa, jargon va argotizm uchun to‘g‘ri keladi) va unga begona muhitda ulardan voz kechish yoki aksincha, “o‘z” orasida nutqda o‘z xohishiga ko‘ra aktualizatsiya qilishdir.

Odatiy va tasodifiy konnotatsiyalar ma‘noning konnotativ makrokomponentiga ega bo‘lgan ma‘lum nominativ birliklarning ishlatilishi ma‘lum bir ona tilida so‘zlashuvchi uchun odatiy, avtomatik va deyarli ongsiz bo‘lsagina, pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan taqdiridagina ma‘lumot beradi. Nutq faoliyati doirasida ma‘noning konnotativ makrokomponentiga ega bo‘lgan so‘zlar va frazeologik birliklarning sub‘ekti tomonidan aktualizatsiya uning bayonotlarining pragmatik ahamiyatini buzishga olib kelishi mumkin, bu hodisaning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ba‘zi vaziyatlarda kuzatiladi.

Xulosa. Shunday qilib, odatda muloqot jarayonida biz nutqimizga xos bo‘lgan shaxsning individual o‘zini namoyon qilish funksiyasini nazorat qilmaymiz: biz o‘zimizni odatiy nutq xatti-harakatlarimiz bilan ongsiz ravishda tavsiflaymiz va suhbatdoshga shaxsiy munosabatimizni bildiramiz. Bunday holda, bizning bayonotlarimizning pragmatik ahamiyati haqiqatdir. Shu bilan birga, jamiyat rivojlanishining hozirgi davrida deyarli barcha ona tilida so‘zlashuvchilar ma‘lum bir etnik-lingvistik hamjamiyatda ishlaydigan turli xil aloqa vositalariga ega: turli funksional sohalarda qo‘llaniladigan bir tilning mavjudligi shakllari (masalan, adabiy til – dialekt, adabiy til – so‘zlashuv nutqi, adabiy til–yoshlar jargoni va boshqalar). Bunday so‘zlovchilar muloqotning ijtimoiy funksiyalariga qarab o‘zlariga kerak bo‘lgan kommunikativ quyi tizimdan tanlab foydalanishlari mumkin, shu jumladan, suhbatdoshga moslashish, boshqa, odatda, ko‘proq (kamdan kam) yaratish uchun “begona” til vositalaridan foydalanishlari ham foydadan xoli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Болинджер Д. Истинная проблема лингвистики/Азы и моделирование социального взаимодействия. По ред. В.В.Петрова. М., "Прогресс", 1987, с. 23–43; Bolince D. 1987, 29–30 с.
- (2). Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. М., изд-в Моск. ун-та, 1982, с. 199, 1982, с.7.
- (3). Залевская А.А. Индивидуальное знание. Специфика и принцип функционирования. Тверь, изд-в Тверск. ун-та, 1992, 135 с.
- (4). Залевская А.А. Слово в лексиконе человека: психолингвистическое исследование / А.А. Залевская. - Воронеж: Изд-во Воронеж, гос. ун-та, 1990.
- (5). Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Москва : Флинта, Наука, 2002.
- (6). Залевская, А.А. (2001). Психолингвистический подход к проблеме концепта. В кн. И.А.Стернина (Эдс.). Методологические проблемы когнитивной лингвистики, 36–44. Воронеж, издательство Воронежского государственного университета [Methodical problems of cognitive linguistics].

Nurmetov Jasurbek Nurmuxamatovich (Urganch davlat universiteti 1-kurs doktoranti) TARJIMADA REALIYA

Annotatsiya. Quyidagi maqola tarjimaning eng qiyin muammolaridan biri, ya'ni realiya tarjimasi haqida. Maqolada, birinchi navbatda, realiyaga berilgan turli xil ta'riflar va atoqli otlar tarjimasi masalalari yoritilgan, so'ngra realiyani bir tildan boshqa tilga qanday tarjima qilish bo'yicha ba'zi takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: realiya, atoqli otlar, begonalashtirish, mahalliyashtirish, saqlash, qo'shish, tashlab ketish, globallashtirish, mahalliyashtirish, o'zgartirish, yaratish, transliteratsiya, transpozitsiya.

Нурметов Джасурбек Нурмухаматович (аспирант 1 курса Ургенчского государственного университета)

РЕАЛИИ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В данной статье речь идёт об одной из основных проблем переводоведения-трудностях перевода реалий. Рассматриваются в первую очередь вопросы перевода имён собственных и описания реалий. Предложены рекомендации по переводу реалий с одного языка на другой.

Ключевые слова: реалии, имена собственные, форенизация, одомашнивание, сохранение, дополнение, опущение, глобализация, локализация, трансформация, создание, транслитерация, транспозиция.

Nurmetov Jasurbek Nurmukhamatovich (1st-year PhD student of Urganch State University)
REALIA IN TRANSLATION

Annotation. The following article is about one of the most challenging problems of translation that is translation of realia. It firstly deals with definitions of realia and translation issues concerning proper names and then offers some solutions on how to translate realia from one language into another.

Keywords: realia, proper names, foreignization, domestication, preservation, addition, omission, globalization, localization, transformation, creation, transliteration, transposition

Kirish. Ko'pchilik olimlar aytganidek, "Tarjima – bu san'at". Ushbu san'atning ustasi bo'lish uchun tarjimonlar milliy xos so'zlarni juda yaxshi bilishlari kerak. Florin ta'kidlaganidek, realiya mahalliy yoki tarixiy rangni ifodalash orqali matnga madaniy lazzat beradi. U bu atamaga quyidagicha ta'rif bergan: "Realia (lotincha realis) – bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga xos bo'lgan, boshqa xalqqa begona narsa va tushunchalarni bildiruvchi so'zlar va so'z birikmalaridir. Ular mahalliy yoki tarixiy rangni ifodalaganligi sababli, ularning boshqa tillarda aniq ekvivalenti yo'q" [1;122–128-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'pgina olimlar madaniyatga xos so'zlar, ularning xususiyatlari, tarjima muammolari va strategiyalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazdilar, ular, odatda, milliy xos so'zlar tasvirlash uchun turli atamalar taklif qilishgan. Masalan, Nida (1945) ularni "madaniy xorijiy so'zlar", Vlachov va Florin (1970) "realiya", Nida va Reybern (1981) "taxminiy so'zlar", Nyumark (1988) "madaniy so'zlar", Oksaar (1988) "cultureme", Beyker (1992, 1995) "madaniyatga xos tushunchalar", Foreman (1992) "madaniy ma'lumotnomalar", Nedergaard-Larsen (1993) "madaniyat bilan bog'liq muammolar", Leppihalme (1995) "madaniy zarbalar", Franko Aixela (1996) "madaniyatga xos narsalar", Robinson (1997) "madaniyatga bog'liq hodisalar", Mayoral va Munoz (1997) "madaniy jihatdan belgilangan segmentlar", Davies (2003) "Madaniyatga xos narsalar", Hagfors (2003) "madaniyatga bog'liq elementlar", Pedersen (2005, 2007, 2010) "ekstralingvistik madaniyat ma'lumotnomalari", Ramiere (2006) "madaniyat-

ga xos havolalar” kabi atamalarni ishlatishgan. Ushbu maqolada biz realiyani “madaniy iste’mol qilinadigan so‘zlar” deb ta’riflashni taklif qilamiz, chunki bu so‘zlar madaniyatning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Milliy xos so‘zlarni to‘liq anglab yetishimiz uchun, birinchi o‘rinda, o‘sha madaniyatni chuqur o‘rganishimiz lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada biz milliy xos so‘zlarni tarjima qilishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammolarni va tarjimadagi yo‘qotishlarni o‘rganish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalandik.

Tahlil va natijalar. Ko‘pchilik olimlar realiyaga juda uzoq ta’rif berishsa-da, biz tilshunoslikda atamalarni qisqartirishga harakat qilishimiz va madaniyatga xos so‘zlarni global miqyosda tavsiflash uchun bitta atamani qabul qilishimiz kerak deb hisoblaymiz. Agar biz bitta obyektни turli yo‘llar bilan va turli atamalar bilan atasak, ular olimlar o‘rtasida tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Misol uchun, Davies (2003) va Franko Aixela (1996) “Madaniyatga xos narsalar” atamasini berishgan, ammo bizning nuqtayi nazarimizdan, ular bu yerda qisman xatolikka yo‘l qo‘yishgan, chunki “narsa” so‘zini tushunish biroz qiyin. Gergana Apostolova yakka tartibdagi nomlarni tarjima qilishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan turli jihatlarga ishora qiladi: Tarjimada nomlarning o‘zgarishi tarjimonning fonetik va fonologik kompetensiyasi, morfologik kompetensiyasi, kontekstni to‘liq tushunishi, unga to‘g‘ri munosabati bildirishi lozim.

Realiya tarjiması. Turli olimlar realiyani tarjima qilish uchun turli strategiyalarni taklif qilishgan. Keling, ulardan ba’zilarini tahlil qilamiz, keyin o‘z strategiyamizni taklif qilamiz. Olimlarning o‘ziga xos ismlar haqidagi ta’riflari – “O‘ziga xos ismlar tavsiflovchi bo‘lmashligi mumkin, lekin ular ma’lumotga ega emasligi aniq” [9;182–194-b.], Tymoczko’ning ta’kidlashicha, tegishli ismlar “irqiy, etnik, milliy va diniy o‘ziga xoslikni” ko‘rsatadi [11;50–75-b.], Xejvoskiyning ta’kidlashicha, tarjima adabiyotida o‘ziga xos nomlar qo‘shimcha vazifani bajaradi, ya’ni, “madaniy o‘zlik”ning mavjudligini ochib beradi va o‘quvchiga matn boshqa madaniyatda paydo bo‘lganligidan dalolat beradi [5;93–100-b].

Realialarni tarjima qilishning turli strategiyalari. Daviesning fikriga ko‘ra, realialarni tarjima qilishda tarjimon yettita strategiyadan foydalanishi mumkin: preservation, addition, omission, globalization, localization, transformation and creation.

“Preservation” bu tarjimon atamani qo‘shimcha tushuntirishsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilishi. [1;65–100-b.]. “Addition” tarjimon “asl elementni saqlashga qaror qilganda, lekin matnni zarur deb topilgan har qanday ma’lumot bilan to‘ldirishga qaror qilganda sodir bo‘ladi [1;65–100-b.].

“Omission” tarjimada matnning biron qismini butunlay tashlab ketishdir [1;65–100-b.]. Daviesning navbatdagi strategiyasi “globalization” bo‘lib, bu madaniyatga xos atamalarni neytral yoki umumiy bo‘lgan atamalar bilan almashtirish jarayonidir [1;65–100-b.]. “Localization” tarjimonlarning matnni auditoriya madaniyatiga bog‘lashga harakat qilishidir [1;65–100 p.]. “Transformation” milliy xos so‘zlarni fonologik va grammatik moslashuvdir. Devisning oxirgi strategiyasi “creation” deb ataladi va tarjimada qat’iy yoki butunlay farq qiladigan yoki u yerda mavjud bo‘lmagan atamalarni yaratishni anglatadi [1;65–100-b.].

Teo Hermansning fikricha, ismlarni tarjima qilishning kamida to‘rtta strategiyasi mavjud. «Ularni nusxalash mumkin, ya’ni, maqsadli matnda xuddi manba matndagidek takrorlanishi mumkin. Ular transkripsiya qilinishi, imlo, fonologiya va hokazolar darajasida transliteratsiya qilinishi yoki moslashtirilgan bo‘lishi mumkin [6;112–156-b.].

Farzanna Farahzodning ta’kidlashicha, shaxsiy nomlarni tarjima qilishda transliteratsiya va transkripsiya qo‘llaniladi [2;56–89-b.].

Linkoln Fernandes milliy xos so‘zlarni tarjima qilishning o‘nta usulni sanab o‘tgan [3;10–45-b.]. Ular rendition, copy, transcription, recreation, substitution, deletion, addition, transposition, phonological replacement, conventionality [3;10–45-b.].

Heikki Särkkäga ko‘ra esa milliy xos so‘zlarni tarjima qilishning to‘rtta strategiyasi mavjud [10;8–25-b.]:

- ular to‘liq bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirilishi mumkin;
- ular qisman ko‘chirilishi va qisman tarjima qilinishi mumkin;
- ularni turli nomlar bilan almashtirish mumkin;
- ulardan butunlay voz kechish mumkin.

Van Coillining o‘nta strategiyasi [12;123-b.]:

- 1) reproduksiya – milliy xos so‘zlarni o‘zgarishsiz qoldirish;
- 2) tarjima qilinmaydigan yoki qo‘shimcha tushuntirish – izoh shaklida yoki matnning o‘zida tushuntirishlarni qo‘shish;
- 3) kishi ismning umumiy ism bilan almashtirilishi;

- 4) o'rganilayotgan tilga fonetik yoki morfologik moslashish;
- 5) eksonim – ismni o'rganilayotgan tildagi o'xshashi bilan almashtirish;
- 6) manba madaniyatidan kengroq ma'lum bo'lgan so'z yoki bir xil funktsiyaga ega xalqaro miqyosda ma'lum so'z bilan almashtirish;
- 7) almashtirish – realiyani boshqa so'zlar bilan almashtirish;
- 8) muayyan ma'noga ega bo'lgan nomlarning tarjimasi;
- 9) milliy xos so'zlarni boshqa yoki qo'shimcha atamaga almashtirish;
- 10) o'chirish – barcha realiyalarni tashlab qo'yish.

Nyumark quyidagi strategiyalarni taklif qiladi [8;47–110 p.]:

Transference–tarjimada milliy xos so'zlarning o'zgarmagan holda o'tkazilish jarayonini bildiradi.

Recognized translation – tarjimada milliy xos so'zlarning boshqa rasmiy nom bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Functional equivalent – xorijiy tildagi so'zni madaniy neytral so'z yoki o'sha so'zning funksional xususiyatlariga ishora qiluvchi so'zlar to'plami bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Descriptive equivalent – bu bir tildagi so'zni madaniy neytral so'z yoki o'sha so'zni tavsiflovchi so'zlar to'plami bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Couplet–bu functional equivalent va descriptive equivalentlarni birlashtirish jarayonga ishora qiladi.

Bizning fikrimizcha, matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda, o'quvchilar, til o'rganuvchilar va kitobxonlar matnni yaxshi bilishlari va to'liq tushunishlari uchun matndagi realiyalarga ta'rif berishimiz kerak. Misol uchun, ular Ganaga (G'arbiy Afrikadagi Kot-d'Ivuar va Togo o'rtasidagi davlat) qarindoshlarini ko'rish uchun borishdi yoki ular Ganaga qarindoshlarinikiga borishdi (Sahifaning pastki qismida G'arbiy Afrikadagi Kot-d'Ivuar va Togo o'rtasidagi davlat).

Ba'zan, til o'rganuvchilarda yoki kitobxonlarda realiya tufayli matnni to'liq tushunishda to'siqlar paydo bo'ladi, chunki ular matndagi barcha realiyalarni bilishmaydi. Ular shunchaki har qanday matnni, ayniqsa, adabiy asarlarni o'qishni xohlashadi, bu holda ular uchun ma'noni yaxshi tushunish qiyin yoki ular realiya turlarini ajrata olmasligi mumkin. Masalan, bitta so'z ism yoki familiya, tashkilot nomi yoki brend nomi yoki hayvonning nomi bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz, tarjimonlar har doim iste'molchilarimizga tarjima qilayotgan har qanday matnning aniq tarjimasini taqdim etishimiz va tarjimada ma'no yo'qolishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishimiz kerak.

Maqolamizda ko'plab strategiyalarni muhokama qilib, biz yagona strategiyani barcha turdagi realiyani to'g'ri tarjima qilish uchun ishlatib bo'lmaydi, degan xulosaga keldik. Demak, tarjima jarayonida tarjimonlar kerakli strategiyalarni bilishlari va ulardan to'g'ri ma'noda foydalanishlari kerak. Bitta strategiya antroponimlar uchun juda yaxshi ishlashi mumkin, biroq u toponimlar uchun ishlamasligi mumkin. Shuni hisobga olgan holda, biz tarjimonlarga quyidagilarni e'tiborga olishlarini taklif qilamiz:

- matn turi (ilmiy, texnik, lingvistik yoki adabiy);
- auditoriya (ularning qiziqishlari, yoshi, madaniy kelib chiqishi).

Xulosa. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan xulosa chiqargan holda, shuni aytishimiz mumkinki, milliy xos so'zlar tarjimonlar uchun to'siq bo'lishi mumkin, ammo, agar ular ham tilshunoslik va madaniy jihatdan yaxshi ma'lumotga ega bo'lsalar (ikkita tilning ham madaniyatini yaxshi bilsalar va realiyalarni yaxshi bilsalar), ular uchun tarjima qilish yoki talqin qilish ancha oson bo'ladi. Bundan tashqari, realiyani tarjima qilishda tarjimonlar tarjima usullaridan foydalanishda moslashuvchan bo'lishi kerak, xususan, ular auditoriyaning ijtimoiy va madaniy kelib chiqishi, qiziqishlari, yoshi va boshqa muhim omillarni hisobga olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Davies, E.E., 2003. A Goblin or a Dirty Nose? The Translator: Studies in Intercultural Communication, 9 (1), p. 65–100.
- (2). Farahzad, F. (1995). Tarjome pishrafteh (1). [Translating advanced English text (1)]. Tehran, University of Payame Nour, p. 56–89.
- (3). Fernandes, L. (2006). Translation of names in children's fantasy literature: Bringing young reader into play, p.10–45.
- (4). Florin, Sider 1993. "Realia in translation". In Zlateva, Palma (ed.), Translation as Social Action. Russian and Bulgarian Perspectives. London, Routledge, p. 122–128.
- (5). Fornalczyk, A., 2007. Anthroponym Translation in Children's Literature – Early 20th and 21st Centuries. Kalbotyra, 57 (3), p. 93–100.

(6). Hermans, T. (1988). On translating proper names, with reference to De Witte and Max Havelaar. In M. J. Wintle (ed.) *Modern Dutch Studies. Essays in Honour of Professor Peter King on the Occasion of his Retirement.* London/ Atlantic Highlands: The Athlone Press, p. 112–156.

(7). Hervey, S. and Higgins, I. (1992). *Thinking Translation.* London and New York, Routledge, p. 166–190.

Sadikova Dildora Nizomovna (Navoiy davlat universiteti “Ingliz tili amaliy kursi” kafedrasida o‘qituvchisi; dilya.sadikova@list.ru)

INTERTEKSTUALLIK KATEGORIYASI VA ULARNING TAHLILI: ALLUZIYA, SITATA, RAMZ

Annotatsiya. Ushbu maqola postmodernizm adabiyotida keng uchraydigan intertekstuallikning (ya’ni matnlarning ma’noviy bog‘lanish) kategoriyalari bo‘lmish alluziya (talmeh) iqtibos va ramziylikning tur-lari va ular misollar asosida tahlil qilingan. Matnlardagi o‘zaro ma’noviy bog‘liqlik bilvosita ushbu kate-goriyalar asosida amalga oshirilib, nozik ishora berish, turli ramzlarning bir ma’noda kasb etishi va kelti-rilgan sitatalar matnga yanada o‘zgacha kuch berishi ta’kidlab o‘tilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, alluziya, sitata, ramzlar.

**Садикова Дильдора Низомовна (преподаватель кафедры практического курса английского языка
Навийского государственного университета; dilya.sadikova@list.ru)**

КАТЕГОРИИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ИХ АНАЛИЗ: АЛЛЮЗИЯ, ЦИТАТА, СИМВОЛ

Аннотация. В данной статье на основе примеров анализируются виды аллюзии (тальме), цитирования и символизма, представляющие собой категории интертекстуальности (духовной связи между текстами), распространенные в литературе постмодернизма. На основе этих кате-горий косвенно реализуется смысловая взаимосвязь в текстах, подчеркивается, что тонкие на-меки, приобретение разных символов в одном и том же значении, цитируемые цитаты придают тексту особую силу.

Ключевые слова: интертекстуальность, аллюзия, цитата, символы.

**Sadikova Dildora Nizomovna (Navoi State University, Department of Practical English Course; assistant
teacher; dilya.sadikova@list.ru)**

CATEGORIES OF INTERTEXTUALITY AND THEIR ANALYSIS: ALLUSION, QUOTATION, SYMBOLISM

Annotation. This article analyzes the categories of intertextuality – namely, allusion (talmeh), quotation, and symbolism—that are widely found in postmodern literature. It examines their various types and provides examples. The mutual semantic connections between texts are established indirectly through these categories, emphasizing how subtle references, the multifaceted meanings of various symbols, and the inclusion of quotations enhance the text’s impact and depth.

Key words: intertextuality, allusion, quotation, symbol.

Kirish. Intertekstuallik – bu bir matnni boshqa bir matndan shakllantirish jarayoni bo‘lib, o‘quvchi-lar matnlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va o‘xshashlikni tushunishlari mumkin.

Intertekstuallik tushunchasi hozirgi kunda filmlar va tasviriy san’atlar shakllarida ham ko‘rinadi. Bu nazariyaning ildizlari 20-asr boshlaridagi tilshunoslikdan kelib chiqqan bo‘lib, u, avval, boshida faqat ada-biy yozuvlarga nisbatan qo‘llanilgan. “Intertekstual” atamasini birinchi marta fransuz-bulg‘or adabiyot tan-qidchisi, yozuvchi Juliya Kristeva 1960-yillarda Baxtinning dialogizm va karnaval haqidagi g‘oyalarini tahlil qilish asnosida qo‘llagan. Bu atama lotincha *intertexto* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *to‘qish vaqtida aralashtirish* ma’nosini anglatadi. Uning fikriga ko‘ra, barcha matnlar *suhbatda* bo‘ladi va ularning o‘zaro bog‘liqliklarini to‘liq o‘qimasdan anglash qiyin bo‘lmaydi yoki tushunish mumkin emas (Abraham M.H, 2014) J.Krestiva nazariyasi asosida intertekstuallik postmodern tahlil va ishlarining asosiy xususiyatiga ay-landi. Lekin shunisi ahamiyatliki, intertekstuallik nazariyasi yaratilganidan ancha avval, uning amaliyoti mavjud bo‘lganini esda tutish muhimdir.

Bir matnning boshqa bir matnni keltirib o‘tishi, zikr qilishi yoki unga ishora qilishi *intertekstuallik* deb ataladi. Turli matnlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va bog‘liqlik, matn ma’nosining boshqa matnlar bilan munosabati tufayli shakllanishi yoki ta’sirlanishi bilan izohlanadi. Yozuvchi yoki shoir turli maqsadlarga ko‘ra intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Ularning maqsadiga muvoffiq holda, intertekstuallikni turli yo‘llar bilan namoyon qilishlari mumkin. Ular ishoralarni bevosita yoki bilvosita qo‘llashlari mumkin. Shuningdek, yozuvchi ishora orqali o‘z ilhom manbasini ta’kidlashi, hazil qilish yoki avvaldan nashr etil-gan asarni qayta sharhlash maqsadida ham intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Intertekstuallikning

ko'plab qo'llanish va unga bog'liq maqsadlari mavjudligi sababli har bir misolni tahlil qilib, bu usulning sabablari va metodologiyasini tushunish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Intertekstuallik nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan fransuz adabiyot tanqitchisi, yozuvchisi J.Krestivaning nazariyasini davomiy sifatida Jerar Jenett *transtekstuallik* nazariyasidagi birinchi kategoriya sifatida *intertekstuallik* tushunchasini muhokama qilgan va u transtekstuallik nazariyasida asosiy elementi sifatida xizmat qilishini olg'a surgan. Nazariya bir nechta elementlar yoki sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar yoki o'zaro ta'sirlarni ko'rsatadi. J.Jenett intertekstuallikni matnlar o'rtasidagi *hammavjudlik munosabati* sifatida ta'riflaydi, ya'ni, bir matnning boshqa bir matnda aniq yoki bilvosita mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Intertextuallik quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: iqtibos (quotation), alluziya, plagiat, pastish (Khajiyeva. 2023).

Intertekstuallik murakkab va ko'p qatlamli adabiy atama bo'lsa-da, uni, ko'pincha, keng tarqalgan "ishora" atamasi bilan aralashtirib yuborishadi (Share, 2005). Bu shuni anglatadiki, u majburiy va kontingent intertekstuallik bilan chambarchas bog'liq, chunki yaratilgan "ishora" tinglovchi yoki tomoshabinning asl manbadan xabardorligiga bog'liq. Biroq u ham tasodifiy hisoblanadi, chunki ishora, odatda, shunchalik tez-tez yoki tasodifiy ishlatiladigan ibora bo'lib, uning haqiqiy ma'nosi to'liq amalga oshirilmaydi.

Alluziya bu noma'lum ishora bo'lib, u hech qachon oshkorona tasvirlanmagan. I.William fikricha, Alluziya adabiy nazariyada muhim va doimiy mavzuga bog'liq bo'lib, ya'ni muallifning niyati qaysi talqinda o'rin egallashidir.

Alluziya va intertekst bu, birinchi navbatda, adabiyotda ushbu yo'nalishning rivojlanishi bilan tilda paydo bo'lgan postmodernizm birliklari sifatida tan olinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tilning taqdim etilgan hodisalari keng qamrovli o'rganilishni talab etadi, bu esa taniqli tilshunoslar uchun ushbu hodisalarni tahlil qilish va bir qator lingvistik farazlarni hal qilish imkonini beradi. Intertekstuallik nazariyasi matnlarni adabiy tahlil qilish bilan birga ko'rib chiqish va ularning mohiyatini turli nuqtayi nazardan o'rganishga imkon berdi. Alluziya, xuddi intertekst hodisasi singari, umuman olganda, o'zaro aloqador matnlarda bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi (I.William. 2001).

Alluziya adabiy uslub bo'lib, unda yozuvchi mashhur shaxs, joy, voqea yoki madaniy artefaktga nozik ishora qiladi. Bu orqali o'quvchining mavjud bilimlari asosida asarning ma'nosini chuqurlashtirishga intilgan bo'ladi. Bu usul yozuvchiga murakkab g'oyalarni ifodalash yoki muayyan kayfiyatni yaratish imkonini beradi. Yozuvchi batafsil tushuntirish yoki izoh berish o'rniga, o'quvchining oldingi bilimiga suyan-gan holda, matnni tezkor va samarali tarzda boyitadi.

Ishoraga boy bo'lgan ishlar orasida T.S.Eliotning she'riyati ko'pincha "kinoyali" deb ta'riflanadi, chunki u o'z asarlarida faqat oldingi bilimlar yordamida anglash mumkin bo'lgan ismlar, joylar yoki tasvirlarga murojaat qilish odatiga ega. Bu usul asarni o'qish tajribasini boyitishi mumkin, ammo tayyorgarligi yo'q o'quvchilar uchun Eliotning ijodi murakkab va tushunarsiz ko'rinishi mumkin.

Alluziyaning muhim jihatlari biri shundaki tanlangan ishora o'quvchi tomonidan tanish bo'lishi muhim, chunki ba'zi ishoralar aniq qilib talmeh qilinsa, ba'zilar bunday qilmaydi. Ba'zi o'rinlarda alluziya bu ishora sifatida e'tirof etilsa ba'zi o'rinlarda esa talmeh san'ati sifatida qaraladi. Shuning uchun ham alluziyani boshqa adabiy termenlar bilan adashtirish oson, masalan:

- alluziya va illuziya (illusion): optik yoki vizual tryuk, masalan, "Pepper's Ghost" misolida;
- allegoriya (allegory): murakkab mavzularni tasviriy ssenariy orqali ifodalaydi, masalan, Jorj Oruelning "Animals Farm";
- metafora (Metaphor): Bir narsani boshqa narsa sifatida tasvirlab, o'quvchidan o'xshashlikka e'tibor qaratishni talab qiladi.

Ushbu parchada Margaret Etvudning *The Handmaid's Tale* asaridan: "...*A chair, sunlight, flowers: these are not to be dismissed. I am a live, I breathe, I put my hand out, unfolded into the sunlight ...*" by *M.Atwood (The Handmaid's tale)* kabi jumlar yozuvchining ishoralar orqali mazmun yaratish qobiliyatini ko'rsatadi.

Alluziya ko'proq badiiy adabiyotda uchraydi, lekin uni esse, blog, poema yoki badiiy to'qima asarlarida ham uchrashi mumkin. Akademik yozuvlar ham bundan mustasno emas, lekin, odatda, bu yozuvchining so'zlaridan ko'ra muhokama qilingan manbalarda bo'ladi. R.F.Thomas Alluziyani 6 kategoriyaga bo'ladi:

1. Tasodifiy alluziya (Casual Allusion): Norasmiy ishlatilishi, matnning tushunish darajasiga sezilarli ta'sir qilmaydi. Masalan, bir qahramonning uyini Tim Berton "o'zini uyidagidek his qiladigan joy" deb tasvirlash.

2. O'z-o'ziga ishora (Self-Reference).

Yozuvchining o'z asarlariga ishorasi. Masalan, Uolli Lamb o'zining bir necha asarlarida qahramonlarni bir-biri bilan bog'laydi. Shuningdek, avvalgi she'r qofiyasini yangi she'r uchun birinchi satr sifatida qo'llash orqali o'z-o'ziga ishora qilish mumkin. "Korrektiv allyuza" atamasi yozuvchi tomonidan bir ishora orqali aslidagi manbani tanqid qilish yoki u bilan bahslashish maqsadida qo'llaniladigan murojaatni anglatadi. Masalan, Uilyam Shekspirning Romeo va Julyetta asari, ko'pincha, pok muhabbat va taqdir taqozosi bilan bog'langan oshiqlarning timsoli sifatida ishlatiladi. Biroq yozuvchi bunday korrektirovchi ishoradan foydalanishi mumkin: "Bu yulduzlarning javdariga to'lib qaragan ikki oshiq faqat muammolar va hayotlarning vayron bo'lishiga sabab bo'lish uchun taqdirlangan edi". Ko'rinib turgan alluziya (*Apparent Allusion*).

Ko'rinib turgan ishora bu ma'lum bir manbaga aniq ishora qilish bilan birga, uni rad etish yoki uni tanqid qilishni nazarda tutadi. Korrektiv ishoraga o'xshash bo'lsa-da, asosiy farqi shundaki, ko'rinib turgan ishora aslidagi manbani munozaraga olib kirsam, korrektirovchi ishora unga ochiq qarshilik bildiradi.

Masalan, Toni Morrisonning "The Bluest Eye" asarida Dick and Jane dasturidan olingan bir parchani ishlatgan. Bu parcha bolalarga o'quv jarayonida madaniyat haqida nima va qanday o'qitilayotgani haqida bayonot berish uchun ishora sifatida xizmat qilgan (Thomas. 1990).

Sitata (Quotation). Adabiyotda iqtibos – boshqa bir kishining so'zlari, bayonoti yoki iborasi yozuvchi asariga takroriy qo'shilganida paydo bo'ladi. Bu, ko'pincha, yangi tahlil yoki muhokama doirasida qo'llaniladi. Asarning asosiy matnlari yoki so'zlarini saqlash va intertekstuallik va muloqotni rag'batlantirish jihatlari hisoblanadi.

Adabiyotda iqtibos o'rni va intertekstuallik bilan hamjihatligi – bu manbadan to'g'ridan to'g'ri qaytarilgan bir jumla, bo'lim yoki so'zlar almashinuvi bo'libgina qolmasdan, biror matndan keltirilgan iqtibos ikkala matnni o'zaro oldingi bilimlarga tayangan holda bog'laydi. U turli sabablarga ko'ra, qo'llanilishi mumkin. Iqtiboslar – bu matnga ahamiyat, mazmun va haqiqiylik qo'shishdagi kuchli vosita. Ular yozuvchining ishida, personajning nutqida yoki adabiyotshunoslik kontekstida mavjud bo'lishi mumkin. Iqtibosning kuchliligi shundaki, u o'zining asl kontekstidan olingan bo'lsa ham, boshqa joyda ham ma'noni saqlab qolishi mumkin.

Iqtibos berishning yana bir afzalliklari shundaki, bir so'z yoki iboraning asliy mavzusini yoki emosional ta'sirini uning iqtibos yoki ishorasi orqali ko'rsatish mumkin. Masalan, Heart of Darkness asarida "The horror!" iborasining ko'p ishlatilishi yozuvchiga ekzistensial qo'rquv va hech bir umid yo'qligiga ishora qilish bilan birga, ahvolning qahrli, yomon shakldagi qiyinchiliklarini ham kuchaytiradi.

Ironiya – (*sarkazm*) iqtibosdagi so'zlar kinoya uchun ishlatilganda, ular berilgan kontekstga moslashiriladi. Personajni tasvirlashga ham keng qo'llaniladi. Agar yozuvchi o'z personajini shaxsini, tarixini yoki qarashlarini aytishni xohlasa, u mashhur asarga ishora qilishi mumkin. Masalan, bir personaj Shekspirdan iqtibos keltirishi, uning intellekt va madaniy jahonga oid tushunchalarini namoyon qilishi mumkin.

Iqtiboslar o'z vaqtidagi fikrlarni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular, nafaqat o'tgan davrlardan, balki kelajak avlodlardan ilhom olishda ham o'zgarishlarni bildirish imkonini beradi. Iqtiboslar, adabiyotni jonli va zamonaviy qiladi, uni o'quvchi uchun yanada qiziqarli va ta'sirli qiladi. Iqtiboslardan ba'zi hollarda epigraf va shior o'rinida ham qo'llaniladi.

Epigraflar – bu boshqa bir manbadagi qisqa iqtibos. Ba'zi adabiy asarlarda o'z mavzusini yoki ruhiyatini kiritish uchun boshlanishda epigraf qo'shadilar. Epigraf, masalan, The Great Gatsby asarida Frensis Skott Fisjeraldning eshutilgan epigrafi: "In my younger and more vulnerable years...".

O'zbek adabiyotida ham epigraflar keng qo'llaniladi, masalan, Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanidan "...Sultonlarga bosh egmaram, harchand faqiram" *Vohid*.

Ushbu epigraf boshqa asardan keltirilgan bir iqtibos bo'libgina qolmasdan, asarning butun mazmunini qamrab olishga yordam beradi. Iqtiboslar adabiyotda faqat taassurotga yoki voqea to'g'risidagi ko'rsatmalarga qo'shilish bilan cheklanmaydi, balki ular shaxsiyat, madaniyat va tarixni ommalashtirishning muhim vositasi hamdir. Yozuvchilar, ijodchilar, va tarjimonlar iqtiboslar orqali o'z asarlarini amaliy va estetik jihatdan boyitishadi.

Simvolizm. Ramziylik – adabiyotda keng qo'llaniladigan yana bir usul bo'lib, undagi buyumlar, qahramonlar yoki voqealar, adabiyotdan tashqaridagi narsa yoki tushunchalarni ramz sifatida ifodalaydi. Simvolizmni ta'riflash uchun ramzlar aniq tasvirlar yoki tushuntirishlardan farqli o'laroq, kengaytirilgan va ko'pincha noaniq ma'noga ega bo'ladi.

Abramsning fikriga ko'ra, "biror narsa yoki voqeani anglatadigan, o'z navbatida, o'zidan tashqaridagi narsani yoki kengroq ma'noni bildiradigan so'z yoki ibora" "ramz" deb ataladi.

Simvolizm orqali yozuvchilar o'quvchilarga asarni bir necha marta o'qish va asarga ikkinchi va ehtimol uchinchi nuqtai nazardan qarash imkoniyatini taqdim etadilar. Bu bir narsa, qahramon yoki hara-

katning bir g'oyani ifodalash uchun ishlatilishidir. Ushbu ramzlar umumiy yoki asar doirasida aniq tushuniladigan ma'noga ega bo'lishi mumkin (masalan, ta'rifda go'yo, bo'rni tinchlikni ramziy qiladi) yoki ular aniq bir asar ichida o'ziga xos ma'no kasb etishi mumkin. Adabiy asarlardagi ramzlarni tahlil qilish, ramzlarning asosiy g'oyalarga diqqatni kuchaytirishini, qahramonlarning tavsifini kengaytirishini va hikoyaning ta'sirchan tabiatini oshirishini ko'rsatadi.

Mavzular tabiatiga kelsak, ramzlarning ishlatilishi, ko'pincha, bu yoki boshqa mavzularni yanada haqiqiy qilishga yordam beradi. Masalan, Uilliam Goldingning *Lord of the Flies* asaridagi konx – qonun, tartib va sivilizatsiyani ramziy qiladi. Avvaliga bu narsa neytral ahamiyatga ega bo'lsa-da, konx sindirilganda, voqea davomida, u ijtimoiy tartibning parchalanishi va qo'pol vahshiylikni ramziy qiladi. Konx ramzi orqali simvolizmning bu qo'llanilishi o'quvchilarga romanning markaziy mavzusini, ya'ni tsivilizatsiya va vahshiylikni to'liq anglash imkonini beradi.

Ramzlar, shuningdek, qahramonlar yoki harakatlarni kengroq emotsional yoki madaniy bog'lanishlar bilan bog'lash orqali kuchli his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. D.Brauningning *Angels and Devils* asarida ramzlar orqali yozilmagan tarixni ochib berishga harakat qilingan. "Illuminati" – o'rta asrlar davrida katedralni qurish bo'yicha ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan odamlar guruhi. Ushbu ramz, Renessans davrida ilmiy tadqiqotlarni cherkovdan ruxsat olishsiz amalga oshirish qiyin bo'lganligini aks ettiradi. Bu ramz, diniy e'tiqodlar va ilm-fan o'rtasidagi yashirin mojaro haqida gapiradi.

Ba'zi ramzlar mavjudki, ular har xil joylar va vaqt davrlarida odamlar tomonidan anglab etiladi. Ushbu ramzlar, ko'pincha, umumiy inson tajribasi yoki madaniy miqfarga asoslanadi. Masalan:

Yorug'lik – bu ma'rifat, poklikni va ba'zi hollarda yaxshi narsalarning sodir bo'lishi kutishini ramziy qiladi. Qorong'ilik esa, ko'pincha, noma'lumlik, yovuzlik yoki umidsizlikni ramziy qiladi.

Kabutar – tinchlik yoki masumiyatni yoki Muqaddas Ruhni ramziy qiladi. Masalan, D.Browningning *Angels and Devils* asarida bo'r poklikni ramziy qilib, haqiqatga yo'lni ko'rsatadi.

Atirgul – go'zallik va sadoqatni ramziy qiladi. Qadimgi davrlardan boshlab sevgi ramzi sifatida foydalanilgan. Gulli barglar soni beshta bo'lishi, gender tengligini ramziy qilishi mumkin. Masalan, D.Browningning *Da Vinci Code* asarida gul ramzi maxfiylikni ochishda muhim rol o'ynaydi.

Daraxt – ma'lumki, barcha xalqlarning adabiyotida daraxt ramzidan keng foydalaniladi. Ayniqsa, ingliz adabiyotida daraxt hayot va bilimni ifodalashini ko'rganmiz. Afsonaviy asarlarga nazar tashlasak, daraxtning metaforik ravishda to'rt qismga bo'linganini ko'ramiz: tanasi, ildizlari, shoxlari va barglari. Daraxtning har bir qismi ramziy ma'noga ega. Xususan, daraxtning ildizlari tarix va o'tmishni, shoxlari kuch-qudratni, tanasi va po'stlog'i esa hozirgi zamonnani anglatadi. Daraxt, shuningdek, vaqtning o'tishini ham ifodalaydi: gullash – farovonlik davri, daraxtning mevasi – ma'lum bir maqsadga erishish, barglarning to'kilishi esa qarilik davrini anglatadi.

Allegorik ramzlar. Allegorik asarlardagi ramzlar, yaxshilik, siyosat yoki falsafaning kengroq tushunchalarini ifodalash uchun yaqinroq ishlatiladi. Allegoriya, bir metaforaning ma'nosining kengaytirilgan shakli bo'lib, undagi qahramonlar va voqealar ramz sifatida qaraladi.

Tabiiy ramzlar. Qizig'i shundaki, tabiat har doim ba'zi ramzlarga ega bo'ladi, chunki tabiiy dunyoning ma'lum elementlari qahramonlarning yoki asar mavzularining ba'zi jihatlarini aks ettiradi. Masalan, Venus yulduzi – ayollarning ayollik va go'zalligini ramziy qiladi.

Diniy yoki mifologik ramzlar. Ko'plab asarlarda muallif diniy yoki mifologik ramzlarga murojaat qilib, asar mavzusiga qo'shimcha qatlamlar kiritishga harakat qiladi. Ushbu ramzlar diniy, etik yoki falsafiy ma'nolarni rivojlantirishi mumkin, chunki ular o'qilgan madaniy yoki individual qadriyatlar bilan bog'lanadi.

Adabiyotda ramzlardan foydalanish, asar mazmuni va hikoyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yozuvchi boshqa mualliflarning asarlaridan intertekstual elementlar orqali ilhom olishni mumkin, shu bilan birga, bu asarlar o'ziga xos bo'lishi mumkin. Dan Brown turli diniy kitoblar va Ispaniya hamda Fransiyadagi mahalliy aholi ishonadigan ba'zi artefaktlardan ilhomlangan. Shuning uchun u o'z asarida erkaklar va ayollar tengligini ifodalovchi ramzlarni jamlagan.

Simvolizmning sentimental ma'nolari jins, yosh, asarga qanday yondashganlik va boshqa ba'zi omillarga qarab farq qilishi mumkin. Bir adabiy asarda obyekt yoki g'oya bir narsani ifodalasa, boshqa bir adabiyotda u boshqacha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli adabiy asarda simvollarning tahlili, ko'pincha, asarning umumiy tushunchasi va muallifning rejaları asosida amalga oshiriladi. Biror simvol asarda bir necha marta ishlatilishi mumkin va har bir qo'llanishda u turlicha vazifa bajarishi mumkin.

Simvolizm – bu yozuvchilarga turli bosqichlarda fikrlar va his-tuyg'ularni ifodalashga yordam beradigan muhim nutq figurasidir. Simvollarni, obyektivlashtirishni, xarakterizatsiyani yoki tarixiy lashtirishni

ishlatish, o'quvchilarni matnni yuzaki ma'nodan chuqurroq tushunishga undashni maqsad qiladi, shunda ular yozuvning xarakterli jihatlarini anglab yetishlari mumkin. Simvollarini ishlatishda biz universal simvollar, kontekstual simvollar yoki tasvirlar va eng muhimi, allegorik motivlarning ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, intertextuallik kategoriyalaridan biri bo'lmish alluziya o'xshashlikni tashkil etadi, ya'ni bir matn boshqa bir matnga bevosita yoki bilvosita ishora qilish orqali o'z ma'nosini chuqurlashtiradi. Alluziya adabiy asarlarda, shuningdek, turli madaniy, tarixiy yoki diniy referensiyalar orqali o'quvchilarga tanish bo'lgan kontentni kiritish orqali yangi ma'no qatlamlarini yaratadi. Bu, matnlar o'rtasidagi bog'lanish va ularning o'zaro ta'siri orqali adabiy va madaniy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek matnda iqtibos keltirish – bu matndan to'g'ridan to'g'ri parcha keltirish, bu, o'z navbatida, asarga kuchirmachilikni oldini olish va uni yanada jozibador qilish imkonini beradi. Iqtibos keltirish asarni yanada realistik qilishga yordam beradi, chunki bu orqali boshqa fikrlar yoki avvalgi asarlarga havola qilinadi, bu esa o'quvchilarga yanada chuqurroq tushuncha beradi. Shuningdek, iqtiboslar matnni boyitadi, unga muayyan kontekst yoki o'zgacha ma'no qo'shadi. Bu metod, ayniqsa, adabiy tahlil yoki muhokama qilishda, matnning maqsadiga erishishda foydali bo'lishi mumkin.

Ramzlar haqiqatdan ham asrlardan buyon insoniyatni o'ziga jalb qilib kelgan. Ular nafaqat asarlarda sir va sinovlarni yechishda yordam beradi, balki o'quvchini chuqurroq fikr yuritishga undaydi. Ramzlar biror tushuncha yoki mavzuni tasvirlashda vosita bo'lib, o'quvchiga qo'shimcha ma'no yoki xayoliy qatlamlar ochishga yordam beradi. Ular, ko'pincha, an'anaviy, madaniy yoki hissiy tasavvurlarga asoslangan bo'lib, o'quvchini matnning har bir qatlamini yanada kengroq va boyroq tushunishga undaydi. Shunday qilib, ramzlar adabiyotda muhim vosita sifatida, nafaqat tushuncha berishda, balki o'quvchi bilan chuqur muloqot o'rnatishda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Abrams M.H. "A Glossary of Literary Terms". 7th edition. Cornell University, p. 314.
- [2]. Clayton John B. (1991). Influence and Intertextuality in Literary History. Univ of Wisconsin Press. ISBN 9780299130343
- [3]. Dilso'z R. Xoshimova. "Alluziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o'zaro bog'lanishi". Academic research in educational sciences, volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:5.
- [4]. Irwin, William (2001). "What Is an Allusion?" The Journal of Aesthetics and Art Criticism, 59 (3), p. 287–297
- [5]. Irwin William. "Against intertextuality. Philosophy and Literature". 2, October, 2004 pp. 227–242.
- [6]. F.M.Khajiyeva. "Theoretical aspects of the language learned" manual, Bukhara, 2023, pp. 105–111.
- [7]. R.F.Thomas. "Virgil's Georgics and the art of reference" Harvard Studies in Classical Philology 90 (1986) pp. 171–98.
- [8]. Share Perry. (January, 2005). Managing intertextuality–meaning, plagiarism and power. Research Gate.

Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, o'qituvchisi; yagonapochta@gmail.com)

KARNAVALIZATSIYA VIRTUALLIKNING SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada virtual kommunikatsiya fenomeni teatr va o'rta asrlar karnavallari bilan qiyoslangan holda tahlil qilingan. Muallif virtual konferensiyalarni muloqotning yangi shakli sifatida ko'rib, unda foydalanuvchilar niqob ostida anonimlikni saqlagan holda, o'z fikrlarini erkin bildirishlarini ta'kidlaydi. Karnavalizatsiya nazariyasiga tayangan holda, virtual muloqotdagi suhbatlar, trolling va lingvistik o'zgarishlar karnavallik madaniyatining ifodasi sifatida talqin qilingan. Virtual muloqotning dialoglilik, ijodkorlik va konfliktga moyilligi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, karnavalizatsiya, niqob, trolling, lingvistik xususiyatlar, anonimlik, muloqot madaniyati.

Мустафаев Шахбоз Бахтиярович (Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь, преподаватель; yagonapochta@gmail.com)

КАРНАВАЛИЗАЦИЯ – КАК ФОРМА ВИРТУАЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассмотрен феномен виртуальной коммуникации через призму театрального искусства и средневековых карнавалов. Автор анализирует виртуальные конференции как новую форму общения, где пользователи под масками сохраняют анонимность и свободно выражают свои мысли. Опираясь на теорию карнавальности, обсуждаются особенности диалогов,

троллинга и лингвистических изменений в виртуальном пространстве как проявления карнавальной культуры. Особое внимание уделяется диалогичности, креативности и конфликтному потенциалу виртуального общения.

Ключевые слова: виртуальная коммуникация, карнавальность, маска, троллинг, лингвистические особенности, анонимность, культура общения.

Mustafayev Shakhboz Bakhtiyorovich (Uzbek State University of World Languages Independent researcher, teacher; yagonapochta@gmail.com)

CARNIVALIZATION – AS A FORM OF VIRTUALITY

Annotation. The article explores the phenomenon of virtual communication through the lens of theatrical performances and medieval carnivals. The author examines virtual conferences as a novel form of interaction where users, under the guise of anonymity, freely express their opinions. Drawing on the theory of carnivalization, the study discusses the peculiarities of dialogues, trolling, and linguistic transformations in virtual spaces as manifestations of carnival culture. Emphasis is placed on the dialogic nature, creativity, and conflict potential of virtual interactions.

Keywords: virtual communication, carnivalization, mask, trolling, linguistic features, anonymity, communication culture.

Kirish (Introduction). Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalarning rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, insonning muloqot qilish, o'zini ifoda etish va madaniy merosni anglash shakllari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Shu jarayonda "virtual karnavalizatsiya" tushunchasi alohida e'tiborga sazovor. Bu hodisa virtual olamda inson tajribasining madaniy, estetik va ijtimoiy jihatlarini tadqiq qilishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Virtual karnavalizatsiya an'anaviy karnaval madaniyatining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi shakldir. U o'zida erkinlik, o'yin va ramzlarning o'zaro aralashuvi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon virtual makonda insonlar o'rtasida ijtimoiy chegaralarni yengib o'tish, yangi kommunikatsion muhit yaratish va individual hamda kollektiv tajribalarni boyitish imkoniyatini beradi.

Virtual konferensiyani spektaklga qiyoslasak bo'ladi. U yerda virtual kommunikantlar o'zlariga niqob taqib, o'zi tanlagan obrazini gavdalanitirishga, o'ziga hamfikrlar topishga intiladi. Virtual kommunikativ muhit – bu shunday makonki, u yerda bir vaqtning o'zida ham o'yin-kulgi, ham g'azab-nafrat, ulug'lash-yer bilan bir qilish kabi hodisalar mujassam. Bu go'yo karnavalga o'xshaydi.

O'rta asrlar Yevropasidagi har yil o'tkaziladigan (hozir Venetsiya shahrida yilda bir bor o'tkaziladi) karnavallarda xalq o'z yuziga turli xil niqob taqib bir muddat bo'lsa ham, o'zining kimligini unutgan va o'zi tanlagan niqob obraziga kirgan. Bu bayram oddiq qora xalq vakillarining zodagon qatlam vakillariga yaqinlashish imkonini bergan. Shu bilan ular o'z fikrlarini bir-birlari bilan bo'lishishgan, bunda har bir shaxs anonimligicha qolgan. Hozirgi virtual muloqotlarda xuddi shu karnavallik muhiti hukmron.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Karnavalizatsiya – adabiyotshunoslikka rus olimi Mixail Baxtin tomonidan kiritilgan va o'rta asrlar karnavali an'alarining hozirgi zamon madaniyati va fikrlashiga ko'rsatayotgan ta'siri natijasini izohlaydigan tushunchadir. Avvaliga falsafa, nazm, semiotika kabi fanlar doirasida o'rganilgan ushbu atama hozirda filologiya fanlari doirasida ham tadqiq qilinmoqda.

Karnaval – bu qo'rquvdan xalos bo'lish, dunyoni insonga va insonni insonga yaqinlashtiruvchi his. M.Baxtinga ko'ra, karnaval "inson tafakkurini haqiqiy va mustaqil qiluvchi" idrok [1]. Karnavalizatsiya atamasini Baxtin shunday tushuntiradi: Odamlar karnaval maydoniga chiqishganida, ular barcha dunyoviy narsalar va din madaniyatining barcha asosiy qarama-qarshiliklari bilan xayrlashadi va barcha kundalik maishiy qadriyatlar o'z joylarini o'zgartiradi. Tilanchi yoki nodon karnaval Qiroli bo'ladi. Unga qirollik sharaflari beriladi. Karnaval ruhoniysi ham tayinlanadi va barcha diniy qadriyatlar tahqirlanadi. Yuqori qism pastki bilan, boshi orqa bilan va jinsiy a'zolar yuzlar bilan almashtiriladi. Erkaklar va ayollar joylarini o'zgartiradilar. Erkaklar ayollar niqoblarini kiyadilar va aksincha. Chiroyli va muloyim so'zlar o'rniga, haqorat so'zlari eshitiladi. Hayot va o'limning qarama-qarshiliklari joylarni o'zgartiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Virtual karnaval tushunchasi ostida biz virtual kommunikantlarning nutqiy niqoblarining o'zaro munosabatini tushunamiz. Virtual jamiyat virtual kommunikant uchun bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadigan turfa xil niqoblar bilan to'la bir muhitdek tuyuladi. Yangi kompyuter texnologiyalar shunday imkoniyatlar yaratganki, bunda har bir foydalanuvchi o'z ruhiy o'ziga xosliklarini alohida akkauntlar yordamida ko'rsatishi mumkin. Ya'ni, bir foydalanuvchi bir konferensiya doirasida cheklanmagan akkauntlarga ega bo'lishi va shu akkauntlar yordamida o'zining alohida ruhiy to-

monlarini ko'rsatishi mumkin. Har bir akkaunt bu yerda alohida rol ni ijro etadi. Inson ortida voqelikni qoldirgan holda, o'zi istagan shaxs bo'lib paydo bo'ladi.

Gazia Bordo: "A Roma c'era una miscela. E qualcosa è iniziato con questo. Ma qualcosa è finito lì. E speri di no, non è finita qui. Che all'inizio la pietra è stata scolpita e la corteccia di betulla è stata falciata, poi è stata inventata la penna e poi la macchina da scrivere Optimus. E internet è da qualche parte nella stessa fila. Ed è più che altro una via di mezzo tra una TV, un pub e un supermercato con un happishopper interattivo. Una nuova pagina di psichiatria, anche. Comunicare con il proprio subconscio come partner psicochimico".

Yuqoridagi misolda Gazia ismli foydalanuvchi tarmoqdagi foydalanuvchilarning qaysi janrda yozi-shidan qat'iy nazar, barini o'zi hal qilishi kerakligi masalasini ko'targan. Foydalanuvchi "matn muallifining til normalarini buzishi mumkin emas", degan fikrga qo'shiluvchilarning fikriga qo'shilmaydi. Italian tilida mavjud so'zlar (café, taverna, centro ricreativo, manipolata) o'rniga ingliz so'zlarining ishlatilishi (pub, happishopper, psicochimico) kulgili effekt ni hosil qiladi.

Virtual konferensiyani karnaval sifatida his etish quyidagi misolda yaxshi ko'rsatilgan: Andrea Gigi: Signor Passeggero! Non ho niente a che fare con la frase "Fornire ai citta'dini bi'scotti, porte' e polli". che non ha senso e non ha senso, sia nel suo significato che negli accenti che hai posto. Tranne che per la parola "fornire", naturalmente. E tra l'altro, non "citta'dini", non "bi'scotti", non "porte'" e non "polli'", ma "citta-di'ni", "bisco'tti", "po'rte" e "po'lli". Queste sono le regole e le eccezioni per ora. Non si può scrivere niente! Muallif so'zlardagi urg'ularni noto'g'ri qo'yilganligini kesatmoqda, so'zlarga qo'yilga tutuq belgisi esa matnga yumor olib kelayapti.

Virtual muloqotda dialoglilik o'zining o'ziga xosliklariga ega. Internet muloqot konferensiya foydalanuvchilari o'rtasida jonli muloqot, janjal, o'z fikrida qolish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham suhbatdoshga yo'nalganlik, haqiqiy yoki soxta bo'lishidan qat'iy nazar, asosiy shartlardan biridir. Inson fikrlarini bayon qilgisi, o'zi haqida bong urishi, tushunarli bo'lishi va o'ziga hamsuhbatlar, hamfikrlar topishi internet orqali muloqot qilishga undovchi asosiy omillardir. Voqelikda bo'lganligi kabi, virtual dunyoda ham inson o'ziga uning fikrlariga sherik bo'luvchi, fikrlarini ma'qullovchi yoki shunchaki uni eshituvchi do'st yoki hamsuhbat topishga intiladi. Virtual konferensiya qatnashchilarga yosh, professional, jinsiy va boshqa cheklashlarni unutishga imkon beradi. Virtual kommunikantlar o'rtasida masofa yo'qoladi, har kim virtuallikda istalgan kishiga o'z bilganidek murojaat etishi mumkin. *Francesco Vitale: "Questo è il governo Attuale...Non hanno fatto nulla da l'ultima pandemia ...Pur sapendo che ci sarebbe stata la seconda..Mancano medici, bombole, posti letto..Manca tutto ciò che non dovrebbe... È vergognoso...Hanno sprecato milioni di €. X tante cazzate!!!". – Davide Rizzoli: "Francesco Vitale Hanno tagliato miliardi di Euro alla sanità pubblica!! Che vergogna! Ah no i tagli li ha fatti la destra al governo e nelle regioni leghiste! Siamo tutti esperti".* Kommunikantning nutqi haqoratli, nizoli, kinoyali, istehzoli, ma'noli, bag'rikeng bo'lishi mumkin, biroq u hech qachon nazardan chetda qolmaydi.

Har bir foydalanuvchi virtual muloqotda muallifga aylanadi. "Spektakl"ning asosiy funksiyalaridan biri hodisa haqida gapirish emas, uni ko'rsata olish hamdir. "Spektakl" foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi va ular, o'z navbatida, ushbu sahnada ham rejissor, ham aktyor bo'lishi mumkin. *Sergio: – "Qui siamo tutti identità virtuali, e ognuno determina il grado della propria virtualità – nome o nickname, IP reale o proxy, oppure cambia i nickname con proxy per la sua virtualità. Un certo Angelo puo' anche essere una nonna di 60 anni e persino di origine ebraica".*

Munozara davomida suhbatdoshlar o'zaro haqiqiy insonlar sifatida emas, balki o'ylab topilgan qahramonlar sifatida muloqot qilishadi. Nutqiy jarayon ham tanlangan qahramon obraziga mos bo'ladi. *Iso-*

tomus: "Questa però me la spiegate. – 😊 Oggi ho inserito due richieste di determinazione. 1 – Odonthocarus asiaticus alle ore 16,20 e 2 – Lebia trimaculata alle 17,10. Una terza (Cicindela sp. herbacea group) è stata inserita fra quelle in attesa di pubblicazione (domani ore 18,43) Forse perché Marcello ha inserito il limitatore nel pomeriggio? Non sarà il caso di regolare gli orologi 🕒". – Velvet Ant: "Ciao Gianfranco:) Il limitatore l'ho inserito già ieri pomeriggio. La sua funzione è quella di limitare soltanto i nuovi messaggi di determinazione aggiunti ogni giorno da ciascuno di noi ed in questo momento è impostato su un solo messaggio al giorno per permetterci di smaltire l'arretrato. Possiamo invece rispondere quante volte vogliamo ai messaggi inseriti da altri utenti. Così tu, oggi pomeriggio, alle 16,20 hai semplicemente inserito un messaggio di risposta nella discussione su Odonthocarus asiaticus (discussione da te inserita il 22/07).

Munozara qatnashchilari bir-birlarining qarshisida hech qanday imtiyozga ega emaslar, har kim o'z obrazini o'zi yaratadi va nutqiy fe'l-atvoriga ko'ra virtual jamoa tomonidan qabul qilinadi. Kommunikatsiya vositalik xususiyatiga ega ekan (kompyuter orqali yozma tarzda amalga oshadi) va jonli muloqotga xos bo'lgan paralingvistik vositalarga ega emas ekan (smayliklardan tashqari), suhbatdoshlar o'zining verbal obrazini yaratishadi va har bir obraz o'z ko'rinishiga, mazmun-mohiyatiga ko'ra yagonadir. Muloqot jarayonida o'zini anglash, ko'plab hayotiy savollarga javob qidirish kabilar vujudga keladi, falsafiy fikrlash va tafakur qilish kuchayadi.

1996-yil Judit Donat tomonidan ilmiy adabiyotga ilk bor "trolling" tushunchasi kiritildi. U trollingni zararli yolg'on deb ta'riflab, trollar virtual muhitda begonalarga nisbatan ishonch va bag'rikenglikning tez pasayishiga va onlayn hamjamiyatda paranoyaning rivojlanishiga hissa qo'shishini ta'kidladi [2]. Trolling virtual konferensiyalarda, ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralarda odamlarni yolg'on ma'lumotga ishontrish, ular orasida agressiya holatini yuzaga chiqarish, auditoriyani fikrini o'zgartirish, ularni chalg'itish va boshqa maqsadlarni ko'zlaydi. Trollingni oddiy so'z bilan "buzg'unchilik" deb atash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Virtual muhit hozirda voqelikning tarkibiy qismiga aylanib bo'ldi, o'z navbatida, u insonga real hayotda imkonsiz bo'lgan ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishga qodir makonga aylandi. Bundan kelib chiqadiki, virtual muhit hozirda karnaval formalar bilan to'lgan, chunki ham karnavallik, ham virtual reallik bu "oddiy" voqelikni to'ldiruvchi o'ziga xos "materiya"dir. Aynan shu "materiya" insonga ijtimoiy voqelikda qilishi mumkin bo'lmagan narsalarni amalga oshirishga imkon beradi. Virtual muloqotda karnavalizatsiya foydalanuvchilar tomonidan shakllantiriladi va u virtual kommunikantning nutqida, nutqiy xulqida namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda kompyuter atamalaridan biri bo'lgan "trolling" o'z navbatida karnavalizatsiyaning bir ko'rinishi deb hisoblaymiz. V.V.Ximikning fikriga ko'ra, trolling bu "Internetdagi surbetlik, troll esa Internetdagi surbetdir" [3].

Shunday qilib, til karnavalizatsiyasi va internet tafakkuri virtual nutqning stilistik xususiyati bo'lib, muloqotning o'ziga xos o'ynoqi improvizatsion xarakterini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Бахтин М.М. Проблемы творчества Достоевского. Проблемы поэтики Достоевского. 5-е изд., доп. Киев, "NEXT", 1994, 508 – 508 с.
- (2). Whitney Phillips. This is why we can't have nice things. Mapping the relationship between online trolling and mainstream culture. Cambridge. MIT Press, 2015. ISBN 9780262529877; 256 p.
- (3). Химик В.В. Хам и хамство в русском речевом пространстве. Антропология языка. The Anthropology of Language: сборник статей. Выпуск 2. Отв. ред. С.П.Омельченко. М., "Наука", 2012, с. 97–105. 200 с. ISBN 978-5-9765-1442-3, ISBN 978-5-02-037787-5.

To'rayeva Maftuna Akbar qizi (Samarqand davlat Chet tillar instituti 2-bosqich tayanch doktoranti;
maftunaturayeva18@gmail.com)

FRANSUZ TILSHUNOSLIGIDA NEOLOGIZMLARNI TASNIFLASH TIPOLOGIYASI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda fransuz lingvistikasi sohasiga juda katta hissa qo'shgan ikki lingvist olimlarning, ya'ni, Jean-François Sablayrolles hamda Jean Tournier larning tilshunoslikning yangi bo'limi Neologiyada qilingan izlanishlarini o'rganishga va ularning izlanishlari asosida ular yaratgan neologizmlar tipologiyasini nimalardan iborat va ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tasniflashga harakat qildik. Tadqiqot asosi etib quyidagi tilshunos olimlarning izlanishlari: fransuz professori J.F.Sablayrolles, J.Pruvost, E.Benvenist, L.Guilbert, J.C.Boulanger; rus tilshunoslari N.N.Boldirev, L.Y.Kasyanova, o'zbek tilshunosi D.B.Zokirova va boshqa turli yetuk tilshunoslar tadqiqotlariga murojaat etildi. Tadqiqot natijasida ushbu tipologiyalar tasnifi va tahlili qilinib, neologizmlarning kognitiv tahliliga asos qilib olish uchun mos tipologiyasi tanlab olindi.

Kalit so'zlar: neologizmlar va neosemiyalar, postulat, klassifikatsiya, klassik trixotomiya, «Tipologiyalar tipologiyasi», parasintetik derivatsiya, kompozitsiya, sinaps, kontominatsiya va h.k.

Тураева Мафтуна Акбаровна (докторант 2 курса государственного Института иностранных языков;
maftunaturayeva18@gmail.com)

К ВОПРОСУ О ТИПОЛОГИИ КЛАССИФИКАЦИИ НЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В этой статье мы изучаем исследования двух лингвистов – Жана-Франсуа Саблеролля и Жана Турнье, которые внесли значительный вклад в область французской лингвисти-

ки, особенно в новой отрасли языкознания – Неологии. Мы рассматриваем типологии неологизмов, разработанные ими на основе их исследований и пытаемся классифицировать их сходства и различия. Исследование опирается на работы следующих лингвистов: французского профессора Ж.-Ф. Саблероля, Жана Прюво, Эмиля Бенвениста, Луи Гильбера, Ж.-К. Буланже, а также русских лингвистов, среди которых упоминаются исследования Н.Н. Были и Л.Ю. Касьяновой, узбекского лингвиста Д.Б. Зокировой и других передовых исследователей. В результате исследования были классифицированы и проанализированы данные типологии, а также выбрана подходящая типология в качестве основы для когнитивного анализа неологизмов.

Ключевые слова: неологизмы и неосемии, постулат, классификация, классическая трихотомия, «Типология типологий», парасинтетическая деривация, языковая композиция, синанс, контаминация и др.

Turaeva Maftuna Akbar qizi (2st year doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages; maftunaturaveva18@gmail.com)

ISSUES OF THE TYPOLOGY OF CLASSIFICATION OF NEOLOGISMS IN FRENCH LINGUISTICS

Annotation. This article examines the research of two linguists—Jean-François Sablayrolles and Jean Tournier—who have made significant contributions to the field of French linguistics, particularly in the new branch of linguistics known as neology. We analyze the typologies of neologisms developed by them based on their research, attempting to classify their similarities and differences. The study is based on the works of the following linguists: French professor J.F. Sablayrolles, J. Pruvost, E. Benveniste, L. Gilbert, J.-C. Boulanger, as well as Russian linguists, including N.N. Boldyrev and L.Y. Kasyanova, Uzbek linguist D.B. Zokirova, and other leading researchers. As a result of the study, the data typologies were classified and analyzed, and a suitable typology was selected as the foundation for the cognitive analysis of neologisms.

Keywords: neologisms and neosemy, postulate, classification, classical trichotomy, “Typology of Typologies”, parasynthetic derivation, composition, synapse, contamination, etc.

Kirish (Introduction). Ko‘plab tub izlanishlar natijasida neologiya faqatgina yangi so‘zni o‘rganuvchi fan emas, balki bundan-da mashaqqatli jarayonni qamrab olishi, neologizmlarning yaratilishi esa undan-da keng maydonni egalashi o‘z dalillarini topmoqda. J.C. Boulangerning fikricha, neologiya o‘zida leksik yaratilish jarayoni, leksik yangiliklarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, yangi so‘zlarni yaratish, qayd etish, tarqatish va o‘zlashtirish maqsadida tashkil etilgan faoliyat, so‘z boyligining yetishmasligini qoplash uchun muhim leksik to‘ldirishni talab qiladigan harakatning ixtisoslashgan tarmoqlarini aniqlash uyushmasi, lug‘atlar bilan bog‘liq ushbu besh jarayonni ifodalaydi [1;4-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Har bir neologist tilshunos neologizmlar ustida izlanish olib borar ekan, qaysi tilda izlanmasin, ularning tipologiyasiga duch keladi. Louis Guilbert 1973-yilda chop etgan “Neologizm nazariyasi” [2;16–17-b.] asarida o‘z ishining bir bobini neologizm tipologiyasiga bag‘ishladi va u neologizmlarning turlarini tasnifladi. Olimning qarashiga ko‘ra neologizmlarning har xil turlarini tasniflashga harakat qilish uchun tilning ishlashini kuzatishdan olingan ma‘lum miqdordagi postulatlardan boshlash kerak. Izlanish davomida ushbu postulatlarini qayd etish va izoh berish lozim deb topildi va ular quyidagilar:

1. Til o‘z kodiga ko‘ra ishlaydi, uning yordamida nutqiy harakatlar va leksik shakllanishlar hosil bo‘ladi. Boshqa tildan kelgan hamma narsa boshqa kodga tegishli deb hisoblanishi kerak. Darhaqiqat, har bir til o‘z kodirovkasiga ega hisoblanib, boshqa tildan fransuz tiliga o‘zlashgan neologizm o‘sha tilning kodi asosida namoyon etiladi.

2. Neologizm “ma‘no” tomoni va “ishora” tomonini o‘z ichiga olgan lingvistik belgidir. Mutatsiya atamaning faqat morfologiyasiga yoki uning yagona ma‘nosiga taalluqli bo‘lsa ham, bu ikki komponent neologik yaratilishda birgalikda o‘zgartiriladi. Ba‘zan boshqa kodga tegishli so‘z o‘zlashish jarayonida ma‘nosi yoki shakli mutatsiyaga, ya‘ni, fransuz tilining ichki kodirovkasi bilan aloqaga kirishib o‘zgarishga duch keladi.

3. Neologik shakllanish, ko‘pincha, minimal ahamiyatga ega bo‘lgan birlik emas. Bu tilda mavjud oddiyroq elementlarning birikmasidan kelib chiqadi. Yaratilish, keyinchalik, bu elementlar o‘rtasida o‘rnatilgan munosabatlar rejimida yashaydi. Demak, endilikda ushbu so‘zlar boshqa birikmalar bilan birlashib, yaxlit tilning ichki qoidasiga moslashadi va ushbu tildagi tasvirni ifodalaydi.

4. Neologizmning yaratilishini jamiyatga integratsiyalashgan, muayyan vaziyatda o'zini ifoda etuvchi ijodkor-individning nutqidan ajratib bo'lmaydi. Yangi reallikni ifodalovchi neologizm endilikda turli sohalarda qo'llaniladi.

5. Neologizm og'zaki va yozma jihatni taqdim etadi. Shuning uchun grafik o'zgarishlar neologik deb hisoblanishi kerak. Ushbu so'zning har qanday fonetik, orfografik, grafik, grammatik, stilistik va h.k. o'zgarishga uchragan jihati yangi neologizm yaratilishiga asos bo'ladi.

Aynan shu postulatlarini inobatga olib, biz neologizmlarning har xil turlarini tasniflashga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Demak, muallif neologiyaning fonetik, sintaktik, semantik, grafik va o'zlashgan so'zlar kabi klassifikatsiyasiga e'tibor beradi. Masalan, muallif fonetik neologiyaga ta'rif berar ekan, "har bir tilda undoshlar va unllilar o'rtasida o'ziga xos kombinatorlik tizimi mavjud. Ba'zi ketma-ketliklar bir tilda uchramaydi, ular boshqa tilga xosdir" degan g'oyani ilgari suradi. Buning isboti sifatida ikki tilning kombinator tizimini solishtirsak, ona tilimiz o'zbek va fransuz. O'zbek nutq talaffuzi tizimida burun tovushi yo'q, fransuz tilida esa [q] tovushi yo'q, [ky]ni talaffuz qiluvchi "Qq" undoshi bor, lekin o'zbek tilida u mutlaqo farq qiladi. Shuning uchun bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashganda fonetk o'zgarishlarga duch kelishi mumkin va bu vaqtda birinchi postulatni yodga olamiz.

Muallif hech qanday tashqi ta'sirlarsiz, yangi so'zlarning affiksatsiya, prefiksatsiya va kompozitsiya jarayonlari bilan yasashini sintaktik neologiya deb ta'rif beradi. Aynan Louis Gilbert birinchi bo'lib yangi so'zlarni sintaktik tahlil qilgan tilshunosdir. O'zining boshqa asarida sintaktik neologiyaga qisqacha shunday ta'rif beradi: "Sintaktik neologiya leksik sintagmatikada aniqlangan, ular orasidagi kombinatsiyaning aniq qoidalariga muvofiq leksik elementlar o'rtasidagi munosabatlardan iborat" [3;35-b.].

F.Buno "Fransuz tili tarixi" asarida fransuz tilida yangi so'zlarning shakllanishi sintaktik neologiya deya qayd etadi. Ammo J.F.Sablairolles o'zining maqolasida [4;43-b.] "sintaktik neologizmlar"ni "semantik neologizmlar" bilan bog'laydi va kombinator neologiya deb ataydi. Uning izoh berishicha zamonaviy til fanlaridagi ba'zi nazariy asoslarning evolyutsiyasi, bu konsepsiyani takomillashtirishga asos bo'ldi.

Jean-François Sablayrolles fransuz tili neologizmlarni tipologiyaga ajratar ekan, a'valombor, klassik trixotomiyani eslatib o'tadi; shakl (formel), semantik (sémantique) va chet tilidan kirib kelgan so'zlar (emp-runt). J.F.Sablairolles uchun semantik neologiya – bu boshqa belgi bilan allaqachon mavjud bo'lgan leksikaga yangi ma'no berishdan iborat jarayondir. Shakl neologiyasi esa so'zlarning shakl o'zgarishi bilan bog'liq yasaliş usullaridir. Ko'rish mumkinki, formal neologiya va semantik neologiya tilning ichki harakati mevasi bo'lsa, boshqa tomondan, o'zlashgan so'zlar tilning tashqi harakatidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jean Pruvost va Jean-François Sablayrollesning "Neologizmlar" [5;128-b.] nomi ostida chop etilgan kitobining 5-bo'limi "Ijodiy usullarning boyligi" mavzusiga bag'ishlangan. Mualliflarnig fikricha, turli xil ishlarda taklif etilgan neologizmlar tipologiyalarining soni va xilma-xilligi ularning ravshan emasligi va bu sohada ba'zi chalkashliklar mavjud ekanligini ko'rsatadi. O'zlarining tipologiyasini taklif etishdan oldin ular izlanish olib borgan lingvistlar tasnifini jamlab "tipologiyalar tipologiyasi" nomi ostida solishtiradi va muallif tomonidan fransuz tili uchun taklif qilingan leksikogen matrisalarning asosi sifatida ingliz tili uchun ishlab chiqilgan Jean Tournier klassifikatsiyasini (1-jadval) eng maqbul deb hisobladi.

1-jadval

Jean Tournier tipologiyasi

matrices internes	<ul style="list-style-type: none"> ▪ –morpho-sémantique –construction 	<ul style="list-style-type: none"> –affixation –préfixation –suffixation –dérivation inverse –composition –juxtaposition –amalgame –motivation phonique –onomatopée et élément idéophonique
	<ul style="list-style-type: none"> ▪ –Sémantique –transfert de classe –métasémie 	<ul style="list-style-type: none"> conversion –métaphore –métonymie

	▪ –morphologique réduction du signifiant	–aphérèse et apocope –siglaison
matrices externes	▪ emprunt	–emprunt morpho-sémantique –emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique

Sablairollesning ushbu soʻz yasash faoliyatining tipologiyasida Jan Tournier tipologiyasini fransuz tiliga moslashtirdi va uni toʻldirdi:

2-jadval

Sablairolles tipologiyasi

matrices internes	▪ morpho-sémantique	Construction	–affixation – composition –juxtaposition –amalgame –motivation phonique –onomatopée et élément idéophonique	–préfixation suffixation –dérivation inverse
	▪ Sémantique – transfert de classe – métasémie		conversion –métaphore –métonymie	
	▪ –morphologique réduction du signifiant		–aphérèse et apocope –siglaison	
matrices externes	▪ emprunt		–emprunt morpho-sémantique –emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique	

U Tournier kabi soʻz yasash faoliyatini 2 matrisaga, yaʼni ichki va tashqi matrisaga ajratadi. Ichki matrisa nomidan kelib chiqib, bir til doirasida oʻz ichki imkoniyatlardan foydalanib, yangi soʻz yaratilishi-dir. Tashqi matrisa esa turli yoʻl bilan boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlardir. Muallif ichki matrisani 3ta katta (morfo-semantik, sintaktik-semantik, morfologik) qismlarga va J.Tournierdan farqli oʻlaroq, yangi boʻlim (pragmatik) kabi jarayonlarga ajratadi.

Bu ikki tipologiyalarni tahlil etar ekanmiz, Sablairolles parasintetik derivatsiyani affiksatsiyaning bir turiga va fleksion neologiyani esa affiksatsiya bilan teng maqomga ega yasashning yangi tur sifatida kiritadi. Parasintetik affiksatsiya bu bir vaqtning oʻzida prefiks va suffiks qoʻshimchalari yordamida soʻz yasashidir va uning oʻziga xos jihati qoʻshilgan prefiks yoki suffiks oʻsha asosga alohida qoʻshilganda yangi soʻz yasalmasligidir. Misol uchun, *embourgeoiser* [6;1-b.] feʼlini oladigan boʻlsa, asos «bourgeois» turdosh ot boʻlib, em- prefiksi va -er nol darajali feʼl qoʻshimchasi qoʻshilishi taʼsirida hosil boʻlgan, «embourgeois» yoki «bourgeoiser» soʻzlari mavjud emas.

Olimning keltirgan misollariga koʻra, fleksion neologiya deb ot yoki feʼlning determinativlari (rod, son, shaxs-son, zamon, qoʻshimchalari) tilda mavjud boʻlmagan yangi shaklni yasashga aytiladi. Misol uchun, «*écrivain*» (yozuvchi) soʻzi fransuz tilida artikl yordamida erkak yoki ayol kishini ifodalash uchun qoʻllanilar edi, zamonaviy fransuz tili grammatikasida esa ayol yozuvchi *écrivaine*, yaʼni jenskiy rodni yasovchi "e" suffiksi qoʻshilishini koʻzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, diqqatimizni ikki olim ham alohida qayd etgan teskari derivatsiya (baʼzi manbaalarda esa regressiv derivatsiya)ga qaratamiz. Nomidan maʼlumki, derivatsiya jarayoni teskari boʻlishi lozim, ammo teskari atamasini qoʻllashimiz uchun «toʻgʻri» derivatsiya deb nimaga aytilishi munozarali savoldir. Teskari derivatsiya toʻgʻridan toʻgʻri sinxron tahlil metodiga tayanadi. Bir terminning qaysi derivatsiya yoʻli bilan yasalganini bilishimiz uchun uni tarixan kelib chiqishini oʻrganish lozim va tilda yuz bergan evolutsiyalar zanjiri har doim ham toʻgʻri javobni bermasligi mumkin. Rus filologiya fanlari doktori N.D. Arutyunova «Morfologiya va soʻz yasashi muammolari» kitobining teskari soʻz yasashi va notoʻgʻri derivatsiya masalalari nomli bobida [7;280-b.] teskari derivatsiyani tilga yangi soʻz yasash usuli sifatida qarashni inkor etadi va ularni lingvistik qarama-qarshiligining oʻzgarishi bilan emas, faqat tildagi soʻzlarning paydo boʻlish ketma-ketligining oʻzgarishi bilan tavsifladi: «Shunday ekan, ispan tilining tavsif grammatikalarida, shuningdek, soʻz yasashga oid maxsus asarlarda boʻlgani kabi, regressiv derivatsiyani affik-

satsiya, birikma va boshqalar bilan bir qatorda, maxsus soʻz yasaliş turi sifatida ajratib koʻrsatish uchun yetarli asos yoʻq».

Keyingi morfosemantik yasaliş usuli kompozitsiya usuli boʻlib, Sablayrolles uni kompozitsiya (composition), sinaps (synapsie) va kontominatsiya (mot-valise) kabi yasaliş jarayonlariga ajratadi. Kompozitsiya usuli fransuz tilida, bizga maʼlumki, qoʻshma soʻzlar ikki xil: keng tarqalgan kompozitsiya (composition populaire) va ilmiy kompozitsiya (composition savante) kabi turlarga boʻlinadi.

Sinaps koʻp tarqalmagan termin boʻlib, uni birinchi marta fransuz lingvisti Emil Benvenist «Umumiy tilshunoslik muammolari»[8;171-176-b.] kitobida qoʻllagan. Fransuz tilida qoʻshma soʻzlar turli soʻz turlari birikmasidan hosil boʻlishi mumkin, masalan, ot+ot, ot+predlog+ot, ot+sifat, sifat+ot, feʼl+ot, feʼl+feʼl va hokazo. Sinaps esa ushbu qoʻshma soʻzlarning aynan ot+predlog+ot (Nom+prep.+nom) sxemasi asosida yasalgan soʻzlardir. Bu sxema asosida asosan «de» va «à» predlogi qoʻllanilib, kamdan kam holatlarda «pour» yoki «en» predloglarini uchratishimiz mumkin.

Kontominatsiya (mot-valise) orqali soʻz yasaliş bugungi kunda neologiyada oʻz oʻrniga ega. Kontominatsiya ikki soʻzni qisqartirish natijasida olingan elementlardan tashkil topgan yangi soʻz sifatida qaraladi.

Ichki matrisaning soʻnggi pragmatik yasaliş qismi – chalgʻitish (détournement) usulidir. Muallif ushbu usulda yod boʻlib qolib qolgan va qanday boʻlishidan qatʼiy nazar, yangi oʻzgartirishlar kiritish bilan birlashtirib, asar nomlari, klassik hikmatli soʻzlar, matallar va boshqa murakkab va frazeologik leksikalarni oʻrganishni tavsiya etadi. Ammo muallif, ularni toʻgʻri talqin etish uchun faqat asl leksika ustida izlanish olib borish kerakligini uqdiradi. U Fransiyaning shiori boʻlib kelayotgan «Liberté, égalité, parité» iborasidagi «parité» soʻzi respublika qadriyatini bildirsa, hozirgi kunda esa «parit» – erkak va ayolning teng huquqligini anglatuvchi zamonaviy, hozirgi maʼno shakli ekanligini misol keltiradi.

Tashqi matrisani J.F.Sablayrolles Tournierdan farqli oʻlaroq, yagona oʻzlashgan soʻzlarga birlashtiradi, Tournier esa uni 3 qismga boʻlib oʻrgangan : morfologik, morfosemantik, semantik va kalkalash. Morfologik oʻzlashish toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish hodisasi hisoblanadi. Semantik oʻzlashish esa tilda mavjud boʻlgan soʻzga yangi maʼno oʻzlashishidir. Morfosemantik usul butunlay shakl va maʼno qismini ham oʻzlashtirilishidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ikki yirik professorning tipologiyalarini oʻrganish chogʻida, ularni umumiy lashtirib hamda farqli jihatlarini ajratib, neologizmlarning kognitiv tahlili uchun barcha yigʻilgan materiallarni quyidagi tipologiyalarga ajratgan holda oʻrganish lozim deb topildi :

3-jadval

Neologizmlarning kognitiv tahlili uchun tipologiyasi

matrices externes	▪ emprunt	–emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique
matrices internes	▪ Sémantique –transfert de classe –métasémie	–conversion –métaphore –métonymie –autres
	▪ morpho-sémantique - construction	–affixation –préfixation –suffixation –parasynthétique
		–composition –juxtaposition –synapsie
	▪ –morphologique réduction du signifiant	–troncation (aphérèse et apocope) –siglaison –mot-valise
	▪ –intégration conceptuelle	

Ushbu tipologiyada asosiy urgʻu, soʻzlarning yasaliş turiga emas, balki ularning avvalambor tashqi dunyo tasviri kirib kelish shakllari, ichki til boyligida esa tushunchalarning birikishi, kengayishi yoki torayishi orqali yangi tasvirlarni yoki mavjud tasvirlarni yangicha ifodalashga eʼtibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Sablayrolles S.J.F. Présentation: Néologie, nouveaux modèles théoriques et NTIC. JSTOR [en ligne]. 2011, page 4. [cit. 2015-02-25]. Disponible sur: <http://www.jstor.org/stable/41683698>
- (2). Guilbert L. Théorie du néologisme. In: Cahiers de l'Association internationale des études françaises, 1973, n°25, pp. 9–29.
- (3). Guilbert L. Grammaire générative et néologie lexicale [en ligne]. 1974, p. 35 [cit. 2015-01-04]. Disponible sur: http://www.persee.fr/web/revues/home/prescript/article/lgge_0458-726X_1974_num_8_36_2272
- (4). Sablayrolles S.J.F. De la «néologie syntaxique» à la néologie combinatoire. Langages, Armand Colin. 2011, pp. 39–50.
- (5). Sablayrolles S.J.F. Pruvost J. «Les néologismes» Que sais-je? Presses Universitaires de France. 2016, p. 128.
- (6). Арутюнова Н. Проблемы морфологии и словообразования. На материале испанского языка. 2007, 288 с. Город <https://www.labirint.ru/books/214406/>
- (7). Benveniste E. Problèmes de linguistique générale, t. 2. Gallimard, Paris, 1974, pp. 171–176.
- (8). Sablayrolles S.J.F. La néologie aujourd'hui. Claude Gruaz. A la recherche du mot: De la langue au discours, Lambert-Lucas, pp. 141–157, 2006. fhalshs-00169475ff p6

Internet manbalari:

1. <http://bbouillon.free.fr/univ/ling/fichiers/morpholex/morpholex1.htm#:~:text=3>
2. <https://vitrinelinguistique.oqlf.gouv.qc.ca/25444/les-emprunts-alanglais/typologie-des-emprunts>

Qurbanov Zayniddin Oltinovich (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Nukus Innovatsion instituti; kurbanovzaynidin1@gmail.com) QO'SHRABOT TUMAN "JONBULOQ" MAHALLASIDAGI BULOQ KOMPONENTLI QISHLOQLAR TOPONIMIKASI TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada joy nomlari, toponimlarning turlari, shunindek, Qo'shrabot tuman Jonbuloq mahallasidagi buloq komponentli qishloqlar toponimikasining kelib chiqishi haqidagi tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: toponimika, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya, gidronomiya, oronimiya, oikonimiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya, etnotoponim, antropotoponim.

АНАЛИЗ СЕЛЬСКИХ ТОПОНИМОВ С КОМПОНЕНТОМ «РОДНИК» МАХАЛЛИ «ДЖОНБУЛОК» КОШРАБАДСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В данной статье представлены аналитические сведения о топонимах, типах топонимов, а также о происхождении топонимии сел с родниковым компонентом в микрорайоне Джонбулок Кошрабадского района.

Ключевые слова: топонимия, этнография, география, археология, геология, гидронимия, оронимия, ойконимия, полинимия, урбанонимия, микротопонимия, этнотопонимия, антропотопонимия.

STUDY OF THE TOPONYMICS OF VILLAGES WITH A "BULOQ (SPRING)" COMPONENT IN THE "JONBULOQ" NEIGHBORHOOD OF KOSHRABOT DISTRICT

Annotation. This article presents analytical information about toponyms, types of toponyms, as well as the origin of the toponymy of villages with a spring component in the Jonbulok microdistrict of the Koshrabot district.

Key words: toponymy, ethnography, geography, archeology, geology, hydronomy, oronymy, oikonymy, polynymy, urbanonomy, microtoponymy, ethnotoponymy, anthropotonymy.

Kirish (Introduction). Toponimikani o'rganish hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geosiyosiy o'zgarishlar, urbanizatsiya va globalizatsiya natijasida yangi nomlar paydo bo'lishi, eski nomlarning esa yo'qolib ketishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, xalqning tarixiy va madaniy xotirasini o'rganish uchun qiyinchiliklarni tug'diradi. Bizga ma'lumki, har bir xalq o'zi yashayaotgan qishloq, shahar va tumanning joylashish o'rniga qarab nom qo'yib kelishgan. Shu boisdan joy nomlari juda qadimiy hamda uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumotlarni yetkazib beradi. Shu sababli toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya singari fanlar o'z predmeti sifatida o'rganadi. Shuningdek, toponimika tilshunoslikni yuqorida keltirilgan fanlar bilan bog'lovchi hamda muhim nazariy va amaliy ma'lumotlar berib turuvchi soha hisoblanadi.

Toponimika – geografik obyektlarning nomlarini o'rganadigan fan bo'lib, u yer nomlarining kelib chiqishi, tarixi, ma'nosi va funksiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Toponimlar nafaqat joylarni ifodalash uchun xizmat qiladi, balki xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Toponimika

fani o'zining xalq geografiyasi, tarix, tilshunoslik va madaniyat bilan bog'liq jihatlari orqali har bir xalqning o'ziga xos madaniyati va an'analari haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi.

Toponimikaning asosiy vazifalaridan biri geografik nomlarning tarixiy ildizlarini va ularning ma'nolarini o'rganish hisoblanadi. Geografik nomlar, ko'pincha, muayyan bir hududning tabiiy xususiyatlari yoki tarixiy hodisalari bilan bog'liq bo'lib, ularni o'rganish asnosida, o'sha hudud to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Toponimik tadqiqotlar quyidagilar uchun muhimdir:

1. Tarixiy ahamiyati – toponimlar qadimgi voqealar, urushlar, mashhur shaxslar, etnik guruhlar va madaniy oqimlar to'g'risida ma'lumot beradi.

2. Madaniy ahamiyati – geografik nomlar xalqlarning dunyoqarashini, dinini, urf-odatlarini va e'tiqodlarini ifodalaydi.

3. Tilshunoslik ahamiyati – toponimika tilning o'zgarish jarayonlari, arxaik so'zlar va dialektlarni saqlab kelganligi sababli lingvistik tadqiqotlarda muhim o'ringa ega bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shubhasiz, keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizning muhim qatlamlaridan biri bo'lgan joy nomlari va uni o'rganuvchi toponimika faniga qiziqish ortib, jiddiy e'tibor berilmoqda. Masalan, oliy ta'lim muassasalari uchun nashr qilingan darslik, o'quv qo'llanma, bir qancha dissertatsiya va monografiyalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Dunyo va insoniyat yaratilib, odamlar yashash uchun mehnat qila boshlashidiki, atrofidagi yerlarni, tog'lar hamda qir-adirlarni, daryo-ko'llarni, o'rmonlarni, yaylovlarni biror nom bilan nomlab kelishgan. Bu haqda Samarqand viloyatidagi toponimlarni o'rganishda tilshunos olimlar N.Begaliyev, A.Turobovlarning ilmiy tadqiqotlarida misollar keltirib o'tilgan [2].

Odamsiz hayot ekan, ularning yashashini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan ota-bobolarimiz suvni muqaddas hisoblab kelganlar. Bizga ma'lumki, qancha-qancha bog'lar hamda ekin ekiladigan joylar daryo va buloq suvlaridan bahra olib gullab-yashnaydi.

Shu o'rinda birgina gidronimlarni oladigan bo'lsak, tilshunos olim N.Uluqov o'zbek tilida suv obyektlari va inshootlarini ifodalovchi qir-qand ortiq so'z mavjud bo'lib, ularga ariq, band//to'g'on, botqoq, buloq//chashma, daryo, dengiz, yop, jilg'a, zovur, zaxkash, irmoq, kanal, kechuv, kollektor//tashlama, koriz, ko'l, ko'priq, muzlik, nasos stansiyasi, nov//akveduk, oydin, olish, orol, parom, sardoba//qoq, selxona, soy, solma, soqa, suvayirg'ich, suvlot, suv ombori, sharshara, quduq, hovuz va boshqalar kiradi deb ta'kidlaydi [3]. Shunday ekan, ushbu hududlardagi suv obyektlari nomlari ham o'z tarixiga egadir. Suv obyektlari nomlari, ya'ni, gidronimlar geografik nomlar ichida eng qadimiy hisoblanib ular ming yillar davomida o'zgarishga uchramay, iste'molda bo'lib kelishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jahon toponimikasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, o'z ichiga juda ko'p xilma-xil madaniyat va tillarni qamrab olgan. Turli hududlarda geografik nomlar turlicha tuziladi va ular o'ziga xos tarixiy va etnik o'zgarishlarni aks ettirgan hisoblanadi. Masalan, Yevropa toponimikasi – qadimgi lotin va yunon tillariga asoslangan bo'lib, tarixiy hamda siyosiy voqealarni o'zida aks ettirganligi bilan ajralib tursa, Angliya, Fransiya va Ispaniya singari davlatlarda joy nomlari, asosan, lotincha yoki kelib chiqish jihatidan germancha so'zlardan iborat bo'ladi.

Osiyo toponimikasida esa, ko'pincha, diniy va etnik jihatlari aks ettirilsa, islom dunyosida bo'lsa "Madina" va "Makka" kabi nomlar keng tarqalgan bo'lib, ular diniy ramzlar bilan bog'liqdir.

Yurtimizni olib qaraydigan bo'lsak, geografik nomlar, asosan, turkiy tillardan olingan hamda mintaqaning qadimiy tarixini aks ettirganini ko'ramiz. Yurtimiz toponimikasi, asosan, ikki asosiy manbadan – qadimgi turkiy va forsiy tillardan kelib chiqqan nomlardan iborat ekanligini uchratamiz. Masalan, shahar nomlaridan "Toshkent" toponimi o'zbek tilida "Tosh" (qattiq tosh, tosh jins) va "kent" (shahar, qishloq) so'zlaridan iborat bo'lib, ma'nosi "toshli shahar" yoki "mustahkam shahar" degan ma'noni anglatadi. Ushbu toponimning izohi va kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni tarixiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, ya'ni, Toshkent qadimgi davrlardan beri muhim savdo va madaniy markaz bo'lib kelgan. Yozma manbalarga e'tibor beradigan bo'lsak, Toshkentning qadimgi nomlari "Choch" va "Shosh" bo'lgan. Uyg'onish davri tarixchilari va arab manbalarida bu nomlar ko'p tilga olingan. Mahalliy xalqlar orasida "Shosh" nomi "Tosh" so'ziga o'xshashligi sababli asta-sekin "Toshkent"ga aylangan deb taxmin qilinadi. Arxeologik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, Toshkent hududidan topilgan qadimiy ashyolar va qal'a qoldiqlari uning mustahkam mudofaa tizimiga ega shahar bo'lganini ko'rsatadi. Shu bois "toshli, mustahkam shahar" degan ma'no tarixiy asosga ega deb hisoblaymiz. Shuningdek, bu haqda olimlarimiz Z.Do'simov, X.Egamovlar ham o'z tadqiqotlarida aytib o'tganlar [4].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Samarqand viloyati Qo'shrabot tumaniga qarashli suvi va buloqlari ko'p tog'li eng chekka hududlardan biri Jonbuloq mahallasi

hamda uning atrofida joylashgan buloq komponentli qishloqlarning ayrimlari, ya'ni, *Jonbuloq, Bo'ronbuloq, Qizilbuloq, Toshbuloq, Mo'rbuloq, Uchbuloq, Soribuloq* toponimikasi haqidagi izlanishlarimizni sizga havola qilmoqchimiz. Bu qishloqlarning nomi bo'lgan so'zlarning kelib chiqish etimologiyasi hamda, dastlab, gidronim sifatida yasalgan bo'lib, keyinchalik, qishloq nomiga o'tganligi haqida ma'lumotlar berib o'tmoqchimiz.

Jonbuloq qishlog'ining joylashish o'rniga qaraydigan bo'lsak, qishloq ikki tomoni baland qirlikdan iborat bo'lgan chuqurlikdagi qishloq. Jonbuloq toponimi ikki asosiy qismdan tashkil topgan: "jon" va "buloq". Ushbu nom mahalliy aholining hududga nisbatan iliq munosabatini, shuningdek, buloqning hayotiy ahamiyatini ifodalaydi.

"Jon" – turkiy tillarda jon so'zi hayot, ruh yoki tiriklikni anglatadi. Geografik nomlarda "jon" so'zi, odatda, o'sha joyning ahamiyatli va qadrlanadigan manba ekanini, ehtimol, hayotiy zaruratni qondiradigan suv manbai ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, bu so'z mahalliy aholi uchun o'sha joyning qadrliligi va yaqin ekanligini bildirishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, haqiqatdan ham, Jonbuloq qishlog'ining geografik joylashini kuzatsak, qishloq ikki tomoni baland qirlikdan iborat bo'lgan chuqurlikda joylashganini hamda suv qirning yonidan chiqib aholi yashash uylariga oqib kelishini kuzatishimiz mumkin. Qishloq aholisi uchun hayot manbasi bo'lgan birgina buloq qishloq joylashgan qirning yonidan chiqqan ular shu suvdan foydalangan. Aholi tilida "yon" so'zi "jon" tarzida talaffuz qilinish natijasida Jonbuloq bo'lib talaffuz qilinib, qishloqning nomi ham Jonbuloq deb atala boshlangan. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, yurtimizdagi toponimlarning ayrim qismi fonetik yozuv asosida yozib kelinadi. Bunga sabab tili-mizda bir qancha shevalarning mavjudligidir. Shuning uchun ham toponimlarda ma'lum bir hududning dialektal xususiyatlari o'z aksini topgan holatlarni ham uchratishimiz mumkin. Shu boisdan nomlarda shevaga xos tovush o'zgarishlari, qisqarishga, ixchamlilikka intilish kabi hodisalar ko'proq kuzatiladi. Bunday holatlar esa joy nomlarining ko'pchiligi fonetik tamoyil asosida yozilishini taqozo etadi. Fonetik yozuv qoidasiga ko'ra, geografik nomlar og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinsa shunday yoziladi.

Bo'ronbuloq toponimi ham ikki asosiy qismdan tuzilgan: "bo'ron" va "buloq". Ushbu toponimik birlikni tahlil qilish uchun bu tarkibiy qismlarning semantik ma'nolariga alohida e'tibor berish muhimdir.

"Bo'ron" – so'zi turkiy tillardan kelib chiqqan bo'lib, kuchli shamol, dovul, yoki tabiatdagi kuchli meteorologik hodisani bildiradi. Bo'ron so'zi, ko'pincha, kuchli tabiiy hodisalarga ega joylarni tasvirlashda ishlatilgan. Bu, odatda, o'sha hududning kuchli shamollar esib turishi yoki tez-tez bo'ronlar kuzatilishi bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

Haqiqatdan ham, biz tadqiq qilayotgan hudud kuchli shamollar esadigan yoki bo'ronli hududda joylashgan. Shu sababli Bo'ronbuloq toponimi joyning kuchli shamolli yoki bo'ronli hududda joylashgan buloq ekanligini anglatadi. Aholi esa shundan kelib chiqib, qishloq nomini ham Bo'ronbuloq deb atay boshlagan. Bunday nomlashi mahalliy aholining atrof-muhitni nomlash an'analariga, geografik sharoitlariga va tabiiy hodisalarga nisbatan sezgirligini aks ettirgan.

Qizilbuloq toponimi ikki asosiy qismini o'z ichiga oladi: "qizil" va "buloq". Ushbu nom o'zbek va turkiy toponimiyalarda tez-tez uchraydi, o'sha hududning tabiiy xususiyatlari yoki rang tasviri bilan bog'liq holda shakllangan bo'lishini ham bildiradi. Toponimni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, "qizil" – turkiy tillarda qizil rangni ifodalaydi. Toponimikada "qizil" so'zi, ko'pincha, hududning tuprog'i yoki tabiiy manzarasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tuproqning qizg'ish yoki qizil rangda bo'lishi yoki tog' jinslarida qizil rangli elementlarning mavjudligi shunday nomlanishga sabab bo'ladi. "Qizil" so'zi xalq orasida qizg'ish rangli tuproq va toshli hududlarga nisbatan keng qo'llanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatiki, haqiqatdan ham, Qizilbuloq qishloq aholisi foydalanadigan ichimlik suvi qizil tosh orasidan sizib chiqayotganligi uchun ham ular qishloqni ham shu nom bilan atab kelishadi degan xulosaga keldik.

Toshbuloq toponimi ham "tosh" va "buloq" ikki tarkibiy qismdan iboratdir. Ushbu nom, odatda, joyning tabiiy xususiyatlariga ishora qilib, undagi toshli hududda joylashgan suv manbasini bildiradi. Toponimni tarkibiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, "tosh" – turkiy tillarda tosh yoki tog' jinslarini anglatadi. Toponimlarda "tosh" so'zi, odatda, joyning tabiati toshloq yoki tog'lik ekanini ifodalaydi. Bunday nomlanish, ko'pincha, atrofidagi hududlarning qattiq jinslardan iboratligi yoki toshli landshaftning ko'zga ko'rinarli belgisi bo'lganda ishlatiladi. Bu esa joyda tog' jinslari ko'p yoki u yer toshlar bilan qoplangan ekanidan dalolat beradi.

Toponim sifatida Toshbuloq nomi mahalliy aholining atrof-muhitni qabul qilishi va tasvirlash usullarini aks ettiradi. Bunday nomlanish tabiiy-geografik xususiyatlarga asoslanib, joy haqida tez va aniq tasavvur yaratadi. Yurtimiz va boshqa turkiy hududlarda "tosh" so'zi ko'plab toponimlarda uchraydi, bu esa

xalq orasida qattiq tog' jinslari yoki toshlar bilan bog'liq joylarni ajratib ko'rsatishga bo'lgan intilishdan dalolat beradi. Toshbuloq qishlog'i toshloq yoki tog'li hududda joylashgan bo'lib, bu nom o'sha joyning tabiiy muhitini aks ettirib, suv manbayi bo'lgan buloqning suvi toshlar orasidan sizib chiqib kelishi va toshloqli bir joyda joylashganligi bois qishloq aholisi uni Toshbuloq deb nomlaydi.

Mo'rbuloq toponimi ikki qismdan iborat: "mo'r" va "buloq". Bu nom o'zida hududning tabiiy xususiyatlari yoki suv manbayi bilan bog'liq ba'zi o'ziga xosliklarni aks ettiradi. Toponimni tarkibiy jihatda tahlil qilsak, "mo'r" – o'zbek tilida "mo'r" so'zi, ko'pincha, "moy", ya'ni moy yoki yog' bilan bog'liq narsalarni anglatishi mumkin. Turkiy tillarda "mo'r" so'zi ayrim hollarda qora rang bilan bog'liq bo'lgan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, xalq orasida "mo'r" iborasi yerning qoramtir rangiga yoki minerallar (masalan, temir oksidi) aralashmasiga ega bo'lgan tuproqni ham bildiradi.

Mo'rbuloq nomi qoramtir tuproqli yoki mineral moddalar aralashgan joydagi buloqni anglatadi. Bunday joylarda tuproq tarkibi o'zgacha bo'lib, suv chiqadigan buloq atrofidagi yer qoramtir yoki to'q rangda bo'ladi. Toponim sifatida "Mo'rbuloq" xalq orasida suvning sifati, buloq atrofidagi tuproqning rangi yoki uning kimyoviy tarkibi haqida tasavvur beradi. Shu sababli "mo'r" so'zining ishlatilishi xalqning atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, tuproq rangini aks ettirishda qanchalik nozik kuzatuvchanligini ko'rsatadi. Mo'rbuloq toponimi qoramtir yoki minerallarga boy tuproqli joyda joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Bu nom hududning rang va tarkib xususiyatlarini aks ettiradi va atrofidagi tuproqning qoramtirliigi yoki mineral tarkibini ifodalaganligi uchun aholi shunday nom bilan ataydi.

Uchbuloq toponimi o'zbek tilida ikkita asosiy so'zdan iborat: "uch" (son) va "buloq" (manba, chashma). "Uch" so'zi sonni anglatadi va bu yerda uchta narsaning mavjudligini bildirishi mumkin. Masalan, uchta buloq, uchta suv manbayi yoki uchta muhim joy. Nom qadimiy davrlarda o'sha joyning asosiy xususiyatlarini tasvirlagan. Masalan, uchta buloq hududda yashovchi odamlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Toponimlar ko'pincha mahalliy xalq tomonidan ularga berilgan, shuning uchun bu atamaning ma'nosini to'liq tushunish uchun mahalliy tarix, urf-odatlar va til xususiyatlarini o'rganish muhim sanaladi. Shu bois qishloqning nomi ham geografik jihatdan joylashuvidan, ya'ni uchta buloq borligidan kelib chiqib, "Uchbuloq" deb nomlanib kelgan.

Soribuloq toponimi ham ikki "sori" va "buloq" so'zlaridan tashkil topgan. O'zbek tilida "sori" so'zi bir nechta ma'noni anglatadi. Ulardan biri qadimiy fors tilidagi "sor" so'zidan kelib chiqib, "soy" yoki "suv oqimi" ma'nosini anglatadi. Shuningdek, "sor" ba'zan tekislik, yaylov yoki suv bo'yidagi hudud ma'nosida ham qo'llanilgan. "Sori" ba'zan "suvga oid", "suvga yaqin" ma'nosini ifodalovchi belgi sifatida ham ishlatilgan. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo'lsak, haqiqatdan ham, buloqning suvi sariq rangdagi qattiq qurtqa tosh orasidan sizib chiqadi. Bu hudud aholisi suv chiqib kelayotgan joyning belgisiga qarab, ya'ni, rangni bildirgan "sariq" so'zi xalq og'zaki nutqda "sori" tarzida talaffuz qilinib Soribuloq deb nomlanib ketgan.

Toponimlarning ikkinchi tarkibiy qismi "buloq" – tabiiy suv manbayi, ya'ni chashma yoki buloqni ifodalaydi. "Buloq" so'zi o'zbek va turkiy xalqlarda juda keng tarqalgan bo'lib, odatda, buloqli yoki suvli joylarni bildiradi. O'zbek toponimikasida esa "buloq" so'zi daryo, chashma yoki boshqa suv manbalariga nisbatan keng qo'llaniladi va bu hududda tabiiy suv manbasi borligini bildiradi. Buloqlar, ko'pincha, o'troq yoki ko'chmanchi xalqlar uchun muhim manba bo'lib, yashash joylarini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Bu joylarda suv manbayi xalq uchun yashash va obodlik manbayi hisoblangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jahon va o'zbek toponimikasi xalqlarning madaniyati, tarixi va tabiat bilan munosabatlarini aks ettiruvchi qimmatli ilmiy soha hisoblanadi. O'zbek toponimikasi Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy madaniyati va tarixiy o'tmishi haqida boy ma'lumotlarni saqlab kelmoqda. Shu bois bu sohani o'rganish va asrab-avaylash har bir xalq uchun katta ahamiyatga ega. Toponimikaning ko'pgina dalillari xarakter jihatdan xilma-xil bo'lgan lingvistik, tarixiy va geografik materiallar jalb qilingandagina to'g'ri izohlab berilishi mumkin. Geografik obyektlarga nom qo'yish va ularni qayta nomlash jarayonlarini o'rganish, bu sohada tegishli muassasalarga tavsiyalar berish toponimikaning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, toponimika yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ko'rinib turibdiki, biron-bir geografik yoki bir guruh nomning kelib chiqishi va tarixini mumkin qadar aniqroq tushuntirib berishni maqsad qilib olgan toponimik tadqiqot oson ish emas, balki ko'p vaqt hamda katta kuchni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, 2017, "O'zbekiston", 592-bet.

- (2). Begaliyev N., Turobov A. Samarqand toponimiyasi. SamDCHTI nashri, 2015, 156-bet.
- (3). Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent, 2008, "Fan", 192-bet.
- (4). Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qiqacha izohli lug'ati. Maktab o'quvchilari uchun, "O'qituvchi", Toshkent, 1977.
- (5). Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent, 2007, "Yangi asr avlodi", 88-bet.
- (6). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. "Universitet", Toshkent, 1977.
- (7). Qorayev S. Toponimika. O'quv qo'llanma, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2006, 320-bet.
- (8). Xudoyberganov R.Y. [va boshq.]. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [matn], lug'at, Toshkent, 2022, "Donishmand ziyosi", 624-bet.
- (9). B.O'rinboev. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohi lug'at), Samarqand, 2003, 264-bet.
- (10). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2007, 687-bet.

**Kuraxmedov Azamat Erkinovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, t.f.n.; e-mail: azamat@bk.ru)
SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA
TUTGAN O'RNI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand jadidchilarining Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o'rni haqida ilmiy mulohazalar keltirilgan. Yangi usuldagi maktablarning ko'payishi, musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy g'oyalariга ijobiy ta'sir ko'rsatishi, jadidlar o'lkadagi matbuot sahifalarida maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo'lidagi ahamiyatlari haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ'ib etishlari kabi mazasalar yuzasidan fikrlar izohlangan.*

***Kalit so'zlar:** jadid, jadidchilik, jamiyat, erkinlik, ozodlik, adolat, harakat.*

Курахмедов Азамат Эркинович (доцент Самаркандского государственного института иностранных языков)

РОЛЬ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИСТОВ В ДЖАДИДСКОМ ДВИЖЕНИИ ТУРЦИИ

***Аннотация.** В статье представлены научные комментарии о роли самаркандских джадистов в туркестанском джадидском движении. Распространение школ нового образца положительно влияет на общественно-политические идеи мусульман, а джадиды пропагандируют джадидизм, написав на страницах прессы страны научно-теоретические и публицистические статьи о природе, назначении и значении школ.*

***Ключевые слова:** джадид, джадидизм, общество, свобода, освобождение, справедливость, действие.*

**Kurakhmedov Azamat Erkinovich (Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages)
THE ROLE OF SAMARKAND JADISTS IN THE JADID MOVEMENT OF TURKEY**

***Annotation.** This article presents scientific observations on the place of Samarkand Jadidists in the Turkestan Jadid movement. The article explains such issues as the proliferation of new-style schools, their positive impact on the socio-political ideas of Muslims, and the Jadidists' promotion of Jadidism by writing scientific, theoretical, and journalistic articles in the country's press about the essence, purpose, and importance of schools on the path to development.*

***Key words:** jadid, jadidism, society, freedom, liberation, justice, action.*

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmida butun Turkiston o'lkasida kuzatilgani kabi, Samarqand madaniy hayotida ham ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda o'ziga xos yangi oqim, ya'ni *jadidchilik* sohasi tarix sahnasiga kirib keldi. Jadidlarning asosiy maqsadlari o'lkada «yangi usul» maktablarini ochib, eski o'quv usulini yangicha asosda qurish edi. Samarqandda bunday maktablarga asos solgan atoqli vakillardan – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy va Hoji Muinlarni ko'rsatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Sadridin Ayniyning yozishicha, 1903-yili Abdulqodir Shakuriy tashabbusi bilan Rajabamin qishlog'ida yangi usul maktabi ochiladi. Bu maktab uchun Abdulqodir Shakuriy tomonidan «Jome' ul-hikoyat» [1] nomli darslik yaratiladi. Abdurauf Fitrat «Bayonoti sayyohi hindi» («Hind sayyohining bayonoti») kitobida qahramon tilidan «Samarqandda bir necha yangi boshlang'ich maktablar bo'lib, ular ichida yang yaxshisi Shakuriy maktabidir. Bu maktab asta-sekin kerakli cho'qqini egallaydi. Samarqand maktablarini ko'rib chiqib, ulardan mamnunman», deb ta'kidlaydi (2).

Muhokama. 1903-yili Samarqand shahrining Xo'ja Nisbatdor mahallasida Hoji Muin boshchiligida usuli jadid maktabi ochilgan. U maktabdorlikdan daromad olishni o'ylamagan, ma'rifatparvar zot maktabmaorif yo'lida fidoyilik ko'rsatib «Rahnamoyi savod» nomli alifbo nashr ettirgan va kutubxona tashkil et-

gan. Birinchi yangi usuldagi maktab 1904-yili Xo'jandda ham ochiladi. Maktabga Toshkentdan o'qituvchi chaqirtiriladi. Bu esa hammani quvontirib, yangi usul maktablarini ochishga ruhlantiradi. Yangi o'quv usullari bilan ajralib turgan bunday maktablar soni asta-sekin Samarqandda ko'payib boraverdi.

Turkiston jadidlari otasi nomini olgan buyuk ma'rifatparvar, pedagog, jurnalist, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy turli ta'qib va qiyinchiliklarga qaramasdan, 1903-yil oxirida Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktabini Samarqandning Eski shahar «Qo'shhovuz» mahallasida joylashgan hovlisiga ko'chirib keltiradi va bu maktabga beg'araz yordam ko'rsatadi. 1905-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi Samarqandning Kaftarxona qishlog'ida jadid maktabi ochadi. Unga 40 ga yaqin o'quvchi ta'lim oladi. 1906-yili «Samarqand» gazetasi muxbiri Almatovning yozishicha, «Oddiy maktablarda 3–4 yil ichida o'rganiladigan bilimlarni bu maktabda o'quvchilar bir yilda o'zlashtirib olganlar. Shu bilan birga, maktabda dunyoviy ilmlar qatorida diniy bilimlar ham berilgan [3].

Natijalar. Mahmudxo'ja Behbudiy o'quvchilar uchun 1904-yili «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug'rofiya»), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), 1905-yili «Amaliyoti islom» («Islom amaliyoti»), «Madhali jug'rofiyai umumiy» («Umumiy jug'rofiya»), 1908-yili «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi») kabi darslik va o'quv qo'llanmalarni yozgan. Milliy maorif va madaniyatni rivojlantirish uchun Behbudiy Samarqandda 1908-yili Turkistonda birinchi marta musulmonlar uchun bepul qiroatxona-kutubxona ochib, o'z mablag'i hisobiga uni boyitib boradi. U Turkistonning birinchi geografik xaritasini tuzadi va maktablarda foydalanish uchun nashr qildiradi [4].

Umuman olganda, Behbudiy maorif tizimini isloh qilish uchun faoliyat olib borgan. Behbudiyning yozishicha, islohni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi [5]. Yangi usul maktablari Samarqandda birin-ketin ochila boshlaydi. Shunday maktablardan birini shaharda Abdushukurov 1907-yili ochadi. Natijada usuli jadid maktablari xalq orasida, asta-sekin bo'lsa-da, obro' topa boshlagan. Jadidlar ma'rifat, madaniyatni rivojlantirish, musulmonlarni bilimli va ma'rifatli qilish uchun kurashganlar.

Samarqand jadidlari maktab-maorif ishlariga shu qadar qattiq kirishdilarki, yoshlarni ko'proq til bilishga, shu bilan bilim doirasini kengaytirishga da'vat etdilar. Ko'p tillarni bilish bilan kofir bo'lmaydi, degan aqidani targ'ib qildilar, o'zlari ham rus tilini o'rganib, o'quvchilarni ham o'rgata boshladilar. Ular boshqa millatlarning, ayniqsa, rivojlangan Yevropa tillari, madaniyatini o'rganish, maktab-maorif ishlarida ularning tartiblarini joriy etishni targ'ib qildilar. Jurnalist Andreevning yozishicha, «Madaniyatli musulmonlar zamonaviy, taraqqiy etgan kelajak hayotda ularning farzandlaridan nimalarni talab qilayotganini anglab, rus-tuzem maktablaridan qoniqmay, o'z farzandlarini ma'lumotli qilishning boshqa yangi yo'llarini axtarib topib, 1900–1905-yillari yangi usul maktablari ochishni boshladilar va ularning soni asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'lkada ko'payib bordi» [6]. Jadidlar maktab-maorif ishlarini Samarqandda yanada rivojlantirib, maktablarning xalq orasida obro' qozonishi natijasida ularning soni ko'paya boshladi. «Turkestan-skiy uchitel» gazetasi muxbiri A.Enikeevning yozishicha, yangi usul maktablari o'zining taraqqiyotida turib, mahalliy xalq orasida obro' qozondi [7]. O'z xalqi ravnaqi, rivoji uchun kurashgan jadidlar «taraqqiyotga erishishimiz uchun, o'z vrachlarimiz, iqtisodchilarimiz va ma'lumotli kishilarimiz bo'lishi uchun tezda maktab va madrasalarni yangicha isloh etishimiz kerak», [8] degan shior ostida harakat boshlaganlar, deb yozadi «Tujjor» gazetasi.

Yangi usuldagi maktablarni nafaqat Samarqandda, balki Turkiston o'lkasida ko'payishi, musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy g'oyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa chor ma'murlarining yangi usul maktablari ustidan nazoratni kuchaytirishiga olib keldi. Jadidlar o'lkadagi matbuot sahifalarida mazkur maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo'lidagi ahamiyatlari haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ'ib etdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy yozadiki, «Siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa (din va millatga xizmat ilm va oqillik ila bo'lur) shu ilm zamoni tahsil qilmog'i uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur» [9]. Jadid maktablarida o'qib, ilmi va zamon talabiga javob bera oladigan kadrlarni yetkazish uchun jadidlar kurashdilar. Bu bilan esa ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy taraqqiyotda muhim o'rinlarda bo'lishimizni, Turkistonni mustaqil bo'lib ravnaq etishini uqdirdilar. Shuning uchun ham «Turkestan-skiy golos» gazetasida yozilishicha, «Rus-tuzem maktablarining vaqti o'tdi. Musulmonlar bunga aniq ishonch hosil qilib, rus maktablari, o'rniga o'zlarining mahalliy maktablarini ochishni ko'paytirdilar» [10].

Mustamlaka ma'murlari va politsiya nazorati ostida bo'lishiga qaramasdan, jadidlar ma'rifatparvarlik harakatlarini kuchaytirib bordilar. Ular gazeta, jurnallar, kutubxonalar, nashriyotlar va teatrlar tashkil

qildilar. Bularning hammasini o'zlarining shaxsiy mablag'lari yoki xayriya jamiyatlari hisobiga ochdilar. Misol uchun, Samarqandda 1913-yilning may oyidan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligida «Samarqand» gazetasi chiqqan boshlandi. Gazeta Samarqandda «Gazarov va Smeyanov» tipografiyasida nash etilgan. Bu gazetani nashr etish uchun Toshkentda ochilgan taraqqiyparvar musulmonlarning «Umid» xayriya jamg'armasi Munavvarqori Abdurashitxonov orqali 500 rubl jo'natganlar. «Samarqand» gazetasida Turkiston mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot to'g'risida maqolalar o'z aksini topgan edi. Bu gazetaning 44 ta soni chiqqanidan keyin mablag' yetishmovchiligi sababli nashr ishi to'xtatildi.

1913-yilning 20-avgustidan boshlab Samarqanddagi «Gazarov va Smeyanov» bosmaxonasida yana Behbudiy boshchiligida rus, o'zbek va tojik tillarida musulmonlarning «Oyina» jurnali nashr qilina boshlandi. 1913–1915-yillarda jurnalning 68 nomeri (1720 bet) chiqib, 1915-yilning iyun oylarida to'xtatildi. Bu gazeta va jurnalda ko'plab jadidlar Hoji Muin, Vasliy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa jadid namoyandalari o'z maqolalari bilan ishtirok etdilar. Turkiston xalqining savodli va ma'rifatli, to'q va farovon bo'lishi, uni ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo'lish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Shunday shiorlar va maqsadlar bilan jadidlar o'z faoliyatlarini, kuch-g'ayratlarini millatni uyg'otishga bag'ishladilar, mahalliy xalqning ko'zini ochib, yuzlarini yorug' etish uchun jonlarini tikdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan davrda viloyatda ruslar mahalliy aholini ruslashtirish, iloji boricha tashqi dunyodan ajratib qo'yish maqsadida rus-tuzem maktablari ochdilar. Mahalliy xalqni bu maktablarga jalb etishga intildilar. Lekin majburiy ochilgan rus-tuzem maktablari mahalliy xalqqa begona edi. Shunday vaziyatda jadid namoyandalari o'z g'oyalari bilan tarix sahnasiga kirdilar. Bu buyuk ma'rifatparvarlar xalqimizni ma'rifatli, dunyoviy bilimlarga ega bo'lishi uchun kurashdilar. Farzandlarimiz chet davlatlarning oliy o'quv yurtlarida o'qib, ilm o'rganishi kerak, deb kurashdilar. Maktablar ochib, kitoblar, darsliklar yozib musulmon farzandlarini bepul o'qishlari uchun sharoitlar yaratdilar. Bu maktablar Turkiston xalqlari tarixida ma'rifat o'chog'i bo'lib qoldi. Ular XX asr boshida Turkiston aholisining milliy ong va madaniyatini qaytadan yuksalishiga turtki bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. Душанбе, 1987, с. 31.
- (2). Абд-ур-Рауфъ. Рассказы индийского путешественника («Бухара как она есть»). Самарканд, Махмудхожа Бегбуди. 1913, с. 79.
- (3). Алматов. Новометодные школы, Самарканд, 1906, 20 май, № 37, с. 3.
- (4). М.Ф.Махмудхожа Бегбуди. «Наука и просвещение», 1922, № 1, с. 23.
- (5). Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Акад. М.М.Хайруллаев тахрири остида. Т., «Ўзбекистон», 1995, 224-бет.
- (6). Андреев Г. Туземцы и просвещение. «Туркестанский голосъ», 1916, 12 ноябрь, № 103.
- (7). Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде. «Туркестанский учитель», 1917, № 7, с. 197.
- (8). Пясковский А.В. Революция 1905–1907 гг. в Туркестане. М., 1958, с. 558.
- (9). Авазов Н. Туркестонда ҳақ олинмади, берилди. «Ёшлик», 1991, № 10, 43-бет.
- (10). Андреев Г. Туземцы и просвещение. «Туркестанский голосъ», 1916, 12 ноябрь, № 103.

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "3-ingliz tili integrallashgan kursi" kafedrasi katta o'qituvchisi; maqsadxonhakimova@gmail.com; <https://orcid.org/0000-0002-3593-4888>; УДК:82.01/09:82.145)

ADRIAN HENRI IJODIDA SHE'RIYAT VA SAN'ATNING ESTETIK-IDEOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. Maqola o'z ijodiy faoliyatida san'atning bir necha turlarini uyg'unlashtira olgan shoir, rassom va musiqachi Adrian Henrining hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Maqolada shoirning o'quvchilarini hayotning bebaqo tabiati, muhabbat va ijodning tugmas kuchi haqida o'ylab ko'rishga chorlashi, shuningdek, uning Liverpul shoirlari harakatiga qo'shgan hissasi, ingliz adabiyoti va san'atiga ko'rsatgan ta'siriga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Liverpul shoirlari, adabiyot, san'at, she'r, rasm, rassom, shoir, surat.

Хакимова Максадхон Дилшодбековна (старший преподаватель кафедры интегрированного курса английского языка №3, Узбекский государственный университет мировых языков)

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ПОЭЗИИ И ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АДРИАНА ГЕНРИ

Аннотация. Статья посвящена жизни и творчеству Адриана Генри, поэта, художника и музыканта, который сумел объединить различные виды искусства в своей творческой деятельности.

ти. В статье рассматривается, как поэт призывает читателей задуматься о мимолетной природе жизни, любви и неиссякаемой силе творчества, а также его вклад в движение Ливерпульских поэтов и влияние на английскую литературу и искусство.

Ключевые слова: ливерпульские поэты, литература, искусство, поэзия, живопись, художник, поэт, картина.

Khakimova Maksadkhon Dilshodbekovna (Senior Teacher, Department of Integrated Course of English Language №3 Uzbekistan State World Languages University)

THE AESTHETIC AND IDEOLOGICAL INTERPRETATION OF POETRY AND ART IN ADRIAN HENRI'S WORK

Annotation. The article is dedicated to the life and work of Adrian Henri, a poet, artist, and musician who was able to harmonize various forms of art in his creative activities. It discusses how the poet invites readers to reflect on the fleeting nature of life, love, and the inexhaustible power of creativity, as well as his contribution to the Liverpool Poets movement and his influence on English literature and art.

Keywords: Liverpool Poets, literature, art, poem, painting, artist, poet, picture.

Kirish. Keng ommaga mo'ljallangan, o'zgacha hajviy va sahnabop she'riy uslubni ingliz poeziyasiga olib kirgan Liverpool shoirlaridan biri Adrian Henri nafaqat iste'dodli shoir va dramaturg, balki mohir rassom va pedagog, nozikta'b musiqachi va ijrochi hamdir. Uning ijodida badiiy ekspressiya va ijtimoiy tahlil o'zaro bog'liq bo'lib, asarlarida she'riyat va san'atning estetik-ideologik uyg'unligi shahar hayoti, hayotning oddiy, ammo muhim jihatlarini, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy his-tuyg'ularni tasvirlashda ko'rinadi. Shoir badiiy ekspressiyada ijtimoiy va siyosiy muammolarni ko'rsatish uchun tasvirlar va metaforalardan foydalanadi hamda o'quvchilarni estetik-ideologik jihatdan tanqidiy-tahliliy fikrlashga chorlab, o'z atrofidagi dunyo haqida qayg'urishga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotlar guruhiga murojaat qilingan:

1. Jahon, jumladan, ingliz adabiyotshunos olimlari izlanishlarida she'riyat va san'atning estetik-ideologik talqini, Liverpool shoirlari asarlari va ular ijodida mavzular ko'lami masalalari tadqiqi yuzasidan bildirilgan fikrlar.

2. Mamlakatimizda poetik tafakkur, ijodkor shaxsi, yozuvchi va shoirlarning badiiy mahorati hamda uslubining turli qirralari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida ideologik, strukturalistik va poststrukturalistik, biografik, sotsiologik, lingvistik, psixoanalitik, fenomenologik, madaniy qiyoslash tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Rassomlik va she'riyat san'atkorning qo'sh qanoti bo'lib, u ranglar tasvirlashga oqizlik qilgan tuyg'ularini so'zlar bilan, so'zga sig'magan hislarini bo'yoqlar bilan qog'ozga tushiradi. "Men chizishni istayman" deydi shoir.

I want to paint

...

The Entry of Christ

into Liverpool in 1966

The installation of Roger McGough

in the Chair of Poetry at Oxford

Shoir chizishni istagan narsalarni na chizgilar va na bo'yoqlar tasvirlab bera oladi. Yangi yilning *kirib kelishini* yoki Roger McGoughning Oksford she'riyat kafedrasida mudirligiga *tayinlanishini* mo'yqalam bilan ifodalash mumkinmikan. Shoir, bundan tashqari, haqiqiy *hayotda mavjud* bo'lgan suv parilarini va Kaning ko'chasi yo'laklaridagi *har bir* toshning ulkan suratlarini, Beatls guruhi yozgan yangi *madhiyani* va Brian Patten o't o'chirgich bilan yozgan *she'rning rasmini*, boshpanasiz kimsalar *makon tutib, yashashi mumkin* bo'lgan tasvirlarni va markazda ma'shuqasi turgan dunyoning *to'liq masshtabli* xaritasi kabilarni chizishni istaydi va bularning barchasini poeziyaga aylantiradi.

I want to paint

Men chizishni istayman

...

Pictures worth

their weight in money

...

Qiymati vazniga

teng bo'lgan rasmlarni

...

I want to paint

pictures

...

Men chizishni istayman

suratlarni

Musavvir moybo'yog'-u suvbo'yoqlarining imkonidan tashqari narsalarni chizishni xohlagan payt shoir qalami yordamga keladi: qiymati vaznidan-da ortiq she'rlar qog'ozga ko'chadi va musiqa jo'rligida yangrab, kishilar qalbiga yo'l oladi. Undagi bunday o'ziga xoslikni Brian Patten shunday izohlaydi: "Sariq atirgul yeyayotgan qo'ylarmi, skelet ekipajlari tomonidan boshqariladigan arvoq paromlarmi... Men Adrianning vizual tasavvurlaridan har doim zavqlanganman. Undagi shoir undagi rassom chizmoqchi bo'lgan obrazlarni o'z ichiga olgan she'rlar yozgan, undagi rassom esa shoir yozmoqchi bo'lgan obrazlarni chizgan. Ammo, aslida, ruhining qaysi qismi tasvirlarni birinchi bo'lib qabul qilgani muhim emas – Adrian tasavvuri qayerda ziyofat uyushtirsa, xayollari bilan o'sha joyga yugurib ketardi va har doimgidek saxiylik ila topganlarini hammamiz bilan baham ko'rish uchun qaytib kelardi".¹

Adrian Henri san'atning bir-biriga unchalik ham yaqin bo'lmagan bir necha turlarini o'zida birlashtirgan ijodkor. U o'z falsafasini shunday ifodalaydi "agar biror ishni qila olaman deb o'ylasangiz va qilishni istasangiz, demak, qila olasiz".² Musiqa bilan ham professional tarzda shug'ullangan shoir 1967–1970-yillarda faoliyat yuritgan va Liverpool yoshlari orasida katta shuhrat qozongan Liverpool Scene she'riy rok guruhi asoschisi va solisti edi. U o'zi va ko'plab zamondosh shoirlar she'rlarini musiqa jo'rligida o'qish bilan birga washboard ham chalardi. Adrian Henri konsertlariga kelgan muxlislarning, siz, avvalo, shoir, keyin rassomisiz yoki aksinchami, degan odatiy savollariga, men birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinda ham sizlar uchun kuylayman, deb javob berardi, lekin bunday savol, aslida, noo'rin, shoir Adrian Henri bilan rassom Adrian Henri bir odam, uning bir o'zida shoirning qayroqi tili va rassomning sinchkov ko'zlari mujassam edi, deydi shoirning zamondoshi – shoir, dramaturg va kompozitor Willy Russell.³

Ijodiy faoliyatini, dastlab, rassomlikdan boshlagan shoir, keyinchalik, san'atning boshqa sohalariga ham qo'l urgan bo'lsa-da, she'riyat u uchun asosiy o'rinda ekanligini e'tirof etgan edi: *"I think of myself as a maker, and presenter, of images of various media. Pop poets is, I think, the most common label"*.⁴

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Adrian Henri ijtimoiy tahlil borasida keng ko'lamli, badiiy ekspresiya jihatidan anchayin erkin ijod qilgan shoir, she'rlarining asosiy qismi hayotiy global muammolar haqida baxs yuritadi. Insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, yaratuvchanlik va buzg'unchilik o'rtasidagi azaliy ziddiyat, kishilarning insoniyat va jamiyat oldidagi burchi kabi masalalar ijodining katta qismini tashkil qiladi. Uning she'rlarini uchta asosiy tematik qismga bo'lish mumkin: muhabbat mavzusi, joy tasvirlari va bag'ishlovlar. Shoir avvalo san'at, tabiat, musiqa, sayohat, do'stlik va sevgi oshuftasi edi. Henrining sevgi-muhabbat haqidagi she'rlarida tasodifiy to'qnashuvlar, hayot mo'jizalari, go'zal visol onlari, aldanchi tuyg'ular, istaksiz ajralishlar tasvirlangan bo'lsa, joy tasvirlari qalamga olingan she'rlarida Liverpool, Manchester yoki qandaydir xayoliy Metropolisning markazidagi shahar manzaralarini, Uyels, Nyu-York yoki Janubiy Afrikaning uzoqdan ko'rinuvchi landshaftlarini uchratish mumkin. Shoir qayerga bormasin, qayerda bo'lmasin, albatta, o'sha joyning "buzilgan tasvirlar to'plami"ni olib kelgan va oxir-oqibat ular she'rlar yoki rasmlarga aylangan.⁵ Adrian Henri qalamidan to'kilgan satrlar va tasvirlar orasida u o'zi hurmat qilgan va ardoqlagan juda ko'plab insonlarga bag'ishlab yozgan she'rlari va chizgan suratlarini ko'rish mumkin. Ularda tasvirlangan kishilar barchaga tanishligi, xalq orasidan chiqqanligi va shu sababli oddiy odamlarga yaqinligi bilan ajralib turadi hamda XX asr o'rtalaridagi Britaniya ijtimoiy hayotining mohiyatini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Booth, M. British Poetry 1964–84: Driving Through the Barricades. Routledge & Kegan Paul, 1985.
- (2). Bowen, P. A Gallery to Play to: The Story of the Mersey Poets. Liverpool. Liverpool University Press. Second Edition, 2008.
- (3). Henri, A. Contemporary Poets. Third Edition. St. James Press London, St.Martin's Press New York, 1988.
- (4). Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press, 2007.
- (5). Taylor A. A poetry of place: the flâneur and Adrian Henri. Lancaster University (United Kingdom), ProQuest, UMI Dissertations Publishing, 2008, U506514.
- (6). Досбаева, Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида). (10.01.07), ЎзМУ, Тошкент, 2011, номзодлик диссертацияси.

¹ Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press. 2007, p. 8.

² Taylor A. A poetry of place: the flâneur and Adrian Henri. Lancaster University (United Kingdom), ProQuest, UMI Dissertations Publishing, 2008, U506514.

³ Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press, 2007, p. 148.

⁴ Henri, A. Contemporary Poets. Third Edition. St. James Press London, St.Martin's Press, New York, 1988, p. 411.

⁵ O'sha manba. Introduction.

(7). Лебедев, А.Ю. Творчество и стиль «Ливерпульских поэтов». Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова, № 3, 2016.

(8). http://www.wikipedia.freeencyclopedia/Biography_of_Adrian_Henry//

Aslanov Asatillo Ekramovich (Navoiy davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasida katta o‘qituvchisi; aslanovasatillo416@gmail.com)
ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON QADRI VA KOMIL INSONGA XOS FAZILATLAR

Annotatsiya. Maqolada mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ijodida inson qadri bilan bog‘liq tushunchalar: o‘zaro munosabat, do‘stlik, ota-onaga sadoqat, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, chuchuk tilli, rahmdil, mard bo‘lish, ilmli, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabr-qanoatlilik kabi xislatlarning talqin qilinishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inson qadri, ijtimoiy guruh, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, ma‘rifat, umuminsoniy qadriyat, ijobiy xislatlar.

ГАРМОНИЧНАЯ ЛИЧНОСТЬ И ПОНЯТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В статье анализируются понятия человеческого достоинства в творчестве великого представителя нашей классической литературы Алишера Навои: взаимоотношения, дружба, верность родителям, религия, справедливость, великодушие, сострадание храбрость, знание, доброта, довольство и терпение.

Ключевые слова: человеческое достоинство, социальная группа, религия, справедливость, великодушие, сострадание, просвещение, общечеловеческая ценность, положительные качества.

HUMAN VALUE AND VIRTUES OF A PERFECT MAN IN THE WORK OF ALISHER NAVOIY

Annotation. The article analyzes the interpretation of such concepts related to human value in the works of the great representative of our classical literature, Alisher Navoi: reciprocity, friendship, loyalty to parents, piety, justice, honesty, generosity, kindness, gentleness, compassion, courage, knowledge, good manners, living a life of contentment, patience and contentment.

Keywords: human value, social group, piety, justice, honesty, generosity, kindness, enlightenment, universal human value, positive qualities.

Kirish. Inson qadri masalasi Qur‘oni karim, Hadisi shariflarda, Mahmud az-Zamaxshariyning “Nozik iboralar”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Pahlavon Mahmudning ruboiylarida, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston va Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” va boshqa kop‘lab asarlarda tahlil qilinib, ulug‘langan.

Asosiy qism. Buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning ijtimoiy soha jonkuyari sifatida millat tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. Shoironing butun faolyati asosida xalq va inson qadri yotadi. Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog‘- u toshlar, o‘simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so‘z bilan aytganda, butun borliq yaratilgan. Ammo hazrati inson bu mo‘jizalarning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha noz-ne‘matlar, yaxshi narsalar inson uchun yaratilgan. Aql-farosat sohibi bo‘lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson aql-farosati, tafakkuri, muomala madaniyati, o‘zini tutishi, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Mutafakkir “Nasoyim ul-muhabbat” asarida avliyolarga xos bo‘lgan 16 ta sifatga, ya‘ni, tavba, halol luqma bilan ovqatlanish, o‘z kasbi bilan kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, tariqat odobini saqlash, kamsuqumlik, farzandlari va xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil, saxiy va mard bo‘lish, ilmli, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabrli, sadoqatli va vafoli bo‘lish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik xislatlariga alohida e‘tibor qaratgan.

Alisher Navoiy xalq g‘amini o‘z g‘amidek bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas.

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Buyuk bobokolonimiz insonga hayotdagi faoliyatiga, kasbi-koriga, foydali ishlariga qarab baho bergan. Jumladan, “Mahbub ul-qulub” asarida ijtimoiy tabaqalarga o‘z munosabatini bildirar ekan, ularning qaysi biri xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini chuqurroq yoritib berishga harakat qiladi.

Xalq va davlat manfaati uchun buyuk ishlarni ro'yobga chiqarishda adolatli hukmdorlar lozim deb ta'kidlaydi: "Odil podshoh Haq taolodin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qaro tufrog'din gular ochar va mulk ahli boshiga oltin bila durlar sochar" [6;9-b.].

Alisher Navoiy dehqonlar, ularning yaratuvchilik qudrati haqida to'liqlanib fikr yuritadi: "Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar...Dehqonki, tuzlu bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar" [6;37-b.]. "Dehqon don sochishidan boshlab, qushlar-u jonivorlar undan bahramand, butun borliq obod" [6;38-b.]. Asarda mudarrislar, tabiblar, kotiblar, bozor ahli, askarlar, hunarmandlar kabi ijtimoiy guruhlarga xos bo'lgan nuqson-u kamchiliklar hamda ularning ijobiy xislatlarini ko'rsatib beradi. Tabiblar haqida fikr yuritib, ularni ishida mahoratli, bemorlarga shafqatli va marhamatli, xushmuomala bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Kotiblar faoliyatiga baho berar ekan, ularni so'z xazinasining xazinadori deya ulig'lab, bu soha xodimlari orasida savodsiz, loqayd, badxatlari bo'lishini istamaydi: "Yomon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo'lsun, qalamidek boshi yoro va yuzi qaro bo'lsun" [6;26-b.].

Asarning ikkinchi qismi axloq masalalariga bag'ishlangan bo'lib, odob, tavoze, kamtarinlik, do'stlik va birodarlik singari insoniy fazilatlar ulug'lanadi. "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat insonlardan hurmatliroqdir... odobli kishi izzat-hurmatga loyiq" [6;63-b.], deydi. Albatta, odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, bir-biriga bo'lgan muhabbati borgan sari rivoj topadi.

Alloma odamlarni insofli, saxovatli, adolatli, ahil va karomatli bo'lishga, bir-biriga yordam berishga da'vat etadi. "Karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoq. Karam – birovning mashaqqat tikanining og'irligini ko'tarmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilgan ishlarni tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uni yuziga solmaslikdir" [6;87-b.].

Mutafakkir ehsonni ulug'lab, "Ehson degan sifatni abadiy saodat bil. Kishilik bog'ining ko'ngilga yoqar daraxti ehsondir. Barcha maqbul sifatlar va holatlar ehsonga qarashlidir, bu sifat va holatlarni u o'z ichiga olgan hamda shuning o'zida voqeadir. U barcha ezguliklarni o'zida to'plagan va barcha yaxshiliklar haqiqatdan unga tegishlidir" [6;87-b.], degan fikrni ilgari suradi.

Navoiyning fikricha, yaxshilikni o'ziga maqsad qilib olgan odamlar saxiy va himmatli bo'ladi. "Saxiylik kishilar bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'liqlik daryosi, balki u to'liqlik daryoning asl gavharidir" [6;87-b.].

Navoiy odamlarga saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o'zidagi aql va bilim yordamida ularga ma'naviy ko'mak ham berishida deb ham tushuntiradi. Saxiylik himmatli bo'lish bilan bog'liq ekanini uqdirib, shunday deydi: "Saxiylik odamning odobidir, himmat uning joni, himmat dunyoga yuz ming kushoyish bo'lar, himmatsiz kishi er sendek emas, jonsiz badanli kishi tirik emas" [6;87-b.].

Navoiy komil insonga xos xislatlar qanoat, sabr, til shirinligi, ochiq ko'ngillik, kamtarlik, ishq, vafo, saxovat, himmat, muruvvat, ilmga baho berar ekan, qanoat haqida shunday deydi: "Qanoat – bu buloqdir, suvini olgan bilan qurimaydi, xazinadir. Naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir, urug'i lazzat va shafqat mevasini beradi; daraxtdir, shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi" [6.57]. Bizga ma'lumki, sabr nafsni qayg'u va g'azabdan, tilni yomon so'z aytishdan va kasal bo'lganda a'zolari tashishdan tutib turishdir. Navoiy ta'biri bilan aytganda: "Sabr achchiqdir, ammo u foyda beruvchi, qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlarni ochqichdir. Achchiq so'zli nasihatiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'liq yuz beradi" [6;60-b.].

Navoiyning fikricha, insonning go'zalligi uning tili orqali namoyon bo'ladi. Insonda til bo'lmaganda, u o'likdan farqlanmasligi, shu tilgina insonga tiriklik baxsh etishi va shu orqali ezgulik, adolat yo'liga kirishi haqida aytib o'tgan [6;102-b.].

Bayt:

*Har necha biymi hajr so'zi oshiq o'lturur,
Vuslat bashorati yana jismig'a jon berur.* [6;13-b.]

Ko'ngilni ulug' ne'mat deya e'tirof etib, ko'nglida kemptigi bor insonni ko'ngilni ko'tarish go'yo bir bora haj safariga borishdek amalga tengligini ta'kidlydi.

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*

*Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q onchakim, ko'ngul ka'basi.* [6;66-b.]

Navoiy tabiat olamining go‘zal qilib yaratilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad inson bo‘lib, u yer yuzidagi barcha mavjudotlar ichida tengi yo‘q bir xilqatdir deb uqdiradi.

*Ofarinishdin qilib inson ga‘raz,
Oni aylab xalq ichinda baevaz. [2;56-b.]*

Olamdagi barcha narsa, hodisa va o‘zgarishlarning ijodkori bo‘lgan xudo o‘zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko‘ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

*Sun‘ungg‘a yuz ofarin, ey kirdikor,
Ga‘yr yo‘q sen, senki derlar oni bor.
Borsen sen, borlig‘ zebandasi,
Birliku jabborlig‘ arzandasi.
Sendadur ham birliku ham borlig‘.
Haylig‘u qodirlig‘u g‘affurlig‘. [2;78-b.]*

Navoiy inson axloqidagi «yomon» tomonlar deganda nimalarni ko‘zda tutadi? Buning batafsil javobi qushlar va Hudhud munozarasi, ular bilan Hudhud o‘rtasidagi savol-javob epizodlarida berilgan. Navbatdagi savol-javob insof haqida. Bu boradagi Navoiyning fikrlari Hudhud javobida quyidagicha ifoda etilgan: Odamiyg‘a yaxshi ko‘p avsof erur,

*Lek alarning ashrafi insof erur.
Kimgakim insof yo‘q – inson emas.
Munsiz atvorida juz nuqson emas. [2;67-b.]*

Shoirning fikricha, kishining o‘z nuqsonini tan olishi kelajakda turli xatolarga yo‘l qo‘ymaslik garovi va asl insoniy kamolot belgisidir.

“Mahbub ul-qulub” asarining uchinchi qismida turli foydali maslahatlar bilan birga Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribasining natijalari, xulosalari keltirilgan. Navoiy yuksak insoniy fazilatlrni targ‘ib etish bilan birga, jamiyat uchun zararli, insonning sha‘niga putur yetkazadigan illatlarni fosh etadi. Ya‘ni, zamonasidagi zulmkorlik. behayolik, inson, uning qadr-qimmatining oyoq osti qilinishini qattiq qoralaydi.

Darhaqiqat, xalqimiz o‘z taraqqiyoti davomida erishgan va yaratgan madaniy boyliklardan, axloqiy qarashlar va qoidalardan unumli foydalanmasdan inson qadrini anglaydigan, yurtsevar, xalqparvar, yuksak ma‘naviy madaniyat egasi bo‘lgan yoshlarni kamolatga yetkazish mumkin emas.

Alisher Navoiy haqiqiy kishilik axloqi oddiy insonlarga xos axloq ekanligini isbotlab, Vatanga muhabbatni chin insoniylikning, ma‘naviyatning asosiy mezonini bo‘lgan insonparvarlik namunasi deb hisoblaydi:

*“Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshiga,
Ikki jahoniga qilsalar fazo
Hosil et, ushbu ikkisidan rizo.
Tun-u kunga aylagali, nurposh,
Birisin oy ayla, birisin qo‘yosh,
So‘zlaridan chekma qalam tashqari
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari,
Bo‘lsin adab birla bori himmating,
Ham qil adab «dol» kabi qimmating, deydi shoir” [6;102-b.]*

Xalqimizda ota-onaga bo‘lgan hurmat, uni e‘zozlash, ulug‘lash hamisha yuqori darajada bo‘lgan, bu esa ma‘naviyatimizning qay darajada yuksak bo‘lganligini ifodalaydi.

Muhokama va natijalar. Alisher Navoiy butun umri davomida xalqparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari yuksak badiiy mahorat bilan umrboqiy asarlarida ifodalash bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyatida millat va davlat ravnaqi yo‘lida tinimsiz faoliyat olib bordi. Navoiy insonga, xalqqa, vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini o‘z ijodi va ijtimoiy faoliyatini mag‘zida ifodaladi. U o‘z zamonasidagi zulm va qashshoqlik iskanjasida qolgan xalqni ulug‘lab, umuminsoniy fazilatlarini targ‘ib etish bilan, xalqni baxtiyor qilish yo‘lida, butun vujudi bilan kurash olib bordi. Ulug‘ allomaning yaratgan buyuk san‘at asarlari va bunyodkorlik faoliyatida Vatan obodligi, ravnaqi hamda unda yashovchi xalq manfaatlarini qattiq himoya qilib, uning tafakkurini yuksaltirishdek noyob uygunlikka erishdi.

Shoir e‘zozlagan umuminsoniy qadriyatlar dunyodagi barcha xalqlarning manfaat va intilishlariga mos kelishi bilan juda qimmatlidir. Aynan ilm-fanni rivojlantirish, qashshoqlikka barham berish, vatan

obodligiga erishish, inson qadrini yuksaltirish, yer yuzida tinchlikni saqlash bugun umumbashariy qadriyat bo'lib, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning bu boradagi xizmatlari cheksiz g'urur va iftixor ramzi sifatida ulug'lanib, milliy tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarning merosi bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish o'zlikni anglashning zarur sharti bo'lib, bu borada Alisher Navoiyning ulkan ma'naviy merosi, bunyodkorlik g'oyalari biz avlodlar uchun bitmas-tuganmas xazina bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy insonning ichki dunyosi, to'yg'ulari, tafakkuri, odob-axloq kamolotini olamdagi ma'naviy borliqning qo'yoshi, yulduzi oyi, mevali daraxtlari, chiroyli gullariga taqqoslaydi. Inson xulqining go'zalligini faoliyatning ko'rinishlariga, tabiat saxovatlariga, hodisalariga va boshqalariga taqqoslab, inson tabiatidagi o'zgarishlarni agar u salbiy bo'lsa, tabiatning kulfat keltiruvchi kuchlariga, ijobiy bo'lsa, tabiat go'zalliklariga qiyoslaydi. Insonning ulug'ligini, fazilatlarini so'zni o'z o'rnida ishlata bilishi bilan belgilab, inson uchun zarur bo'lgan xislatlar kamtarlik, saxovat, oliyhimmatlik, do'stlik, to'g'riso'zlik kabi fazilatlarini madh etadi va bir qancha salbiy sifatlarini qoralaydi.

Shoir asarlaridagi ko'pgina baytlar hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan. Mutafakkirning hikmatli so'zlari xalq maqollariga aylanib ketgan. Masalan:

*“Kimki ulugroq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shavqat kerak.
(Kattaga hurmatda, kichikka izzatta bo'l).
Arzi hunar bo'lsa yigitlar ishi,
Qilsa ayon o'z hunarin har kishi.
(Yigit kishiga qirq hunar oz.)”* [6;43-b.]

Navoiy o'z zamonida siyosatda, ijtimoiy munosabatlarda va boshqaruvda insoniy bag'rikenglik ustuvor bo'lishiga da'vat etgan. Amal qilinayotgan qonunning ahamiyatini belgilashda insonparvarlik, insoniy bag'rikenglik eng asosiy mezon bo'lishi kerakligiga chaqirgan:

*«Nekim o'z qoshingda erur noravo,
Ulusqa ani ko'rma aslo ravo.
Yomonga jazo gar siyosatdurur,
Muruvvat – tariqi rayosatdurur».* [6;45-b.]

(Nimaniki o'zinga nisbatan noravo deb bilsang, uni xalqqa ham, aslo, ravo ko'rma! Yomonga jazo berish, garchi qonun va siyosat yuzasidan to'g'ri bo'lsa ham, ammo adolatli hukmdorning asl yo'li – shafqat va muruvvatdir).

Ta'kidlash joizki, o'zinga ravo ko'rmagan narsani boshqaga ham ravo ko'rma, degan tamoyil umuminsoniy qadriyatdir. Bu tamoyil Konfutsiy ta'limotida ham, qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da ham, Tavrot va Qur'onda ham uchraydi. Alisher Navoiy bu umuminsoniy g'oyani insoniyatga yana bir bor eslatadi.

Xulosa. Alisher Navoiy jahon adabiyoti tarixida asarlari chuqur donishmandlik va ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan sug'orilgan buyuk so'z san'atkorlaridan biri sanaladi. Mutafakkir shoirning hayot va inson haqidagi qarashlari asosan badiiy ijodiyotida murakkab allegoriyalar, simvollar, muayyan nazariy tushunchalarni ifodalovchi obraz-istilohlar vositasida yuksak darajadagi shoirona til bilan ifoda etilgan. Hazrat Navoiy yaratgan har bir asar insonni yaxshi xulqlar tomon yetaklaydi. Falsafiy teran fikrlar bilan sug'orilgan asarlaridan insoniyatning bahramand bo'lishi, xalq dardini ochib berishi barchamizni ogohlikka, ezgulik yo'lida adolat bilan yashashga, mehnat qilishga chorlaydi. Alisher Navoiyning hayoti davomida qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga va savodli bo'lishiga undashi, turli xil savobli va xayrli ishlari tahsinga sazovordir. Bugungi kunda komillikka erishgan insonni tarbiyalash eng muhim vazifa sanaladi. Bunda Navoiyning asarlarini o'z zamonimizga talqin qilgan holda yosh avlodni tarbiyalash, ularga ilm olish va uni o'zгалar bilan baham ko'rishni o'rgatishimiz kerak. Buyuk bobolonimiz yaratgan har bir asar xalqni rostgo'ylik, saxovatlilik, kamtarlik, nafsга bo'ysunmaslik, muloymlik kabi ko'plab yaxshi fazilatlarга chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati, Xo'jand, R.Jalil nomidagi davlat nashriyoti, 1997.
- (2). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, Yigirma tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. 1999, 110-bet.
- (3). Qayumov A. Hayrat ul-abror talqini. Toshkent, 1970.
- (4). Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1997.

(5). Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2021, 538 bet.

(6). Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (matn, sharh, nasriy bayon), Birinchi kitob, Toshkent, "Tamaddun", 2021, 400 bet.

(7). Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (hozirgi o'zbek tiliga tabdil), Toshkent, "Sano-standart", 2018, 192 bet.

**Fayzullayeva Obidaxon (GulDU "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrası professorı, filologiya fanlari doktori;
e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),**

**Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Guliston davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-kurs
magistranti; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)**

"ASIL VA KARAM" DOSTONI QAHRAMONLARI TAQDIRIDA DINIY MOTIVLARNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq folklorida motiv tushunchasi, diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Xalq dostonlaridagi diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlari masalasi Xorazm "Oshiqnoma" turkum dostonlari tarkibiga kiruvchi "Asil va Karam" dostoni misolida tadqiq etilgan. Diniy motivning o'ziga xos jihatlari, uning doston sujetidagi vazifasi, qahramonlar taqdiridagi o'rni va ifodalanish tarzi kabi jihatlarga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: motiv, epos, obrazlar parallelizmi, sujet, tugun, badiiy-estetik xususiyatlar, turkumlik.

Файзуллаева Обидахан (ГулГУ, профессор кафедры узбекской литературы, доктор филологических наук; fayzullayeva2016@yandex.ru),

Соатова Шахнозобону Фарход кизи (Гулистанский государственный университет, магистрантка 2-курса литературоведенического направления; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

МЕСТО И РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ МОТИВОВ В СУДЬБАХ ГЕРОЯХ ЭПОСА «АСИЛ И КАРАМ»

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие мотива в узбекском фольклоре, художественно-эстетические особенности религиозного мотива. Вопрос художественно-эстетических особенностей религиозного мотива в народных эпосах исследуется на примере эпоса «Асил ва Карам», входящего в состав «Ашик туркум эпоса» Хорезма. Акцентируется внимание на конкретных сторонах религиозного мотива, его роли в сюжете эпоса, роли в судьбах героев, способе его выражения.

Ключевые слова: мотив, эпос, параллельность образов, сюжет, узел, художественно-эстетические особенности, непрерывность.

**Obidakhan Faizullayeva (GulSU, professor of the department of Uzbek literature, doctor of philology;
e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),**

**Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Gulistan State University 2nd year master's student in literary studies;
e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)**

THE PLACE AND ROLE OF RELIGIOUS MOTIVES IN THE DESTINIES OF THE HEROES OF THE EPIC "ASIL AND KARAM"

Annotation. This article focuses on the concept of motive in Uzbek folk folklore, artistic and aesthetic features of religious motive. The issue of artistic-aesthetic features of the religious motive in folk epics is studied on the example of the epic "Asil and Karam", which is part of the "Ashiq" cyclicality epics of Khorazm. Emphasis is placed on the specific aspects of the religious motif, its role in the plot of the epic, its role in the fate of the heroes, and the manner of its expression.

Keywords: motive, epos, parallelism of images, plot, knot, artistic-aesthetic features, cyclicality.

Kirish. O'zining qadimiy va barqaror dostonchilik an'alariga ega bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy bisotida boy va rang-barang epik asarlar juda katta ko'lamni tashkil etadi. Ular ajdodlarimiz epik tafakkur taraqqiyotining eng yuksak cho'qqisini zabt etganligining isbotidir. Xorazm vohasida eng qadimdan keng tarqalgan, o'zining obrazlar sistemasi, voqealarni tasvirlash usuli jihatidan alohida guruhni tashkil etadigan ishqiy-sarguzasht dostonlar "Oshiqnoma" turkumi atrofida jamlanadi. Ushbu turkumga mansub "Asil va Karam" dostoni Xorazm o'zbeklari orasida juda keng ommalashgan. Ozarbayjon folklorshunosi M.X. Taxmasbning yozishicha, "Bu doston arman go'zali va ozarbayjonlik yigit Karam o'rtasidagi sof muhabbatning tarannumiga bag'ishlangandir" [1;20-b.].

Adabiyotlar tahlili. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati"da "Motiv sujet tarkibidagi halqalardan biridir", deyilgan. Sujet asar mazmunini tashkil etadigan voqealar tizimi bo'lsa, motiv shu voqelikni yuzaga chiqaruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu fikrga qo'shimcha qilib M.

Jo'rayevning fikrini keltirish mumkin: "Motiv (fr.motif – kuy, ohang so'zidan) sujet tarkibidagi uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biri. Motivlar o'zaro birlashib syujetni yuzaga keltiradi. Motiv termini xalq og'zaki ijodida, xususan, doston, ertak kabi katta epik janrlarni o'rganishda ishlatiladi". Badiiy asarning motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turlicha. V.Propp va B.Putilovlar motivlarning hamisha o'zgaruvchan ekanligiga, ular sujetning kichik bir bo'lagi bo'lgan holatda uning o'zi ham bo'laklardan tashkil topishiga e'tibor qaratadi. "Motiv sujetning mag'zidir", deydi B.Putilov [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq dostonlari uchun tanlangan ushbu motiv va uning o'ziga xos xususiyatlari, "Oshiqnoma" turkum dostonlari tarkibidagi "Asil va Karam" dostoni misolida tadqiq etilgan, chunki ushbu dostonida diniy motivning eng sara namunalari yaratilgan. Maqolada badiiy tahlil va chog'ish-tirma metodlardan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. "Oshiqnoma" turkum dostonlari xususida ilmiy izlanish olib borayotgan Gul-fiza Olimovaning ta'kidlashicha, ushbu turkum tarkibida keltirilgan motivlarni 8 ta guruhga ajratadi:

1. G'ayritabiiy tug'ilish motivi.
2. Tushda oshiq bo'lish motivi.
3. Tushda nikohlanish motivi.
4. Tushda eranlarning sharob berishi motivi.
5. Akalarning ukani chohga tashlashi motivi.
6. O'z qiziga oshiq bo'lish motivi.
7. Oshiqning otasiga sezdirmay ketish motivi.
8. Sehr qilish motivi [3;157-b.].

"Asil va Karam" o'zbek xalq eposlari orasida diniy motivlar keng o'rin olgan epik asarlardan biridir. Doston qahramonlarining taqdirida diniy motivlar ularga yordam beruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Diniy e'tiqoddagi tafovut doston sujetidagi asosiy tugun vazifasini bajaradi. Asarning asosiy diniy motivlari quyidagilardan iborat.

1. Farzandsizlik sabab xudodan farzand so'rash. Ma'lumki, adabiyotda sayyor sujet tushunchasi, ya'ni, barcha xalqlar adabiyoti, xususan, dostonchilik uchun ham asos bo'luvchi o'xshash sujet nuqtalari mavjud. Bu hodisa bevosita xalq og'zaki ijodiga ham tegishli bo'lib, asosan, motivlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "Alpomish" dostonini olaylik. Doston farzandsizlik voqealari bilan boshlanadi. Lekin aynan shu hodisa "Kuntug'mish", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Tohir va Zuhra" dostonlarida ham bor. Shuningdek, "Asil va Karam" dostoni ham hukmdorning farzandsizlik va shu sababdan hazrati Alining qabriga borib ibodat qilish voqealari bilan boshlanadi:

*Ziyodxon aytadi: yo Ali imom
Bandaning ko'nglidan ketmasin gumon
Avvalda imondur, oxirda imon
Shoyad biza farzand ber deb yig'larman [4;20-b.].*

2. E'tiqodlar tafovuti. doston sujetidagi tugun asosini o'zaro ikki millat o'rtasidagi diniy tavofutlar tashkil etadi. Bosh qahramon Karam musulmon yigit, Asilxon esa armani millatiga mansub o'zga din vakili. Asilxonning otasi Qoramalik esa qizini o'zga din vakiligiga berishni istamaydi va qirq mingli uyli armani Ganjiqorabog'dan ko'chib ketadi. Aynan shu sabab tufayli oshiqlar birga bo'lish yo'lida azob-uqubatlarga uchraydilar.

*San mango yor bo'lsang birga ketali
Qozidin, muftidin nikoh olali,
Har din qabul bo'lsa shungo kirali,
Yo san musulmon bo'l, yo man armani. [4;21-b.]*

yoki:

*Ka'baga borganlar etarlar tilak,
Qahbo falak qo'ymas shod etib kulmak,
Osmon falak, armonlisan dod falak,
Yuz dog'im bor, ming dog' qo'yding ustina [4;21-b]*

3. Ritual va marosimlar. Xalq dostonlarida, xususan, "Asil va Karam" dostonida ham diniy marosimlar, nikoh, duo qilish, qurbonlik keltirish kabi amallar tasvirlanadi. Ular orqali xalqning urf-odatlarini va diniy an'analari ifoda etiladi.

4. Sabr va qanoat. Diniy motivning ushbu jihati doston qahramonlarining har ikkisida ham teng miqyosda yuzaga chiqadi. Ularning har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishi e'tiqodga bo'lgan ishonchidan kelib chiqadi, lekin bu qarash asarda parallel ravishda emas, balki galma galdan namoyon bo'ladi. Bu

esa ular uchun diniy jihatdan kuchli ruhiy tayanch hisoblanadi. Karam – podshohning o‘g‘li. Otasi unga Asilxonning izidan yurmaslikni, unga istalgan go‘zal qizni olib berajagini aytadi. Lekin Karam majolsizlikdan qor ostida qolib, uni o‘z yurtiga ketayotgan savdogarlar topib olganda ham, ular bilan Ganjiqorabog‘ga ketishni istamaydi. Asilxonni bir bora ko‘rish istagida sog‘ tishlarini sug‘urtririshga ham rozi bo‘ladi.

*Yorim ko‘r madim vafoni,
Surmadim zaq-u safoni,
Ul Muhammad Mustafoni,
Ko‘ribam so‘ngra o‘lsaydim.*

5. Axloqiy qadriyatlarini qadrlash va sadoqat. Qahramonlar rostgo‘ylik va sadoqat kabi diniy va axloqiy sifatlarni o‘zida tarbiyalab, bu qadriyatlarini o‘z taqdirida qo‘llashga harakat qiladi. Bu jihat asar yakunida Karamning fojiviy o‘limidan so‘ng ham unga 40 yil sadoqat ila qori Qur‘onlar qo‘yib, o‘zi toat ibodatlariga mashg‘ul bo‘lgan Asilxonning taqdirida namoyon bo‘ladi. O‘limi oldidan ham hazrati Aliga nola qilib, undan Karam vasliga yetishtirishini so‘raydi:

*Musofirman bu shaharni naylayin,
Pirim sizdan Karamjonni tilarman.
Pojim yo‘q dardim kima so‘zlayin
Pirim sizdin Karamjonni tilarman [4;51-b.]*

yoki:

*Man tilarman sannan barcha gunohim,
O‘zingdursan hamma joyda panohim,
Qabul etgil munojotni Xudoyim
Rasululloh madad berar kuningdur.*

Xulosa. Xulosa qilib aytganda diniy motiv xalq dostonlarida nafaqat sujetni boyituvchi, balki xalqning e‘tiqodiy va ma‘naviy dunyosini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular insoniyatni axloqiy qadriyatlarini asrashga va yuksak ma‘naviyat sari intilishga chorlaydi. “Asil va Karam” dostoni o‘zining hayotiyli, do‘stlik, birodarlik g‘oyalarni targ‘ib qilishi, sevgi-muhabbatning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tomonlarini ochib berishi, vafodorlik, fidoyilik, taqdir taqozosiga bo‘ysunmaslik kabi qator ijobiy hislatlarni ulug‘lashi bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu dostonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda boshqa ishqiy-romantik dostonlardagi kabi oshiq-ma‘shuqalarning murod va maqsadlariga yetishishi emas, balki ikki sevishtan yoshning fojiali hayoti tasvirlab beriladi. Aynan ushbu tendensiyalarning keng miqyosda ochib berilishi va yuzaga keltiruvchi muhim jihatlardan biri bu diniy motiv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Taxmasb M. Ozarbayjon muhabbat dostonlari. Toshkent, 1973, 20-bet.
- (2). Путилов Б. Мотив как сюжетобразующий элемент. Типологическое исследование по фольклору. М., “Наука”, 1975.
- (3). “Global ta‘lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi VII an‘anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T., 2024, 26-aprel, 157-bet.
- (4). Oshiqnoma. To‘plam. 8-kitob, Urganch, UrDU noshirlik bo‘limi, 2019.
- (5). To‘ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik, 2-tom, T., “Fan”, 1992, 26-bet.
- (6). Кодуэлл Кристофер. Иллюзия и действительность. Москва, “Прогресс”, 1969, с. 274.
- (7). Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. Москва, “Прогресс”, 1978, с. 258.

Садуллаева Нилуфар (преподаватель английского языка Узбекского государственного университета мировых языков)

ОРАЛЬНАЯ РЕЧЬ: ПРОБЛЕМЫ И ТЕОРИИ

Аннотация. В статье устная речь – один из наиболее естественных и распространенных способов человеческого общения. Однако, несмотря на кажущуюся простоту, это сложный процесс, связанный со многими факторами. *Говорение: искусство живых слов. Объясняются проблемы и предложения использования устной речи в общении.*

Ключевые слова: устная речь, интеграция, мышление, говорение, новости, дикция.

Sadullayeva Nilufar (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti ingliz tili o‘qituvchisi)

O‘G‘ZAKI NUTQ; MUAMMOLAR VA NAZARIYA

Аннотация. Мақоллада og‘zaki nutq insoniy muloqotning eng tabiiy va keng tarqalgan usullaridan biriligi. Biroq ko‘rinadigan soddaligiga qaramay, bu ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ja-

rayonligi. Og‘zaki nutq: jonli so‘z san‘ati. Muloqotda og‘zaki nutqning ishlatish muammo va takliflari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, integrasiya, fikrlash, gapirish, yangiliklar, diksiya.

Sadullaeva Nilufar (English teacher at Uzbekistan State World Languages University)

ORAL SPEECH; PROBLEMS AND THEORY

Annotation. *Oral speech is one of the most natural and common ways of human communication. However, despite its apparent simplicity, it is a complex process that is related to many factors. Speaking: the art of living words. The problems and suggestions of the use of oral speech in communication are explained in the article.*

Key words: *Oral speech, integration, thinking, speaking, news, diction*

Оральная речь – это один из самых естественных и распространенных способов человеческого общения. Однако, несмотря на свою кажущуюся простоту, она представляет собой сложный процесс, связанный с множеством факторов. Оральная речь: искусство живого слова

Оральная речь – это не просто набор звуков, это мощный инструмент общения, способный убеждать, вдохновлять и соединять людей. Она играет ключевую роль в нашей повседневной жизни, от бесед с близкими до публичных выступлений.

